

Iblis devori (qissa)

Tohir Malik

MUALLIFDAN

Bir mamlakatga gʻanim hujum qilib, ikki aka-uka jangga otlanishibdi. Ular singillarini insof egasi hisoblangan bir tanishlariga qoldiribdilar. Qiz juda goʻzal ekan, u kishiga iblis vasvasa qila boshlabdi. Oxiri u odam gunohga botibdi-yu, “akalari kelsa nima deb javob qilaman?” deb qoʻrqibdi. Iblis “Qizni oʻldir-da, ogʻilxonaga koʻmib qoʻy, akalari kelganda “singillaring qochib ketdi”, deysan”, deb oʻrgatibdi. Shunday ham boʻlibdi. Akalar ajablanib turishganda iblis ularga boʻlgan gapni aytib beribdi, qiz koʻmilgan joyni koʻrsatibdi. Podshoh u odamni oʻlimga hukm qilibdi. Zinokor boʻyniga sirtmoq tashlanganida yana iblis paydo boʻlibdi. “Sen meni shu ahvolga solding!” debdi u odam nafrat bilan. “Sen mendan oʻpkalama, istasang seni oʻlimdan olib qolay. Shartim shuki, menga bir martagina sajda qilasan”. “Qanday sajda qilaman, boʻynim sirtmoqda-ku?” debdi u odam. “Sen menga sajdani niyat qil-da, boshingni men tomon egsang bas”, debdi iblis. Odam iblisning aytganini bajarib, boshini u tomon egib sajda qilgan ekan, sirtmoq tortilib, boʻgʻilib oʻlibdi - dunyodan iymonsiz ketibdi.

Ha, iblis barchani shunday vasvasaga solib, yoʻldan chiqarmoqni istaydi. Uning oʻz olami bor. Baʼzilar “toʻgʻri yashayapman”, deb oʻylashadi-yu, biroq, shaytanat olamiga kirib borayotganlarini, oqibat esa iblis sirtmogʻiga tushib qolganlarini sezishmaydi. Yozuvchi Tohir Malikning “Shaytanat” asari kitobxonlarni shayton boshqaruvchi olam bilan tanishtirgan edi. Soʻng “Shaytanatning turfa olami” turkumida “Murdalar gapirmaydilar” kitobi nashr etilgan edi. Bu asarlarda ashaddiy jinoyatchilar hayoti qalamga olingandi. Shaytanat - faqat qotillar yoki oʻgʻrilar olami emas. Iblis har bir odamning ruhini parchalab, oʻz olamiga tortishga urinaveradi, yaʼni insonning maʼnaviy olamini bulgʻashga intiladi. Oqibatda kimlarningdir maʼnaviy olami qashshoqlashadi-da iblis taqdim etgan olamga kirib boradi. Ammo u oʻzini zinhor jinoyatchi hisoblamaydi. Holbuki... ruhlarni azobga qoʻyish ham jinoyatdir.

“Bir qoringa siqqan bolalar bir hovliga sigʻishmaydi...” Bu maqolda qanchalar haqiqat bor? Ota-ona vafotidan keyin nima uchun farzandlar yuzkoʻrmas boʻlib ketadilar? Shaytanat olamiga kirib qolganlari uchun emasmi? Ota-onalari ruhi azob chekishini nechun oʻylamaydilar? Yozuvchi Tohir Malik mazkur yangi asarida siz, aziz kitob muhlislarini shu mavzuda bahs yuritishga daʼvat etadi. Kitobga yozuvchining yangi yozgan hikoyalari bilan birga qayta tahrirdan chiqqan bitiklari ham jamlandiki, bularda ham iblis yetovidagi yoki undan nafratlanuvchi insonlar obrazi gavgaldanadi.

QISSA

Bismillahir Rohmanir Rohiym.

Bizlarni inson qilib yaratgan va imon gavhariga musharraf etgan mehribon Alloh taologa behad hamdu sanolar boʻlsin!

Olamlarga rahmat boʻlib kelgan sevimli, mushfiq paygʻambarimiz hazrat Muhammad mustafoga salotu salomlar yoʻllaymiz. Assalomu alaykum, ardoqli kitobxon!

Shukrlarkim, mazkur kitob sahifalari orqali Alloh siz bilan diydor koʻrishmoqlikni nasib etyapti. Bu safargi gʻoyibona uchrashuvimiz barchalarimizni baʼzan oʻylantirayotgan, baʼzan esa tashvishga solayotgan mavzu - aka-ukalar munosabati xususida boʻladi., insha Alloh!

Siz kabi men ham bu masalada koʻp fikr yuritaman. Oʻzimga oʻzim koʻp savollar beraman, javobni esa yo topaman yo topolmayman.

...Insoniyat tarixidagi birinchi xusumat aka va uka orasida boʻldi.

...Birinchi qotillik ham shunday: Qobil ukasi Hobilning qonini toʻkdi.

Alloh! Alloh! Nahot bu yovuzlik to qiyomatga qadar Odam bolalariga meros boʻlib qolsa?! Oʻzing asragin, rahm egasi Allohim!

Yusuf alayhissalomning akalari ul Zotni oʻlimga topshirishni ixtiyor etdilar.

Alloh! Alloh! Odam bolalari nahot bu hodisadan ibrat olmaslar?! Tavfiq ber, karam egasi Allohim!

Kenja botirning akalari ham uning oʻlimini istaydilar. Ertaklar olami bu yovuzlik bayoniga bekorga oʻrin bermagandir.

Alloh! Alloh! Nodonlik tufayli tugʻiluvchi zulm nahot ertakdan hayotga koʻchishini toʻxtatmasa?! Vijdon ber aliym egasi, bilguvchi Allohim!

Qadimda ekinzoru bogʻlarni jonivorlardan ixota etmoqqa xizmat qilgan devorga endi iblis aka-ukalarni ajratish vazifasi yukladi. Loy yoki taxta devorlarga chidash mumkindir, ammo qalblarni qalblardan ajratuvchi nifoq devorlariga qanday chidaymiz?

Bayonimiz shuhaqda.

Bu asarni oʻqib, siz qahramonlar orasida balki oʻzingiz, balki aka yoki ukalaringizga oʻxshaganlarni ham uchratarsiz. Ajablanmang. Men bu asarni oʻz qusurlarimizni oʻzimizga koʻrsatib bera oluvchi koʻzgu boʻlmogʻini orzu etib yozdim. “Basharang qiyshiq boʻlsa, koʻzgudan oʻpkalama”, deganlaridek ogʻrinmasdan oʻzimizga qaraylik.

Umid ulkim, kim bunda oʻz aksini koʻrsa imon sari yuzlangay.

Yana umid ulkim, aka-ukalar orasidagi devorlar mahv etilgay, insha Alloh!

Mazkur asarda nobop oila hayoti misol sifatida olindi. Bundan hamma shunaqa ekan, degan notoʻgʻri xulosa chiqmasin. Allohga shukrkim, ahilligi bilan ibrat boʻluvchi fayzli oilalarimiz juda koʻp. Biz bu oilalar fayzini yanada barakali qilib berishini Allohdan soʻraymiz. Yana duolar qilamizki, iblis toʻrlariga burkanib qolgan oilalarning bu bandilikdan tezroq ozod boʻlishlarini, hidoyat yoʻliga kirib, ittifoqda yashamoqliklarini Alloh nasib etsin.

Yo Rabbim! Sendan xayrli oqibat umid qilamiz.

Tun.

Qabriston.

Sukunat.

Foniy dunyoning azobu tashvishlaridan qutulib bunda yotganlarning oromini buzmaslik uchun shabada ham oralamaydi. Daraxtlarning barglari qaygʻuli jimlik hukmida oʻlimlarini kutadilar. Kuz oʻzining sovuq nafasi bilan ularning peshonalaridan bir-bir oʻqib, aldabgina jonini oladi-da, qabrlar uzra toʻshaydi.

Subhi kozibda qabriston bir oz qoʻrqinchli, shuning barobarinda bir oz ajablanarli manzara chodiriga oʻraladi. Qay bir qabr tepasida shaffof nur, qay biri ustida kirlangan dud koʻrinadi. Dud oʻrlayotgan qabr ostidan hasratli ovozlar keladi:

-Dadasi, bolalarimiz nega bemehr boʻlib qoldilar?

-Bilmayman, onasi.

-Yuzkoʻrmas boʻlib ketishsa-ya?

-Endi kech, onasi...

-Bir qoringa siqqan, katta hovliga sigʻishmaydimi?

-Taqdir shu ekan, onasi.

-Taqdir? Goʻrdagi azoblarimiz kammidi? Agar hovlini ikkiga boʻlib devor olishsa ruhimiz battar nimta-nimta boʻlmaydimi?

-Taqdir, onasi... bizning mukofotimiz shu ekan...

Goʻrdan azobli nola eshitiladi... Nola soʻppayib turgan qabrtoshlarga urilib, aks-sado beradi-da, soʻng goʻyo qabristonni silkitib yuborganday boʻladi. Goʻyo qiyomat boshlangandek...

Chap tomonini bosib yotgan Ibrohim bosinqirab, uygʻondi. Yuragining zarbli urishi uyqusida zilzila boʻlib tuyulgandi. U koʻrgan tushi taʼsirida bir oz harakatsiz yotdi-da, keyin tirsagiga tayanib, qaddini koʻtardi. Koʻrgan tushi bandiligidan ozod boʻlolmay bosh egganicha bir oz oʻtirdi. Keyin kalta soqolini silab “astagʻfirulloh”, deb qoʻydi-da, irimga amal qilib, oʻng tomoniga qarab “tuf-tuf” deb qoʻydi.

Alloh iblis alayhilaʼnaning “menga bir masjid lozim”, degan talabiga binoan unga bozorni berdi. Iblis oʻziga ibodatxona uchun tayin etilgan bozorning qiyomat nafasi sezilib qoladigan zamonlarga kelib gʻoyat obod boʻlishini balki orzu ham qilmagandir. Ehtimolki, kazzoblarning koʻpligidan iblis bu masjidiga baʼzan sigʻmay qolib, oʻz

xizmatining mahsuliga tashqaridan turib maftun boqalayotgandir. Bu holat faqat Allohgagina ma'lum, bandasi qaydan bilsin?

Toqlin ham ana shunday bandalarning biri. Bir necha kundan beri bozorni, uning atrofini kuzatib yurgani bilan bundagi shayton amallariga ahamiyat bermaydi. Tarozidan urib qolayotganlar, ketmon ushlash qanaqaligini bilmay turib "men dehqonman", deb ont ichayotganlar uni qiziqitirmaydi. Unga mashina qulfini buzib oqgqirlik qilayotganlarni topish va tutish topshirilgan.

Qamoqdagilarning gunohlari kechirilib, avfi umumiy e'lon qilinganda hamkasblaridan biri "Endi uyga bormay tunu kun ishlaydigan boqldik, qamoqdan malakasini oshirib chiqqan oqgqilar endi hunarlarini koqrsatishadi", deganda farishtalar "omin" deb yuborishgan ekan, oqgqri jafosidan nolib shikoyat qiluvchilar koqpaygandan koqpaydi. Toqlin ilgari ham mashina oqgqilarini tutgani uchun bu vazifa unga yuklatildi. Bir necha kunlik kuzatuv natijasi va hufyalarining ma'lumotlarini qoshgan holda aniq bir xulosaga kelib, reja ishlab chiqdi.

Koqchadan balandroqda joylashgan beshikchi ustaxonasiga kelib, oqzini tanishtirganda bozor endi qiziy boshlagan edi. Videotasvirchiga suratga olish uchun mos joyni koqrsatgach, ustadan hozir koqradigan voqeasiga xolis guvoh boqlishini soqradi.

-Yoq-oq, - dedi usta bosh chayqab.

-Nega? - deb ajabladi Toqlin, - Shu yerdan turib koqrganingizni tasdiqlaysiz xalos.

-Yoq, - dedi usta, keyin unamagani sababini hazil ohangida tushuntirgan boqldi:- Birovning shoqrini quritadiganga oqxshaysiz, bunaqa ishga meni aralashtirmay qoya qoling, aka, - Usta Toqlinning chehrasi tundlashganini koqrib, hijolatlik bilan koqshib qoydi:-Endi bu bir gap-da...

Toqlin ustaning "birovning shoqrini quritish" haqidagi gapidan ranjimadi. U bundan battarlarini, hatto haqoratomuz gaplarni ham yetarlicha eshitgan. Eshitganlari bir necha kungacha yuragini timdalab azob berib yurgan. Afsuski, alamli soqzlarning yurakka chandiqlik solishi koqzga koqrinmaydi. Koqrinsami edi, koqp odamlarning yuraklari faqat chandiqlikdan iborat ekaniga guvoh boqlinardi. Toqlin oqz kasbiga doir haqoratga moyil gapni otasidan ham eshitgan edi. Harbiy xizmatdan qaytib militsiya maktabiga hujjat topshirganini aytganida otasi avval ajblangan, soqng achchiqlanib: "Shu ham ish boqptimi? Milisani birov odam qatorida sanamasa-yu, sen shunga intilsang, kimyodagi teskari reaksiyaga oqxshayapsan", degan edi. Uning fikricha, kimyogar olimning oqgqli ota kasbini tanlagani ma'qul edi. "Sen oqqiyyer, olim boqlmasang, biron maktabda oqqituvchilik qilarsan", dedi. Toqlin esa "Oqzim qiziqmagan fanga bolalarni qiziqitira olmayman, qiziqmaganimdan keyin oqzim ham oqrganolmayman. Oqrganolmaganimdan keyin bolalarni ham oqrgata olmayman", dedi. Otasi noiloj edi. Toqy harakati boshlanganida sovchi borgan bir-ikki xonadondan "milisiga qiz bermaymiz", degan javob eshitilgach, oqgqliga "senga aytmabmidim?" ma'nosidagi qarashlar ham yurakni timdalagan edi.

Beshikchi ustaning hozirgi gapiga e'tibor qilmasa boqlardi. Lekin javobsiz qoldirgisi ham kelmadi.

-Agar ustaxonangizni o'g'ri ursa-yu, biz o'g'rini qamasak, kimning sho'ri qurigan bo'ladi?

-E, akaxon, sovuq nafas qilmang, o'g'ri bizlardan nari yuraversin.

-Bu ham bir gapda... O'g'ri sizdan nari bo'lgani bilan sherigingizning sho'rini quritadi. Boshqa iloji yo'q, kasbi shunaqa. Sizing bozoringiz kasod bo'lsa boshqa hunar qilasiz. Ular boshqa hunar qila olishmaydi. Chunki ularning bozori hech qachon kasod bo'lmaydi.

-Ularning urug'ini quritib tashlash kerak.

-Qani, quritib ko'ring-chi?

-Nega men quritaman? Mening ishim mana, beshik, belanchak, arg'imchoq. Sizing ishingiz ana, ularniquritish.

-Mening ishim shu, bilaman, lekin men ularni qurita olmayman.

-Siz shunaqa deb tursangiz, ishlar "besh" ekan.

-Men bo'ladigan gapni aytyapman. O'tmishda qanchadan qancha o'g'rilarni ushlab, qo'llarini kesib tashlashgan-a, nega shuncha zamonlardan beri ularning urug'i qurimadi?

To'lqin beshikchi ustaga gapirayotgani bilan ko'zlari katta ko'cha tomonda edi: ana, zira sotuvchi bola ko'rindi. To'lqin unga kuzatuvining birinchi kunidayoq e'tibor bergan edi. U yo'l chetida to'xtagan mashinaga ildam yaqinlashadi. Ko'zlari javdiraydi. Bozorga kiraverishdagi gumbaz yonida esa uch yigitcha o'tiribdi. To'lqinning gumoni shularda. U ishni boshlash vaqti yetganini fahmlab, aloqa ratsiyasini qo'lga oldi. Nimadir demoqqa og'iz juftlagan usta gapini yutib, qo'shni do'kon tomon o'tmoqchi edi, To'lqin bir imo bilan uni to'xtatdi-da, so'ng ratsiyani og'ziga yaqinlashtirib, past ammo qat'iy ohangda "Boshlayapmiz", deb buyurdi. Keyin:

-Birinchi reja bo'yicha ishlaymiz. Hammaning diqqati zira sotuvchi bolada, - deb ilova qildi.

Qo'shni tomonga otlangan ustaga esa xolis guvoh sifatida kuzatishni yana bir bor iltimos qildi. Bu safar usta gapni ko'paytirmay To'lqin ko'rsatgan tomonga qaradi.

Zirafurush bola ota kasbini davom ettirib bozorga chiqqan edi. Otasi oshnalari bilan ulfatchilik qilib o'tirganda bir piyola aroqni ichibdi-yu, "qudratlisan, hayot!" deb jilmayib qo'yib, jon beribdi. Oshnalari avvaliga hazillashyapti, deb o'ylab uning qilg'idan miriqib kulishibdi. Keyin qarashsaki... yoz chillasida ichilgan muzdek aroq vazifasini bajarib bo'lgan ekan.

Zirafurushlar marhumning hurmatini qilib, o'n oltini qoralayotgan o'g'lini yonlariga olishdi. Sifatsiz, biroq arzon zirani xaltaga solib ko'chada sotib yurganida o'zidan

kattaroq uch bola uni tor ko'chaga olib o'tib biqiniga uch-to'rt musht tushirishdi-da, har kuni cho'tal berib turishga ko'ndirishdi. Shartni bajarib yurganida yangi topshiriq berishdi. Topshiriqni bajargach, endi ularning o'zlari cho'tal uzatishdi. "Endi sen bizga sheriksan!" deyishdi. Cho'tal berib yurish qayda-yu, sherik bo'lish qayda!

U bozorga kiraverishda to'xtayotgan mashinalarga tezgina yaqinlashib zirasini maqtar, ziyrak nigohi esa bir zumda ichkarini taftish qilib chiqardi. Ichkarida tuzukroq narsa ko'rmasa mashina egasini zira olishga qistayvermay, nari ketardi.

Bugun omadi keldimi, yap-yangi oppoq "Neksiya" shundaygina yoniga kelib to'xtadi. U odati bo'yicha shoshilib xaltasini ochdi-da, bir chimdim zira oldi:

-Amak, zira olaman, desangiz ichkari kirib ovora bo'lib yurmang. Ziraning dodaxo'jasini bizda!-deb turib yon o'rindiqdagi jigarrang diplomatga ko'z tashladi. Yuragi nimanidir sezdi, hatto ko'ngliga xushnudlik oralaganday bo'ldi-da, maqtovini davom ettirdi:

Mashina egasi eshikni qiya ochib, bir oyog'ini pastga tushirdi. Keyin bola uzatgan zirani kaftida yoyib ko'rgach, hidladi-da, aftini bujmaytirdi:

-Shuni zira deb yuribsanmi? Odamni harif qilma, bola, qarg'a cho'qqigan zirangni buvingning eriga olib borib sot. Bor, jo'na!

Bola sifatsiz zirani olib borib sotishi lozim bo'lgan buvisining eri kim ekanini o'ylab ham o'tirmay, mijozni qo'ldan chiqarmaslik uchun bilagidan ushladi:

— I-i, to'xtang, amak, ziraning farqiga borar ekansiz, bu yoqda zo'ridan bor. Mana buni ko'ring.

Boshqa xaltachadan olingan zira avvalgisidan farq qilmasa-da, xaridor bo'lmish:

-Ha, buning sal durust. Ziraning dodasimasu kepak bahosiga olsa bo'ladi, - dedi.

-Yerga urvormang, amak, oling, narxini kelishtirib beraman.

-Bo'пти, bitta stakanchada ber.

-Uch ming bo'ladi.

-Uch ming qanaqa bo'lishini ko'rganmisan o'zing? Senga ming so'm ham yetadi.

-Amak, moshinni dodaxo'jasidan olibsiz, suyunchisini ham qo'shib bering unda.

-Yoqdimi? Zo'rini olibmanmi? Shunaqa, men hamisha molning zo'rini olaman.

-Qanchaga tushdi amak?

-Qanchaga deysanmi? Sen mishqi bunaqa mashina olish uchun ming tonna zira sotishing kerak. Menga qara, bola paqir, bozorga kirib chiqqunimcha mashinaga qarab tur. Suyunchini o'shandan keyin olasan. Uzoqqa ketma, hali signalizatsiya o'rnatilmagan, - mashina egasi shunday deb yonidagi diplomatni ochdi. Undagi taxlam pullarni ko'rgan

bolaning koʻzlari chaqnab ketdi. Iblis uning vujudiga quvonch nafasini ufurdi. Taxlamdan bir qancha pul ajratib olgan mashina egasi pastga tushib yukxonani ochdi-da, diplomatni qoʻydi. Bu onda zirafurush gumbaz yonidagi sheriklariga qaradi. Ularning koʻzlari ham shu tomonda ekanini bilib, koʻngli hotirjam boʻldi. Mashina egasi ulovga qarab turishni yana tayinlab gumbaz tomon yurdi. Uning bozorga kirishga yaqinroq boʻlgan eshikdan kirmay gumbaz darvozasi sari yurishi kuzatayotganlarni ajablantirmadi. Zirafurush sheriklariga qarab “laqma” degan ma’noda quloq qoqib qoʻydi. Uch yigitcha unga javoban jilmayib qoʻyishdi. Ulardan biri mashina egasining ortidan yurdi. Uning ikkita xalta sotib olib, xarid qila boshlaganini koʻrgach, iziga qaytdi. Soʻng uchchovlashib oq “Neksiya” tomon yurdilar.

...oqmashina.

...yukxonasida pul.

...koʻpgina pul.

...egasi laqma. Qoʻyni boʻriga ishonib tashlab ketdi. Bir ozdan keyin dod-voy deydi, sochlarini bittalab yuladi.

...ana, tomosha!

Iblis ularning ongini shu yoqimli fikrlar bilan band etgan edi.

Beshikchining ustaxonasidan ularning harakatlarini kuzatayotgan Toʻlqin ratsiya orqali buyurdi:

-Qoʻlga olish guruhi, shaylaning. Diplomatni olib, yukxonani yopmagunicha tegmay turing.

Beshikchi usta aytmoqchi, shoʻring qurgʻurlarning shoʻrining qurishi bir daqiqaga qolmay hal etildi.

Yukxona ochildi.

Diplomat olindi.

Baquvvat yigitlar qurshovida qolgan oʻgʻri bolalar sayyodning toʻriga tushgan kabutarlar kabi ilojsiz edilar. Yoʻq, ilojlari bor edi: soʻnggi choralari - oʻzlarini zoʻravonlar dastidan nohaq azob chekayotgan qilib koʻrsatib faryod urish. Qoʻllari qayrilishi hamon uchchovi kelishib olganday baravariga ohu-dodlarini boshlashdi. Sal narida ularni kuzatib turgan zirafurush bola vaqtini gʻanimat bilib qochmoqqa shaylanganida bilagini kimdir mahkam ushlab, siqdi. U orqasiga oʻgirilib mashina egasini koʻrdiyu tili gapga kelish u yoqda tursin, ovozi ham chiqmadi.

-Hali zirangni sotib boʻlganing yoʻq-ku, yoʻl boʻlsin, zirafurushlarning dodxoʻjasi!-shunday deb yigitchaning bilagini yanada mahkamroq siqdi. Bilagi temir iskanja orasida majaqlanib ketganday tuyulgan bola baqirib yubordi.

To'rt yigitchaning yordam ilinjida baqirishlari tekin tomoshaga muhtoj bozor ahlini bee'tibor qoldirmadi. "Bolalarni qiynamalaring, qo'yib yuborlaring", deguvchi dastlabki mehribonlar tilga kirgan paytda videotasvirchini ergashtirgan To'rlqin mashina yoniga yetib kelgan edi. U o'zini tanishtirganidan keyin ham mehribonlik to'rlqini pasaymay avj ola berdi. O'n yillar ilgari rasmdan qolib ketgan ingichka, olachipor galstuk taqib olgan ziyolinamo odam og'ziga kelgan gapni qaytarmay avjga chiqa boshlagach, To'rlqin ham ovozini balandlatdi:

-Rahmingizni keltirayotgan mana shu to'rt bola hozirgina shu mashina yukxonasini ochib pul to'la diplomatni o'g'irlashdi.

-Avval buni isbotlash kerak. Guvohlar bormi? - dedi himoyachi, bo'sh kelmay.

-Ana, - To'rlqin shunday deb videotasvirchini ko'rsatdi. - Agar bu sizga kamlik qilsa yana ikki xolis guvohimiz ham bor. Huquqni yaxshi biladiganga o'xshaysiz, endi diqqat bilan kuzatib turing: hozir diplomatni ochamiz.

-Diplomat bizniki emas, - dedi yigitchalardan biri jonholatda.

-Seniki bo'lmasa nega ko'tarib yuribsiz? - deb so'radi To'rlqin.

-Shu yerda yotgan ekan, egasi topilsa bermoqchi edim.

-Uni qara-ya! Shunday qimmatbaho diplomatni kim tushirib qoldirdi ekan, a? Qani, bu yerga ko'y-chi, - To'rlqin shunday deb yukxona ustini ko'rsatdi. Buyruq bajarilgach:- Qani, endi och, - dedi.

Yigitchalar orasidagi bashangroq kiyingani "Ochma, ko'lingni tekkizma!"-deb baqirib berdi.

-Uning gapiga e'tibor berma. Aybingni yumshatishni istasang, aytganimni qil. Axir sen shunchalik ijrochisan, to'g'rimi? Qani, och.

Yigitcha diplomatni ochdi. Himoyachi pul taxlamlarini ko'rib, o'zini chetga olmoqchi edi, To'rlqin to'xtatdi:

-Hozir bayonnoma yozamiz, siz holis guvoh bo'lasiz

-Nega endi aynan men? Bekor aytibsiz. Men bunaqangi ahmaqona ishlarga guvoh bo'la olmayman.

-Qiziq falsafangiz bor ekan, - dedi To'rlqin qo'polroq tarzda. - O'g'rilarning o'g'riligini guvoh sifatida tasdiqlash sizningcha ahmoqligu o'g'rilarning yonini olib militsiya xodimlarini haqoratlash aqli ishmi?

Himoyachi savolga javob bermay qo'l siltaganicha davradan chiqdi. To'rlqin "Kim guvoh bo'ladi?" deb so'ragach, to'planganlar safi ancha kamaydi.

Ayni shu kunning ayni shu pallasida, shaharning kunchiqar tomonidagi chegara

manzilida iblis yanada ajoyibroq tomoshadan huzurlanayotgan edi.

Tekshiruvchilarga roqpara boqlishga ilhaq katta-kichik mashinalar karvoni adogqiga biqiniga qoplonning surati chizilgan eski avtobus yaqinlashib, asta toqxtadi. Qaysi bir mamlakatda xizmatini ado etib boqlgach chiqitga tashlanishga tayyorlangan avtobusni arzon-garovga sotib olib, u yer bu yerini yamab-yasqab, tirikchiligiga yaratib yuruvchi haydovchi pastga tushdi-da, karvonga nazar soldi. “Toza toqplanibdi-ku, zangqarlar, kechgacha pashsha qoqrib oqtiramiz shekilli”, deb oqzicha gqoqdrandi-da, olgqa tomon yurdi.

Oldingi oqrindiqa mudrab kelayotgan yigit kerishib, rohatlanib esnagach, pastga tushib, hushtak chalib qoqydi-da:

-Oqchoq-qozon boqlsa osh damlab yeb olishga bemalol ulgurarkanmiz, - dedi.

Bu gapdan keyin yana toqrt kishi pastga tushdi.

-Ikki ming kilometrni qancha vaqtda bosib oqtgan boqlsak, ikki ming qadamni ham xuddi shuncha vaqtda bosib oqtamiz, - dedi ulardan biri.

-Boshga tushganni koqz koqradi, - dedi ularning sabrlirogqi.

Avtobusning oqrta oqrindigqida ikki juvon oqtiribdi. Yoshi kattarogqining ismi Obodxon, uning yonidagisiniki Maxsuma. Obodxon tugqilganida ota-ona tomonidan shunday ism qoyilishi sababini hech kim bilmaydi. Uning ba’zi xurmachaqiliqlaridan bahramand boqlgan ayrim odamlarning “Bu Obodxon emas, naq Ofatxon!” deb qoyishlarini yaxshi hamki yer yetkizmaydi, yoqsa, bechora ota-onaning goqrlarida tik turishlari aniq. Yana bir ehtimol borki, unga koqra yetti kunlik Obodxonning qulogqiga azon aytuvchi kishi tili chuchukligi tufaylimi yo boshqa sabab bilanmi “Ofatxon” deb yuborgan boqlishi ham mumkin.

-Mana, opovsi, Xudoginaga shukur, eson-omon yetib keldik. Bir qadamlik yoql qoldi. Endi bu yogqiga shoshilmang. Mijoz kelsa molni arzonga bermang. Bir-ikki kun sotmasangiz ham qimmat soqrab turavering. Tushunmasangiz darrov menga telpon qiling. Birinchi marta savdoga chiqqan odamning ishi osonmas, oqzimning boshimdan oqtgan.

-Obodxon opa, mendan qaytmasa Xudodan qaytsin, yaxshiyam siz bor ekansiz. Mol sotilganidan keyin foydasidan xursand qilamiz hali.

-Voy, opovsi, qoqying shu bachki gaplarni, menga savob kerak.

Agar iblisning kulgisini eshitish mumkin boqlganida shu gapdan keyin avtobus qah-qahadan larzaga kelardi. Iblis telba emas, bekorga kulmaydi. Obodxonning qanday savob ilinjida yurgani unga sir ekanmi? Bu ilinjni uning yuragiga yaxshilab joylab qoqygan iblis bilmay yana kim bilsin?

Obodxon hamroxini tijoratning “dunyo ahliga noma’lum asrori” bilan tanishtirish maqsadida gapdan tinmadi.

...molni arzon olginu qimmatga sot.

...arzon olish uchun ham, qimmatroqqa sotish uchun ham o'zingni bechorahol qilib ko'rsat. O'lmagan eringni o'ldi desang ham bunaqa yolg'onni Xudo kechiraveradi, chunki bu yolg'onni yurakdan chiqarmaysan, til uchida aytasan. "Yetimlarim bir burda nonga zor", deb yig'lasang ham yolg'onga o'tmaydi, chunki bu foydani baribir bolalaringga yegizasan. "Bolalarim!" deb astoydil yig'lasang Xudoning ham mehri jo'shib ketadi-yu, foydani ko'paytirib beradi.

...molni qarindoshlarga sotma. Foydaning boshini yeydi bu qarindosh o'lgurlar. "Bu mollarimning sifati yaxshi emas, kelgusi safar sizga yaxshisidan alohida tanlab-tanlab olib kelib beraman", deb turaver. Keyingi safar esingdan chiqib qolsa gunohkor bo'lmaysan.

...topgan pulingni uyim, ro'zg'orim deb sovuraverma. Eringdan yashirib qo'yadigan moling ham bo'lsin. Zamon qaltis, xotin kishining boshiga nimalar tushadi, Xudo biladi.

Obodxonning chap yelkasiga ega chiqqan iblis rohatlanadi. Uning eng salohiyatli shogirdlari ham darsini bu qadar zo'r o'zlashtirishmagan edi. Iblis anoyi emas, vaqti kelib qolsa, bu xotinning "Meni shayton yo'ldan urdi!" deb faryod urishi unga ma'lum. Kiyomat boshlanib, do'zaxga hukm bo'lganida barcha aybni iblis zimmasiga ag'darishini ham biladi. Obodxon singari yashab o'tganlarning ana shu da'vo ilinjida qabr azoblarini totib yotganlari yolg'iz Yaratganga ma'lum. Bu xotinga va unga o'xshash millionlarcha da'vogar bandalarga iblisning aytadigan gapi avvaldan tayin:

-Ha, yo'ldan urdim, bu mening kasbim edi. Sening burching men - iblisning emas, Rahmonning so'zlariga amal qilish edi. Men seni do'zax ostonasiga qadar olib kelishni orzu qilib edim, niyatimga yetdim. Endi senga oq yo'l, do'zax o'tlari senga muborak bo'lsin!

Hali bu daqiqaga adog'i Allohgagina ma'lum bo'lgan sanoqsiz yillar bor. Obodxon va unga o'xshaganlar bu dunyoning yolg'onchi lazzatlaridan to'yib olishlari kerak. Keyin o'lim, keyin qabr azoblari. So'ng qiyomat dahshatida tirilish. So'ng esa hukm!..

Alloh bandasiga hidoyat bersa, iblis orzu qilayotgan bu oqibat yuz bermas.

Hozircha Obodxon yelkasidagi iblisni quvontirib javrayotganini o'zi bilmaydi.

Iblisning bir xotin gaplaridan quvonib o'tirishi holva. Hademay uning navbatdagi to'y tantanasi boshlanadi. To'y tantanaga "navbatdagisi" deb sifat berilishi bejiz emas. Banda ter to'kib, yig'ib-terib to'rt yildami yo besh yildami birgina to'y qiladiyu bor-yo'g'ini sovurib, shumshayib qolaveradi. Iblis ham ter to'kadi, zalolat ahlini atrofiga yig'ib-tergani zamon hayallatmasdan to'yini boshlab yuboradi. Bandadan farqli o'laroq, u bitta to'y bilan niyatiga yeta qolmaydi. To'yini to'yga ulayveradi.

Avtobus haydovchisidan anchagacha darak bo'lmadi. Ko'pchilik betoqat bo'lib avtobusdan tushdi, birovlar sabrsizlik o'tini sovutish maqsadida nari-beri yura

boshlashdi. Gadoy topmas soʻqmoqlar orqali chegaradan oʻtkazib qoʻyuvchi aravakashlar esa sal narida bir imoga ilhaq boʻlib qarab turishibdi. Avtobus haydovchisi ruhi singan bir ahvolda qaytdi. Yoʻlovchilarning “Nima gap, yaqin orada jilamizmi yo yoʻqmi?” degan savollariga qisqa qilib:

-Avtobusga chiqinglar, gap bor, - dedi. Hamma chiqib, joy-joyiga oʻtirgach, yangilikni maʼlum qildi:-Ishning ishkali chiqib qoldi. Qattiq tekshirilyapti. Boj toʻlashga tayyorlanib turinglar.

-Hov akaxon, biz unaqaga kelishmaganmiz. Siz bizni savdogar emas, sayyoh deb tep-tekinga olib oʻtishga vaʼda bergansiz, - dedi oldinda oʻtirgan yigit.

-Boj toʻlasak uyimiz kuyadi-ku!-deb baqirdi Obodxon uni qoʻllab.

-Men boʻladigan gapni aytdim. Kelishadigan tanishlardan bittasi ham yoʻq, boshqa odamlar oʻtirishibdi. Eplasalaring oʻzlaring borib gaplashinglar. Men pullaringning bir qismini qaytarib beraman, - dedi haydovchi.

-Oʻ, oʻgʻil bola! Erkakning gapi bunaqa magʻzava boʻlmaydi, - dedi birinchi qatordagi yigit jahl bilan. - Biz-ku, gaplashamiz. Lekin siz pulimizni tiyin-tiyinigacha qaytarasiz.

-Sal oʻpkangni bosib gapir, - dedi haydovchi achchiqlanib. - Nima, bu dunyoda bitta sen erkakmisan? Bor, gaplash, olib oʻt! Pulingni ikki hissa qilib qaytarmasam itning bolasi boʻlay!

Haydovchi choʻntagidan xaltacha chiqarib kaftiga nos toʻkdi-da, soʻng tilining tagiga tashlab, pastga tushdi.

-Kim men bilan boradi? - dedi yigit. - Pul olmaydigan bojxonachi hali tugʻilmagan bu dunyoda. Bitta kitobda oʻquvdim, pora olmaydigan odam yoʻq, pora berolmaydigan mollar boʻlar ekan. Bu akamiz shunaqahilidan.

Erkaklikka daʼvogar yigitga yana ikki kishi qoʻshilgach, mardonavor tarzda yoʻlga tushdilar. Ular oʻzlaricha haydovchiga jahl qilib borishardi, uning onasiyu xotiniyu qizlarini eshakkami, itgami roʻpara qilib soʻkinishdan tillarini tiyishmasdi.

Aslida-ku, iblis ularni qoʻllaridan tortib, sudrab boʻlsa-da shu yoʻlga solmoqchi edi. Iblisning baxtini qarangki, bu bandalar uning yengilgina turtkisi bilan sapchib tura qolishdi. Haydovchining gapiga kirsalaru, mollarini hisob-kitob qilib, boj toʻlashga tayyorlanib oʻtirsalar iblis bechora alamdand boshini qaysi toshga urib yorardi. Har tugul, uning boshi yorilmaydigan boʻldi.

Iblisga itoat etgan vakillar hayʼati yoʻlga tushgach, Obodxon yana tilga kirdi:

-Shilta aralashgan ish doimo shunaqa boʻladi. Haromning kasofati hammaga baravar uradi.

-Qaysi harom? - deb ajablendi Maxsuma.

-O'zingizni bilmaganga olmang, opovsi, uchinchi qatorda o'tirgan opachangizni aytyapman.

-Voy, hali u?..

-G'irt o'zginasi. Bozorda imlovdim, tushunmadingizmi? Qiyshiq ko'z o'lgur menga bermagan molini unga yarim narxiga berdi-ku? Ichkari kirib chiqqanini ko'rmay g'afatda qolibsiz-da?

-Unaqamasdir, ketayotganimizda eri bilan xayrlashib yig'lovdi-ya?

-Hali ko'rib turasiz, avtobusdan tushishi bilan erining bo'yniga osilib, "sog'indim akajonim", deb yig'lab beradi. Er deganam shunaqa ahmoq bo'ladimiyey!

Maxsuma "voy o'lay", dedi-yu, boshqa gap qo'shmadi.

Ba'zilar odamlar ko'p to'planadigan joyni mahshargohga qiyoslashadi. Bir uchi chegara manziliga taqalgan mashinalar karvoni mahshargoh emas. Oradan qancha yillar o'tib mahshargohda to'planish oldidan bir imtihonga o'xshash harakat xalos. Qayta tirilgan bandalar mahshargohda Yaratgan hukmini kutishib dir-dir titrasalar, bundagilar bojxonachi bilan bo'lajak uchrashuvdan titraydilar. Unda do'zaxga ro'para bo'lishdan qo'rqadilar. Bunda puldan ajralishdan. "Puldan ajralish tashvishi do'zax azobiga ro'para bo'lishdan ham ayanchliroq!" Iblis ularning yuraklariga shunday deb yozib qo'ygan.

Yaqindagina sherdek yurish bilan olg'a ketgan vakola hay'atining quruq qaytayotganlari yurishlaridan ma'lum edi. Obodxon buni angladi-yu, shart o'rnidan turdi.

-Bu lattachaynarlar bilan ish bitmaydi, keldik!

-Qayoqqa? - deb ajablandi Maxsuma.

-Ana, chegaradan aravakashlar o'tqazib qo'yishadi. Ozgina chiqim qilamizu bu avtobus o'lgur joyidan siljigunicha biz uyda bo'lamiz.

Obodxon avtobusdan tushub oq aravakashlarga qarab imladi. Ulardan ikkitasi ildam yetib kelgach, savdolasha boshladi. Aravakashlardan biri Obodxon aytgan narxga ko'ndi ikkinchisi esa ko'l siltab nari ketdi. Maxsuma boshqalar ham shunday qilisharmikin, deb avtobusdagilarga qarab-qarab qo'ydi. Boshqalar "chiqmagan jondan umid", deganlariday bojxona xodimlari bilan kelishuv orzusida o'tirganlari uchun Obodxonga qo'shilmadilar. Maxsuma ham "Ko'pchilik nima bo'lsa men ham shu" degan qarorga kelay deganida Obodxonning bir chimirilib qarashiyu bir nordon gapi bilan unga qo'shila qoldi.

Avtobus yukxonasidan mollarini olib aravaga ortishgach, Obodxon kira haqini qaytarib berishni haydovchidan talab qildi.

-Men bojxona bilan o'zlaring kelisha olsalaring qaytarib bermoqchi edim, - degan

haydovchi baloga yoqliq qoldi.

-Qanaqa erkaksan, ozing, belingda belbog'ing bormi, bo'lmasa ishtonimni yechib bera qolay, kiyib ol. Ikki hissa qilib qaytarib beraman, devding-ku, o'l-a, erkak bo'lmay.

Bu gapdan bo'zarib ketgan haydovchi cho'ntagidan bir dasta pul chiqarib unga uzatdi:

-Ma, to'yguningcha ol, vijdotsiz. Sen o'tgan safar "pulim yetmay qoldi" deb hammasini to'lomagansan. Ikkinchi shu avtobusga yaqinlashganingni ko'rayin...

-Nima qilarding? Gapir, gaping ichingda qolmasin. Biz bormiz, sening tirikchiliging o'tib turibdi. Bu shaloq aravangni pishirib ye! Endi men amirlikka qatnayman, beminnat samolyotda borib kelaman, bildingmi?

Obodxon shu gaplarni ayta turib kerakli pulini sanab olgach, qolganini qaytardi. Haydovchining "sen tushadigan samolyot ham xarob bo'ladi", deb ming'irlashdan boshqa iloji qolmadi.

Aravakash aravasini nomi ko'cha deb atalgan lekin o'ydim-chuqur bo'lib yotgan dala yo'lga haydadi. Arava usti mol bilan to'lgani sababli ayollar piyoda ketdilar.

-Sen bizni laqillatding, shumtaka, - dedi Obodxon, - Hali hisob-kitobda dod demaysan. Yayov yurishimni bilganimda so'raganingning yarmisini ham bermasdim.

-Molingiz ko'p bo'lsa ayb mendami, jengeshe? - dedi aravakash.

-Aravangni kattaroq qilsang o'lasanmi? - dedi Obodxon.

-Egasiga aytaman, endi kelishingizga kattarog'ini yasab qo'yadi, - deb ming'irladi aravakash.

Shu tarzda aytisha-aytisha nomi daryo atalgani bilan eni o'n qadam ham chiqmaydigan anhor sohiliga yetdilar. Oqimga qarshi yana ozgina yurilgach, olti xonadondan iborat qishloqchaga kirib bordilar. Arava uchinchi xonadon sari burildi. Ikki xonali pastak uyning yonidagi temir darvoza lang ochiq edi. Atrofdagi devor bo'lmagani holda bunday darvozaning mavjudligi Maxsumani ajablantirdi, Obodxon esa e'tibor bermadi.

Hovlining etagi anhora taqalgan. Anhor uzra besh-olti qator qalin sim tortilgan, har bir simga katta savat kajava ilib qo'yilgandi. Sohilda esa eski bir qayiq lopillab turardi. Rasmiy xaritada bu anhor davlat chegarasi hisoblanardi. Anhor yoqasida mijoz kutib o'tirgan kajava egalarining vazifalari esa ahli tujjorni bir mamlakatdan ikkinchisiga o'tkazib ko'yishdan iborat edi.

Ming yillar avval bir kishining tantilik bilan aytib yuborgan "erkak bitta gapiradi!" degan gapi maqolga aylangan. Zamonga besh ketish kerak, endi xotin kishi ham bitta gapiradigan bo'ldi: Obodxon yo'lda aytgan ahdiga sodiq qolib, aravakashning haqidagi chegirib qoldi. Bu orada kajava egalari unga yaqinlashishdi.

-Bular bilan kelisha olsangiz narigi qirg'oqqa o'tkazib qo'yishadi, - dedi aravakash norozi ohangda.

-Nega men kelisharkanman? Sen bilan o'sha qirg'oqqa o'tkazib qo'yishni gaplashganman.

-Esingiz joyidami jengeshe, arava daryodan suzib o'tmaydi-ku?

-Unisini bilmadim.

-Jengeshe, hamma arava shu yergacha keladi. Anhorning narigi betida o'zinglarning mashinalaring bor.

-Menga aql o'rgatma, buni o'zim ham bilaman. Sen mollarimni bitta-bittalab yelkangda tashib bo'lsaham o'tkazibqo'yasan.

Obodxon gapini tugatmay, hovliga kajavali mototsikl patillab kirib keldi. Biri harbiy, yana biri militsiya kiyimidagi ikki kishi mototsiklni Obodxondan yarim qadam berida to'xtatdi.

-Boshimga chiqarib to'xtata qolmadingda aravangni, - dedi Obodxon achchiqlanib.

-Davlat chegarasida nima bo'lyapti? - deb so'radi militsiya kiyimidagi yigit, so'ng aravadan tushirib qo'yilgan mollarga qarab o'zicha xulosa chiqardi:- tak, tak... kontrabanda!

-Qanaqa banda? O'zing kimsan? - dedi Obodxon uni jerkib.

-Biz davlat chegarasi xizmati xodimlarimiz. Hujjatlaringizni ko'rsating.

-Avval o'zing ko'rsat.

-Biz boshqa davlat odamlariga hujjatimizni ko'rsatmaymiz. Sen hujjat ko'rsatmasang ham hammasi ravshan. Sen... - yigit shunday deb Maxsumaga qarab oldi, - bu xotin ham sen bilanmi? - Obodxondan javob kutmay aravakashga qaradi:-senam shular bilan birgamisan?

-Men bularni tanimayman. Bu uy tog'amniki, mehmonga kelganman. Hozir ikki qop bug'doy ortib uyimga ketaman, - dedi aravakash.

-Sen boraver, - dedi yigit aravakashga, keyin kajava egalariga qarab baqirdi:-senlarga tomosha bormi, jo'nalaring!Hozir hammangni olib borib turmaga tiqaman!-Bu tahdiddan keyin ular sohil tomon yurdilar. Yigit esa qoshlarini chimirib, Obodxonga qaradi:-Senlar Davlat chegarasini buzishda ayblanasanlar. Jinoyat kodeksining o'ttiz sakkizinchi moddasi, eng kamida besh yil o'tirasanlar. Mollaring davlat hisobiga musodara qilinadi. Agar mollaringning ichida qoradori topilsa jinoyat kodeksining yetmish uchunchi moddasi bilan otilasanlar.

Yigit xuddi jinoyat kodeksi moddalarini suv qilib ichib yuborgan kabi ishonch bilan

gapirdiki, Maxsuma uni eshitib hushini yoqotayozdi. Yigitning gaplari shunchaki ogohlantirish emas, balki sud hukmi boqilib tuyulib qoqrquvdan ranglari oqardi. "Voy shoqrim!" deb yigqini boshlab yubordi. Obodxon ham qoqrquv uygona boshlagandi, lekin vaqtida oqzini qoqlga olishga uning qurbi yetdi. Hozirginada ularga bas kelaman, deb oqylagan Obodxon birdan toqnini oqzgartidi-da, yigqlamsiraganicha yalina boshladi. "Militsiyada ishlagan ukasini terroristlar oqldirib ketishganini" aytaturib koqlzlariga yosh ham keldi. Bu gaplarni eshitib ajablanayotgan Maxsuma oqzining "terroristlar oqldirib ketgan militsiya xodimining bevasi, bu xotinning esa kelini" ekanini bilib "yoqgq-e!" deb yuborishiga sal qoldi. Xullas, beshta yetimchanning och-nahor oqtirishi aytilgach, dagqdagqa qilayotgan yigit sal yumshaganday boqldi.

-Mayli, yetimlarning haqi bor ekan, qoqyib yuboraman. Lekin izlaringdan tushganimizni xoqjayinlar koqrishgan. Bizga pullaring kerakmas, xoqjayinlar "oqlzari olib yeb ketishdi", deyishmasin.

"Xoqjayinlarga atalgan" pullar berilgandan keyin kajava egalari bilan kelishildi. Narigi qirgqoqqa oqtulgach, Obodxon "Xudoga shukur", deb chuqur nafas oldi-da, hamrohiga qaradi:

-Opovsi, hisobli doqst ayrilmas, degan maqol bor. Shu yergacha boqlgan harajatlarning yarmini berib qoqying, - deb qancha berishi lozimligini aytdi.

-Opa, teng yarmini beramanmi, mening molim ozroq-ku? - deb e'tiroz bildirdi Maxsuma.

-Ular molning oz-koqpiga qarashdimi, opovsi, bitta qopga ham oqnta qopga ham shu pul, - dedi Obodxon zarda bilan.

-Opa, bitta narsa qiziq, a? Milisaning kiyimi boru pogoni yoq? - deb soqradi Maxsuma pul sanay turib.

Obodxon vahimada bunga e'tibor bermaganini anglab, afsuslandi, biroq, aybini tan olgisi kelmadi:

-Bu yoq boshqa davlat, ularning formasi oqzi shunaqa, - deb qutulmoqchi edi, hamroxining bu gapga ishonqiramayotganini sezib qoqshimcha qildi:-Nima, bizni laqillatmoqchi boqlishdi, demoqchimisiz? Men shunchalik merov ekanmanmi? Agar niyatlari yomon boqlsa ikkalamizni shart boqgqib suvga tashlashardi, mollarimizni boqlvolishardi. Biz bergan sariq chaqaga qanoat qilishmasdi. Bunchalik sodda boqlavermang, opovsi.

Siyrak daraxtzor ortidagi ikki mashinaga koqzi tushib Obodxon quvonib ketdi.

-Hayriyat-ey, oqzimiznikilarga yetib keldik. Bu yogqi endi bir qadam.

Sohil tomon qarab turgan yigitlardan biri ularga yaqinlashdi:

-Ertalab Xudo deb chiquvdim, peshonasi yarqiragan yigitmanda, endi boqsh boqlsam ham qaytaveraman, deb turuvdim, Xudo sizlarni yetkazdi. Qani, yuklaringizga yordamlashvoray, - u shunday deb katta xaltalardan birini koqtarmoqchi boqldi.

-Oldin haqini kelishib olaylik, - dedi Obodxon uni to'xtatib.

-Opaxon, xaqi ot bilan tuya bo'larmidi. Dunyo ko'rgan odamga o'xshaysiz. O'zingiz ko'ngildan chiqarib, bilib beraverasiz. Baribir bo'sh ketmoqchidim.

Arzon kirakash yo'liqqanidan quvongan Obodxon "Naryoqdagi chiqimlarni xudoyim bu yoqdan qoplaydigan bo'ldi", deb shukur qilib qo'ydi.

Mashina katta yo'lga chiqqach, shahar tomonga emas, chegara postiga burilgach, Obodxon xavotirlanib:

-Ha, qayoqqa? - deb so'radi.

-Ataganimni berib ketay. Ularning ham nafsi bor. Kunlikni kunlik berib turmasam, ertaga tutun qaytarib, tirikchilik qilishimga yo'l berishmaydi, - dedi yigit noligan ohangda.

-Unda judayam yaqin bormang, beriroqda to'xtang, - dedi Obodxon.

-Havotirlanmang, bu yerdagilarning hammasi o'zimizniki.

Yigit yolg'on so'zlamagandi. Chindan ham bu yerdagilarning barchasi o'ziga tegishli idora odamlari edi. U mashinadan tushishi bilan to'rt yigit yaqinlashib, eshikni ochishdi:

-Opajonlar, yaxshi yetib keldinglarmi? - deb hol so'ragan bo'lib, hujjatlarini ko'rsatishdi.

Ularning pogoni ham, hujjati ham bor edi. Obodxon "Xudo urdi!" dedi-yu, uvvos tortib yig'lab yubordi. Yigitlar uning ovunishini kutmay, mollarni tushira boshlashdi.

Kunduzgi o'g'irlikka doir hujjatlarni rasmiylashtirish bilan ovora bo'lgan To'lqin uyiga kech qaytdi. Darvoza eshigining qiya ochiqligini ko'rib, ajablendi. Uning ishdan ko'pincha kech qaytishiga ko'nikib qolishgani uchun eshikni doimo qulflab qo'yishar, u boshqalarni bezovta qilmaslik maqsadida o'zining kaliti bilan ochib kirardi. "Mehmon kelib, meni kutib o'tirgandir", degan fikrda ostona hatlashi bilan ukasining uyi tomondan kelini Obodxonning o'krab yig'lagan tovushi eshitildi-yu, badaniga muz yugurdi.

-Voy endi nima qilaman, voy Xudo urib qo'ydi-ey!

"Kimdir o'ldimi? Kim?" - To'lqinning xayoliga kelgan birinchi savol shu bo'ldi. Shubhasizki, u kelinining o'n daqiqa avval bundanda ayanchliroq faryod bilan uyga kirib kelganidan bexabar edi. Obodxon azaga kelgan xotindek dod solib ostona hatlaganida chap tomondagi uyda eri, o'ng tomondagi uyda ovsini Robiya qo'rquvdan taxtadek qotib qolgan edilar. Bu faryod qo'ldan ketgan molga ochilgan aza ekanini bilgan Robiya ichida "Ha, pulam o'lsin-a!" deb ko'ysa-da, qaynisi bilan birgalikda uni ovutishga kirishgandi. Ovunay deb qolgan Obodxon faryodining sal yumshagan holdagi ikkinchi ko'rinishi boshlanganida To'lqin ostona hatlab uyga kirayotgan edi. Xavotir zambaragidan o'qqa tutilgan To'lqin ukasining ayvoniga qanday yugurib kirganini

o'zi ham bilmay qoldi. Uni birinchi ko'rgan Robiya salomlashishni ham unutib, shoshilganicha:

-Adasi, havotirlanmang, Obodxon mollarini oldirib qo'yibdilar, - dedi.

“E, moling bilan...”, deb ichida so'kingan To'liqin bir pas shu yerda turishni ham, orqasiga qaytishni ham bilmadi.

-Xudoning zorini qildim-a, yer yutkurlarning birontasi yumshamadi. Xa, bo'ylaring lahadda chirigurlar-a!

Odatda kelin, ayniqsa uzoq safardan qaytgan kelin qaynog'asini ko'rganda salom berardi. Obodxonning hozirgi qarg'ishi salom o'rniga yangradi. Kelinning salomiga alik olgan qaynog'a til uchida bo'lsa ham “eson-omon borib keldingizmi?”-deb qo'yardi.

Salom ham yo'q, alik ham yo'q. Xol so'rash ortiqcha - hammasi shunday bilinib turibdi. To'liqin biron so'z aytmay, orqasiga o'girildi. Robiyaning eriga ergashish niyati bor edi, biroq, o'rtadagi mehr-oqibatga xiyonat qilmay, deb ovsinining yonida qoldi. Bechora ayol, sodda ayol! Aka-ukalar oilasi orasida mavjudligi shart bo'lgan mehr-oqibatning lazzatli suvini iblis qurita-qurita sahrodagi tashna quduq holiga keltirib qo'yganini u qaydan bilsin? Mol achchig'idagi ovsinining “Bu nega tepamda qoqqan qoziqdek turib oldi, eriga qo'shilib gumdon bo'la qolmaydimi?” degan o'yda o'tirganini bilsa edi, yarim nafasga ham chidamay, yurib emas, uchib chiqib ketardi bu uydan.

Akasining indamay chiqib ketayotgani Sattorga malol kelib, unga ergashdi.

-Aka, borib kelsakmikin? - dedi ayvon zinasidan tusha turib.

To'liqin to'xtab, o'girildi. Ukasining maqsadini anglagan bo'lsa ham:

-Qayoqqa? - deb so'radi.

-Chegaraga... bojxonaga.

-Xo'p, bording, deylik. Keyin-chi?

-Gaplashib ko'rarmidik.

-Molini bekorga olib qo'yishmagandir. Ishining biron chatog'i bordir, xat-hujjat qilib ko'yishgandir?

-Aylanma yo'ldan o'tib kelishayotgan ekan.

-Ana, ko'rdingmi? Haq ular tomonda.

-Aka, shu paytda haq talashmay turing. O'sha aylanma yo'ldan kuniga milliontasi o'tadi. Ish chuvalashmay turib, borib kela qolaylik.

-Qiziqsan. Mening borishimdan nima foyda? Men chegarachi bo'lmسام, bojxonada ham ishlamasam. Kichkinagina bir milisa bo'lsam...

-O'sha yerda ham o'zingizga o'xshash "kichkinagina" milisa bordir, ehtimol tanish chiqib qolar. "Kichkinagina milisa" ba'zan katta muammolarni ham hal qilib tashlaydi.

-Shunday abjir xotining eplay olmagan ishni ikkalamiz eplay olarkanmizmi, esing bormi?

-Aka, bir ish tushganda qaysarlik qilmay, xo'p deya qolsangiz nima bo'larkin?

-Xo'p, ukajon, sen uchun ming marta xo'p. Lekin hozir hech qayerga bormayman. Ertaga surishtirib ko'raman.

-Unda kirib "yordam beraman", deb keliningizni ovutib qo'ying.

-Xotining quruq gapga ovunmaydi. Molini olmaganicha o'zi ham tinchimaydi, seni ham tinchitmaydi, - To'lqin shunday deb uyi tomon yurdi-da, balandroq ovozda xotini chaqirdi:-Ishdan kelgan eriga choy-poy beradigan insofli xotin bormi bu uyda?

To'lqin "seni ham tinchitmaydi", deb sal adashdi. Kelgusi kunlar ichi o'zining ham g'alva to'foniga uchrashini bilganida "Hammamizni tinchitmaydi", dermidi. U savdo ahlining boshiga shunaqa, hatto bundanda battar tashvishlar tushishini bilgani sababli ularga hamdard bo'lmadi. U ham, Robiya ham buni o'tkinchi tashvish, deb bilib yanglishishayotgan edi. Bu tashvish bulutining ko'lami g'oyat keng - faqat Sattorning emas, aka-uka xonadonini baravar egallab oladigan edi. Undan yog'iladigan hasrat va nadomat yomg'iri ham har ikkala oilaga yetib ortardi.

Bu balo buluti, bu g'avg'o yomg'iri iblis boshlayotgan to'yu tantananing darakchisi edi.

* * *

Shu imoratga dastlabki g'ishtlar qo'yilayotganda iblis bu uyda ham yillar o'tib bo'lsa-da, to'y qilishni niyat etib edi. Nihoyat, umidiga yetay deb turibdi.

O'ttiz to'qqiz yil muqaddam shu yerlarda iblisning qiladigan ishi deyarli yo'q edi. Bundagi bog'lar ham, huddi jannatdan quvilgani kabi, go'yo unga harom etilgan edi. Doimiy ravishda ish bilan band bog'bonlar dam olishga o'tirgan chog'larida iblis ularning davrasiga yaqinlashardi-da, nafasini ufurardi. Ularni g'iybatga tortib, lazzatlanib ketardi.

Katta shahar zilziladan bir tebranib olgach, odamlar atrofga tariq singari sochildilar. Bog'lar buzilib, shaharliklarga bo'lib berildi-yu, uylar shitob bilan tiklana boshlandi. U damda To'lqin to'qqiz, Sattor esa besh yoshda edilar. Tog'li qishloqdan shaharga o'qishga kelib, so'ng olimlikni ixtiyor qilgan Shavkatga shu zilzila bahona uy qurish uchun yer ajratib berilgandi. Unga qadar "ichkuyov" martabasida yashab kelgan Shavkatga bu baxtiyorlik saroyi eshigining lang ochilishi bo'ldi.

Yer ajratilgan kunning ertasiga Shavkat Faridani boshlab keldi-da, rejasini bayon qildi:

-O'rtada darvozaxona, o'ng tomonda uch uy bir ayvon, chap tomonda ham uch uy bir ayvon quramiz.

Bu gapni eshitib ish ko'lamini ko'z oldiga keltirgan Faridaning vahmi keldi:

-Sal kichikroq qilib qura qolmaymizmi? - dedi u.

-Bo'ladigan ishning vaqtida bo'lgani yaxshi, - dedi Shavkat. - Tasavvur qilgin: o'ng tomonda katta kelining, chap tomonda kichigi "oyijon, choy iching", deb xizimatingni qilib tursa...

-Biz-chi, qayerda yashaymiz?

-Bizmi?.. Keyinroq etakka sen aytganday kichikroq uycha quramiz. Baland bo'lmaydi, bitta zina bilan chiqiladi. Qarilikning ham hisobini olib qo'rganman.

Shavkatning bu umidida "Xudo xohlasa" degan niyatning yo'qligidan mamnun iblis o'shanda kulib ko'rgan edi. Shavkat o'shanda uzoq qarilikning hisobini olib qo'rgan edi-yu, biroq, umrining qisqa bo'lishi, bir yil ichida er-xotinning dunyoni tashlab ketishi mumkinligini o'ylamagandi.

Poydevorga birinchi g'isht qo'yilayotganda ham iblis shu atrofda ivirsib yurgan edi. Usta qo'lga g'isht olmay turib xayrli duo qilayotganida uni titroq bosdi. Yetti qat yerning tagiga kirib ketay dedi. Lekin duoning kuchini kesib tashlamay turib nari ketishni istamadi. Chidab, payt poylab, kutdi.

-Qani, mulla aka, tangalarni bering, - dedi usta.

Shavkat ustaning kechagi gapi bilan to'plab qo'rgan tangalarining yarmini to'ng'ichiga, yarmisini kenjasiga berdi. To'liqin tangalarini o'ng tomondagi uy burchagiga bittadan qo'yib chiqdi. Usta pichirlaganicha duo qila-qila tangalar ustiga loy tashlab, g'isht bostirdi. Sattor tangalarini mahkam changallaganicha ustaning harakatlariga tushunmay qarab turaverdi.

-Ha, toy bola, sen nega pullaringni qo'ymayapsan? - deb so'radi usta unga kulib qarab.

-Amaki pulni nega qo'yyapmiz? - deb so'radi Sattor.

-Taomili shunaqa-da, bu uyga Alloh xayru baraka, hotirjamlik beradi. Aka-uka totuv yashasanglar, Alloh senlarni boyu badavlat qiladi. Inoqlik bo'lmasa - uydan baraka qochadi.

Sattor "taomil", "xayru baraka" degan so'zlarga tushunmasdi. Shu sababli changalidagi tangalardan ajralishni istamay yana bir oz turdi. Shavkat o'g'lining bu holatini anglab kulimsiradi-da, qo'lidan yetaklab chap tomondagi uy burchagiga boshladi. Evaziga qog'oz pul va'da qilingach, Sattor tangalarini burchaklarga chaqqon ravishda qo'yib chiqdi.

Bu onda ko'chaning narigi betidagi uy tomondan shovqin eshitildi. Usta savol nazari bilan Shavkatga qaradi.

-Aka-ukalarga yonma yon uy tekkan ekan, - dedi Shavkat unga javoban. - Qoziqning o'qini talash. Uka "yarim qadam nari bo'lsin", deydi, akasi:"to'g'ri qoqilgan, tegma", deydi. Bir haftadan beri shuning janjali.

-Bitta rivoyat bor, - dedi usta, janjal bo'layotgan tomondan ko'z uzmay. - Ikki odam shularga o'xshab "bu yer meniki, yo'q, meniki!" deb joy talashayotgan ekan, yer tilga kirib "E, nodonlar, talashmalar, ikkoving ham menikisan", degan ekan.

-Yaxshi rivoyat ekan, - dedi Shavkat miyigida kulib. - Aslida odam bolasiga ikki qarich yer kifoya.

-Ikki quloch yeru ikki quloch oq surp, - deb izoh berdi usta. - Dunyoni talashib-talashib yetishganimiz shu bo'ladi. Lahadga bir sandiq tillasi bilan qo'yilgan odamni kim ko'ribdi?

-Qo'yildi, deb tasavvur qilaylik, foydasi bormi?

-Gapingiz to'g'ri. Eng avvalo shu tillani qanday topganiga hisob beradi. Shuncha tillani hech qachon halol yo'l bilan topib bo'lmaydi. Demak, yiqqan dunyosi o'zining boshiga balo bo'ladi. Qolaversa, qil ko'prikdan tilla to'la sandiqni minib o'tmaydi.

-Fikringiz xurofot bo'lsa ham qiziqarli, - dedi Shavkat.

-Sizga o'xshagan olim odamlarning shu odatlaringiz chatoq. Qiyomatdan gap ochilsa, darrovda xurofot deb malomat qilaszlar.

-Ilm shunaqa bo'ladi, usta aka. Bor narsani bor deymiz, yo'q narsani yo'q deymiz. Odam tug'iladi, yashaydi, o'ladi. Tamom. Boshqa gap yo'q.

-Mulla aka, men omi odamman. Gapingizga qarshi bo'lsam ham bir nima deya olmayman. Keling, men g'ishtimni teray, siz o'sha ilmingizni qiling. Qolganini qiyomatda Allohning o'zi bir yoqlikqilib olar.

-Yana qiyomat deysiz-a?

-Mulla aka, siz ishongan ilmingizda qattiq turasiz, men ishonganim Allohdan qaytmayman. Keling, boshqa gaplardan gapiring. Birov Allohga qarshi bir nima deb qo'ysa qattiq g'azablanadigan odatim bor. Ishni boshlamay turib arazlashmaylik.

-Johil bo'lsangiz ham dono ekansiz. Tamom. Boshqa gap yo'q.

O'ziga "johil" jandasi kiydirilganidan ustaning astoydil jahli chiqsa-da, tinchlik sulhini o'zi taklif qilgani uchun qarshi so'z aytmadi. Bu orada ko'chaning narigi betida dahanaki jang olib borayotgan og'a-iniga iblis "so'kib xumordan chiqarmiding, jag'iga musht sol!", deb akaga fitna qildi. Fitna amalga oshgach, ukaga: "ketmonni olib

yelkasiga bir tushirgin, esi darrov o'ziga kelib qoladi", deb vasvasa qildi. Iblisning bir gapini ikki qilishni o'ziga or deb bilgan uka ketmonni qo'lga oldi. Iblis endi xotinlarga: "Shunday tomoshadan chetda turasanlarmi, aralashlaring, bir-birlaringni yulsalaring bu dunyodan bearmon ketasanlar. Ovsinining sochini yulmagan, yuzini timdalamagan xotin bu dunyoda yashadim, demasa ham bo'ladi", degan qutqu bilan ularni tashlanishga shay qildi. Ammo ketmonning qo'lga olinishi Iblisning bu rejasini buzib yubordi. Akaning xotini erini himoya qilish, ukaning xotini esa erini bu jinoyatdan to'xtatib qolish bilan ovora bo'lib qolishdi.

Buni ko'rib turgan usta qo'lidagi g'ishtni tashladi-da, janjalkashlar tomon yugurdi. Ukaning ko'lidagi ketmonni bir siltashda tortib olib chetga uloqtirdi. Keyin ikkovini akaning omonat qurilgan chaylasi tomon boshladi. Xotinlarni chaylaga yaqinlashtirmadi. Unda anchagacha qolib ketdi. Keyin yonidagi buklama o'lchagichni oldi-da, har ikkala hovlini o'lchab chiqdi. Har o'lchaganda tushuntirib turdi. Nihoyat, o'rtaga qoziq qoqdi. Aka-uka ixtiyorsiz ravishda bir-biriga qo'l berib shu ajrimga rozi bo'lishdi-yu, iblisning to'yini rasvo qilishdi. Iblis bunda yengilsa-da, ko'nglidagi bir ishni bajarib oldi: hamma janjal bilan ovora bo'lib turganida Sattorning uy burchaklariga qo'ygan tangalariga nafasini ufurdi.

Oradan o'n to'qqiz yil o'tib, Obodxon aynan shu uyga kelin bo'lib tushdi.

Usta aka-uka janjaliga befarq qaragan Shavkatdan chinakamiga ranjidi. Shomga qadar poydevorning burchaklarini raso qilib berdi. Kechki ovqatni yemay jomakorini yig'ishtirdi.

-Mulla aka, mening ishim o'xshamay qoldi. O'ylab qaragam, yo'l menga uzoqlik qilar ekan. Men bir kunlik ishimga roziman, siz ham bir kunlik non-tuzingizga rozi bo'ling, - dedi-yu, ketdi.

Shavkatning lafz, oqibat, nomardlik degan gaplari javobsiz qolaverdi. Usta Shavkatning nazarida g'isht teruvchilik hunari bilan ro'zg'or tebratuvchi omi bir odam edi. Shu bois uning ahdini nodonlikka yo'yib ko'ya qoldi. Boshqa usta topish tashvishiga yo'liqtirgani uchun bir-ikki kun orqasidan so'qib yurdi-yu, keyin unutdi. Iblis esa ustaning ketganidan g'oyat shod edi. Kuvonmasinmi! Axir shu usta ishlayotgan joyga yaqinlashishga yuragi dov bermasdi. G'ishtni terayotib har "bismillah!" deganida badaniga xuddi o'tkir mix qoqilganday bo'lardi. Iblisning kuni tug'di. Chunki u odam iblis uchun oddiy g'isht teruvchi emas, o'n bir yoshidayoq hofizi qur'on martabasiga yetgan iymon egasi - Umar qori edi. O'n bir yoshidan beri iblisning jonini qiynayotgan usta o'sha kuni bir yanglishdi: Shavkatga achchiq qilib ketib qoldi. Iymon egasining vazifasi arazlash emas, da'vat qilib, adashganlarni hidoyat topishlariga yordam qilish ekanini unutdi. Shavkatning johilligiga toqat qilolmadi, sabri ojizlik qildi. Bu gunohini keyinroq anglab yetdi, tavba qildi. Tavbasining qabul bo'lgan-bo'lmagani bizlarga noma'lum, vallohi a'lam!

Subhi sodiq hech bir xonadonga xiyonat qilmay barchanikiga o'z vaqtida baravar kirib keladi. Bandalarning ayrimlari tong xushxabarini yangi kunga yetkazgani uchun Yaratganga shukrlar qilib kutib olsa, ba'zilar to'yib uxlab olish qasdida iblisning huzurbahsh choyshabiga burkanganicha qarshilaydi. O'rtasi darvozaxona, ikki tomoni bir hildagi uy va ayvondan iborat, hovlining etagi bitta pastak imorat, oshxona,

qo'yxonadan iborat bu xonadon subhi sodiq fazilatini ayniqsa yoz oylari his qilib ko'rmaydi. Faqat nahorgi to'y yoki ma'raka oshlariga borish bahonasida turiladi. Yuz-ko'l shoshib-pishib yuviladi-da, xuddi doshqozondagi osh u borgunicha tugab qoladiganday yo'lga tushiladi.

Darvoqe, bayonda adashildi. Bu xonadonda yashovchi bittagina dakang xo'roz subhi sodiqni qarshilaydi. Qanotlarini patillatib quvonch bilan qichqirgani tufayli uyqusi buzilganlarning qarg'ishiga qolsa ham bir necha soat mobaynida hovlida yakkahokimlik qilib gerdayib yuradi. Obodxon uyg'onib, ostonada paydo bo'lishi bilan uning gerdayishi barham topadi. Qirqta tovuqqa ham bas kela oladigan mag'rur xo'rozning qip-qizil tojidan qon qochib, bir tomonga shalpayibqoladi.

Quyosh terak bo'yi ko'tarildi. Dasturxon ustida nonushta tayyorlab qo'ygan Robiya oshxonada somsa pishirayotgan edi. To'lqin somsa pishishini kutmay murabbo choy ichib o'tirganida to'ng'ichi Salohiddin talabalik kiyimini kiyib chiqdi-da, televizorni yoqdi. Militsiya akademiyasini bu yil bitiradigan Salohiddin uyiga haftada bir-ikki kelib turardi. Kecha shom qorong'usida kirib kelganida amakisi oilasining tashvishidan xabar topib, o'zicha "endi zo'r g'alvalar boshlansa kerak", deb o'ylagan edi. U otasidan farqli o'laroq, har ikki oila orasidagi munosabatni ziyraklik bilan kuzatar, kelajakda ko'ngilni yoritadigan nur ko'rinmayotgani uchun uyga iloji boricha kam kelishga urinardi. Kecha onasi ovsinining qanday baloga uchraganini ayta turib "hamma umid adanglardan, yordam bermasalar biz baloga qolamiz, o'qishingdagi domlalarindan surishtirib ko'rgan, ularning tanishlari ko'p bo'ladi, ertalab ketishingdan oldin adanglarga senam tushuntir", degan edi. Salohiddin ota-onasining fe'lini yaxshi bilgani uchun Robiyaning gapiga "xo'p", dedi-yu, biroq, murabbo choy ichib o'tirgan otasiga indamay qo'ya qoldi. Uyqusi yaxshi o'chmagan kichik ukasi Nuriddinning xo'roz orqasidan yurishigaqarab o'tiraverdi.

Qarshidagi uyda ham harakat jonlandi. Sattor yotoqxonadan maykachan chiqib kelib, kechqurun yig'ishtirilmagan dasturxon ustidagi rangli shirin suvdan ichdi-da, kerishib oldi. Keyin labiga sigaret qistirib, tutatdi. Televizorni yoqib, oshxonada turgan xotiniga:

-Choyni oftobda qaynatyapsanmi, bo'lsangchi tezroq, - dedi.

-Hozir, hozirey, gaz o'lguram pasayib ketdi, - dedi Obodxon norozi ohangda. So'ng o'ziga o'zi gapirganday, ammo eri eshita oladigan balandlikda davom etdi:-Somsa pishiryapti shekilli. Shu somsasi o'lgurni boshqa paytda pishirsa bir joyi kamayib qolarmikin. Atay qiladi bu o'rgumchak.

Robiya qaynota-qaynonasidan qolgan oshxonadan foydalanardi. Garchi bu oshxona ikki oila hojatini chiqarishga moslab kenggina qilib qurilgan bo'lsa-da, yog'in-sochin kunlari hovli orqali qatnashga eringan Obodxon ayvonning bir chetini ajratib, gaz plitasi o'rnatib olgan edi.

Pishgan somsalarni ikki laganchaga solgan Robiya bittasini ochiq turgan deraza orqali eriga uzatib, ikkinchisini ko'tarib Obodxon tomon yurdi.

-Voy, nima qilardingiz, ovora bo'lib, kecha qayningiz zakaz somsa olib kelgan ekanlar, yeyilmay shundayligicha turuvdi-ya!-dedi Obodxon uzatilgan laganchaga istamaygina

qoʻl uzatib.

Robiya “ertalabki nasiba”, deb iziga qaytmoqchi edi, Obodxon gapga tutib qoldi:

-Mullakam ja-a kech keldilarmi? Kechagi gapni soʻrab koʻrdingizmi, opa?

Robiya huddi aybdor odamday ovsinidan koʻzini olib qochdi:

-Soʻraydigan mavridi boʻlmadi. Juda charchagan ekanlar. Hozir choy ichib olsinlar, bafurja gaplashaman.

-Soʻrash shunchalik qiyinmi, opa. Hozir choylarini ichvolib yana ishga shoshib qolmasinlar. Kun oʻtgani sayin ish qiyinlashib boraveradi. Yukning ichida ayniydigan mollaram bor, - dedi Obodxon zarda bilan.

-Obodxon, oʻzingiz yuraqoling, birga choy ichamiz.

-Voy, opajonim, hozir tomogʻimdan choy oʻtadimi? Ikki kundan beri nafas olishimning ham tayini yoʻq. Qiltomoq boʻlib qolganga oʻxshayman

-Qoʻying, Xudo saqlasin, sovuq nafas qilmang, - Robiya shunday deb iziga qayta boshladi.

Obodxonning aytadigan gapini tilga koʻchmay qoldi. Til uchiga kelib qolgan zaxar soʻzi tildan uchmasa Obodxon vujudini choʻgʻdek kuydira boshlardi. Bunga yoʻl qoʻymaslik uchun u tezroq chora topishi shart edi. U ovsini berib ketgan laganchani stol ustiga zarda bilan qoʻydi-da, hovliga qaradi. Rayhonlar orasini titib yurgan xoʻrozga koʻzi tushdi-yu, chorani topdi:

-Hoy, Nuriddin! Xoʻrozing oʻlgurni iniga qama, deb nechchi marta aytishim kerak! Qara, hammayoqni titib yubordi-ya, yashshamagur!

Nuriddin kennoyisining ovozini eshitib shoshib qoldi. “Bu rayhonlarni, bu gullarni mening oyim ekkanlar, atrofini ham oʻzlari supuradilar”, degan gap xayoliga ham kelmadi. “Xoʻrozingning kallasini shart uzib tashlayman”, degan poʻpisani koʻp eshitgan bola shu dahshatli ishning amalga oshib qolishidan qoʻrqardi. Xoʻroz ham bu xotinning gapiga tushunadigan boʻlib qolganmi, bolaning kish-kishlashini kutmay katagi tomon yurdi. Obodxon bu manzaraga bir nafas qarab turdi-da zaxarining qolganini ham tashqariga socha qoldi:

-Iloyim tiqilib oʻlgina. Huddi egasiga oʻxshagan bez-a, tavba qildim!

Robiya ovsinining xoʻroz bahonasida baqirgani bejiz emasligini bilsa ham orqasiga oʻtirilmadi. Salohiddinning yoniga oʻtira turib beihiyor:

-Mol achchigʻi -jon achchigʻi boʻlganidan keyin tomogʻidan albatta ovqat oʻtmaydi-da, - deb qoʻydi.

-Oʻzingcha nimalar deyapsan? - deb ajablendi Toʻlqin.

-Ikki kundani beri o'z yog'imga o'zim qovrilib, ado bo'lyapman, -dedi Robiya nolib.
- Keliningiz ertalabdan diydiosini boshlayapti. U yoqda u meni qovuradi, bu yoqda siz.

-Men seni qovurayotganim yo'q, - dedi To'liqin hotirjamlik bilan, - men indamay choyimni ichib o'tiribman.

-Ha, siz indamaygina choyingizni ichaverasiz. Keliningizni bilmaysizda, a? Uning tilidan tomgan bir tomchi zahardan yuzta ilon shishib o'ladi.

To'liqin qarasa-ki, xotining avzoyi buzila boshlayapti. Boshqa xotinlarday janjal qilish Robiyaga xos bo'lmasa-da, To'liqin uning ko'ngliga yengillik berish uchun hazil qildi:

-Gaping to'g'ri, shuning uchunam bu atroflarda ilon zoti qirilib ketgan. Ovsiningni ko'rsa suratdagi ilonning ham rangi o'chib ketadi.

To'liqin adashdi. Uning hazili xotini xasratini battar alanga oldirdi.

-Masxara qilmang, - dedi Robiya yig'lamsirab, - o'sha zaharli nish menga sanchilyapti.

-Xo'p, nimaqil, deysan?

Ota-onasi o'rtasida boshlanayotgan bu suhbat ishtirokchisiga aylanmaslik uchun Salohiddin sochiqni olib, labini artidi-da o'rnidan qo'zg'oldi. O'g'lining ahdini anglagan To'liqin bir qarashi bilan uni joyiga qaytardi.

-Sen choyingni ichaver, somsadan ol. Qani, ol, - shunday deb o'zi ham laganchaga qo'l uzatdi. Keyin xotiniga qarab, o'sha hazil ohangida davom etdi:- oyijonisi, sen gapiraver. Nima qil, deysan, kelinimning tilini kesib itga tashlaymi? Unaqada bu tilni yegan it zaharlanib o'lsa, uvoliga o'zingqolasan.

To'liqinning hazil o'qlari bu safar ham xato ketdi. Robiya qo'lga sochiq olib xuddi taxlamoqchi bo'lganday silay boshladi. To'liqin uning arazi boshlanayotganini sezib, harakatini indamay kuzatdi.

-Men sizga to'g'ri gapiryapman, - dedi Robiya horg'inlik bilan. - Shu hovlida tinch yashaylik desangiz, ishini qanday qilib bo'lsa ham to'g'irlab bering. Siz erta ketib kech kelasiz, uning qovoq dimog'iga men qarashim kerak.

-Qaraging kelmasa qarama, - dedi To'liqin qo'lga olgan somsani yana qayta joyiga qo'yib. - Men o'sha kuniyoq Sattorga aytganman. Senga kecha ham aytdim: bu ishga aralashmayman.

-Ayniydigan mollari bor ekan...

-Ayniydigan mollari? Eng birinchi ayniydigan mol - uning o'zi! To'g'ri yo'l bilan kirib kelish kerak edi. Endi menga desa irib-chirib ketsin. Tag'in ham qonun bunaqalarni asraydi. Aslida...

Toʻlqin aslida nima boʻlishi kerakligini aytishga ulgurmadi. Robiya uning gapini boʻldi:

-Unaqa demang, nima boʻlganda ham jigaringizning oilasi. Men bu xonadonga kelinman. Kelin hammaning koʻziga hamisha yomon koʻrinadi. Bularingiz har qanaqa yomonlikni birinchi mendan koʻrishadi. Agar meni desangiz, oʻsha savil qolgur molini olib berasiz.

Bu shart Toʻlqinga malol kelib xotiniga norozi qiyofada qarab qoldi. Uning nazarida Robiyaning bunaqangi qatʼiy tarzda gapirishi nojoiz edi.

“Agar meni desangiz...” Robiya ilgari hech bunaqa demagan edi. Agar ovsini bilan yuz koʻrmas darajada urishib “Yo meni deysiz yo ularni!” desa ehtimol bu shartni bajarish Toʻlqinga uncha ogʻir boʻlmas edi. Hozirgi holat... Robiya ular tomonda. Bu tomonda uning bir oʻzi...

Erining oʻylanibroq qolganini koʻrgan Robiya hujumni davom ettirish maqsadida barmogʻidagi ikki uzukni yechib uning oldiga qoʻydi.

-Bu yana nimasi? - dedi Toʻlqin endi bir oz zardali ohangda.

-Shuni sotib harajatiga ishlatasiz. Bunaqa matoh topiladi. Oradagi oqibatni buzmag.

Bu gap Toʻlqinni portlatib yuborayozdi:

-Nima deding?! Oqibatni men buzyapmanmi? - u shunday deb oʻrnidan turib ketdi.

Otasining qistovi bilan olgan somsani yesammi-emasammi, deb ikkilanib oʻtirgan Salohiddin uni qaytarib joyiga qoʻydi-da, labini yana bir marta sochiqqa artib oʻrnidan turgach, er-xotin orasidagi mojaro oʻz-oʻzidan toʻxtadi.

-Muncha shoshyapsan, hali erta-ku? - dedi Robiya ham oʻrnidan qoʻzgʻolib.

-Kecha avtobus kutib kech qolay dedim. Vaqtliroq bora qolay, - deb bahona qilgan Salohiddin “yolgʻonim sezilib qolmasin”, degan fikrda onasining nigohidan koʻzini olib qochdi.

-Bolaga tinchgina choy ichirmasang, oʻtirib nima qiladi? Boraver, - dedi Toʻlqin oʻgʻliga qarab.

Robiya erining tanbehiga ahamiyat bermay, oʻgʻlining yelkasini siladi.

-Bugun vaqtliroqkelarsan?

-Bugun... - Salohiddin onasiga tayinli javob qaytarishga ikkilandi, - bugun kelolmasam kerak. Tadbirlar bor ekan.

Robiya oʻgʻlining bu bahonasiga ishonganday boʻldi. Oʻgʻli narsalarini olish uchun xonasiga kirgach, eriga qarshi boshlagan hujumini boshqa tomondan davom ettirdi.

-Oxirgi kursdagilar kazarmada bir kun ham qolishmas ekan. Borib gaplashing. Mening bolamni nega hadeb olib qolaverishadi?

-Biz o'g'ling bilan to'rt yil avval kelishib olganmiz: men akademiyasiga bormaslikka so'z berganman.

-Unda o'zim boraman.

-Agar o'g'lingning o'rtoqlari orasida isnodga qolishini istasang boraver. O'g'lingga bir qara-chi, emish yoshidan o'tgandir, a?

Salohiddin chiqib, pichingga yarasha javob izlayotgan Robiya chorasiz qoldi. O'g'li yonog'idan o'pib xayrlashayotganida Robiya uni bilagidan ushladi:

-To'xta, o'tir, - dedi. O'g'li omonat tarzda o'tirgach, eriga qaradi:-Adasi, indamay ketavermasin, duoqiling.

To'lqinning uzundan uzoq duo qilish salohiyati yo'q edi. Shu bois qisqagina:

-Omiyn, omadingni bersin, Allohu akbar!-deb qo'ya qoldi.

Bu duodan qoniqmagan Robiya bilganicha davom ettirdi:

-Omiyn, tuproq olsang oltin bo'lsin, oltin boshing Xudoning panohida bo'lsin. Ko'rganing to'y bo'lsin, yeganing qo'y bo'lsin. Yomon ko'zlardan Xudoning o'zi asrasin. Xudo bizga ham yaxshi kelin ato etsin, - duo shu yerga kelganida Robiya boya so'ramoqchi bo'lgan gapini eslab qoldi:-Xolang aytgan qizni qachon borib ko'rasan?

-Imtihondan keyin, oyijon, hozir vaqtim yo'q.

-Imtihondan keyin, deb yuraver-chi, shunday popukdekkina qiz-a! Birov ilib ketganidan keyin chapagingni chalib, attang, deb qolasan, bola!

Turmoqchi bo'lib o'rnidan qo'zg'olgan Salohiddinni Robiya qaytarmoqchi edi, To'lqin aralashdi:

-Gapni cho'zma, bolang shoshilyapti. Duo qilyatuvding. Qani, kelgan joyidan: yegani qo'y bo'lsin.

Robiya erining kinoyasidan bir oz ranjib, norozilik bilan:

-Mendan kulmang, gapim esimda turibdi, - dedi-da, duoni nihoyasiga yetkazdi:-Omiyn, yo'llaring hamisha oydin bo'lsin, aka-ukalarning oqibati to'qiyomatga qadar mustahkam bo'lsin.

Salohiddin onasini yana bir o'pib, chiqib ketgach, er-xotin gaplarini yo'qotganday jim qolishdi. To'lqin ishga shoshmayotgan edi, shu sababli yana choy ichish maqsadida joyiga o'tirdi. Robiya piyolaga choy quyib eriga uzatdi-da:

-Ota boʻlib tuzukroq duo qilishni ham bilmaysiz, - deb gina qilib qoʻydi.

-Shunaqami? - dedi Toʻlqin xotiniga sinovchan qarab. - Sening duoying tilingda, sayrayverasan. Meniki mana bu yerimda, - shunday deb kaftini chap koʻkragiga qoʻydi.

Robiya “shunisiga shukur” deb, yana bir oz jim qoldi. Keyin siniq ovozda soʻradi:

-Oyim rahmatli oʻlishlaridan oldin “oqibatli boʻlinglar”, deb koʻp duo qiluvdilar, esingizdami?

-Esimda... - Toʻlqin horgʻinlik bilan asta uf tortib qoʻydi. Robiya oʻsha siniq ovozda gapini davomqildi:

-Sizlar... bunaqa boʻlib qoldinglar... Duolari qabul boʻlmaganmikin? Voy Xudoyim-ey...

Hozirgina ezgin ruhga tushgan Toʻlqin bu gapdan keyin achchiqlandi:

-Duo qabul etilishi uchun bu yoqdagilarda insof boʻlishi kerak, aql boʻlishi kerak, - dedi balandroqovozda.

-Siz akasiz, tushuntiring.

-Hozir ularning quloqlariga dollar qoʻrgʻoshinday quyilib qolgan. Gap oʻtmaydi.

-Gap oʻtmasa... shunday yuraverasizlarmi?

-Yurishimizga nima boʻlibdi? Ukam salom beradi, men alik olaman. Hozircha shu ham yetadi.

“Shu ham yetarli...” Robiya erining sovuqqonlik bilan aytgan bu gaplariga nima deb eʼtiroz bildirishni bilmay lol qoldi. Nima desin: “nahot aka-ukaning munosabatiga shu salam-alik kifoya qilsa? Mehr-oqibatning chegarasi shu darajada tormi?” desinmi? Yoki: “adangiz bilan oyingiz bu qoʻshqanot uyni shu maqsadda qurib sizlarga tashlab ketishganmi?” degani maʼqulmi? Bularni avval aytgan, javobiga erining norozi qarashi bilan taqdirlangan edi. Hozir aytsa ham shundan boʻlak holat yuz bermaydi.

Robiyaning nazarida hovliga bombalar koʻmib tashlanganga oʻxshaydi. Bombalar yoʻqotilish oʻrniga har kuni yana bittadan yoki ikkitadan yangisi koʻmilaveradi. Bechora shu bombalardan birortasini bosib olib portlab ketmayin deb hadiksirab yuradi. Ovsinining moli munosabati bilan yanada koʻp, yanada dahshatli bombalar koʻmildiki, oyoq bosishga endi joy ham qolmadi. Ehtimol shularni aytgani maʼquldir? “Jon adasi, molini bir iloj qilib oldirib bering, boʻlmasa bu bombalar birin-sirin portlashni boshlaydi”, desa-chi? U jon kuydirib aytadigan gaplariga sovuqqon ohangdagi “vahima qilaverma, sen qoʻrqayotgan bombalarning hammasi piyoz poʻstidan yasalgan. Bularning burniga suv kirishi kerak, shunda koʻzlari ochiladi”, degan javobni eshitmaydimi?

Robiya shunday fikrlar bilan gapga taraddudlanib oʻtirganida Toʻlqin hovlidagi katak oldidan jilmayotgan oʻgʻlini chaqirdi. Nuriddin “Labbay adajon, hozir”, dedi-yu, lekin oʻrnidan jilmadi.

Nuriddin oʻn yilga yaqin umr koʻrib, koʻp narsalarga aqli yetadigan boʻldi. Lekin kattalarning gaplari, ishlari, oʻzaro muomalalariga tushuna olmaydi. Hozir ham bir muammoni yecholmay garang: “shunday katta hovli turganida bu xoʻrozni nima uchun katakka qamash kerak? Gullarning orasini titsa nima boʻpti? Shunday chiroyli, gapga tushunadigan aqlli xoʻrozni nima uchun yomon koʻrishadi?” Nuriddin savoliga javob topa olmaydi. Baʼzan shunga oʻxshash savolni kattalardan soʻrasa “hali yoshsan, aqling yetmaydi” degan javobni eshitadi. Aqli yetishi uchun yana necha yil sabr qilib ulgʻayishi lozimligini esa oʻzicha taxminan hisoblab qoʻygan. Sakkiz yoki toʻqqiz yil. Koʻpi bilan oʻn yil. Ana shunda kata boʻladi. Keyin yuzta xoʻroz sotib oladi... Shunday shirin orzu bilan oʻtirgan bolaga otasining chaqirgani, somsa yeyishga taklif qilgani uncha taʼsir etmadi.

Oʻgʻlining indamay oʻtirgani Robiyani picha havotirga solib, u ham chaqirdi. Nuriddin erinibgina oʻrnidan turgan damda televizorda gapirayotgan qizning “Koʻrsatuvimizni tayyorlayotganimizda uzoq Koreyadan xushxabar oldik”, degan soʻzlari er-xotin diqqatini tortdi. Shu paytga qadar undagi gaplarga ham, ashulalarga ham parvo qilmayotgan er-xotinning bu eʼtiborlari bejiz emas. Oʻrtancha oʻgʻillari Bahridin musiqa cholgʻuvchilari tanloviga ketganidan beri Koreya mamlakati tilga olinishi bilan ikkovlarining diqqatlari shu xabarga qaratiladi. Bu safargi xabar ularning tutab turgan tashvishlarini nari surib, koʻngillarida shodlik alangasini yoqib yubordi. Robiya shoshilganicha turib, televizorning ovozini balandlatdi. “Xabaringiz bor, u yerda sharq xalqlari orasida keng tarqalgan puflab chalinuvchi cholgʻular ijrochilarining xalqaro koʻrik-tanlovi boʻlayotgan edi. Mazkur tanlovda Milliy konservatoriyamizning birinchi bosqich tolibi Bahridin Sadirovning nayda ijro etgan kuylari yuqori baholanib, gran-pri - oliy sovringa munosib koʻrildi. Oʻzbek sanʼatining xalqaro miqyosda eʼtirof etilishi barchamiz uchun quvonarli holdir. Bahridin safarga ketish oldidan studiyamiz mehmoni boʻlgan edi. Hozir videotasmaga yozib olingan suhbatni eʼtiboringizga havola qilamiz”.

Shu topda ota-ona uchun atrofda barcha ovozlari tindi. Hatto yuraklarining dukuri ham egalariga halal bermaslik uchun tovushini pastlatganday boʻldi. Agar bir kuch dunyodagi borliq shodliklarni toʻplab kelsa Robiya bilan Toʻlqinning quvonchlari huzurida arzimasi boʻlib qolarmidi. Ularning bu ondagi holatlarini bayon etmoqqa qalam ojiz. Bunday xushnudlikni farzandi kamolidan mast boʻlgan odamgina his qila oladi.

Robiya televizorning yaqiniga surildi. U oʻgʻlining tasvirini shu televizorga qoʻshib quchoqlagisi kelardi. Agar biron qaygʻu haqida soʻz ketsa “Bunchalar gʻam-alamga yurak qanday chidadi ekan?”, deb qoʻyiladi. Shodlik ham shunday: kishi olam-olam shodlik seli oqimi ostida qolsa yurakning chidashi qiyin. Er-xotinni hozir yuraklarining ahvoli qiziqirmaydi. Ular uchun hozir dunyoda bitta shu televizor va undagi oʻgʻillarining tasviri mavjud. Dastlab suhbat

quloqlariga ham kirmadi. Tasvirga mahliyo boʻlib oʻtiraverishdi. Quvonch vulqoni sal bosilganday boʻlgach, soʻzlar ham eʼtiborlarini tortdi.

-Men xalqaro tanlovda o'zim ijod qilgan "Sog'inch" degan kuy bilan ishtirok etmoqchiman, - dedi Bahridin.

-Kuyning nomini nima uchun "Sog'inch" deb atadingiz? - deb so'radi suhbatdosh qiz, - Sizing yoshingizda aytaylik, "Muhabbat navolari" yoki "Ishqim sadolari" deyish to'g'riroq bo'lmasmikin? "Sog'inch..." Agar sir bo'lmasa ayting-chi, qaysi qizni sog'inib yozgansiz? Balki o'sha qiz hozir sizga qarab o'tirgandir?

Bahridin darrov javob bermadi. Ko'lidagi nayga tikilib turdi. Keyin ota-onasining tikilib turganini bilganday xasta ovozda javob qaytardi:

-Kuy qizga atalmagan... Bu kuy... bobom bilan buvimga bo'lgan sog'inchim...

Bahridin yana nayiga tikilib turdi-da, so'ng labiga yaqinlashtirib chala boshladi. Kuy avvaliga uzoqlardan eshitilganday bo'ldi. Tasvirda kuyga mos ravishda poyonsiz bog'lar ko'rindi. Bahridin nayni go'yo nafas olmasdan chalayotganday edi. Kuy uzilmasdan davom etardi.

Gullagan bog'lar umrini yashab bo'ldi, hazonrezgi boshlandi...

Tasvir ortida kimdir xazin ohangda she'r o'qiy boshladi:

She'rning so'zlarini eshitib Robiya sergak tortdi. Bu so'zlar unga tanish edi. Qayerda o'qigani yoki eshitganini darrov eslay olmadi.

Ha, esladi: yozuv stoli ustidagi bir varaq qog'ozga yozilgan she'r edi u. Robiya uni o'qib g'oyat ta'sirlangan edi. O'g'lidan "Buni o'zing yozdingmi?" deb so'raganida Bahridin "ha" ham, "yo'q", ham demay jilmayib qo'ygan edi. Robiya o'sha onni yodlab, ko'zlariga yana yosh oldi.

Kuy xayolni o'g'iraydigan sehri bilan suzib yurardi. Uning go'yo qanotlari bor edi. Tinglovchilarni shu qanotlariga o'tqazib o'tmishning xotira dunyosiga uchirib borardi...

So'z tindi...

Kuy ham tindi...

Horij atirsovunlarining afzalliklarini maqtovchi reklama boshlandi.

Reklamani eshitishmadi.

Kuy va she'r sehri eltib ko'ygan xotira dunyosidan ular qaytganlaricha yo'q. Bu dunyoning ko'ngilga yupanch beruvchi nafasi bilan birgalikda dilni tilim-tilim qiluvchi oshpichoqlari ham bor. Ayni damda o'sha oshpichoq ishga tushgan, hozirgina shodlikdan jo'shayotgan ko'ngillarni qiynoqqa ola boshlagan edi.

Kuyni uyg'otgan tuyg'u - bobosi va buvisi sog'inchi.

She'riy satrlarni uygʻotgan-chi?

Bunday satrlar mehr-oqibat koʻtarilgan joydagina yozilishi mumkin. Mehirsizlikdan zada boʻlgan koʻngildagina tugʻiladi bu satrlar.

Robiya buni angladi. Anglagani uchun koʻz yoshlarini darrov toʻxtata olmadi. She'r Toʻlqinga ham ta'sir qildi, biroq "buni oʻgʻlim yozgan", degan fikrdan uzoq boʻlgani uchun mohiyatiga kirib bora olmadi.

* * *

Koreyadan xushxabar kelganini qarshidagi uydagilar ham eshitishdi. Ichkari xonada kiyinayotgan qizlar qiya ochiq eshikdan televizorga qarashdi. Obodxon esa ensasi qotib eridan:

-Voy savil, shu tayoqni puflasa ham mukofot ekanda,a? Qancha berarkan? - deb soʻradi.

-Men qayoqdan bilaman, besh-oʻn ming berar.

-Dollarmi?

-Dollarmi, boshqami, senga nima?

-Menga nimaligini aytaymi? Agar tuzukroq pul olib kelsa, akangizga ayting, pullarni chirt-pirt qilib sovurmasdan bitta hovli-joy olib chiqib ketsin. Siz kenjasiz.Uy hamma joyda ham kenjaga qoladi. Lalaymasdan haqingizni talab qiling.

-Men talab qilaymi? - dedi Sattor jahl bilan.

Shu onda iblis ustalik qildi: Obodxonning qoʻli bilan uning yarasiga tuz sepdi. Iblisning rejasi boʻyicha jahl olovida qovrilgan Sattor: "Men aytayinmi unga? Oʻzi aqlini ishlatsa boʻlmaydimi? Agar odamda insof bilan akl boʻlmasa shunaqa bez boʻlib yashab yuraveradi. Unga gapirginu qochgin: darrov haqiqatdan safсата sotadi. U bilan milisa maktabida birga oʻqiganlardan bittasi hozir polkovnik. Qurgan uyini koʻrsang ogʻzing ochilib qoladi. "Akang ahmoq, u oʻziga "haqiqat" degan somon uy qurib olgan", deydi. Toʻgʻri aytadi. Bu qaynogʻang odam boʻlmaydi", - deb baqirib berishi kerak edi. Uning bu gaplarini narigi ayvondagilar ham eshitishi shart edi. Keyin voqea shunga qarab iblis yoʻrigʻida davom etaverardi. Lekin iblis sal yanglishdi, ukada oz boʻlsa-da, andisha borligini hisobga olmadi. Bu soʻzlar Sattorning yuragidan otilib chiqqan boʻlsa-da, tilga koʻchishiga ana shu andisha yoʻl bermadi.

Bu orada maktab liboslarini kiyib olgan toʻngʻich qizlari Oftobxon chiqib ularga tanbeh bergan boʻldi:

-Shunaqa paytda biram gappinglar koʻpayib ketadi-ki, eshitgani ham qoʻymaysizlar, - dedi u.

-Nimani eshitasan? - dedi onasi zardali ovozda.

-Bahridin gapirdi-ku?

-Gapirsa gapiribdi, nima boqpti, osmon uzilib yerga tushibdimi? Hozir zamon oqzi shunaqa teskari: qarqunoqdan bulbul chiqadigan boqilib qolgan.

Oftobxonga bu gaplar yoqmadi: "Voy, oyi-ey" deb qoqydi norozi ohangda.

-Nima, "oyi-ey!", - dedi Obodxon zardali ohangidan voz kechmay. - Saharmardonda qayoqqa otlanib olding?

-Sinf rahbarimiz bugun vaqtlitroq kelinglar, deganlar. Maslahatli gaplari bor ekan.

-Maslahatni shunaqa saharwardonda qilarkanmi? - deb soqradi Obodxon qizining gapiga ishonqiramay.

Qiya eshik ostonasida turgan Oynisa bu gapdan keyin ona-bola orasida tutayotgan oqtga moy sepmoqchi boqldi. Sattor ichkoqylakda, sochlari taralmagan holda chiqib kelgan qiziga oqqrayib qaradi-yu, keyin yuzini burib oldi. Oynisa otasining noroziligini anglamay onasiga yuzlandi:

-Voy, oyijon, qizingiz koqchada yolgqiz yurishga qoqrqadi-ku? Mirshab akajonisi koqchadagi bobovlardan oqtqizib qoqymasa, maktabiga yetib borolmaydi-ku, bechora!

Bu pichingdan gqazablangan Oftobxon singlisini biqinidan chimchilab oldi. Ogqriqdan chinqirib yuborgan Oynisa javob qaytarmoqchi edi onasi oqrtaq tushdi.

-Kir, ichkariga! Yuviqsiz beting bilan chiqma, deb ming marta aytdim, senga.

-Hadeb shuningizning yonini olaverasiz, uning yurishini hamma biladi, - dedi Oynisa yigqlamsirab.

-Bilsa bilaversin, - Obodxon shunday deyishga dedi-yu, Oftobxonga qovoq uyub qaradi. - Yursa akasi bilan yuribdi. Begonamas, amakisining oqgqli.

-Ha... akasi... - Oynisa yangi fitnani boshlamoqchi edi, Sattor unga qarab baqirdi:

-Oqchir ovozingni! Hamma narsaga burningni tiqaverma, sen qiz.

-Siz aralashmay turing, adasi, - dedi Obodxon.

-Nega aralashmayman. Kecha buning kiygan koqylakni koqrdingmi?

-Koqrغان boqlsam nima boqlibdi?

-Ona boqlib sen indamay men gapiraymi? U koqylak emas, bir balo-ku! Kindigigacha koqrinib turibdi-ku?

-Siz aralashmang. Yoshlarning xohishi shu. Xohlaganini kiyadi, - deb bahsga keskin yakun yasagan Obodxon qiziga: -Kir, ichkariga, - deb buyurdi, soqng toqngqichiga

yuzlandi:-Hov birda ham qadamingni bilib bos, bu mirshabdan uzoqroq bo'l, devdim, a?

-Hammasi bo'lmagan gap, - deb yig'lamsiradi Oftobxon, - Bu shpioningiz to'qiyveradi. O'zingiz aytdingiz-ku: biz aka-singilmiz.

-Shunaqami? - dedi Obodxon kinoya bilan. - Yaxshi, to'yinggacha aka-singil bo'lib yuraver.

Bu gapdan Oftobxon seskanib tushdi:

-Qanaqa to'y? - deb so'radi havotir bilan.

-Biz, - Obodxon shunday deb eriga qarab qo'ydi, - seni unashtirib qo'ydik.

-Qanaqasiga? - Oftobxon otasiga najot ko'zi bilan qaradi. Xotining gapi Sattor uchun ham yangilik edi. Shu bois qizidan ko'zini olib qochdi.Otasining ahvolini anglagan qiz onasiga qarab:-Qachon? - deb so'radi.

-Bunga ancha yil bo'lgan. Shu kuzda Xudo xohlasa to'y. Manavi savil qolgur ishim to'g'ri bo'lsa, puliga Italiyaning mebelini olaman, deb niyat qilib qo'yanman. Sening seping shu shahardagi eng zo'r seplardan bo'ladi.

Oftobxon hozir sep haqida o'ylaydigan ahvolda emasdi. Uning hatto gapirishga madori ham qolmaganday edi. Jim ham turolmasdi. Shu bois lablari titragan holda:

-Men... hech kimga tegmayman, - deyishga kuch topdi.

-Bu dunyoda erga tegmaydigan qiz bo'lmaydi, bildingmi!-dedi Obodxon qat'iy hukm tarzida.

-Oyi... - dedi Oftobxon yig'lamsirab.

Obodxon qiziga chimirilib qarab nimadir demoqchi bo'lgan edi, Sattor gapga aralashdi:

-Bo'пти, boraver, maktabingga kech qolma, - dedi. Keyin xotiniga qarab tanbeh berdi:- Bunaqa gaplarni oyoq ustida gaplashmaydi.

Bu tanbeh Obodxonga yoqmasa ham indamadi. Odamlar orasida "yaxshi xotin bitta gapdan qoladi" degan naql yuradi. Obodxonning yaxshimi yo yomon xotin ekanini bilmaymiz-u, ammo yilda uch-to'rt marta bo'lsa ham bitta gapdan qoladigan vaqtlari topiladi. Alhol shunday olamshumul voqea sodir bo'ldikim, Sattor Xudoga shukur qilsa ham arziydi.

Oftobxon araz holatida chiqib ketgach, Sattor xotiniga savol nazari bilan qaradi:

-Ha, xo'jayin, - dedi piching bilan, - Mensiz qiz unashtiradigan bo'lib qolibsizmi?

-Xah,piching qilmay qo'ya qoling, shu gapga ishondingizmi? Bir popugini pasaytirib qo'ygim keldi-da. Shunaqa deb turmasam, bu qiz o'lmagurning ko'zi mirshab

jiyaningizdan uzilmaydigan boʻlib qolgan.

-Endi shu yetmay turgan edi.

-Ha-da! Maktabni bitirishi bilan uzatib yuborish kerak. Yana uni oʻqisin, deb yurmang.

-Men uni oʻqiydi, debmanmi?

Ularning suhbat shu yerga kelganda televizordagi reklama tugab, yana Bahridin koʻrindi. Suhbatdosh qiz Bahridinning qoʻlidagi nayni olib avval u yoq bu yogʻini qaradi, keyin puflab chalmoqchi boʻldi. Oʻzining noshudligidan uyalganday nayni egasiga qaytarib bera turib:

-Ajab va ming marta ajab, - dedi hayajon bilan. - Oddiy daraxt shoxidan ishlangan bu cholgʻudan shunchalar sehr taralsa. Bahridin, siz bilan bizga ajratilgan yana bir necha daqiqa vaqt bor. Shundan foydalanib yana bir-ikki savol bermoqchiman. Aytinch, sizning sanʼatga kirib kelishingizga kim sababchi? Balki ota-onangiz sanʼatkor boʻlishgandir?

Bu savolga Bahridin qisqagina “yoʻq”, deb qoʻydi-yu, lekin Obodxon bunga qoniqmay televizordagi suhbatdosh qizga qarab javray ketdi:

-Ha, ota-onasi naq sanʼatkorning oʻzi! Otasi surnaychi-yu, onasi karnaychi!-Shunday deb eriga oʻgirildi:-Shuni oʻchirib qoʻysam bir narsa boʻladimi? Shuyam yoniq tursa pul ketadi.

Obodxon erining roziligi yoki eʼtirozini kutmasdan oʻz istagini oʻzi bajarib qoʻya qoldi.

-Oʻlguday injiq boʻlib ketyapsan-da. Shu zaharliging uchun aslida siqilib, ozib, choʻp boʻlib ketishing kerak edi, - Sattor shunday dedi-yu, ammo xotining vazifasi siqilish emas, boshqalarni siqish ekanini oʻylab koʻrmadi. Zotan, boshqalarni siqib sil qilish uchun yaratilgan xotinlardan birontasining shu paytgacha ozganini tarix koʻrmagan. Shunday boʻlsa-da, Obodxonga erining gapi sal ogʻir botdi:

-Shunaqa deb turing-chi, niyatingizga yetib qolarsiz, - dedi mingʻirlab. Keyin birdan qatʼiy ohangga oʻtdi:- Qani, choyingizni ichib boʻldingizmi? Turaqoling.

-Ha, yana nima boʻldi. Kechasi jin-pin chalganmi seni? Nima deyaverasan?

-Akangizning oldiga chiqing. Gaplashing. Mehribon yangachangiz kechasi soʻramabdilar. Erchalari charchab kelganmishlar. Kechasi yaxshilab koʻngillarini olgan boʻlsalar, charchoqlari chiqqandir. Men u oʻrgumchak oʻlgurga ishonmayman. Oʻzingiz gaplashing. Ammamning buzogʻiday lalaymay, dangal-dangal gapiring. Agar ishimizni toʻgʻirlab bermasa, biz ham boshqacha gaplashamiz. Shuncha chidaganimiz yetar. Uyni boʻshatib qoʻysin. Siz adangizning xatini talab qiling. Men adam rahmatliga rosa qaraganman. Ishtonlarigacha yuvganman.

-Minnat qilavermagin endi shuni.

-Siz jim oqtirib, gapimni oxirigacha eshiting: osha xatda adam uyni bizga vasiyat qilgan boqishlari kerak. Shuning uchun berkitib yurishibdi.

Sattor chuqur “uf” tortdi-da, yelkasidagi ogqir vazifa yukini koqtarishga qiynalganday stolga tiralib turdi:

-Agar uyni bizga xatlagan boqsalar u qogqozdan umidingni uzaver, deganman senga.

-Nega umidimni uzarkanman? - dedi Obodxon uning yoqlini toqsib.

-Unaqa xatni koqrsatadigan ahmoq yoq. Allaqachon yoqib yuborishgandir.

-Agar xatni yoqishgan boqlsa oqlari doqzaxda yonishadi. Yonishmasa rozimasman.

-Qoqysang-chi.

-Yoq, baribir soqrang. Talab qiling!

* * *

Chap tomondagi ayvonda iblis tantanasi avjga chiqqan pallada oqng tomondagi uy sohiblari farzandlari kamolidan mast edilar.

-Muborak boqlsin, onasi, shunaqa boqishini istarding, umiding yuz baravar oshigqi bilan ushaldi chamamda.

-Mendan koqra... - endi Robiya chinakamiga yigqlab yubordi. Ovungunicha Toqlqin unga kulimsirab qarab turdi. - Mendan koqra adam bilan oyim rahmatli koqrishsa qanchalar quvonishardi...

-Gaping rost, - dedi Toqlqin yengil xoqrsinib, - Balki... ruhlari quvonayotgandir, a? Robi, Bahriddinning qaytishiga tayyorgarlik koqrib qoqyishimiz kerakmikin? Ustozlari tabriklab kelar, toqn kiygqizmasak boqlmas. Har holda hurmati-da! Keyin... bir narsani oqylab yuruvdim...

-Toqxtab turing, eshitib olaylik, - Robiya shunday dedi-yu, keyin chap tomondagi uy tomon qarab qoldi. - Voy adasi! Voy oqlmasam!-dedi vahima ohangida. Bu ohang erini bir zum gangitib ham Qoqydi:

-Ha, nima boqldi? - dedi Toqlqin havotirlanib.

-Ukangiz... - Robiya gapini darrov ayta olmadi. Bir qarshi tomondagi ayvonga, bir eriga qarab, endi pastroq ovozda dedi:- televizorlarini oqchirib qoqyishdi. Voy oqlmasam, shungayam ichqoralikmi?..

-Adashyapsan, - dedi Toqlqin ukasining ayvoni tomon qarab qoqyib, - ular ertalabdan televizor qoqyishmaydi. Bugun ham koqyishmagandi.

Robiya “Voy...” deb e’tiroz bildirmoqchi edi, eri gapirishga qo‘ymadi:

-Har narsadan gumonsiraverma. Ko‘nglingni sal kengroq qil. Biz keng bo‘lsak, ular ham keng bo‘lishadi.

Robiya gapni ko‘paytirmay, ko‘kragini ushlab “Xo‘p, mayli”, deb qo‘ydi. Bundan foydalangan To‘lqin mavzuni boshqa tomonga burdi:

-Robiya, ko‘rding-a, endi o‘g‘limiz ijod qiladigan odamlar qatoriga qo‘shilib qoldi. Ijodkorlarga alohida sharoit yaratib berish kerak. Bahriddinga alohida xona qilib bermasak bo‘lmas.

-Alohida xona, deysizmi? Adam bilan oyimning uylarini mo‘ljallayapsizmi? Bo‘lmaydi.

-Nega?

-Kelingiz omborxonasini osongina bermas. Qo‘ying, gapni ko‘paytirmang.

-Unda qo‘yxonani buzib, shinamgina uycha qilib beramiz. Amal-taqal qilib bo‘lsayam pionino olish kerak. Bitta nay bilan ish bitmaydi.

Er-xotin bu masalada bir to‘xtamga kelishga ulgurmay ostonada Sattor ko‘rindi. To‘lqin “hoynaxoy yangilikni eshitib tabriklagani kelgandir”, degan xayrli umidda ukasini shodon kutib oldi. Xotiniga “ko‘rdingmi, hozirgina yomon gumon qiluvding, ukam unaqalardan emas”, degan ma’noda qarab qo‘yishni ham unutmadi. Ukasi o‘tirgach, undan tabrik so‘zini kutdi. Xotini bergan topshiriqni bajarish xayoli bilan band Sattorda tabriklash niyati yo‘q ekanligini u qayerdan bilsin? Robiya choy quyib qaynisiga uzatdi. To‘lqin somsa to‘la laganchani u tomon surib qo‘ydi. Sattordan sado chiqavermagach, Robiya erining boyagi tanbehli nigohiga “Qalaysiz endi, men haq ekanmanmi?” degan ma’noda qarab qo‘ydi. To‘lqin ukasining nima maqsadda chiqqanini fahmlasa ham bilmaganday o‘tirdi. Sukut uzoq cho‘zilishi mumkin emasdi. Shu bois so‘zni o‘zi boshladi:

-Xursandchilikning ustidan chiqding, jiyaning xalqaro tanlovda birinchi o‘rinni olibdi.

-Qaysi biri? - deb so‘radi Sattor bu yangilikni endi eshitayotganday.

-Bahriddin-da, - dedi To‘lqin ukasiga tikilib. U tergov qilayotgan gumondor shaxsning yoki guvohning gapi to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini bilish maqsadida ko‘zlariga qattiq tikilardi. Hozir ukasiga shunday qaradi. Sattor bu nigohga dosh berolmay, ko‘zlarini olib qochdi. To‘lqin esa uning holatini sezmaganday gapi ohangini o‘zgartirmadi. - Koreyaga ketganini eshitmaganmiding?

-Eshituvdim-u... - Sattor nima deyishni bilmay chaynaldi. “Kirganimda darrov tabriklab ko‘ya qolsam bo‘larkan”, deb o‘ziga o‘zi tanbeh berdi. Og‘ir vaziyatdan qutulish uchun nimadir deyishi kerak edi. Kallasiga kelgan gapni o‘ylab ham o‘tirmay tiliga chiqara qoldi: -nima, u yerdagilar ham nay chalisharkanmi?

-Xuddi biznikiday bo'lmasa ham shunga o'xshagan cholg'ulari borda, - dedi To'liqin.

-Buni bilmabman. O'zi telefon qildimi?

Uning bu o'yni Robiyaga yoqmay, gapga aralashdi:

-Bolam birinchi mukofotni emas, undan ham zo'rini - "Gran-pri"ni olibdi. Hozir televizorda aytishdi. Butun olam eshitdi-, faxr va g'urur bilan aytilgan so'zdan keyin kinoya ham unutilmadi:- Sizning televizingiz yaxshi ishlamaydi, shekilli, a? Obodxonga ayting, usta chaqirsinlar.

Sattor kinoyaga tushunmaganday kulimsirab, akasiga:

-Yuvarkanmiz-da? - debqo'ydi.

-Yuvish sendan aylansin, ukajon, - dedi To'liqin. - Chiqqaning yaxshi bo'ldi. Sen bilan maslahatlashadigan gap bor. Mana eshitding, jiyaningning parvozi yaxshi boshlanyapti. Xudo xohlasa, u avlodimiz dovrug'ini butun dunyoga taratadi.. Oynisangning ham ovozi yaxshi. Uniyam shu o'qishga bersang...

-Be, nima deyapsiz! Mening qizim artist bo'lmaydi!

Bu gap er-xotinga og'ir botib bir-birlariga qarab olishdi, ammo sir boy berishmadi.

-O'zing bilasan, - dedi To'liqin choy ho'plab olib. - Hullas, Bahriddinning yaxshi o'qib, yaxshi ijod qilishi uchun sharoitini yaxshilab bersam, devdim. Sen xo'p, desang, qo'yxonaning o'rnini buzib, bitta uychaqursam.

Akasining bu gapi Sattor uchun kutilmagan edi: otasining xati, uyning kenjaga qolishi... bu masala qayda-yu, qo'yxonaning buzilishi qayda! U akasiga ajablanib qaradi. Keyin uning yuzida zaharli kulgu paydo bo'ldi. So'ng tilga kirdi:

-Iy-e, aka, bu gap qiziq bo'ldi-ku? Nay chalishga ham alohida xona shartmi? Qayerda bo'lsa puflab yuraveradi-da.

-Sen shunaqa deysan-ku, lekin ijod qiladiganlarga alohida...

Akaning gapi chala qoldi. Iblis Obodxonga betgachoparlik darsini o'tayotganida Sattorning qulog'iga ham u-bu kirib qolganmi, har nechuk ba'zan xotinidan qolishmaslika urinib qo'yadi. Alhol shunday vaziyat vujudga keldi:

-Alohida joy kerak bo'lsa, ana, uchta xonangiz bor, bittasini bering-ko'ying.

-Baribirqo'y boqmayapsan-ku?

-Nega boqmayman? Erta-indin surxondaryolik tanishlar beshta histori qo'chqor olib keladigan.

-Shunaqami?.. - Bir sakrab bu uyga o'tgan iblis To'liqinning qulog'iga: "ukangning

shu ablahligi uchun ko'lingdagi piyolani ot! Hech bo'lmasa so'k! Chidashga haqqing yo'q!" deb shivirladi. Iblisning baxtsizligini qarangki, To'lqin uning vasvasasiga bandi bo'lmadi. To'g'ri, oradagi kelishmovchilik jari kengayib bormoqda edi. Biroq, To'lqin otasi va onasining "ukangni senga qoldiryapmiz, unga mehringni ber", degan vasiyatini chetlab o'ta olmasdi. So'nggi nafas bilan chiqqan bu so'zlar uning qalbiga muhrlangan edi. To'lqin "Unaqa bo'lsa mayli, ukajon, endi oramizda boshqa gap yo'q, chiqib ketaverishing mumkin", degan ma'noda qaradi. Sattor merovlardan emas, bu qarashning ma'nosini uqdi. Indamay chiqib ketadigan lapashanglardan ham emas, akasining ranjiganini sezmaganday muddaosiga ko'cha qoldi:

-Aka, mening chiqqanim... keliningizning ishi nima bo'ldi? Bugunga umid bormi?

-Surishtirdim... tanish chiqmay turibdi. Bugundan ham, ertadan ham umid yo'q.

-Aka, astoydil harakat qilinsa, do'zaxning ichidan ham tanish topish mumkin.

-Do'zaxdan deysanmi? Do'zaxga borish uchun tanish topish shartmasdir, deymanov?

-Endi bu bir gapiy-da, judayam intizor qilib yubormang bizlarni. Uka bo'lib endi ishim tushdi sizga.

-Shunaqami? To'g'ri aytasan, bultur qayning qamaladigan bo'lgandayam ishing tushmovdi. O'zim tushimda ko'rib, hal qilib beruvdim.

-Voy-bo'... shu minnat qilishingiz yomonda.

-Minnatmas bu. Gapingga yarasha javob qildim.

-Xo'p, bizdan o'tdi, uzr, - Sattor shunday deb, o'tirgan yerida qulluq qildi. Keyin tersroq ohangda so'radi: -Nima qilaylik, kutib turaylikmi yo o'zimiz boraylikmi?

-Menga judayam ishonma. Istasang o'zingcha harakat qilib ko'r.

-Kennoyi, eshityapsizmi? Bo'sh paytingizda xo'jayiningizga mehr-oqibatdan ozgina o'qib qo'ying.

Dunyo ajabtovurda! Orada bahsli muammo yuzaga kelsa, kimda nima bo'lmasa o'shani boshqalardan talab qilishni boshlaydi. Fohisha boshqalardan insofni, poraxo'r adolatni, g'iybatchi vijdonni... talab qilaveradi. Hozir ham ayni holat yuz berdi. Robiya "Mehr-oqibatni avval sizga o'qitish kerak", degisi keldi-yu, o'z ta'biri bilan aytgan bombalardan birining portlab ketishidan cho'chib, o'zini o'zi yaxshi gapirishga majburladi:

-Sattorjon, akangiz sizlarga yaxshilik qilmasalar kimga qiladilar? Sizlardan boshqa yana kimlari bor?

-Shuni bilarmikinlar?

Bu gapdan keyin To'lqinning qovoqlari uchdi. Xotiniga qaragan edi, uning mehrli

nigohida “bitta gapdan qoling” degan ma’noni uqib, unga itoat qildi. Bitta, hatto ikki-uchta gapdan qolishga qurbi yetardi. Lekin behisob gapdan qolish shu paytgacha hech kimga nasib etmagan. To’liqin ukasi bilan bahslashishni bas qilish maqsadida bilagidagi soatiga qarab oldi-da, o’rnidan turdi.

-Ishga ketadigan vaqtim bo’ldi, - deb gapni qisqa qildi.

Akasining bu harakatini Sattor “Bor, uyingga jo’na”, degan ma’noda qabul qilib, og’ringanicha o’rnidan turdi. To’liqin kiyimini almashtirish uchun ichkari xonaga kirdi. Sattor akasining harakatidan ranjib, Robiyaga qarab qo’ydi-da, tashqariga yo’l oldi. Ikki o’nt orasida qolgan Robiyaning nazarida bu holat bombalarning portlashidan aniq nishona edi.

Oftobxonning Salohiddinga ko’ngli borligi haqidagi gumon u chiqib ketganidan keyin unutildi. Chunki bu xonadonga doir undanda muhimroq muammolar bor edi. Sattor qizi bilan jiyani orasida muhabbat tug’ilishi mumkinligiga uncha ishonmasdi. Obodxon ham ishonmas edi, biroq o’rtancha qizining maktabdan topib kelayotgan gaplari uni ba’zan o’yga toldirib ko’yardi. U ovsini bilan quda bo’lishini tasavvuriga sig’dira olmasdi. Obodxonni boshini qotirgan eng muhim narsa - erining jiyani kuyov bo’lsa uning uyga ega chiqish xususidagi ko’p yillik orzularini tiriklayin qabrga ko’mib tashlardi. Kelishgan, ko’rkam yigit - Salohiddin bu oilaga kuyov bo’lishga arzisa-da, uning bu martabaga erishuviga yo’l qo’yish mutlaqo mumkin emasdi.

Ba’zi yigitlar ota-onalarining ihtiyorlariga qarshi chiqmay amakilari yoki xolalarining qizlariga uylanaveradilar. Ayrim yigitlar esa yaqin qarindoshlarining qizlarini o’zlariga tug’ishgan singilday deb bilib, ular bilan turmush qurishni istamaydilar. Qiz qanchalik go’zal bo’lmasin, xushlarini o’g’irlamasin, aka-singillik tuyg’usi ishqiy tuyg’udan balandroq keladi.

Salohiddin shu toifadan edi. Ota-onasi Oftobxonga munosabat masalasida unga biron bir so’z aytmaganlar, Obodxon singari gumonda ham bo’lmaganlar. Salohiddin onasi, ayniqsa otasi tomonidan shunday taklif bo’lib qolishidan cho’chirdi. Chunki bunday taklifni keskin rad etishga qurbi yetmay qolishi mumkin edi. Ayniqsa keyingi paytlarda ikki oila orasidagi munosabatlarning keskinlashib boruvi uni tashvishga solardi. Qadimda ikki podsholik urushning oldini olish maqsadida quda bo’lisharkan. Salohiddin ota-onasining shu usulni ma’qul topishidan xavotirlanardi. Shu yoshga qadar singlim, deb mehr qo’yib kelayotganining xotini bo’lishini tasavvur qilishga qiynalardi. Uning uchun eng og’ir masala - qaynonasining

kim ekani! Agar Obodxonning fe’li-tabiati bunchalar bo’lmasa, aka-singillik tuyg’usidan voz kechishga ehtimolki ko’nardi.

Robiya aytmoqchi, xonadonga bombalar ko’mib tashlanganini Salohiddin ham sezardi. Bombalarning portlay boshlashini onasi kabi u ham havotir bilan kutardi. Bombalarni zararsizlantirish chorasini ko’p o’ylardi, biroq, topolmay qiynalardi. U bir yil oldinoq Akademiya kazarmasidan chiqib, uyda yashash huquqiga ega edi. Bobosi aka-ukaga atab qurib ketgan uydagi kundalik mashmashalar tufayli bu imtiyozdan foydalanmadi. Hademay, o’qish nihoyasiga yetadi. Shu uyda yashashga majbur. Kennoyisining ilmoqli gaplarini, ba’zan shang’ishini eshitaverish, onasining tashvishli chehrasini

ko'kraverishdan o'zga chorasi yo'q.

Bugun ham atayin vaqtli chiqib ketdi. Ko'chada Oftobxonni kutish, u bilan suhbatlashish niyati yo'q edi. Guzarga yetay deganda yon ko'chadan kelgan do'sti Mansurni ko'rib to'xtashga majbur bo'ldi. Otasi-yu, bobosining laqabi "quloq" bo'lgan bu yigit oilaviy an'alariga sodiq edi. Bu laqabga munosib ko'rinishlarining boisi shalpangquloqliklari emas. Sabab - ezmalikni kasb qilganlarida. Kimdir "Bularning gapini eshitish uchun bekorchi quloq kerak, agar quloqning rasmini chizib ketsang ham kifoya - gapidan to'xtamaydi", degan, yani kimdir "bular odamning yelkasiga chiqib bemalol o'tirib olib, quloqqa tepaveradi", deganu oqibatda avlod o'ziga yarasha laqabga erishgan. Salohiddin Mansur bilan bir sinfda o'qib darsda jim o'tirganiga guvoh bo'lmagan. Maktabni bitirish arafasida "darsda kim ko'proq gapiradi, muallimmi yo Mansur-quloqmi?" degan bahs ko'tarilib, muammo g'oyat murakkabligi sababli yechimsizqolib ketgandi.

-Agar hozir ko'rib qolmasam, akademiyaning qidirib bormoqchi edim, - dedi Mansur unga quchoq ochib.

-Tinchlikmi? - deb so'radi Salohiddin ajablanib.

-Tinchlik tinchlikmasligini o'zing bilishing kerak. Har oyning ikkinchi, to'rtinchi yakshanbasi qanaqa kun? - Mansur shunday deb dono savol bergan kabi ma'noli qaradi.

-Senlar uchun dam olish kuni, - dedi Salohiddin.

-Sen uchunchi?

-Men uchun... agar boshliqlar ruhsat bersa, men uchun ham dam olish.

-Yo'q, sen bola, quloqqa lagimon osma. Tentak bo'lsang - "tentakman", degin. Har oyning ikkinchi, to'rtinchi yakshanbasi "ulfatning gap" ekanini esda saqlash uchun ham aql kerakmi? Seni otaliqqa olgan men ahmoqman. Gapga kelmasang- men aybdorman.

Salohiddin bu kunlarni unutmas edi. Faqat do'stlari bilan oyda ikki marta o'tirish unga malol kelardi. Aslida bolalikda orttirgan do'stdan a'loroq birodar butun umr davomida ham boshqa topilmasligi mumkin. Salohiddin ham ularni qadrlaydi, sog'inadi. Faqat "gap" deb atalmish ziyofatda ketma-ket taom tortilishiyu, chegi chegarasi yo'q ezmaliklardan, nomi "askiya" bo'lmish bema'ni masxaralardan bezib ketadi. Tag'in ham o'rtoqlari uning o'qishda band ekanini hisobga olib "ayashadi". Chunki ulfatning yozilmagan qonuniga ko'ra oyda ikki "gap" dan tashqari yana ikki marta choyxonada o'tirishlari bor. Buning orasida tug'ilgan kunlarni nishonlash, yana "yuvish" ga arzirli bahona bo'la oladigan biron tadbirni nishonlash ham yo'q emas. O'n olti boladan uchto'rttasigina tinmay gapirib, boshqalarning toqat bilan o'tirishlari Salohiddinni bezdirib qo'ygan. Gapiruvchilarning ilg'ori - Mansurga aniq bir mavzu belgilanishi shart emas. Kimdir "Bugun ginekologlarning majlisi bo'libdi" desa, shu mavzuda sayrashni boshlab beradi. Turg'unboy deganlari borki, u bir gap boshlasa, oxiriga yetguncha sabrli yuraklarda ham qon ko'pirib ketadi. U bozorda chiroyli bir piyola ko'rganini aytmoqchi bo'lsa, avval piyolaning tarixidan keladi, so'ng shu piyolaning tuprog'i qayerdan olinganini tahmin qiladi. Xullas, yarim soatlik ma'ruzadan ma'lum bo'ladiki,

u bozorda piyolani ko'rganu yaxshi jaranglamagani uchun olmagan. Anvarjon degani borki, sochining uchidan to oyog'ining

tirnog'igacha maqtanishdan iborat. Shu darajada maqtanadiki, oxiri bu maqtovlariga o'zi ham ishonib ketib, taltayib o'tiradi. Ulfatlari orasida ma'quli - Doniyor. Eng bo'yi pasti, eng do'mbog'i, eng kam gapi ham shu. Lekin kamgapligini serovqatligi bilan suvab ketadi. Uyga kirib, o'tirishdan to turilguncha oshqozon dod-faryod qilsa qiladiki, ammo jag' tushmagur tinmaydi.

Mansur ana shu ulfatlarning navbatdagi yig'iniga da'vat etish uchun bormoqchi ekan. Salohiddin kelolmasligini aytishga to'rt marta shaylandi-yu, biroq Mansur quloq solmadi, avvalgi o'tirishlarda yuz bergan voqealar tafsilotidan bo'shamadi. Salohiddin bir tomondan shoshib turgani, ikkinchi tomondan esa bu tafsilotlar bir yil oldingisidan farq qilmayotgani uchun beshinchi marta uni gapdan to'xtatishga urindi. Mansur o'zlari tomon yaqinlashayotgan Oftobxonni ko'rgach, Salohiddinning maqsadini noto'g'ri anglab, ayyorona ko'z qisib qo'ydi. Salohiddin uchun kutilmaganda birdan gapidan to'xtadi:

-Bo'пти, bollarga kelolmas ekan, deb qo'yaveramanmi?

-Bugun poligondagi mashqlarga chiqib ketamiz. Generalning o'g'li bo'lganimda ham javob tegmaydi.

-Men-ku aytaveraman. Lekin bunisi uchinchi marta kelmasliging. O'zing javob berasan, - Mansur shunday deb po'pisa qilgach, yaqinlashgan Oftobxonga qaradi:-Oftob, qalay, yaxshimisan? Oyingning mollari chatoq bo'libdi-da? Ha, mayli, kuyunavermalaring, Xudoning o'zi ishlaringni o'nglaydi. Akang poligoniga ketayotganmish, kuzatib ko'ya qol.

Mansur ketgach, ikkovlari uning izidan qarab qolishdi. "Oyingning mollari chatoq bo'libdi-da?" degan gapi ikkovini ham ajablantirdi. "Demak, butun mahallaga yoyilibdi-da, bu yangilik?" Ikkovining ham xayoliga kelgan dastlabki fikr shu bo'ldi. "Mahalla bilgan bo'lsa, adam yordam bermasalar yomonotliqqa chiqadilar. Mahalla "mumkinmi yo mumkinmasmi", deb mulohaza qilib o'tirmaydi, hukmi shunaqa yomon bo'ladi". Salohiddin shuni o'ylab ezildi. Uning jim qarab turganini ko'rib gapni Oftobxon boshladi:

-Uydan shoshilib chiquvdingiz, ketib qolibsizmi, deb o'ylabman.

-Chiqishga shoshib chiqdimu, lekin o'qishga borgim kelmayapti, - dedi Salohiddin o'ychan tarzda.

-Poligonga ketyapsizlarmi?

-Yo'q, bahona qilib qo'ya qoldim. Ertaga "gap", unga ham borgim yo'q.

-Nega?

-Bilmadim... Ko'nglim'ash.

-Uyga ham kelgingiz kelmayaptimi?

Bu savol Salohiddindagi o'qiychanlikni quvib sergaklantirdi:

-Qayerdan bilding? - deb qizning ko'ngillariga tikildi. Oftobxon bu qarashga dosh berolmay ko'ngillarini yergaqadadi.

-Mening ham uyda o'qitirgim kelmayapti... bir yoqlarga qochib ketgim keladi, - dedi aybdor odamning ovozi bilan.

-Unaqa dema, sen qiz bolasan, - Salohiddin shu gap bilan qizning ko'ngiliga dalda bermoqchi edi, aksi bo'lib chiqdi. Oftobxon achchiqlandi:

-Nima, qiz bola odam emasmi? Qiz bolaning eziladigan yuragi yo'qmi? Qiz bola ko'rmisi yo karmisi? Siz ko'rgan, eshitgan narsalarni ko'rmaydimi, eshitmaydimi? - Titroq lablardan uchgan bu savolga Salohiddin javob qaytara olmadi. Oyoqlarining uchiga tikilganicha asta yurib boraverdi. Undan javob kutib betoqatlangan Oftobxon:

-Gapiring, nega jimib qoldingiz? - dedi.

-Hamma gapni o'zing aytib bo'lding-ku? - dedi Salohiddin unga qaramay.

-Oyim bilan kennoyim, mayli, ovsin degan nomlari bo'lgani bilan, aslida bir-birlariga begona. Lekin amakim bilan adam-chi? Nega munosabatlari borgan sayin sovuqlashib ketyapti?

-Bilmayman...

-Ular hatto bir-birimizni aka-singilday yaxshi ko'rishimizga ham ishonishmaydi.

-“Ular” deganing kimlar?

-Oyim... adamham. Balki...

Salohiddin qizga yalt etib qarab, gapini bo'ldi:

-Biznikida bunaqa gap yo'q.

-Men bir narsani o'yladim: ikkalamiz o'n-o'n besh kunga biron yoqqa qochib ketaylik, keyin shart ko'raylik: “Bir-birlaringiz bilan ahil tursangizlar biz qaytib kelib, sizlar bilan yashaymiz”, deymiz.

Salohiddin to'xtab bu qizni endi ko'rayotganday boshdan oyoq qarab chiqdi. Oftobxon bu qarashning ma'nosiga tushunmay o'ng'aysizlandi.

-Keyin-chi? - deb so'radi Salohiddin. Qiz “bilmadim” degan ma'noda yelka qisib qo'ygach, bir oz zardali ohangda yana so'radi:-Esing joyidami? Kallaga kelgan gapni aytaverasanmi? Men-ku, mayli. sen-chi?

-Menga nima boʻlibdi?

-Uyidan qochib ketgan qizni keyin kim oladi?

-Olmasa olmas. Erga tegmay oʻtarman bu dunyosidan. Mening ham bolalarim bir-birlariga shunaqa bemehr boʻladigan boʻlishsa erga ham tegmayman, bola ham tugʻmayman.

Qizdan bunday ahdni kutmagan Salohiddin unga eʼtiroz bildirishni ham, koʻllashni ham bilmay jim qoldi. Keyin gapni hazilga burishni maʼqul topdi:

-Toʻgʻri qilasan. Maktabni bitirib olguningcha erga tegmay tur.

Salohiddin yana bir marta adashdi. Oftobxon arazlab yuzini burib oldi.

-Men sizni odam deb gapirsam, masxara qilasiz-a!-dedi arazlab.

-Unda sen ham oʻylab gapirgin. Bogʻcha bolasi emassan. Sen-chi... oying uzataman, desalar darrov koʻnibkoʻyaver.

-Boring-e...

Qiz bolaga toʻydan gap ochilsa koʻpincha nozliroq ravishda shunday javob qaytaradi. Toʻyga tezroq yetish orzusi borligini yashirishga urinadi-yu, baʼzan uddasidan chiqolmaydi. Javobdagi noz oshkora qilib qoʻyadi. Oftobxonning hozirgi javobida noz yoʻq edi. Aksincha, zarda bor edi. Koʻngil istagiga mos ravishda gaplasha oladigan kishisidan shunday bachkana maslahatning chiqishi uning ranjishiga asos boʻla olardi.

Salohiddin qizning “boring-e”sini odatdagi noz deb anglab, fikrining toʻgʻriligini isbot etmoqchi boʻldi:

-Jiddiy aytyapman. Balki toʻy bahona oradagi gina-kuduratlar koʻtarilib ketar.

-Unda siz uylanavering. Lekin... bilishimcha... toʻy bahonasida yashirin ginalar ochiq janjallarga aylanishi ham mumkin ekan. Buni oʻylamadingizmi?

-Koʻp oʻylaganman buni, - Salohiddin shunday deb gardanini qashigan boʻldi:- Ayniqsa men uylanadigan boʻlsam albatta bir ishkal chiqadi. Agar dadam hovlining etagiga uy solaman, desalar amakim xoʻp deya qolmasalar kerak.

Ajoyibotni qarangki, huddi shu fikr Oftobxonning xayoliga ham kelgan edi. Yana ajoyibotni qarangki, ayni shu damda Toʻlqin bilan Sattor qoʻyxona oʻrniga uycha solish masalasini gaplashishayotgan edi.

Oftobxon amakivachchasining gapini bosh irgʻab tasdiqlagan boʻlib, xoʻrsindi.

-Ha, nega xoʻrsinibqolding?

-Agar rishtaning uzilishini to'g'ri to'xtata olmasa... balki... o'lim to'xtatar?

Bu gap Salohiddinning miyasiga gurzi bo'lib urilib, tovoniga qadar zirillatib yubordi. To'xtab, qizning ko'zlariga qaradi. Kulib turish yarashadigan bu ko'zlarni ma'yuslik pardasi

qoplagandi. Bunday gapni ko'z yoshlarisiz aytmoqlikdan qo'rqqulik edi. Chunki ko'z yoshlari nochorlik darakhchilaridir. Oftobxonning ma'yus ko'zlarida esa qasd yashiringandi.

-Sen bu gapni... umuman tilingga olma, tushundingmi!-dedi Salohiddin tanbeh ohangida.

-Odamlar o'limdan qo'rqishadi, - dedi Oftobxon uning gapini eshitmaganday. - Hayotda hamma masalalarni yechib beradigan osongina chora - o'lim. Siz o'lim haqida hech o'ylaganmisiz? - Qiz savol berishga berib javob kutmadi, fikrini davom ettirdi. - Siz o'ldirganlar haqida o'ylaysiz, ularni ushlash chorasini qidirasiz. Odamlarga hayron bo'laman. Yashayverib, qiynalib ketishadi, hasrat qilaverishadi. Nahot ro'paralarida oson yo'l turganini ko'rishmaydi. Shunaqa yo'l borligini bilganlar ham aytishmaydi. Nega?

-Oftob! Bunaqa bema'ni narsalarni o'ylama!

-Buning nimasi bema'ni? - Qiz yigitning ko'zlariga tikildi. Unda havotir ko'rib, quvondi. - O'limni hurmat qilish kerak. Uning yaxshiliklari ko'p. Qiziq, a? Bu dunyoda o'zing xohlaganingcha yasholmaysan, o'zing istaganingcha o'lolmaysan. Biz o'z istagimiz bilan bu dunyoga kelmaganmiz. O'z xohishimizcha ketishimiz mumkin, lekin ketmaymiz.

-Oftob, bo'ldiqil!

-Bu mening gaplarim emas, bitta kitobda o'qiganman, shu esimmga kelib qoldi. Chindanam ahmaqona gaplar, - qiz shunday deb jilmayishga harakat qildi. Lekin uning bu jilmayishi ham ma'yuslik tutuni ortida edi. Salohiddin bu tutun pardani payqamay ko'ngli sal joyiga tushdi. Oftobxon yolg'on gapirgan edi. Bularni hech bir kitobda o'qimagandi. Hozir tiliga ko'chgan so'zlari uyqusiz tunlari xayolini bezovta qilgan fikrlarining mahsuli edi.

Ular bir oz jim ketdilar. Salohiddin qizning kayfiyatiga mos bir gap izladi-yu, topolmadi.

-Ibtidoiy odamlarga havasim kelyapti, - Oftobxon shunday deb yana xo'rsindi. - Biz o'zimizni aqlli, ziyoli, madaniyatli deb, ularni esa yarim yovvoyi deymiz. Lekin ular ota-onalaridan qolgan merosni talashishmagandir? Bitta g'ordami yo chayladami yashab, topganini o'rtada bo'lib yeyishgan. Men ba'zan o'sha zamonga qaytgim keladi. Xudo haqqi, agar shunaqa imkoniyat tug'ilsa, o'ylab o'tirmay qaytardim. Sizda-chi, sizda ham shunaqa orzu bo'ladimi?

Salohiddinga uning bu safargi orzusi kulgili tuyildi. Qizni ezgin kayfiyat jaridan tortib olish maqsadida hazil qildi:

-Menda bunaqa xomxayollar bo'lmaydi, - dedi u jilmayib. - Chunki u davrga qaytsam men ishsiz qolaman. Lekin sen... agar imkoniyat tug'ilsa boraver. Oyingni ham olvolsang, o'sha yoqdan ul-bul olib kelib sotib turadilar. Har holda ibtidoiy davrda mol arzon bo'lsa kerak.

Oh! Bu to'ntoq hazilni iblis orzuqib kutayotgan edi-ya!

Iblis o'zaro yaxshi munosabatda bo'lgan yoshlarning orasini buza olsa, qachonlardir quvilgani jannatga yana qaytib tushganday zavq oladi. Iblis do'stlikdan shunday bezillaydi-ki, yaxshi va yaqin munosabatni ko'rganida huddi tikonzor bo'ylab yalangoyoq yugurganday azob chekadi. Yoshlarning atrofida yurib yalinadi: "qalbingizdan bir ozgina joy bering, sizga yomonlik qilmayman, yaxshi narsalarni ko'rsataman, men tufayli siz lazzatli hayot kechirasiz..." Nadomatkim, ba'zan yalinishlari ish berib ham qoladi. Salohiddin bilan Oftobxon bu toifadan bo'lmasa-da, iblis ulardan ko'nglini uza olmasdi. Izlaridan qolmasdi. Vasvasadan tolmasdi. Hozir umid bilan Salohiddinga "qizning dardini hazil bilan yengillatish mumkin, bu gaplari aytgin", deb shivirladi. Yoshlikka hos nodonligi tufayli yigit qutquga itoat etdi va oqibat o'zini qiz ro'parasida nochor ahvolda ko'rdi.

Oftobxon amakivachchasining gapini eshitgach yig'lab yuboray dedi. Avvaliga shart burilib ketvorgisi keldi. Lekin iblis bunga yo'l qo'ymadi, vasvasa qildi: "Indamay ketma, hech bo'lmasa "ahmoq ekansan!" deb ayt!" Oftobxon unga to'la itoat etmasada, andishaning oti ko'rqqoq bo'lishini lozim ko'rmadi:

-Siz... mening oyimni masxara qilmang, - dedi yig'lamsirab. - Tijorat qilayotgan bo'lsalar halol mehnatlari bilan topyaptilar.

Iblis qopqoniga ilinib pand yegan Salohiddin endi undan chiqib, o'zini oqlash chorasini izladi:

-Oftob, - dedi yalinish ohangida, - hazillashdim-ku, shunga ham jahling chiqdimi?

-Bu gapingiz hazil emas. Siz ham, amakim ham, kennayim ham, hammangiz oyimni yomon ko'rasiz. Balki oyimning yomon odatlari bordir. Lekin u mening onam!-Shu gapni aytayotganida Oftobxon ovoqidagi titroq yo'qoldi, g'urur ohangi yangradi. Salohiddin buni sezdi, hozirgi xatosining o'zi o'ylagandan ham ayanchli ekanini ham his etdi. O'zini oqlash uchun so'z aytmoqchi bo'lganida qiz gapirtirmadi:- Tushunyapsizmi? U mening onam!-Bu safar yanada dadilroq va yanada faxr bilan aytdi. - Men qiz bola bo'lsam ham, sizga o'xshagan milisa bo'lmasam ham... - Endi qizning gaplarida onasining kinoyali ohangi sezildi:-oyimni oyoqosti qilishinglarga yo'l qo'ymayman. Oyim cho'michlarini ko'tarib sizlarning qozonlaringiz tepasida o'tirib olganlari yo'q. Oyimni gapirgandan ko'ra adangizga ayting, jigarlari yomon bo'lishsa ham bizga ozgina qayishsinlar. Bitta ishimiz tushgan ekan ikki kundan beri hammamizni sarg'aytiradilar.

Oftobxon bu gaplarni aytayotganda Salohiddinning ko'z oldiga kennoyisi keldi. Nazarida bu gaplarni qiz emas, uning onasi aytayotganday tuyuldi, hatto ko'zlarini bir yumib ochdi. Qizni ovutish maqsadida bilagidan asta ushladi:

-Oftob, - deb asta siltadi, - Oftob, shu gaplarni hech bo'lmasa sen gapirmagin. Sen bilan men boshqacha odamlarmiz-ku?

-Qanaqasiga boshqacha odamlarmiz? - dedi qiz zardasini bas qilmay. - Men oyimning qiziman. Siz - ota o'g'irliz!

-Oftob, iltimos, jahling chiqmasin. Men sening bu gaplaringga xafa emasman. Sen ham hazilimga xafa bo'lmagin.

Aytadiganini aytib iblisni quvontirgan Oftobxon endi shart burildi-da:

-Yaxshi o'qib keling, bo'lajak leytenant!-deb tez-tez yurib ketdi.

Salohiddin uning izidan borib to'xtatmoqchi, shashtidan qaytarmoqchi bo'ldi. Bir qadam bosdi ham, lekin fikridan qaytib turgan yerida:

-Bugun Sherbuloqqa bormoqchiman, xohlasang birga yura qol, - dedi.

Oftobxon bu gapni eshitdi. Yigitning tamoman yengilganidan qanoat hosil qildi. To'xtab, orqasiga qaramoqchi ham bo'ldi. Lekin iblisning "esing bormi, nega qaraysan, ahmoqligi uchun endi o'zining yog'iga o'zi qovrilib yuraversin. Sen bopladingmi, endi bo'shshma!" degan da'vatiga amal qildi.

To'liqin ba'zan ajablanib qoladi. Bu taqdir yozug'imi yoki omadsizligimi, farqlay olmaydi. Dunyoviy fikr bilan chegaralangani uchun o'zicha "taqdir hazili bo'lsa kerak", deb qo'yadi. Boshqa hamkasblari yuritgan jinoiy ishlarga havasi kelgan paytlar ham yo'q emas. Gap shundaki, qo'li uzunroq janoblardan biri u yuritgan ishlardan hech bo'lmasa beshtadan ikkitasiga aralashib, jinoyatchini qutqarib olish maqsadida uni gangitib yuboradi. Bu safar ham shunday bo'ldi. Bozorda qo'lga olinganlar orasida oliftaroq kiyingan, o'zini kattaroq tutayotgan yigitchaga qarab: "shuning bir balosi bor", deb qo'ygan edi, adashmabdi. Birinchi so'roqda himoyachi kelmagunicha gapirmasligini ma'lum qilganidayoq, ishi oson kechmasligini angladi. "Bu bola jinoiy ish yuritish jarayonini qayerdan biladi?" degan savoliga javob topish uchun uchchala yigitchaning o'tmishini aniqlashni jinoyatga doir qidiruv bo'limi noziriga topshirganda masala sal oydinlashganday bo'ldi.

-Bittasini taniyman, hali bozorda aytmoqchiydim, ko'pchilik oldida indamay qo'yaqoldim. Shu bolaning ishini uncha chigallashtirmaganingiz yaxshi. Otasi ancha hurmatli odamlardan.

Bu gap To'liqinni ham sergaklantirdi, ham jahlini chiqardi. Bo'limga yaqinda ishga o'tgan bu yigitni yaxshi bilmasdi, shuning uchun sir boy bermay arqonni uzun tashladi. Gap qaysi bola haqida ketayotganini tahmin qilsa ham:

-Qaysi birini aytyapsiz? - deb so'radi.

-Sanjar O'lmasovni aytyapman.

-Bashang kiyingan, uzunimi? - deb qayta so'radi To'liqin.

-Ha, o'qshanisi.

-Uni taniysizmi?

-Qo'shni tumanda uchastka noziri bo'lib ishlaganimda bultur shunga o'xshagan ish bilan qo'lga tushuvdi. Otasi xamirdan qil sug'urganday qilib qutqarib oldi. Tergov bo'limi sal qarshilik qilganday bo'luvdi, ularning sho'rini quritdi.

-Bizning ham sho'rimiz quriydiganga o'xshab qoldimi? - deb piching qildi To'liqin. Lekin nozir bu ohangni anglamay:

-Hurmatigiz bor, pachakilashmang, demoqchiman, - dedi.

-Menga qarang, uka, ismingiz Qo'rqmasmidi? Adangiz yaxshi ism qo'ygan ekanlar-u, har hil odamlardan ko'rqib yurmasin, deb duo qilmagan ekanlarda, a?

-Men qo'rqayotganim yo'q. Sizni ogohlantirdim. U bolaning otasi siz aytgan "har xil odamlar"dan emas.

-Ogohlantirganingiz uchun rahmat. Endi boshliq nomiga bildirgini o'zingiz yozasizmi yo men yozayinmi?

-Qanaqa bildirgi? - deb hayron bo'ldi Qo'rqmas.

-Hozircha bu jinoiy ishni yuritish jarayonidan chetlatish masalasida. Keyin umuman bu sohadan ketish to'g'risida. Yosh ekansiz, umringizni bekor o'tkazmang bu yerda.

-Aka, meni ishga siz qabul qilmagansiz. Bu sohadan ketishim ham sizning gapingiz bilan bo'lmaydi.

-Bilaman. Lekin hozirgi ish jarayonidan chetlatilishingiz mening gapim bilan bo'ladi.

Bu noxush suhbatdan so'ng bolalarning o'tmishi bilan To'liqinning o'zi shug'ullangan edi. Jinoiy ish ochishga ijozat beruvchi prokuror hujjatga darrov imzo chekmayoganidan Qo'rqmas ogohlantirgan uzun va baquvvat qo'lning harakatga kelganini sezdi. Prokuror maqsadni ochiq aytmasa ham "jinoiy ish ochishga shoshilmayapsizmi?" deganday gap qilgan edi, To'liqinning dalillari oldida ojizqoldi.

Sanjar O'lmasovni bugun himoyachisi ishtirokida tergov qilishni tayinlagan To'liqin ishga barvaqt kelib, xayolini chalg'itadigan gaplarga o'ralashib, chalg'ib qolmaslik uchun belgilangan soatga bormoqchi edi. Ukasi bilan boshlangan noxush suhbatdan tezroq qutilish uchun nonushtani ham nihoyasiga yetkazmadi. Shoshilmayotgani uchun avtubus bekatida to'xtamay asta piyoda ketdi. Qator qilib qurilgan uylarga razm soldi. Salkam qirq yil avval barpo bo'lgan mahalla yangi o'zgarish pallasiga kirgan edi. Poydevor tiklanganda bir quvongan, uyning tomi yopilganda Xudoga shukurlar qilganicha, chalasini kelgusi yili bitkazib olarmiz, degan niyatda qorasuvoq xonalarga ko'chib kirib, quvonchdan ko'zlari yoshlangan avlodning ko'pchiligi bu dunyoda yo'q. Chakka o'tib turuvchi uylarda bolaligi kechgan yangi avlodga ota-onalari qurib

ketgan binolar kichik va xunuk ko'ringani uchun buzib, dang'illama imoratlar tiklashni boshlaganlar. To'liqin shu imoratlarga qarab ba'zan o'ylanadi: "puli bor ekan, mayli quraversin. Lekin bu qadar bahaybat xonalarning nima keragi bor? Pul topish uchun o'zini o'tga-cho'qqa urmasdan, boylikka yetishaman, deb birovlarini bosib-yanchib o'tmasdan tinch yashasalar bo'lmasmikin?" To'liqin bunday baland imoratlar qurilishga berilish qiyomat xabari belgilaridan ekanligi haqidagi sharafl

hadisni eshitmagan. Bilganida edi, boshqacharoq fikrlagan bo'lardi. "Uyni buzdirayotganlar bu devorlar suvog'ida ota-onalari panjalarining izlari qolganini fahm etarmikinlar? Uy bilan birga xotiraning katta bir qismi ham o'limga mahkum etilganini-chi?" To'liqin hozir shularni o'ylaydi.

Piyoda yurishni ixtiyor etganda avtobusning kechikishini hisobga olmagan ekan, shu bois o'zi belgilagan paytga yetib kelolmadi. Advokatning ma'noli tarzda soatiga qarab qo'yganini sezmaganday iliq salomlashib, xonasiga taklif qildi, so'ng soqchiga mahbusni olib kelishni buyurdi.

Otasi qanotida erkin yashashga o'rgangan Sanjar O'lmasovga ikki kunlik qamoq o'z ta'sirini o'tkazgan edi. Otasi yordamida tez orada qutilib ketishiga ishongani sababli vaqtinchalik qamoqxonadagi qattiq o'rindiqda ikki kecha yotish uning uchun g'oyat og'ir jazo bo'lib tuyulgandi. To'liqin ortiqcha gap-so'z qilib o'tirmadi-da, advokatni tanishtirib, tergovni boshladi:

-Atham Sindorov bilan qachon va qayerda tanishgansan?

-Qanaqa Atham, qanaqa Sindorov? Mening bunaqa og'aynim yo'q!-deb baqirgan Sanjar "To'g'ri qildimmi?" deganday himoyachisiga qarab oldi. Himoyachi bu qarashning ma'nosini anglamaganday unga biron bir ishora qilmadi. To'liqin baqirgani uchun yigitchaga tanbeh berishi mumkin edi, lekin bunaqangi hollarni ko'p ko'rgani sababli e'tibor bermaganday tergovni hotirjam tarzda davom ettirdi:

-Ehtimol shunaqa og'ayning yo'qdir. Lekin sheriging bor... - shunday deb qog'ozlar taxlami orasidan bir varaqni ajratib olib, o'qidi:-Atham Sindorov, 1985 yilda tug'ilgan. Sendan bir yosh kichik ekan, a? Lekin hayot tajribasi senikidan ko'proq. 2001 yilda o'g'irlik uchun qamalgan. Qulf ochishga usta bo'lgani uchun qamoqxonada "Maestro" deb laqab berishgan. Senam shunday deb chaqirarmiding?

Bu savoldan keyin Sanjar himoyachisi bilan ko'z urishtirib oldi. To'liqin advokatning labini sal qimtib bosh chayqaganini sezib, yigitchadan javob kutmay, yana qog'ozga tikildi:

-Amnistiya tufayli qamoqdan mudatidan avval ozod qilingan. Mana shu bir oy ichida oltita mashinaning qulfini sening ko'rsatmang bo'yicha ochib berganini bo'yniga oldi. Meni qiziqtirayotgan narsa - u bilan 2001 yildan avval ham tanishliging bormidi yo qamoqdan chiqqanidan keyin osh-qatiq bo'lib qoldingmi? Javob ber, advokating ham eshitsinlar.

-Agar mashina qulfini ochgan bo'lsa, o'zidan so'rayvering, men unaqa bolani tanimayman.

-Senlarni qoʻlga olganimizda uchchovlarning birga edinglar-ku, yo buni ham rad etasanmi?

-Men oʻsha yerdan oʻtib ketayotgan edim, toʻpalon boshlanganida qiziqib qarayman desam, odamlaringiz hovliqishib meni ham ushlab olishdi.

-Mening odamlarim bekorga hovliqishmaydi, sening toʻpalonga qiziqishingni videotasmadagi tasvir koʻrsatib turibdi. Hali shahar turmasiga oʻtganingda burningni yerga ishqashsa esing joyiga kelib qolar.

-Men norozilik bildiraman, - dedi advokat keskin ohangda. - Siz tergov yuritish jarayonini koʻpol ravishda buzyapsiz. Siz mijozimga tahdid qilyapsiz.

Toʻlqin unga javob qaytarishga ulgurmay eshik taqillab, keyin qiya ochilib, Qoʻrqmasning yuzi koʻrindi.

-Mumkinmi, Toʻlqin aka? - Ruhsat soʻrashga soʻradi-yu, ijozat boʻlishini kutmay, ichkariga bir qadam qoʻydi. Kecha boshliq bilan gaplashgan Toʻlqin uni bu ishdan rasman chetlatgan edi. Shunga qaramay tergov chogʻida uning suqilib kirishi gʻashini keltirib dagʻallik bilan:

-Yoʻq, mumkin emas!-dedi.

-Bir ogʻizgina gap? - deb u yana bir qadam qoʻydi.

-Sizga “mumkin emas”, deyildi, chiqing, - Toʻlqin oʻqrayib qaraganicha uning chiqib ketishini kutdi. Eshik tashqaridan yopilgach, advokatga yuzlandi: -Siz shu gapni tahdid deyapsizmi?

Ayting-chi, janob himoyachi, - Toʻlqin “janob himoyachi” soʻziga kinoya urgʻusini berdi: -mashinangiz bormi?

-Bor, nima edi?

-Shunchaki soʻradim. Har holda mashinangiz hali oʻgʻrilar qoʻliga tushmagan boʻlsa kerak. Agar biron nimangizni oʻmarib ketishganda menga boshqacha da’vo qilardingiz. “Urrib boʻlsa ham, oʻldirib boʻlsa ham boʻyniga qoʻying, qamang, sharmandasini chiqaring”, derdingiz ehtimol. Hayronman, oʻgʻrini himoya qilishga vijdoningiz qanday yoʻl qoʻyarkin?

Odamzotning fe’li qiziq: ba’zan “haqiqat bormi!” deb ayyuhannos soladi, ba’zan esa haqiqatga roʻpara kelganiga qaramay uni tan olgisi kelmaydi. Sutning oq ekanini koʻrib turib yo “qora” deydi, juda boʻlmasa “nega endi sut jigarrang emas?” deb gapni aylantira boshlaydi. Advokat hozir shunday holatda edi. Tergovchi tomonidan aytilgan toʻgʻri gapni odam sifatida qabul qilsa ham vazifasi nuqtai nazaridan inkor etishga majbur edi. Shu bois Toʻlqinga tik qaramay gapirdi:

-Siz chegaradan chiqyapsiz. Men prokurorga shikoyat qilishga majbur boʻlaman. Siz

o'z ishingizni qiling, men o'z ishim bilan bo'lay. Vijdon haqida keyin alohida gaplasharmiz. Bu yerda vijddondan ham muhimroq narsa - qonun bor. Qonunni buzmasligingizni talab qilaman!

U shunday deb talab qilgani bilan gapi ohangida qat'iylik yo'q edi. Shu bois To'liqning ensasiqotdi:

-Siz mutlaqo haqsiz, janob himoyachi, - dedi u advokatga tik qarab. - Hamma balo ham aynan shu nuqtaga yig'iladi. Bu muhtaram janobchamiz qonun bo'yicha himoyachi yollashga haqlilar. Siz esa kim bo'lsa bo'lsin uni himoya qilishga haqlisiz. Mening esa bu haqlarni muhokama etishga mutlaqo haqqim yo'q. Aybdorni jinoyat ustida ushlasam ham isbot etishni talab qilishadi. Bu janobchangiz avvalgi yili bir yuz oltmish to'rtinchi modda bilan ketadigan paytda ana shu isbot degan narsa sal yetishmay qolib, qutilib ketganlar. Buni mendan ko'ra o'zingiz yaxshiroq bilasiz. O'tgan safar a'lo darajada himoya qilgan ekansiz, qoyilman.

To'liqin keyingi gaplarni gapirayotganda Sanjarga qarab, undan anchagacha ko'zini uzmadi. Bu qarash yigitchaning badanini ilma-teshik qilib yuborganday besaranjom bo'ldi. Oxiri o'zini tutolmay:

-Tuhmat qilmang, men u kishining uyiga kirmaganman, - deb yubordi.

-Eshityapsizmi? - dedi To'liqin advokatga yuzlanib. Keyin kinoya ohangiga qaytib, davom etdi:-Bu bola bechora hamisha tuhmatga qoladi. U bosqinchilik qilmagan. O'sha uy yonidan o'tib ketayotganida ushlab olishgan, - To'liqin bir oz sukut qilib jiddiylashdi:- Sizga ma'lum qilib qo'yishni burchim deb bilaman: biz arxivni ko'tardik. Prokuror o'tgan yilgi ishni qayta tergov qilish haqida ko'rsatma berdi. Endi siz bilan ham, mijozingiz bilan ham bu yerda emas, shahar turmasining tergovxonasida uchrashamiz.

Bu kutilmagan yangilik ularni gangitib qo'ydi. Yigitcha himoyachisiga najot ko'zi bilan qaradi.

-Siz xulosa chiqarishga shoshilmang. Men ehtiyot chorasini o'zgartirish haqida prokurorga so'rovnomma yozganman, - dedi advokat chorasiz odamning ovozi.

-Prokuror "Ish" bilan tanishib chiqib, iltimosingizni rad etdi, - dedi To'liqin hotirjam ravishda. - Tergov jarayoni bo'yicha e'tirozlaringiz bormi?

Advokat "yo'q" ishorasini qilgach, To'liqin soqchini chaqirdi:

-Shu eshik atrofida kapitan turibdimi? - deb so'radi.

-Ha, - dedi soqchi.

-Bir o'zimi?

-Yonlarida bir kishi bor, galstuk taqqan.

-Ulardan iltimos qil, tashqariga chiqib turishsin. Dahliz boʻshagach, kirib ayblanuvchini olib chiqasan.

Tergovning bu qadar tez, eng muhimi kutilmagan yakun bilan tugashidan bezovtalangan Sanjar behos:

-Men adam bilan uchrashishim kerak!-deb yubordi.

-Endi adang bilan... ish bir yoklik boʻlganidan keyin uchrashasan, uka, - dedi Toʻlqin. - Ungacha bir yil oldin bosqinchilik boʻlgan uy yonida qanday paydo boʻlib qolganingni, bozor koʻchasida qulfi buzilgan mashina oldida nima uchun oʻralashib yurganingni oʻylab koʻr.

Soqchi Toʻlqinning topshirigʻini bajargach, Sanjarni olib chiqdi. Advokat Toʻlqinga nimadir demoqchi boʻldi-yu, keyin darrov fikridan qaytdi. Toʻlqin uning murosaga chaqirishini kutgan edi. Kutgani roʻy bermagach, ajablandi-da, eshik tomon yurgan advokatni toʻxtatdi:

-Ogʻayni, bir pasga toʻxtang, - endi uning ovozi kinoya ohangi ham, keskinlik ham yoʻq edi. - Sizdan bir gap soʻramoqchiman: ammo tergovchi sifatida emas. Siz ham advokat sifatida javob qaytarmang. Bir inson dildan soʻrayapti, ikkinchisi esa dildan javob qaytaryapti, kelishdikmi?

Samimiy tarzda aytilgan gapga advokat samimiy ravishda javob qaytarmadi:

-Siz bilan dildan gaplashish mumkinmikin? Qani, aytavering-chi? - dedi qoʻpol ohangda.

Toʻlqin esa unga javoban zaharli iljaydi:

-Osmondagi gaplarni koʻpga emas, yarim daqiqaga toʻxtataylik. Siz chindan ham shu bolani himoya qilyapman, himoya qilib, qamoqdan qutqarib qolaman, deb ishonasizmi? Oʻtgan yili ham “men qutqarib qoldim”, deb oʻylaganmisiz?

-Bu bilan nima demoqchisiz?

-Demoqchimanki, bolaning asl hmoyachilari tashqarida turishibdi. Oʻtgan yili ham siz emas, ular tashqaridan turib himoya qilib qutqarib olishgan. Gʻalaba toji esa sizga kiygʻazilgan. Bu safar ham shunday toj kiymoqchimisiz? Qoʻgʻirchoq boʻlib yurish oʻzingizga malol kelmaydimi?

Agar Toʻlqin boʻralab soʻkib berganida advokat ichida javob qaytarib, indamay chiqib ketishi mumkin edi. Lekin tergovchining bu gaplari uning boshiga musht boʻlib urildi. Hatto uni idora qilayotgan iblis ham bir sapchib tushgandan keyingina javobni oʻrgatdi:

-Siz meni haqorat qilyapsiz! Ammo... firibga usta ekansiz, - dedi lablari gezargan holda. - Guvohlarsiz gaplashib, haqorat qilyapsiz. Agar guvoh boʻlganida shu gaplaringiz uchun koʻradiganingizni koʻradingiz. Lekin men shoshmayman, sabr qilaman, shunday kun ham keladi.

-Nega guvoh bo'lmis ekan, guvoh bor, - dedi To'liqin unga sinovchan qarab. Bir oz sukut qilgach yana hotirjam ohangda gapini davom qildi. - Ikkalamizning o'rtamizdagi guvoh - vijdon. Lekin bu guvoh bittami yo ikkitami, bilmayman.

-Vijdoningni pishirib ye!

Advokat javobga bundan o'zga gap topa olmadi. Shuni aytdi-yu, chiqib ketdi. Soqchining iltimosiga ko'ra tashqarida turgan Qo'rqmas bilan Sanjarning otasiga dahliz ostonasida duch keldi. Uning avzoyiga qarab, ish yurishmayotganini sezgan Qo'rqmas "men kirib chiqay, sizlar gaplashib olinglar", deb ildamladi. Taomilga ko'ra eshikni taqillatgan bo'lib, qiya ochdi-da:

-Endi mumkinmi? - deb piching ohangida so'radi.

-Endi mumkin, - To'liqin shunday deb o'tirgan joyida qo'l uzatib so'rashdi. Bu Qo'rqmasga malol kelsa-da, sezdirmaslikka urindi. - Kimni boshlab keldingiz?

-Men boshlab kelmadim. O'limasjon akam siz bilan tanishmoqchi ekanlar, ikkita yaxshi odamni tanishtirish savob-ku?

-Ikkita yaxshi odamning birlari O'limasjon akaxoningizmi? U kishi kim? Nima uchun birdan men bilan tanishgilari kelib qoldi?

Bu gapdan Qo'rqmasning g'ashi kelib tomog'ini qirib qo'ygan edi, iblis biqinidan asta chimchilab "sal o'zingni bo'sh qo'y, kulging kelmasa ham kulsang-chi, ovsar!" deb vasvasa qilgan edi, kulgili gap aytilmagan bo'lsa ham jilmaydi:

-Gapni ham teshvorasizda, aka! Birdaniga tanishgilari kelgani yo'q. Siz ham chakana odammassiz, aka, el-yurt oldida hurmatingiz bor. Ko'p odamlarning siz bilan aka-ukaday bo'lib yurgisi keladi.

-Bilaman. Yurgisi keladi-yu, lekin ish pishmasa yuz ko'rmas bo'lib ketadi.

-Unaqamas, aka... atroflarda obro'yingiz ja-a baland.

-Har holda O'limasjon akangizni mening obro'yim o'ziga tortib kelmagandir bu yerga, - To'liqin shunday deb o'rnidan turdi-da, derazani ochdi. Tashqaridagi odamning kimligini bilib tursa-da, atay gapni aylantirdi:- U kishi kim, biron xo'jayinmi yo zo'rroq bir odamning sizga o'xshagan gumashtasimi?

-Unaqamas, O'limasjon akani hech bo'lmasa shaharning yarmi taniydi, izzat qiladi.

-Shunaqami? Unda men shaharning tanimaydigan ikkinchi qismida ekanman.

Qo'rqmas bu pichingni anglamaganday tanishtirishni davom etdi:

-O'limasjon aka Sanjarbekning dadalari. Oraga bironni ko'ymay, hurmatingizni qilib, o'zlari keldilar.

-Oraga birovni qoʻymagan boʻlsa, unda siz kimsiz? Dallolmisiz, vakilmisiz yo koʻshmachimisiz?

Aytilgan soʻnggi soʻzga iblis qitiqlagan taqdirda ham kulib turish mumkin emasdi. Qoʻrqmas bu safar iblis turtmasa ham oʻrnidan turib xona sohibiga norozi qiyofada qaradi:

-Ja-a oshirvormang, aka! Menga feʻlingiz maʼlum, lekin bu safar otdan tushavering. “Oʻynashmagin arbob bilan...” degan gapiy bor-ku, Oʻlmasjon akam arbob boʻlmasalar ham bellari ja-a baquvvat. “Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning”, deyishganini bilarsiz. Uka sifatida bir yomon gapim shu sizga.

-“Qoʻshmachimisiz?” deganim yoqmadi, a? Bilib turibman, bu soʻz har qanday odamning hamiyatiga tegadi. Endi uka sifatida ayting-chi, agar koʻshmach boʻlmasangiz nima uchun har bob bilan urishga qodir arbob akangizning oʻzlari kirmadilar?

-Yoʻlda advokat gapga tutib qoldi. Chaqiraymi, kiraversinlarmi?

-Chaqirmang. Feʻlimni bilar ekansiz, arbob akangizni qanday boshlab kelgan boʻlsangiz shunday boshlab olib keting. Men bilan gaplashib hafsalarari pir boʻlmasin.

-Aka, men sizga bir gap aytaymi?

-Yoʻq, uka, oʻsha bitta gapni men sizga aytaman.

Toʻlqin oʻsha bitta gapini aytishga ulgurmadi. Eshik ochilib, Oʻlmas Keldiyorov iltifotsiz ravishda kirib keldi. Salom berib koʻrishish uchun koʻl uzatguncha ham Toʻlqin joyidan jilmadi. Koʻrishgandan soʻng “keling, oʻtiring” ham demadi. Iltifotsiz tashrifga shu tariqa iltifotsiz takalluf koʻrsatildi. Mehmon huzurida noqulay ahvolda qolgan Koʻrqmas tezroq chiqib ketish maqsadida:

-Oʻlmasjon aka, mening ozgina chala ishlarim bor edi, ketaversam boʻlarmikin? - deb soʻradi.

Oʻlmasjon akasidan ijozat ishorasi boʻlgach, tez-tez yurib xonadan chiqdi. Toʻlqin “bu qanaqa tartib boʻldi”, degan maʼnoda bosh chayqab qoʻydi. U ham mansab, ham unvon jihatdan yuqori turgani yoki xona egasi boʻlgani uchun uni toʻxtatib, chiqish uchun ijozatni begona odamdan soʻragani bois tanbeh berishi mumkin edi. Lekin gapni choʻzishni istamadi. “Nega keldingizu, nega indamay turibsiz, gapirmaysizmi?” deganday chaqirilmagan mehmonga qarab turaverdi. Oʻlmas bu tergovchining qaysarligini eshitgan, biron toʻxtamga kelish chogʻida savdoni pishirish qiyin boʻlishini kutgan edi-yu, lekin bunday sovuq qarshilashini xayoliga ham keltirmagandi. “Pul boʻlsa - changalda shoʻrva” degan maqolni Oʻlmas oʻylab topmagan. Oʻlmasga oʻxshaganlarning saʼy-harakatlariga qarab turib qaysi bir dono aytgan. Dunyoda hali hech kim qaynoq shoʻrvani hovuchiga solib turmagan. Kamondan uzilgan oʻqni ham birov ushlab qololmagan. Shu zamonga qadar qoʻy zoti boʻrini aravasiga ot oʻrnida qoʻshmagan. Oʻlmas buni biladi. Lekin pulning kuchi bilan bularning

hammasini amalga oshirish mumkin deb hisoblardi. Hozirgi munosabatni koʻrib fikri sal oʻzgarganday boʻldi. “Bu bilan til topishishdan koʻra qoʻyning aravasiga boʻrini qoʻshib xizmat qildirish osonroqqa oʻxshaydi-ku?” degan fikr xayolini yoritib oʻtdi. Tergovchidan sado chiqavermagach, oʻzi tilga kirdi:

-Hormang, ishlar bilan charchamayapsizmi?

Kunda million yoki undanda koʻp odam biron kishini suhbatga chorlash uchun gapni shunday boshlaydi.

Kunda million yoki undanda koʻp odam unga bunday javob beradi:

-Salomat boʻling...

Agar suhbatga mahtal turgan boʻlsa bu tarzda javob qiladi:

-Salomat boʻling, rahmat, yuribmiz soyai davlatingiz ostida...

Toʻliqin suhbatga mahtal emasdi, shu bois javobning birinchi turini lozim koʻrdi.

Oʻlmas “asling toʻnkamijozmi yo narxingni oshirmoqchimisiz?” degan savolga javob topmoqchiday yana bir oz qarab, soʻng muddaoga koʻchib qoʻya qoldi:

-Nima uchun kelganimni bilib turgandirsiz, gapni aylantirishga hojat yoʻqdir?

-Ha, hojat yoʻq. Kelib bekorga ovora boʻlibsiz.

-Ovora boʻlsak farzandimizning taqdiri uchun ovora boʻlamiz. Yana bu yoqda sizning obroʻyingiz ham bor... - Oʻlmas “gapim taʼsir qilyaptimikin”, deb bir nafas sukut qildi, keyin taʼkid etdi:-hurmatigiz ham bor.

Toʻliqin “bu ulugʻlarning oldida obroʻyim bor ekan”, deb taʼsirlanuvchi toifadan emasdi. Shu sababli javobida hayajon sezilmadi, sovuq ohang saklanib qoldi:

-Farzand uchun ovora boʻlishni sal kechroq boshlabsiz.

-Tushunmadim?

-Agar ovoragarchilik farzandning tarbiyasiga bagʻishlansa shunaqa ishlar boʻlmasmidi, demoqchiman.

Toʻliqin chiroyli gapirdi. Farzand tarbiyasi haqida gap ketsa koʻpchilik ana shunday gapiradi. Hozir Oʻlmas “oʻzingiz tarbiyani qoyillatib qoʻyganmisiz?” deyishi ham mumkin edi. Agar shu savol oʻrtaga qoʻyilsa Toʻliqin shubhasiz “Xudoga shukur, bolalarimning tarbiyasi yaxshi, har holda sizniki kabi oʻgʻri emas-ku?” dermidi? Shunday desa zohiran haqday tuyulardi. Botinan esa yoʻq. Toʻgʻri, uning farzandlarini hozir yaxshi tarbiya ihota qilib turibdi. Toʻgʻri, Oʻlmasning oʻgʻli yaxshi tarbiya doirasidan chiqib ketgan. Lekin Sanjarni bu chegaradan chiqara olgan iblis uchchala oʻgʻliga tahdid solmasligiga uning ishonchi komilmi? Sanjarning qalbiga oʻgʻirlikka

mehrni muhrlay olgan iblis ertaga Salohiddinning qalbiga giyohvandlikka mehrni muhrlashga harakat boshlasa-chi? Indinga Bahridin qalbini kibr va zinoga mehr bilan band etishga urinsa-chi? U ishonayotgan tarbiya devorlari bunday hamlalarga dosh bera oladimi? To'liqning hozir tili uzun, ko'ngli hotirjam. Lekin bolalarining tarbiyasi uchun o'zi qancha hissa qo'shdi? Ishdan kech kelsa, barvaqt ketsa... "Darsingni tayyorladingmi?", "Oyingning gapiga kiryapsanmi?"... Tarbiyasi shulardangina iborat emasmidi? Qaysi o'g'li bilan bir martagina bo'lsin yonma-yon o'tirib dars tayyorlashini kuzatdi? O'g'illariga qachon iymon haqida tushuncha berdi? Insof bilan insofsizlikning farqini ajratishni o'rgatdimi? Insonning har bir harakati Yaratgan tomonidan nazorat qilinishini ongiga singdirdimi? Yo'q! Bu borada O'lmas bilan oralarida farq yo'q. Uning oldida gerdaymasa ham bo'ladi. Baxtiga xotini Robiya bor ekan, farzandlarini yomonlikdan asrash uchun tarbiya devorlarini o'zi amallab tikladi.

Ne ajabki, tergovchi xonasida yuzma-yuz turgan ikki kishi o'zga-o'zga olam odamlari bo'lishsa-da, tarbiya bobida ozmi-ko'pmi yaqin jihatlari ham bor edi. Chunki O'lmas ham o'g'lidani dars tayyorlagan-tayyorlamaganini ba'zi-ba'zida so'rab turgan. To'liqin kabi u ham biron marta bo'lsin o'g'li o'qiydigan maktabga bormagan. Sanjarni iqtisodchi bo'lsin, deb o'qishga olib kirib qo'ygan edi. O'tgan yili o'g'lini birinchi marta qamamoqchi bo'lishganda qutqarib qoldi, shundan keyin "qayerda eding?" yoki "qayerda yuribsan?" deb surishtiradigan bo'ldi. Nazarida shu surishtirishlarning o'zi kifoya edi. U o'g'lining o'g'rilarga qo'shib qolishidan ajablanardi. Uningcha odamni moddiy tomondan yetishmovchilik o'g'irlikka undardi. Har jihatdan ta'minlangan o'g'lining o'g'irlikka shunchaki havasi borligini, buni o'zlarining tilida "hobbi" deyilishini u tasavvur ham qila olmasdi. O'lmas "o'g'limni dushmanlarim yo'ldan urishdi", deb ishonardi. Ammo qaysi dushmanlari, qanday qilib yo'ldan urganlarini bilolmay garang bo'lardi. Eng birinchi dushmani o'zining nafs ekani, shu nafs tufayli haromdan qaytmay, farzandini harom luqma bilan katta qilganini birov aytguday bo'lsa ham baribir tan olmasdi. Haromdan topilgan non bo'g'zidan o'tgan bolaning iblis to'riga ilinishi osonroq ekanini iblis yetovidagi odam tushunib yetarmidi?

Bultur o'g'lini qamoqdan qutqarib qolganini O'lmas zo'r g'alaba deb bilardi. Hatto o'g'liga bir-ikki minnat ham qilib qo'ydi. Agar ikkinchi qaytarilguday bo'lsa o'rtaga tushmasligini ham ta'kidladi. Lekin o'rtaga tushishga majbur bo'ldi. Chunki o'rtada faqat o'g'lining taqdirigina emas, o'zining obro'si ham bor edi. "Shuncha quvvati bo'la turib farzandini qutqarolmabdi", degan malomatdan qo'rqardi.

Bultur qamoqdan qutulib qolishini Sanjar katta baxt deb sanamasdi. Otasidan minnatdor ham bo'lmasdi. U otasi kabi birovga qulluq qilib, birovdan ustun turib yurishni istamasdi. U barchaning o'ziga qulluq qilishini istardi. Buning birdan bir yo'li uning nazarida o'g'riboshi bo'lish edi. Ikki kundan beri qo'lga tushish sababini tahlil qilardi. Otasi ko'magida bu yerdan chiqqach, boshqa zo'rroq guruh tuzish rejasini o'ylardi.

Vaqtinchalik qamoq xonasida o'zining ertasi haqida o'ylayotgan Sanjarning taqdirini tergovchi xonasida turgan bu ikki kishi hal qiladiganday edi. Biri ayblab, jazoni ravo ko'rsa, ikkinchisi bu jazo to'ridan yulib olish umidida edi.

Shunday niyatda turgan bu ikki odamning ayni choqda tarbiya hususida o'ylashi yoki

bahslashishi tashqaridan turib kuzatgan kishiga ehtimol nodonlik boʻlib tuyulardi. Shu sababli tergovchining tarbiyaga doir fikriga Oʻlmas uncha eʼtibor bermay, gapining yakuniga diqqatiniqaratdi:

-Qanaqa ishlar? Tushunmadim?

“Tushunmaganmish...Baloga tushunasan. Oʻgʻilingga oʻxshab oʻzingni merovlikka solyapsanmi?” -Toʻlqin shunday deb oʻyladi, lekin javobni qisqaroq qildi:

-Tushunibqolarsiz...

-Birodar, noxushroq vaziyatda tanishayotgan boʻlsak ham kelgusida aka-uka boʻlib ketishimiz ham mumkin. Shuning uchun osmondan sal pastroq tushing. Bu dunyoda kelishmaydigan ish yoʻq.

-Siz men bilan kelishmoqchimisiz? Axir siz oʻgʻilizingizni aybsiz deb daʼvo qilasiz-ku? Oʻgʻilizingizning oʻgʻirlikka sirayam daxli yoʻq, u mashina yonidan oʻtib ketayotganida nodon militsiya ushlab olgan, toʻgʻirimi?

-Nodon emas-ku, lekin adashib ushlagan.

-Shunga oʻzingiz aniq ishonasizmi?

-Nega ishonmas ekanman?

-Ishonsangiz... kelishmoqchi boʻlayotganingiz qiziq. Men oʻgʻilizingizni oʻgʻirlikda ayblayapman, demak, men bilan kelishyapsiz? Toʻgʻiri tushunibmanmi?

Kimningdir sabr kosasi chuqurroq, boshqa birovniki sayozroq boʻladi. Oʻlmas tabiatan ikkinchi toifadan edi. Toʻlqin sovuq qarshi olgandayoq, sabr kosasi gʻazabga toʻlib boʻlgandi. Lekin murosaga undovchi kuch bu kosani chayqatmay, gʻazabni toshirmay turgandi. Toʻlqinning keyingi gapi bu kuchning ildiziga bolta urib, gʻazabga limmo-lim sabr kosasini chayqatib yubordi:

-Gapni aylantiravermang. Beshtami, oʻntami - boʻladiganini aytavering. Savdolashgan -nomard! Yana suyunchisiga bitmayotgan ishingizni fiysabililloh toʻgʻirilib beraman.

-Bitmayotgan qanday ishim bor ekan?

-Kelingiz mol bilan koʻlga tushib qolibdimi? Istasangiz hozirning oʻzida qoʻngʻiroq qilaman. Ikki soatdan keyin molni olib chiqib ketadi. Hech qanday gap-soʻz boʻlmaydi.

Bu Toʻlqin uchun kutilmagan taklif boʻldi: “Shuni ham iskab topishibdimi? Demak, ahdlari jiddiy...” Tergovchining oʻylab qolganini rizolik alomati deb tushungan Oʻlmas “Qoʻngʻiroq qilaveraymi?”-deb qayta soʻrab javobni kutmayoq qoʻl telefonidagi raqamni tera boshladi.

-Yoʻq., , - dedi Toʻlqin, - kelinim mol bilan qoʻlga tushgan boʻlsa - bu ularning

muammosi. Menga suyunchi kerak emas.

-Sizni o'qjar desam... - O'lmas shunday deb jimib qoldi.

-Davomini ham aytavering, gapingiz ichingizda qolib ketmasin.

-Ahmoqroqekansiz!

-Yumshoqroq qilib aytganingiz uchun rahmat. Lekin bir narsani aniqlashtirib olishimiz kerak: siz taklif qilayotgan besh-o'ntani, har holda ko'kidan bo'lsa kerak-a, olmayotgan men ahmoqmanmi yo berolmayotgan sizmi?

-Ha, buni albatta aniqlashtirib olishimiz kerak, - O'lmas shunday deb telefonini o'chirdi-da, bir qadam oldinga bosdi. Tergovchiga g'azab bilan tikildi:-Endi gapning o'g'il bolasi bunday bo'ladi: ikkalamizning ishimiz qimorga aylandi. Ko'nda faqat mening o'g'lim emas, sizniki ham turibdi. Hozircha bittasi. Kattasi Akademiyada o'qirkan shekilli? Agar yutqizishni istasangiz o'zingizning o'yiningizni o'ynayvering.

O'lmas shunday deb tahdidining ta'sirini bilmoqchiday unga yana bir oz tikilib turdi. To'lqinning yuzida o'zgarish sezilmadi:

-Agar bu ishimiz qimor o'yini bo'lsa, siz ehtiyot bo'ling. Men yaxshi qimorbozman, hech qachon yutqizmaganman. O'zingiz ayting-chi, qo'lida ikkita "tuz" bor o'yinchi yutqizadimi?

-Zo'rsiz-ku?

-Zo'rman. Ko'limdagi "tuz"lar qanaqaligini nega so'ramayapsiz?

-Menga qizig'i yo'q. Istasangiz, mayli, ayting.

-“Tuz”ning bittasi vijdonim, ikkinchisi qonun.

-Katta ketmang, bu o'yinda ikkovini ham uradigani topiladi.

O'lmas “o'zingga ham ko'lingdagi shu ikki “tuz”ingga ham tupurdim!” deb tergovchining yuziga rosmanasiga tupurmoqchi ham bo'ldi-yu, o'zini bir amallab tutib, shart o'girildi-da, chiqib ketdi.

Bu onga kelib To'lqinning ham sabr kosasi to'lgan edi. O'zaro gaplari yana picha davom etsa u ham tupuradigan holga kelib qolardi. Eshik yopilgach, alamini qo'lidagi qalamdan oldi. Barmoqlari beihtiyor ravishda uni siqib, sindirdi. Keyin mayda bo'lakchalarni eshik tomon otdi.

Unga bu paytgacha turli tahdidlar qilishgan, hatto bolalarini eslatib ham turishgan. Lekin bu odamning tahdidi o'zgacha ta'sir etdi. Oldingilarini quruq tahdid siftida qabul qilgandi, bir oz havotirlanib keyin unutmadi. Bunisi esa amalga oshishi boshlangan fojia bo'lib tuyulib, badanida titroq turdi. Agar telefon qo'ng'irog'i jiringlab qolmaganda

balki shu telbalik ta'sirida O'lmasning izidan yugurib chiqib "sen hali mening o'g'limning taqdiri bilan o'ynashmoqchimisani!", deb yoqasiga yopishishdan ham toymasmidi... G'azab - qisqa muddatli telbalikdir, deyдилar.

Shu ahvolda telefon go'shagini ko'tardi. Shahar prokurorining yordamchisi tez yetib kelishni buyurdi.

Qishloqdan uzilib, orolchaga o'xshab qolgan do'nglikka bog' qilgan Ibrohim o'rik daraxti g'ora tukkan mahalda shiyponga ko'chib chiqqan edi. Kampiri "hali yerning zaxi qochgani yo'q, ertaga belingizni ko'tarolmay menga ish orttirmang", deb to'sqinlik qilsa ham unamadi. "Men uyda bo'lsam kelinlarga ozodlik yo'q, yo biron ish buyuraman yoki mendan iymanishib xohlagancha o'tirib, xohlagancha yurisholmaydi", deb bahona qildi. Aslida kenglikka intilish bolalikdan qolgan odati. Ayniqsa yoshlik yillari qamoq azobini totib kelgandan keyin keng hovlisi ham torday tuyuladigan bo'lib qolgan. Do'nglikka suv chiqarib bog' qilishi ham shundan. Bu yerdan go'yo butun olam ko'rinadiganday. Go'yo butun olam uning o'zinikiday. Bu yil chindan ham bahorning tafti sal pastroq keldi. Kunduzi qaysi bir g'ovaklarda berkinib yotgan qish nafasi quyosh botishi hamonoq shiyponiga bostirib kelib, kechasi bilan zirillatib chiqadi.

Xufton namoziga hali picha vaqt bor edi. Ibrohim odati bo'yicha shiypon yonida kichikroq gulxan yoqib, xarsang ustiga to'nini tashlab o'tirdi. Shu o'tirishida mudradi. Tush ko'rdimi yo akasining ruhi yana paydo bo'ldimi, bilolmay qoldi.

Gulxan yoniga qadar asta yurib keldi akasi...

O'ychan tikildi akasi...

"Yana keldingizmi?"-deb so'radi Ibrohim.

"Bolalarimdan ko'nglim notinch. Bir borib kelsang bo'lardi", - dedi akasi.

"Men bordim nima-yu, bormadim nima? Bolalaringiz yosh bo'lsa ekan, quloqlaridan cho'zib tanbeh berib kelsam. Bolalaringiz ham o'zingizga o'xshaydi. Birovning nasihatini quloqqa ilishmaydi", - dedi Ibrohim.

"Uyimga bir borib kel, Ibrohim, meni injitma..."

It hurib, Ibrohim cho'chib tushdi. Beixtiyor ravishda atrofiga alangladi: hech zog' yo'q.

"Uchinchi marta kelishi. Bolalariga bir gap bo'lgandirki, arvohi notinch. Ertami-indinmi borib kelmasam bo'lmas", deb o'yladi. Alangasi pasaya boshlagan gulxanga o'tin tashlab, kosov bilan titib qo'ydi. Yuzlab uchqunlar osmonning yagona hukmdori bo'lish qasdida bir-birlari bilan joy talashgancha yuqoriga intilishdi. Ammo birontasi niyatiga yetolmadi, gulxan bag'ridan bir quloch ham ko'tarilmay sovuq havo ularni yamlab yutdi.

"Umrning shu uchqunga o'xshashini ko'pchilik bilmaydi", deb o'ylagan Ibrohim

gulxanning bu ayovsiz o'qiniga uzoq tikilib qoldi. Xayolida tug'ilgan savollarga o'zicha javob izladi.

Allohning “qiyomatda mening bir kunim sizlarning ellik ming yilingizga teng”, deyishiga qaraganda odam umri shu uchqun umridan ham kaltaroq bo'lib chiqadi. Shu kalta umrda odamlar onadan tug'ilishadi-yu, osmonga intilishadi. Eng yuqori martabalarni egallashga shoshilishadi. Osmon boyliklariga ega bo'lishni istashadi-yu, o'limning changalida so'nib, lahadda qo'nim topishadi. Gulxandan sapchiyotgan uchqunlar so'ndimi, tamom, ulardan nom-nishon qolmaydi. Bizga shunday tuyuladi. Aslida ular kulning ko'ziga ilinmas zarrasiga aylanadilar. Ehtimol yerga qo'nib, tuproqqa aylanib, ko'kat ildiziga hayot berib hayotini yana davom ettirar? Buni biz bilmaymiz.

Odam o'lganidan keyin uni tanigan tiriklar ongida yaxshimi-yomonmi xotirasi qoladi. Ruh jasaddan ajraladi, deyiladi. Yomonlarning ruhlari azob chekadi, deyiladi. Balki ruhlar azobdan nolalar qilarlar? Lekin ruhlarning faryodini hech kim eshitmaydi. Ularning azobiga hech kim guvoh bo'lmagan. Azob iskanjasidagi ruhni faqat tafakkur ko'zi bilan ko'rish mumkin. Ruhlarning azoblari tiriklarnikiga nisbatan ayanchliroq bo'lsa kerak. Chunki tiriklar jon beradilaru bu dunyo azoblaridan qutuladilar. Demak, tiriklarning azobdan qutilish chorasi mavjud. Ruhlar-chi? Ruhlarni azoblardan nima qutqaradi?

Ibrohim akasi bilan kennoyisi ruhlarining azob chekayotganini aql ko'zi bilan ko'rib, mulohaza qilardi. Ruhlarning dardiga duo malham bo'lishini bilardi. Lekin azoblarni faqat duo bilan muolaja etish yetarlimikin, degan savolga javob topa olmay, qiynalardi.

Akasi bilan kennoyisini ko'p o'ylaganidanmi, ko'ziga ko'rinariverishadi. Tushlariga ham kirishadi. Hadeb uzr so'rayverishadi, tavba qilaverishadi. Ibrohim bu holga ham hayron. Chunki har ikkovi jon berishdan avval rozi-rizolik tilagan. Ibrohim ko'nglida gina saqlamaganini, u gaplarni allaqachon unutib yuborganini bir necha marta aytgan. “Agar qabr azobida bo'lishsa, bu azoblarga o'sha gunohlarini asosiy sabab deb o'ylashayotgandir”. Ibrohim har safar shu to'xtamga keladi. Har safar boshini sajdaga qo'ygan holda Yaratganga munojot qiladi, ularni mag'firat etmog'ini so'raydi. O'lim to'shagida yotganlarga rozilikni bildirib ko'yish lozimligini bilmaydiganlar yo'q hisob. Ammo ba'zilar qalblarini ginadan tozalamagan holda til uchida, xastaning ko'ngli uchungina “roziman” deb qo'yishadi. Qalbi rozi emasligini Alloh bilib turganini esa o'ylashmaydi. Qalb rozi emas ekan, marhumning u dunyodagi ahvoli qanday bo'lar ekan? Ibrohim qalbi bilan rozi bo'lgan edi. To'g'ri, undan avvalroq yoshlik g'ururiga bandi bo'lib “bularni hech qachon kechirmayman!” deb ont ichgandi. Bu qasam buzilmas darajada qalbining tub-tubiga muhrlanib qolgan edimi? Shuni o'ylaganda Ibrohim battar eziladi.

Aslida ayrim odamlarning ba'zi gunohlarini sira kechirmagan ham ma'qul. Lekin musulmonlik burchi bunga yo'l qo'ymaydi. Musulmon farzandining uch kundan ziyod arazlashishga haqqi yo'qligi, kechirimli bo'lishga majburligi ko'p gunohlarning bahridan o'qilishiga sababdir. Ibrohim zimmasida ana shu majburiyat borligini bilguniga qadar ko'p vaqt akasi va kennoyisidan nafratlanib yurdi. Keyin ularning huzuriga o'zi keldi... Ularga bu g'alati tuyuldi. Akasi “Yangang bilan borib sendan uzr so'ramoqchi edik”, dedi. Ibrohim aslida akasining bunday niyati yo'qligini, gap til uchida aytilganini sezdi. Lekin sir boy bermay: “Siz akasiz, har qanday sharoitda ham uzr ukadan lozim”, -

dedi. Yangasi “oʻshanda ayb ish qilib qoʻygan ekanman”, demadi. Aksincha, eri oshxonaga kirgan paytda “ukangiz bekorga kechirim soʻrab kelmagandir”, deb qoʻydi. Ibrohim buni ham sezdi. Osh pishib, bir-ikki osham olingunicha gap-gapga qovushmasa ham chidab oʻtirdi. Ketar mahali yonidan gazetaga oʻralgan bir dasta pul chiqardi: “Aka, katta qurilish qilibsiz, uka boʻlib hasharga kelolmadim. Hali chala ishlar koʻp ekan, ustalarga ishlatarsiz”, deb uzatdi. Shavkat “olmayman”, deyavergach, dasturxonning bir uchini qayirib xontaxta ustiga qoʻydi-da, xayrlashib chiqib ketdi. Pulning koʻpligini koʻrib Farida ajablandi. “Ukangiz shunaqa toparman boʻlib ketganmi, qayerda ishlayapti oʻzi?”-deb soʻradi. Ukasidan mutlaqo xabar olmaydigan aka bu savolga nima deb javob berardi: yelkasini qisib “bilmayman” deyishdan oʻzga chorasi yoʻq. Pulga mahliyo boʻlib turgan er-xotin Ibrohimning yaqin tanishidan qarz koʻtarganini oʻylab ham koʻrishmasdi. Bu pulni bergan kishi shu uy poydevoriga birinchi qator gʻishtlarni terib, soʻng ketib qolgan usta ekani ularning yetti uxlab bir tushiga kirmagan edi. Ibrohimning bemehr akasi aynan shu Shavkat ekanini oʻshanda usta ham bilmas edi. Shavkat vafot etganida Ibrohimga taʼziya bildirish uchun kelgandagina bundan xabar topdi-yu, ammo bu xonadon egalarini tanishini oshkor qilmadi.

Akasidan kechirim soʻrashdan avval Ibrohimning tushiga onasi kiraverdi, “akangdan xabar ol”, deyaverdi. Undan avval usta Umar qori kechirimli boʻlish haqida qancha gapirmasin, qulogʻiga olmayotgan edi. “Ular musulmonchilikni bilishmasa ham men ularga musulmonchilik qilayinmi, yoʻq, qori, bu haqiqatingizni tan olmayman”, deb qattiq gapirgan vaqti ham boʻldi.

Usta uning oʻjarligidan ranjisa-da, daʼvatini sabr bilan davom etgan edi. U Ibrohimni kibrda ayblardi. Holbuki, Ibrohim oʻzining kamsitilgani uchun emas, onasiga mehr koʻrsatilmagani uchun akasidan ranjigan edi. Buni u hech kimga, hatto qadrtoni boʻlib qolgani usta Umar qoriga ham aytmagandi.

Bu dunyoda onasiga mehr koʻrsatmagan oqibatsiz farzandlar oz emas. “Oq sutimga rozi emasman”, deb oq qiluvchi onalar esa koʻp emas. Onasi jon berganida Ibrohim qamoqdan chiqib kelayotgan edi. “Har ikkala oʻgʻlimdan mingdan-ming roziman”, degan gapini qoʻshnisi eshitib, keyin unga bildirgan. Shu koʻshnisi ikki oʻgʻil nomidan rozilik soʻragan ekan... Ibrohim bu odatning toʻgʻri yoki notoʻgʻri ekanini bilmaydi. Har holda yoʻqdan koʻra bor, degandek jigarning nomidan begona rozilik soʻrasa yomonmasdir. Ibrohimning yoʻrigʻi boshqa. Akasiniki... Boshqa odamning rozilik soʻrashiga ham chidash mumkin, lekin janozada, tobut yonida begonaning turishi. “Ikki oʻgʻlim, ikki qanotim bor”, deb umid bilan yashayotgan onaning soʻnggi yoʻlga ketayotganida qanotlarsiz qolishiga chidash mumkinmi? Begona odamning “qarzlari boʻlsa men toʻlayman” deb turishiga-chi? Bomdodga chiqarish moʻljallangan mayitni asrga qadar saqlab turishdi. “Oʻlikning egasi kelsin”, deyishdi. “Ayolni lahadga oʻgʻli qoʻyishi kerak”, deyishdi. Lahadga ham begona qoʻydi... Bularning barchasini Ibrohim oʻlim toʻshagidan turib, uyiga qaytgach eshitdi. “Akam jon beray deb yotgan boʻlsa ham yetib kelishi kerak edi, nega kelmabdi?”-deb soʻradi. “Shu kuni akang nomzodlik dissertatsiyasini yoqlashi kerak ekan”, deb yolgʻon aytishdi. “E Xudo!-deb nola qilgan edi oʻshanda Ibrohim. - Akamni bir umrga badnom qilib qoʻyibsang-ku? Agar zarracha akli boʻlsa, endi bu dunyoda bosh koʻtarib yurolmasligi kerak. Undan koʻra oʻsha dissertatsiyasiga qoʻshib olovda yondirib yubora qolsang boʻlmasmidi?! Akamni men uchun tiriklayin oʻldirib beribsang. Tirik-oʻlik akam

borligini bilib yashash menga ham qiyin. Shu azobga loyiq ko'rdingmi meni?!" Buning shunchaki azob emas, balki imtihon ekanini Ibrohim u damda bilmasdi. Usta Umar qori anglatdi. Ibrohim imtihondan o'tish uchun kibrni yengishi kerak edi - yengdi. Onasi tushlariga kirib akasining uyiga borishga undayverdi. Usta Umar qoriga o'jarlik qilgan Ibrohim onasining ruhiga e'tiroz bildirolmadi.

Ibrohimning nazarida onasi to'ng'ich o'g'lini kichigiga nisbatan yaxshiroq ko'rardi. Ha, bu faqat Ibrohimning fikricha shunday edi. Aslida ona farzandlarini, ayniqsa eridan yodgor qora ko'zlarini birini ikkinchisidan afzal ko'rmaydi. Shavkat bolalikdan ilmga ixlosmand edi. Shu sababli dars tayyorlashiga halal bermaslik maqsadida onasi uni turli ishlardan ozod qilardi. Ibrohimning o'qishga toqati yo'q edi, oqibatda yumushlarning asosiy qismi uning zimmasiga tushardi. Kunduzlari dalada ishlashardi, yorilgan tovonlari azob berishiga qaramasdan mashoq terishardi. Shunda onasi "Shavkatim kitobini o'qisin", deb uni uyda qoldirishga turli bahonalar izlardi. Brigadir ham ko'pincha uning bahonasiga ko'nardi. Agar Ibrohim ishga chiqmasa dakki eshitardi, ba'zan quloq cho'zma yerdi, biroq, Shavkat bunday jazolardan mustasno edi. Yog'och oyog'ini do'qillatib yuruvchi, tabiatan qo'pol bo'lgan brigadirni Ibrohim yaxshi ko'rardi. Qishloqqa cho'loq bo'lsa-da, tirik qaytgan birinchi askar shu kishi edi. Hadeb "qora xat" kelaverib yuraklari zada bo'lgan qishloq ahli uchun o'sha kun haqiqiy bayramga aylangandi. Kimdir hatto qo'y so'ygan ham edi. Qo'yni kim so'ygani Ibrohimning yodida yo'q, ammo to'yib go'sht yeganini unutmaydi. Brigadir Ibrohimga "Sen kimning o'g'lisin. Bilasanmi? Bilasang bilib qo'y: sen zo'r odamning o'g'lisin!" deb qo'yardi. Urush qahramonidan bu maqto'vni eshitish uning uchun g'oyat katta baxt edi.

Yorilib, azob berayotgan tovonlariga kechasi surilgan yog' bir oz davo bo'lardi-yu, tong otar-otmay yana dalaga yo'l olish uning uchun odatiy bir holga aylanib qolgandi. Brigadir mashoq terayotganlarni qiziqtirish uchun "baraka" topganlarga mukofot e'lon qilgani bilan va'dasini bajarmasdi. Shu sababli qo'shaloq bashoq chiqqan taqdirda ham suyunchi so'rab unga yo'liqishmasdi. Bir kuni brigadir yonidan o'tib ketayotganida Ibrohim topgan "baraka"sini ko'rsatdi. U esa hammani hayratda qoldirib Ibrohimga mukofot tarzida to'rt hovuch bug'doy berdi. O'sha kuni onasi isitmalagani sababli dalaga chiqmagan edi. Mukofot shodligi bilan qaytgan Ibrohim "onam ham quvonarlar", deb o'ylagan edi, unday bo'lmadi. Onasi: "darrov qaytarib ber, bizning boshqalardan bir tishlam oshiqcha non yeyishga haqqimiz yo'q", deb gapni kalta qildi. Ibrohim onasining gapini so'zsiz bajarishga odatlangan edi. Ayniqsa otasining o'limi haqidagi xabar kelganidan beri onasi bir nima deydigan bo'lsa hatto ko'z qarashi bilan ham norozilik bildirishdan o'zini tiyardi. Lekin bu safar astoydil qarshilik bildirgisi keldi. To'rt hovuch bug'doyning halol ekanini isbotlamoqchi bo'ldi. Biroq, onaning ma'yus, ayni choqda qat'iy boqishi uni shashtidan qaytardi. Noiloj ko'chaga chiqdi. Bir oz yurgach, olti xonadon naridagi qo'shnisi Munisaga duch keldi. O'zidan ikki yosh kichik bo'lgan bu qiz to'rt kundan beri mashoq terishga chiqmayotgan edi. Otasidan "qora xat" kelgach, onasi yotib qolgandi. "Bu xonadonning ro'zg'or tashvishi shu kichkinagina Munisning yelkasiga tushdi" -qishloqdagilarning hammasi shunday derdi.

Ibrohim qizga yaqinlashib, undan "Tuzalib qoldingmi?" deb so'radi-da, boshqa gap-so'zsiz tugunchani uzatdi. "Nima bu?"-deb ajablendi Munisa. "Brigadir buva berib yubordilar, ozgina bug'doy" - Ibrohim xayoliga kelgan yolg'oni qaytarmay tiliga chiqardi. "O'zlari yaqinda kelib ketdilar"-Qiz shunday deb, yolg'oni fosh bo'lib

uyatdan qizarishi kutilgan bolaga qaradi. Ibrohim darrov fosh boʻladigan, darrov uyaladigan bolalar toifasidan emasdi: “Dalada eslaridan chiqib qolgan ekan”, dedi. Qiz tugunni oldi. Oʻshanda Ibrohim gʻoyat quvonib, oʻziga oʻzi: “Umrimda endi bitta yaxshi ish qildim”, deb qoʻygan edi. Shu yaxshiligining oradan yillar oʻtib meva berishini, shubhasizki, u oʻshanda oʻylamagandi.

Qamoqdan qaytganida koʻcha eshik qiya ochiq, ichkarida onasi xazonlarni supurayotgan boʻladi...

U shunday oʻylagandi. Onasining vafot etganini hali bilmasdi. Koʻchada kelayotganida yoʻlda uchragan hamqishloqlari salomlashishganda gʻamgin qarab qoʻyishganining boisini hovliga kirganidan keyin bildi.

...koʻcha eshik ochiqedi... ammo...

...hovlini Munisa supurayotgan edi...

Ibrohim uni koʻrib, “onamga qarashgani chiqibdi-da”, deb oʻyladi. Qiz bilan salomlashdi. “Ayam qanilar?” deb soʻradi. Munisa savolga javoban: “Hozir”, dedi-yu, Ibrohimni ajablantirib, koʻcha tomon shoshildi.

Yurakni tilim-tilim qilib tashlovchi xabarni yon qoʻshnisi chiqib aytdi.

Oradan yarim yil oʻtmay Munisa shu xonadonga kelin boʻlib tushdi. Ular orasida kitoblarda yoziladigan sevgi-muhabbat yoʻq edi. Munisa “Ibrohimni sevardi, shuning uchun uning qaytishini kutdi”, deyilsa yolgʻon boʻladi. Qizga koʻp sovchilar keldi, biroq, yozugʻida Ibrohim bor ekan, qishloq ahlining harakati bilan taqdir ularni qovustirdi. Toʻyiga akasini aytmadi. Hamqishloklaridan birontasi “Nega akang kelmadi?” deb soʻramadi ham.

Birinchi farzandining qiz boʻlishini Xudodan soʻragan edi, niyatiga yetdi, onasining ismini qoʻydi: Munavvara! Keyingisi oʻgʻil boʻldi. Kichkina Munavvara ukasiga mehribonlik qilganida Ibrohimning koʻz oldiga onasi kelaverardi. “Qizimga onam rahmatlining ismlari bilan birga mehribonliklari ham oʻtibdi”, deb shukrlar qilardi. Odam bolasi dunyoda hamma narsani unutishi mumkin, ammo onasining mehribonliklarini unuta olmaydi. Eng uzoq yashaydigan xotira aynan shu. Bu xotira odamning oʻzi bilan birga oʻladi. Onasiga yaxshi xizmat qilib, duosini olgan boʻlsa bu xotira unga hotirjamlik va xayrli oqibat beradi. Koʻnglini ogʻritgan boʻlsa armon bulogʻining achchiq suvidan ichaverib, yurak-bagʻri kuyib yashaydi. Ibrohim onasiga yaxshi xizmat qilgan boʻlsa-da, uning soʻnggi nafasida labiga bir tomchi suv tomizolmaganidan armonda yashaydi. Baʼzan “akam ham armon qilarmikinlar?” deb oʻylaydi. “Har qanday toshbagʻirda ham armon topilar”, deb fikr qiladi.

Onaning zarra miqdoridagi mehriga farzand qay miqdorda javob qaytarishi kerak? Oʻn karrami yo ming karra ortiqmi? Yoki million-millionlarchami? Bu xususda rivoyatlar, dono gaplar koʻp, ammo hech kim aniq javob bera olmaydi. Bu miqdor har bir farzandning iymoni darajasiga bogʻliq. Kimdir onasi hayot chogʻida butun jonu dili bilan xizmatini bajaradi, vafotidan keyin doimiy ravishda duolari bilan ziyorat qilib tursa-da, farzandlik burchini yaxshi ado etolmadim-a, deb oʻksinib yuradi. Kiyomatdagi

boʻlajak diydordan umidvor boʻlib yashaydi. Yana kimdir onasigi bir marta olib bergan roʻmoli bilan kifoyalanadi. Ibrohimning nazarida akasi shundaylardan edi.

Holbuki...

Tong sahar va shom arafasi oʻzlarining tomorqalarida, kunduzi kolxoz dalasida ishlab tolmagan onasi, kechasi lipillab yonayotgan pilik yorugʻida doʻppi tikardi. Rayon markazida yashaydigan xotin unga mato va ipak tashlab ketardi. Onasi qora, koʻkimir matolarga ipakda qalampir nusxa gul tikardi. Rayon markazidan keladigan xotin “ovsin, dalangiz oʻlgurga chiqmay qoʻya qoling, menga koʻproq tikib bering. Siz tikkan gullar kulib turadi. Qoʻlingiz ham yengil, doʻppilarim bir pasda sotiladi”, derdi. Bunga javoban onasi hazin jilmayib: “voy, qiziqsiz-a, dalaga chiqmasam “xalq dushmani”, deb otishadi-ya!” derdi. Shavkat pilik yorugʻida kitob oʻqib oʻtirib uxlab qolardi. Ibrohim uyqusi kelsa ham, mushtlari bilan qovoqlarini uqalab, onasining yotishini kutardi. Shavkat maktabni bitiradigan yili onasi ikki-uch kun deyarli uxlamasdan doʻppi tikdi. Buning sababini Ibrohim keyinroq bildi: rayon markazidan qatnaydigan xotin Shavkatga atab yangi koʻylak olib keldi. Oʻsha zamonlar yoshlarga rasm boʻlgan kashtali koʻylak Ibrohimning ham havasini keltirdi. Onasi buni bilib: “senam maktabni bitiradigan yiling shunaqa koʻylak olib beraman. Endi akang katta boʻlib qoldi, qizlar qaraydi, yaxshi kiyinishi shart”, deb qoʻydi.

Ibrohim oʻqishni bitiradigan yili unga bunday koʻylak kiyish nasib boʻlmadi. Chunki shaharda oʻqiyotgan Shavkatning harajatlarini qoplashdek muhim muammo mavjud edi. Buni bilgani uchun ham Ibrohim indamadi. “Onamni ortiqcha urintirmayin, vaʼdalari eslaridan chiqib ketgandir”, deb oʻyladi.

Oh, farzand-a! Bunchalar sayoz oʻylamasa! Ona vaʼdasini unutmidi!? Yodida edi. Qoʻli kaltaligidan yuragi oʻrtanardi. Kichigining oʻksib qolishi uning uchun gʻoyat zoʻr azob edi.

Turmushlari avvalgidan sal yaxshilangan boʻlsa-da, shunga yarasha orzu-havas ham ortib borardi. Shavkatning shahardagi harajatlari yoniga endi toʻy tashvishi ham qoʻshilgandi. Onasi otasiz oʻsgan bolasini oʻksitmaslik uchun toʻyni katta qilish orzusi bilan yashardi. Bola esa bu masalani osonlik bilan hal etgandi: birga oʻqiydigan Farida bilan ahdu-paymon qilib qoʻygandi. Shavkatga ichkuyov boʻlish sharti qoʻyilganda ikkilanmay rozi boʻldi. Onasi bilan maslahatlashib ham oʻtirmadi. Uning nazarida boshiga baxt qushi qoʻngan, endi paysalga solish mumkin emasdi. Bir tomondan qizning otasi kimyo sohasida taniqli olimlardan, ikkinchi tomondan shartning “hech boʻlmasa ukam ulgʻaygunicha ichkuyov boʻlib turasiz”, degan ilovasi ham bor edi. Shaharda qolib, ilm bilan shugʻullanmoqchi boʻlgan yigit uchun yana nima kerak?

Onasining topgan-yiqqani bilan shaharlik olimga quda boʻlish oson ekanmi? Anchagina qarz koʻtarildi. Toʻy oʻtdi. Shavkat shaharda baxtidan mast yashaydi. Qishloqda Munavvara bilan Ibrohim qarzdan tezroq qutilish tashvishi bilan nafas olishadi. Kambagʻalni tuyaning ustida ham it qopadi, deyilganidek, qarz yarimlamay turib, Ibrohimni harbiy xizmatga chaqirishdi. Aslida kasalvand onasiga qarash uchun xizmatdan ozod qilinishi lozim edi. Lekin u yolgʻiz farzand emas, onaga qarashi kerak boʻlgan yana bir oʻgʻil bor edi. Shahardagi oʻgʻilning bemehr chiqqanini esa qonun tan olmasdi.

Xizmati harbiy qurilishda oʻtgan Ibrohim topgan pulini hech narsaga sarf qilmay uyga olib keldi. Onasiga uzatib: “Qarzlarga bering”, dedi. “Qarzdan qutilganmiz, bolam, oʻzingga

yaxshi kiyim-bosh olgin”, dedi Munavvara. Shunda Ibrohim uning koʻzlariga tikildi. Sal avval sogʻinib-sogʻinib tikilganida koʻrmagani - mungni koʻrdi. Bu ne hol? Yuragining bir parchasi -oʻgʻli kelib, diydoriga toʻyiganda bu mung koʻzlarni tark etishi kerak edi-ku? Nega yoʻqolmadi? Bu mung ushalmagan orzu qoldirgan iz edi. Munavvara kenjasi harbiydan qaytguniga qadar qarzlardan qutulib, toʻy tadorigini koʻrib qoʻymoqchi edi. Qarzdan-ku, qutuldi, ammo orttirib, sandiqqa bir kiyimlik mato ham tashlab qoʻya olmadi...

...Gulxandagi oʻtin namroq ekanmi, tutab, Ibrohimning dimogʻini achishtirdi. Koʻzlari yoshlanib, bir necha daqiqalik xotira dunyosidan qaytdi.

Toʻlqin “Shaharning yangi prokurori nega meni yoʻqlab qoldi ekan?” degan savoliga javob topguniga qadar ancha vaqt oʻtdi. Qabulxonada qariyb yarim soat toqat bilan kutdi. U toʻsatdan chaqiriluvining boisini mashina oʻgʻrilariga taaluqli ish bilan bogʻlasa-da, xulosa qanday boʻlishini bilolmay garang edi. Uning taxminicha, osmondagi Quyoshni ham olishga qodir Keldiyorov bu yerga ham kelganu muddaosiga yetib ketgan.

Toʻlqinning gumoni qisman toʻgʻri chiqdi. Prokurorning birinchi savoli shu oʻgʻrilik toʻgʻrisida boʻldi. Toʻlqin “Ish”ning tafsilotini erinmay bayon qildi, prokuror sabr bilan tingladi. Toʻlqin gapni bas qilgach, mulohaza bildirib oʻtirmay, maqsadni aytib qoʻya qoldi:

-Keldiyorovning kimligi bizga maʼlum. Yugurib yurganini ham bilamiz. Balki sizga poʻpisa ham qilgandir. Bu ham ehtimoldan holi emas. Endi gap bunday: bu ishni oʻzimiz tergov qilamiz. Har hil gumonlarga bormasligingiz uchun aytib qoʻyay: birinchidan, “Ish”ni sizga ishonmaganimiz uchun olayotganimiz yoʻq. Siz meni birinchi marta koʻrib turibsiz, lekin men sizning mahoratingiz haqida eshitganman. Ayniqsa, - shunday deb prokuror maʼnodor kulib koʻydi, - oʻjarligingiz haqida koʻp gapirishadi. Tuman miqyosida koʻrilishi lozim boʻlgan bu kichkina “Ish”ning shahar prokuraturasi ihtiyoriga olinishiga boshqa sabablar bor. Hozircha bu “Ish”ning boshqa jiddiyroq “Ish”lar bilan aloqadorligini aytish bilan cheklanaman.

Prokuror huzuriga chaqirmay, bunday izoh bermagan taqdirda ham, “Ish”ni topshirish haqida qisqacha buyruq berib qoʻyganida ham Toʻlqin bir nima deya olmas edi. Shu bois boshqa savol berib oʻtirmay, qaytishga izn soʻradi. Prokuror oʻrnidan turib, xayrlashish uchun qoʻl uzatdi-da: “Bu “Ish”ni butunlay unutmang, vaqti kelsa, sizni chorlaymiz”, deb qoʻydi.

Toʻlqin ishxonasiga kelib, “Ish”ni topshirish uchun tayyorladi. Prokurorning kutib olishi va kuzatishini, aytgan gaplarini qayta-qayta eshladi, mulohaza qildi. Masala Keldiyorov foydasiga hal boʻlmayotganiga ishonadi. Ammo Keldiyorovning poʻpisasi tufayli koʻnglida uygʻongan tashvish olovi pasaymadi. Avvallari ham turli martabadagi odamlar unga shu kabi, hatto bundanda battar tahdidlar qilishsa ham choʻchimas edi.

Hatto bittasi mahalla chetidan o'qitayotgan katta yo'lni naq uning uyi ustidan o'tkazmoqchi ham bo'lgandi. Unda bu kabi po'pisalarning ko'p puch ekanini sezib turardi. Endi esa... qo'rqishi bejiz emas. Jinoyat olami avvalgidan ko'ra yovuzlashdi. Nimaga shunaqaligini u ko'p o'ylaydi, biroq aniq sababini aytib berolmaydi. Uning bilgani faqat bitta: kinolarda ko'rsatilayotgan jinoyatchilarning yovuzliklari kino tasmlarida qolib ketayotgani yo'q, hayotga ko'chib, urchib, ko'payib boryapti.

To'liqin "Ish"ni topshirib, rasmiyatchiliklarni ado etgach, o'g'li o'qiydigan Akademiya sari beixtiyor ravishda yo'l oldi. Ertalab xotiniga "biz o'g'ling bilan to'rt yil avval kelishib olganmiz, men akademiya bormaslikka so'z berganman", degani bilan va'dasiga sodiq qololmadi. Navbatchiga yaqinlashib, o'zini tanishtirdi-da, o'g'liga ikki og'iz gap aytib ketishi lozimligini bildirdi.

-To'rtinchi bosqichdan hech kim yo'q-ku? - dedi navbatchi unga javoban.

-Nega hech kim bo'lmaydi? - deb ajablandi To'liqin.

-Imtihondan oldingi oxirgi amaliyotga ketishgan, - dedi navbatchi.

-Qayoqqa ketishadi? - deb battar ajablandi To'liqin.

-Buni o'g'lingizning o'zidan so'raysiz, aytish mumkin bo'lsa, aytadi, - deb gapni kalta qilgan navbatchi joyigaqaytdi.

To'liqin sal nari borib, to'xtadi. Nazarida hozir navbatchi uni chaqirib, Salohiddinning qayerdaligini aytadiganday edi. Qayerga borishni, nima qilishni bilolmay, botayotgan oftob kuzatuvida pastak archalar oralab yurdi. So'ng yo'lovchi mashina to'xtatib, uyiga ketdi.

Darvoza ostonasidan hatlaboq ayvoni tomon umid bilan qaradi. Nazarida o'g'li uyga qaytganu shu yerda o'tirganday edi. Ayvonda dazmol bosayotgan Robiyaning qo'li ishda-yu, xayoli televizorda edi. Ertalab yoqilgan televizor hanuz o'chirilmagandi. O'g'li haqida yana biron suyunchli xabar eshitish niyatidagi Robiya kun bo'yi televizordan uzoqlashmadi. U erining kirib kelganini sezmedi. To'liqin "uyga kirsammikin yo' izimga qaytsammikin?" degan xayolda to'xtab qoldi. O'g'lidan xabar olgani kelganini xotini bilib qolsa, bir tashvishi o'n bo'ladi. "Ehtimol ichkarida dam olib yotgandir?" Bu umid chirog'i ko'nglini sal yoritib o'tdi. Bu onda chap tomondagi ayvon derazasi ochilib, kelini salom berdi. To'liqin unga qaramay alik oldi-da, o'z uyi tomon shoshildi. Obodxonning "Bizning ishimiz nima bo'lyapti?" degan savol nazari javobsiz qoldi. Labini burganicha garmdori aralash so'zlaridan bir qanchasini uning izidan pichirlab sochdi-da, derzasini taraqlatib yopdi. Bu shovqindan cho'chib tushgan Robiya orqasiga o'girilib, erini ko'rdi-yu, avvaliga bir oz ajablandi, so'ng quvongan ayolning jilmayishi bilan qarshiladi.

-Voy adasi, niyatim xolis ekan-a! Hozirgina oshni damlab, vaqtliroq kelsangiz birgalashib yerdik, deb o'ylab turuvdim. Farishtalar omin deyishibdi.

To'liqin xotining ko'zlariga qarashga botinmay ichkari kirib ketdi. O'g'illarining xonasi bo'sh. Uning qorong'i ko'ngli yanada zimiston bo'ldi. Bu yerda uzoqroq tursa

xotini xavotirlanib kirib qolishi mumkin edi. Shu bois tezgina iziga qaytdi.

-Kiyimingizni almashtirmaysizmi? - deb soʻradi Robiya dazmolni bir chetga qoʻyib.

-Kiyimimnimi? - “Nega almashtirishim kerak?” deb oʻyladi Toʻlqin, keyin parishon xayolini jamlab:-Ishga qaytishim kerak. Zarur qogʻozim qolib ketgan ekan, shunga keluvdim, - dedi.

-Ishingizga bir pas kech borsangiz osmon uzilib yerga tushmas. Oʻtiring, ovqatni suzib kelaman, - dedi Robiya norozi ohangda.

-Ovqatmi?.. Yaqinda osh yevdim, qornim toʻq.

-Vaqtli kelganingiz uchun quvonganimda yana dilimni vayron qilib ketasiz-a. Bitta oʻzim soʻppayib oʻtiranmanmi?

-Ozgina sabr qil, kelin tushirsak uyimiz toʻlib qoladi.

-Keladigan kelin bechora ham erini kutib oʻtiradi hali.

-Senga nima boʻldi? Ertalabdan beri meni chaqqing kelyapti?

-Ari boʻlibmi yo ilon boʻlibmi, ochigʻini aytavering.

Toʻlqin qarasaki, xotini astoydil achchiqlanishni boshlayapti. Oʻzini jilmayishga majbur qilib, beligaqoʻl yubordi.

-Voy, oʻlmasam, keliningizning koʻzlari shu tomonda-ya!-dedi Robiya choʻchiganicha tisarilib.

-Boʻldi. Sen yengding, men taslim. Ovqatingni olib kel, boʻkib qolsam ham yeyman.

Toʻlqinning tili soʻzlasa-da, lablari jilmaysa-da, xufton dili portlab ketay derdi. Qayerga borishni, kimdan soʻrashni, kim bilan maslahatlashishni bilmaydi. “Keldiyorovning gapi shunchaki poʻpisa, buncha xovliqasan? Oʻgʻling oʻzini xafa qildirib qoʻyadigan yosh bolamas-ku?” deb oʻziga oʻzi tasalli bermoqchi boʻlardi. Lekin bu tasalli chirogʻini tashvish shamoli puflab, oʻchirib koʻyardi. Xotini ovqat suzib kelgunicha diqqati yanada oshdi. Xavotir bulutiga burkangan bir necha daqiqa bir necha yil yil kabi tuyuldi. Boshqa holatda ehtimol xotiniga qarab baqirib bergan boʻlardi. Lekin hozir unday qilolmaydi, tashvishining oshkor boʻlishidan choʻchiydi.

Qorin och, osh shirin boʻlsa-da, tomoqdan oʻtishi qiyin edi. Toʻlqin “qorni gʻoyat toʻq” ekanini bahona qilib, qoshiqni qoʻydi. Robiya zoʻrlamadi. Choy quyib uzatdi.

-Hali siz ketishingiz bilan oʻgʻlingiz telefon qildi, - dedi choy quyib uzatib.

Bu xabar Toʻlqinning zulmatdagi dilini chaqmoq kabi yoritib, shoshilib soʻradi:

-Salohiddinmi?

Chaqmoqning bevafo nuri aldagani kabi, bu xabar umid oqtini yoqa olmadi.

-Yoq-oq, Bahriddiningiz. Xushxabarni eshitganimizni bilmaydi-da, suyunchi bering, deydi. Suyunchi tayyorlab qo'yishimiz kerak.

-To'g'ri aytasan.

-G'olib bo'lganlarni har hil shaharlarga olib borishibdi.

-Salohiddin kelmadimi?

Gap Bahriddin haqida ketayotganda to'satdan bunday savol berilishi Robiyani ajablantirdi:

-Bugun kelmaydi-ku?

-Nega kelmaydi?

-Ertalab aytdi-ku? Men gapirsam, o'zingiz yana qaysarlik qildingiz. Haliyam bo'lsa, boring, boshliqlari bilan gaplashing. Har kuni uyga keladigan bo'lsin.

To'lqin o'rnidan turdi. Zinadan tushayotib xotiniga o'girilib, tayinladi:

-Kelib qolsa, og'aynilarini bahona qilib jo'navormasin, zarur gapim bor.

Zinadan tushib bir-ikki qadam qo'yishi bilan yaqindaginada taraqlab yopilgan deraza yana ochildi.

-Mullaka, ishimiz bitay deb qoldimi? - deb so'radi Obodxon.

To'lqin javob berish uchun to'xtamadi, unga qaramadi ham.

-Ishingiz qanday bo'lsa shunday turibdi, u yerda tanishlarim yoq.

-O'zimiz harakat qilaylikmi unda?

-Ha.

Shunday deb chiqib ketdi. Bu qo'rsligi uchun kelini bombalardan birining piligini yoqishi mumkinligini o'ylamadi.

Obodxon qaynog'asining izidan bir pas g'azab bilan qarab turdi-da, so'ng ovsiniga o'girildi.

-Voy savil!-dedi zardali ohangda. - Nokaslik ham evi bilanda!

Robiya bu gapni eshitmaganday ayvonga qaytib kirib ketaversa ham bo'laverardi. Lekin iblis ko'krigidan itarib hech bo'lmasa bittagina gap aytishga majbur qildi:

-Obodxon, menga gapiryapsizmi?

-Yo'q, devorga!

Obodxon shunday dedi-yu, odatiga xilof ravishda gapni kalta qilib, derazasini yana taraqlatib yopib oldi.

“Men gunohkorman Ibrohimjon, kechiring, siz kechirmasangiz Xudo ham kechirmaydi”.

“Men sizni kechirganman kennoyi, ruhingiz qiynalmasin, bezovta bo'lavermang”.

“Men baxtsiz ayolman...”

“Unday demang”.

“Kibrimga yarasha qabr azoblari berildi. Hali oldinda qiyomat azoblari ham bor. Men sizni “qaynim” deyishga ham orlangan edim. Sizni qayni emas, ukam o'rnida ko'rganimda oxiratim bunchalar ayanchli bo'lmas edi... Qaynisini “ukam” deya olgan kennoyilar qanchalar baxtli ekan!..”

Gulxandan sachrab chiqqan uchqunlar kennoyisining kir ko'ylagiga yopishib kuydira boshladi. Ibrohim o'zni o'chirish uchun turmoqchi bo'ldi, biroq oyoqlari qimirlamadi - uning hukmiga bo'ysunmadi.

Ko'ylak alanga oldi. Kennoysi bir zumda kuyib kul bo'ldi...

It hurib, Ibrohim ko'zlarini ochdi. Gulxan alangasi so'nibdi. Shabada cho'g'larni yalab yaltillatib turibdi. Ibrohim hozirgina kennoyisi turgan joyga qaradi. Maysa bosilmagan, kulham yo'q.

Ibrohim cho'g'ni titib, o'tin tashladi. Bu tushda nima hikmat bor ekan, deb o'ylandi. Keyin shiypondagi o'rniga chiqib yotdi. Bitta ko'rpachayu bitta yostiqqa ko'nikkan tanasiga bu safar o'rin qattqlik qildi: u yonboshdan bu yonboshga ag'darilaverib uxlay olmadi. Kishloqdagi bir-ikki xo'roz subhi kozibga aldanib chala-yarim qichqirib qo'ygach, o'rnidan turdi. Sovuq suvda tahorat olgandan so'ng tahajjud namozini niyat qilib qo'l bog'ladi.

Mirzatilla so'fining ovozi kelib, subhi sodiq kirganini ma'lum qilgach, eshakka minib qishloq tomon yo'l oldi. Bomdod o'qilgandan keyin masjid qavmi bilan salom-alik qilib bir oz gurunglashish odati bor edi. Bu safar ko'rgan tushining ta'siri tufayli odatini kanda qildi. Uyga kirib, kampiridan xabar ham olmay bog'iga qaytdi. Qumg'onda choy qaynatdi. Bir piyola choy, bir tishlam non - uning nonushtasi shu bo'ldi. Ketmonni qo'lga oldi-yu, yana joyiga qo'ydi. Shiypon chetida o'tirib, xayolga toldi.

U tabiatan irimchi bo'lmasa-da, tushda ko'rganlarini e'tiborsiz qoldirmaydi. Bunga qamoqxonada ko'rgan oxirgi tushi sabab bo'lgan. O'shanda “ertaga ozodlikka chiqaman”, degan hayajonda deyarli uxlamagan ham edi. Tongga yaqin ko'zi ilinibdi. Mo'ljalni bo'yicha yo bir yo ikki daqiqa mizg'igandi. Tushida onasini ko'rgandi

Onasi oppoq libosda emish.

“Ayajon, ozodlikka yetib keldim”, -dermish u quvonib.

“Sen yetib kelding, men esam ketyapman”, -dermish onasi ma'yuslanib.

“Qayoqqa?”

“Otangning oldiga...”

“Otam... uzoqdalar-ku?”- dermish u ajablanib.

“Uzoqdamas. Pastga tushsam bo'ldi, bir pasda yetaman. Otangni sog'inдим”, - dermish onasi.

“Ketmay turing, men sizni sog'inman”.

“Sog'inishimiz qiyomatga qadar... Oxirgi gapimni unutma: hech kimdan qasos olma. Sud paytida xo'jayiningni o'ldiraman, deb ont ichgan eding. Asti unday qilma. Uni Xudoning o'zi jazolaydi. Men Xudoga munojotlar qildim: sen uzoq umr ko'rasan, baxtli hayot kechirasan. Men roziman sendan, Alloh ham rozi bo'lsin...”

Shunday deb qishloq qabristoniga borganmish. Ochiq go'rga tushganmish. Qabrga tuproq tashlanmaganmish, ochiqqolganmish...

Onasi qasos olmaslikni ta'kidlab har maktubida yozardi. Hukm o'qilganida, haqiqat va adolat chekinib, tuhmat g'alaba qozongan onda xo'rlik azobiga dosh berolmagan yurakdan “Seni baribir o'ldiraman!” degan qasos so'zlari otilib chiqqan edi. Aslida qonida zulm olovi bo'lmagan Ibrohimning ozodlikka chiqqach tuhmatchi xo'jayinini o'ldirish niyati yo'q edi. Lekin onaning qulog'iga o'rnatilib qolgan o'sha hayqiriq zarracha pasaymasdi. Ba'zan sokin tun bag'rini ham yorib jaranglab, uyqudagi onani sapchib turishga majbur etardi. Nazarida hademay o'g'li ozodlikka chiqardi-yu, qasosini amalga oshirib, yana qamoqqa qaytardi. O'g'liga tez-tez yozadigan maktublarini ana shunday havotir siyohiga botirib yozardi. Ibrohim buni his qilib turardi, har javobida qasos olmaslikka va'da berardi. Suddagi hayqirig'i ont emas, shunchaki alam so'zlari ekanini tushuntirishga harakat qilardi.

Aslida xo'jayinini o'ldirmasa ham tuhmat so'zlarini aytgan tillarini sug'urib olishni juda-juda xohlardi. Ibrohim harbiydan qaytganidan keyin xo'jaliklar aro qurilish idorasiga ishga kirgandi. Eski yuk mashinasini eplab tuzatib olib, xizmatni beminnat bajarib yurib edi. Xo'jayini bir mashina taxtani ko'shni viloyatdagi qishloqqa olib borishni buyurdi. Ibrohim taxtalarining hujjatini so'rganida “ikki qadam yerga ham hujjatmi!” degan tanbehni eshitdi. Boradigan yeri boshqa viloyat bo'lgani bilan orasi yaqin edi. Ammo ana shu yaqin masofaga borish uchun militsiya nazorati postidan o'tilishi shart edi. U yerdagilar “ikki qadam yerga ham hujjatmi?” degan gapga ko'nishmadi. Xo'jayin esa “taxtani men jo'natmaganman, o'zi o'g'irlab sotmoqchi bo'lgan”, deb turib oldi. Tergovchi “ozgina harajat bilan chiqib ketishi mumkin”ligini aytdi. Ibrohimda “ozgina harajat”ga loyiq pul yo'qligini bilib nafsi orom ololmagan tergovchi qiynoqlarini ishga soldi, farzandni o'g'ri qilib tarbiya qilgan onani ham

qamoqda chiritishga vaʼda berdi-yu, oqibat oʻzi istagan qogʻozga imzo chektirib oldi.

Bolaligida och qolgan kezlari bitta boshoqqa ham xiyonat qilmagan Ibrohim “oʻgʻri” degan tamgʻa bilan umrining salkam besh yilini koʻmir konlarida oʻtkazib, ozodlikka ham shu tamgʻa bilan chiqqan edi.

Oʻshanda iblis bir iblisligini qildi-ya!

Toshkentga yetib kelib, poyezddan tushgach, toʻgʻri qishlogʻiga ketaversa boʻlmasmidi!?

“Ehtimol ayam akamnikidadirlar, qishloqda boʻlsalar akam bilan birga kirib borsam quvonadilar”, degan xayolda ichkuyov akasinikiga borib edi.

Eshikni kelin ayasi ochdi. Avval tanimaganday qarab turdi. Keyin sovuqqina qilib “akangiz yoʻqlar”, dedi.

Iblis yana iblisligini qildi-ya!

Shundan soʻng indamaygina ketaversa boʻlmasmidi?

Yoʻq, akasiga ikki ogʻiz nordon soʻz aytishni qasd qildi.

Qorongʻu tushganida keldi. Eshikni emas, yotoqxona derazasini taqillatdi.

Chiroq bir yondi-yu, yana oʻchdi. Akasi chiqmadi.

Aslida chiqmoqchi edi. Deraza tiqillagach, chiroqni yoqdi. Xotini uygʻonib, qaddini koʻtardi:

-Chiqmang, chiroqni oʻchiring, - dedi esnab.

-Nega? - deb ajablandi Shavkat.

-Yana ukangiz kelgandir, - shunday deb chiroqni oʻzi oʻchirdi. - Hali keluvdi...

-Uyga kirmadimi?

-Kelganida uy toʻla mehmon edi. “Erimning oʻgʻri ukasi qamoqdan chiqib keldi”, deb tanishtirishim kerakmidi?

-Uyga kirmasa ham chiqib koʻrishib qoʻyay.

-Hozir shart emas. Erta-indin partiyaga oʻtadigan odamsiz. Bunaqa ukangiz borligi maʼlum boʻlsa, raykomning yaqiniga ham yoʻlatishmaydi. Hech boʻlmasa dissertatsiyangizning javobi kelsin, keyin bordi-keldi qilaverasiz. Men hali “akangiz Maskovga ketganlar”, deganman, meni yolgʻonchi qilmang.

Yolgʻonchi xotinning bu yolgʻon gapiga Shavkat ishonadi. Iblisning nafasi bilan keyingi

gap sal nozli ohangda aytilib, yumshoq va issiq bilaklar boʻyiga chirmashdi-yu, lablar osongina qovushaqli.

Ichkaridagi bu savdodan bexabar Ibrohim bir oz harakatsiz turdi. Deraza tomon yana koʻl uzatdi, lekin taqillatmadi. Dilida akasiga laʼnat toshlarini otganicha iziga qayta boshladi. Muyulishda uch yigitcha toʻxtatdi. Avval soat soʻrashdi. Keyin “yo hamyon yo jon!” deb dagʻdagʻa qilishdi. Ibrohim ularga bas kela olardi, bittasining qoʻlida pichoq borligini bilmabdi. Qovurgʻasi ostiga pichoqning sovuq tigʻi sanchilganida “meni ajal boshlab kelgan ekan-da”, deb oʻyladi-yu, hushdan ketdi. Kasalxonada hushi oʻziga kelganida yonida oʻtirgan notanish kishini koʻrib ajablandi. U kishi oʻzini “Usta Umar” deb tanishtirdi. Ammo uch kun avval kechasi koʻchada uchratib, bu yerga olib kelganini aytmadi. Ibrohim oyoqqa turgach, uyiga olib bordi, mehmon qildi. “Qiyomatli ogʻa-ini boʻlaylik, siz Xudoning marhamati bilan oʻlim jaridan chiqib keldingiz”, dedi u. Ibrohim uning taklifini qabul qilib, “men hali beri oʻlmayman, onam menga uzoq umr tilab duolar qilganlar”, dedi. Bu gapni eshitgan usta Umar “Onaning duosi qabul, insha Alloh”, deb qoʻydi.

Ibrohimning biqiniga pichoq sanchilgan payt...

Ikki oʻgʻilni tugʻib, tarbiya qilgan onaning lablariga begona odam suv tomizayotgan vaqt...

Taqdirni qarang-ki, har ikki voqea bir daqiqada yuz bergan edi.

Akasinikiga kirmaganida onasidan rizolik tilab qolishga ulgurardi...

Bular endi oʻtmish. Akasi va kennoyisining gunohlarini kechirgan boʻlsa-da, dilni tirnab yaralagan bu alamlarni unuta olmaydi. Ehtimol qiyomatda yana uchrashishar. Lekin Ibrohim bu dardlarni Allohning huzurida dasturxon qilib yozishni istamaydi. Aksincha, akasini doʻzax azobidan qutqarishni soʻrab, Allohga yolboradi. Akasi shaharga oʻqishga ketguniga qadar qishloqda qanday ahil yashashgan boʻlishsa, jannatda ham shunday qovushib yashashni umid qiladi. Faqat...

Keyingi oyda koʻrayotgan tushlari, koʻziga koʻrinayotgan sharpalar uni bezovta qilib qoʻydi.

Qayta-qayta istigʻfor aytdi-da, ketmonni yana qoʻliga oldi. Ish bilan ovunishni niyat qildi. Ammo boqqa olib keluvchi yoʻlda bir ayol va bir erkakka koʻzi tushib, shashtidan qaytdi. Ayol -oʻzining kampiri. Erkak shu kampirining amakivachchasi Mardiqul. Ibrohim hech mahal otini toʻgʻri aytib chaqirmagan. Bolalik kezlari shu qishloq koʻchalarini changitib oʻynab yurishganida “Qulvachcha” deb hazil qila-qila oqibat bu laqabga oʻrganib qolgan. Hozir ham Mardiqul yaqinlashgach:

-Ha, Qulvachcha, tinchlikmi, amakingning qizini bekorga ergashtirib kelmagandirsan? - deb qarshiladi.

-Namozdan keyin uyingga kirarsan, deb kutdim, kirmading, shoshmasang bogʻingni birov tag-tugi bilan oʻmarib ketarmidi? - dedi Mardiqul.

-Senam odamga o'qshab peshonangni sajdaga qo'yisang har kuni ertalab masjidga ko'rishib turardik.

-Eski gapingni chuvamay tur, buning ham vaqti-soati kelib qolar.

-Vaqti-soati deganing yog'och otga mindirib olib kelishlarimi? Unda kech bo'ladi.

-Hay, otasi, birov oldingizga kelganida sal shirinroq gapiring, - deb tanbeh berdi Munisa.

-Bu birov emas, qiyomatli oshnam, qiyomatda buning uchun ham javob beraman. Sen qarindoshingning oldida o'zingdan ketmaginu, tezda o't yoqib, qumg'orni qo'y. - Munisa itoatkorlik bilan nari ketgach:-Tinchlikmi, o'g'lingning ishi nima bo'lyapti? - deb so'radi.

-Tergovchi ko'nadigan, lekin katta so'rayapti. Kamaytiradigan har yili uchun mingdan berishim kerak ekan. - Mardiqul bu gaplarni og'ir fojiaga giriftor bo'lgan odam ovozi bilan aytdi. Keyin "ko'kidan" deb izoh berdi-da, uf tortdi.

-So'raydigan - u, beradigan - sen. Nima qilmoqchisan?

-Shuning maslahatiga keldim. Ikkita buqani sotishim tayin. Lekin uning puli urvoq ham bo'lmaydi. O'limlikka asraganim ham bor.

-Nima asragansan, pulmi?

-Ha.

-O'limlikka pul asralmaydi, iymon asraladi.

-Shunaqa gaplaringni qo'yib turgin. Nima qilay, qarz yig'ayinmi yo uyni sotaymi?

-Esingni yeb qo'yibsan. Qarindoshlaring orasida ming dollari bor odam topiladimi? Xo'p, uyni sotding, o'g'lingni chiqarib olib kelding. Kimning og'ilxonasida yashaysanlar?

-Ko'chadaqolmasmiz?

-O'zing ahmoqsan. O'g'ling kichkinaligida "shu bolani domlaga ber, o'qitsin, ovozi shirali, zo'r qori bo'ladi", deganimda unamovding. Ashulachi bo'ladi, deb Xudo bergan ovozni xor qilding. Oqibat ashulachi ham bo'lmadi, boshingga bir baloni orttirib berdi.

-Qo'y, shu gaplaringni, o'g'limga tuhmat qilishdi, nashani dushmanlari atayin tashlab qo'yishgan.

-Enang tirilib kelsa bu cho'pchagingni enangga aytarsan. Ikki gramm qoradorini tashlab qo'yishibdi, desang ishonardim. Ikki qop nashani birov tashlabdi-yu, o'g'ling og'zini ochib lallayib o'tiribdi-da, a? Bilib qo'y, million dollar bersang ham chiqara olmaysan. Bahonada tergovchi seni shilib olmoqchi.

-Sovuq nafas qilma, hech bo'lmasa yarmiga qisqartirib beradi. Sen eng qadrdon oshnamsan. Qarz so'qashni sendan boshlayapman: qancha bera olasan?

Ibrohim bu savolni kutgan edi. Javobi ham tayin edi. Lekin aytilajak so'zlarning havoga singib ketishini bilgani uchun shoshilmadi. Umid bilan tikilib turgan ko'zlarga qaramadi. Qumg'onga o't qalayotgan kampiriga tikilganicha o'tiraverdi. Bu sukutni Mardiqul o'zicha anglab:

-Ikki marta qarz olib qaytarmaganman, esimda turibdi. Shuni minnat qilma. Hammasini qo'shib qaytaraman. Qarzlarni uzolmay o'lib ketsam, o'g'lim beradi, - dedi.

Bu gapdan keyin Ibrohim uning ko'zlariga qaradi. Do'stining g'amli boqishi yuragini o'rtadi. Lekin haqiqatdan chekinishni ham istamadi.

-Qarzdin qutulolmay o'lib ketishing aniq, - dedi bosiq ohangda. - Sen oldingi qarzlaringdan havotir olma. Allohning roziligi uchun kechib yuborganman. Lekin hozir bir so'm ham berolmayman.

-Nega? Puling yo'qmi?

-Pulim yo'q, desam yolg'on aytgan bo'laman, gunohga botaman. Pulim bor. Lekin bu harajating uchun berolmayman. Sen pora bermochi bo'lyapsan. Gunohingga sherik bo'lishni istamayman. Tergovchingning me'dasi shaytonning atalasiga o'rganib qolgan, sen shu ataladan yalamagin.

-Porani men beraman, senga nima?

-Aytdim-ku...

-O'g'lim qamoqda chirib ketaversinmi?

-Chirimaydi, balki esini butlab chiqar.

-Otasi, bu g'ariblarga yordam berish savob-ku, nega unaqa deysiz? - dedi kampir gapga aralashib.

-Sen qumg'onga qara, - dedi Ibrohim jerkib.

-Agar shu gapingda turadigan bo'lsang, oshnachilikdan kechvoraman, bilib qo'y, - dedi Mardiqul. Endi uning gapi ohangida g'am emas, dag'dag'a mavjud edi. Ibrohim buni sezib bir seskandi-yu, biroq sir boy bermadi.

-Bizning oshnachiligimiz sen so'rayotgan pulga qarab qolgani yo'q. Oshnam deb men seni qidirib topganim yo'q, senam meni izlamagansan. Allohning irodasi bilan shu yerda tug'ilib, shu yerda topishganmiz. Ikkovimizni Allohning irodasi bilan faqat go'r ajratadi. Ishqilib qil ko'prikda ayri-ayri bo'lishdan O'zi asrasin! Sen hadeb valdirayvermasdan gapimga kir: peshonangni sajdaga qo'y. Tavba qil. O'g'lingga ham yetkaz: u ham tavba qilsin. Yurakdan istig'for aytсалaring Xudo gunohlaringni

kechiradi.

-Munis! Buningning gaplarini eshityapsanmi!? Juda-a aqlli boʻlib ketgan bu!-deb baqirdi Mardiqul kampirga qarab. - Ahvolimni boshqalar tushunmasa ham bu tushunishi kerak edi. Har holda qamoq nimaligini bilardi. Qamoqdan chiqib kelganida senga ming marta aytganman: shu oqibatsizga tegma deb! Oshnachilik hurmatini bilmasa, qarindoshchilik hurmatini bilmasa! Qalin puliga bir tiyin soʻramasdan seni berganmiz bu yalangoyoqqa. Endi yalang oyoqlariga kavush bitib aql oʻrgatadigan boʻlib qoldilarmi! He, oʻlgurdim! Menga qara, sen donishmand!-Shunday deb Ibrohimga zaharli nigohini qadadi:- Men goʻr-poʻringni kutib oʻtirmay sen bilan oshnachilikni uzdim. Sen beradigan toʻrt tangasiz ham bolamni qutqarib olaman.

Shunday dedi-yu, Munisaning hay-haylashiga qaramay tez-tez yurib ketdi. Ibrohim esa oʻrnidan jilmadi. U oshnachiligining uzilganidan emas, doʻstining iymonga yaqinlashishni istamayotganidan mutaassuf edi.

Tutundan yoshlangan koʻzlarini artgan Munisa nima qilarini bilolmay oʻrtada turib qoldi.

-Boshlab kelgan amakivachchangni endi borib ovut, - dedi Ibrohim dagʻal ohangda.

-“Bori shu”, deb ozginagina pul berib qoʻya qolsangiz boʻlardi-ku? - dedi Munisa nolish ohangida.

-Sen yolgʻonchiga emas, haqgoʻyga tekkaningni shu paytgacha bilmasmiding?

-Bilaman, lekin onda-sonda yolgʻon gapirsangiz boʻlaveradi.

-Sen qachondan beri fatvo beradigan boʻlib qolding? Xotinlardan muftiy chiqishi mumkinligini bilmagan ekanman. Qulogʻingga quyib ol: igna ham koʻzni koʻr qiladi, xodaning uchi ham. Gunohga sheriklikning katta kichigi boʻlmaydi. Men faqat oʻzimni oʻylaganim yoʻq. Nodon qarindoshingni gunohdan saqlab qolmoqchi edim. Oshnachilikni uzsa uza qolsin. Tobutimning bir chekkasini shu koʻtaradigan boʻlsa, koʻtarmay qoʻya qolsin.

-Unaqa demang, achchiq ustida gapirib yubordilar.

-Bunaqa achchiqni onasiga borib qilsin. Pul qayerda turishini bilasan, uyga borginda hammasini olib ber. Qarzga emas, yeb ketarga, degin. Qarindoshlar bir boʻlib oxiratimni kuydirishdan ham qaytmaysanlar!

Ibrohim shunday dedi-da, ketmonni olib daraxtlar orasiga kirib ketdi. Uning feʼlini bilgan kampir boshqa gapirmay, iziga qaytdi.

Kun tikkaga kelganida Ibrohim charchadi. Ketmon urib hansiramasdi, asabiylashgani sabab boʻldi shekilli nafasi siqildi. Shiyponga qaytib, oʻchoqqa oʻt qaladi. Kechagi ovqatdan qolganini isitdi, choy damladi. Bir kosa shoʻrvaga qanoat qilmaydigan odam yarim kosa taomni ham icholmadi. Bir piyola choydan soʻng kosaning tepasiga sochiq tashlab qoʻydi. Koʻrpachaga yonboshlay turib boqqa olib keluvchi yoʻlda kelayotgan

milisaga ko'zi tushdi. Tikilib qaradi: taniy olmadi. "Kim bo'ldi ekan?" degan xayolda qaddini ko'tardi. Milisa yigit yaqinlashgach, jiyani Salohiddinni tanib ko'ngli yayrab ketdi.

Salohiddin uni ko'rib jilmaydi: "Opoqdada, assalomu alaykum!" deb quloch yoyganicha xuddi yosh boladay yugurdi.

-Opoqdadangni sog'intirib qo'yding-ku, toychog'im!-dedi Ibrohim uni bag'riga bosib. Keyin shiyponga boshladi. Qaynog'i o'lmagan choydan quyib uzatdi. So'ng hovuzchadagi bidondan kosaga qatiq quydi:-Oftobda ancha urinib qolibsana, darov ichib ol, quyoshning taftini bosadi. Tog'ning oftobi juda issiq bo'lmasa ham senga o'xshagan nozik niholchalarni urib qo'yishi mumkin.

-Unchalik emas, opoqdada. Shu oftobda yigirma kilometr ga yugurib, imtihondan "besh" olganman, - dedi Salohiddin qatiqni ichib olgach.

-Endi bu imtihoning yilda bir bo'lsa bo'lar, bo'lmasa yo'q. Kunda yugurganingda menam senga besh ketardim, - dedi Ibrohim jiyanining qarshisiga o'rtnashib o'tirib olib, - Qani, gapir-chi, ota-onang, ukalaring, amakingnikidagilar sog'-salomatmi?

-Hammalari yaxshi, salom aytishdi, - dedi Salohiddin. "Salom aytishdi" degan yolg'on pardasi yordamida hech kimga bildirmay kelganini yashirdi.

-Salomat bo'lishsin, - dedi Ibrohim. - Sen shu yerda picha dam ol. Ko'ngling ko'tarsa mana bu sho'rvani ichib ol, bir-ikki qoshiq urganman xalos.

-Sizdan qolgan ovqat tabarruk-ku? - dedi Salohiddin kulimsirab. Ibrohimga bu gap ma'qul kelib suvi qochgan nondan burdalab kosaga solib berdi.

-Barakalla, qariyalarni izzat qilgan odam dunyoda izzat bilan yashaydi. Sen ovqatni ichib olgin, keyin qishloqqa tushib palovxonto'ra damlaymiz. Uyga kirgandirsan, opoq buvingni ko'rdingmi?

-Uyda hech kim yo'q ekan. Lekin hamma eshiklar ochiq. Men shu yerda bo'lsalar kerak, deb chiqib kelaverdim.

Ibrohim kampirining qayerda bo'lishini bilsa ham kulimsirab bosh chayqab qo'ydi-da, noligan ohangda dedi:

-Bu kampir tek o'tirolmaydi. Men uyda bo'lsam-ku, jildirmayman-a! Yo'qligimdan foydalanib ozodlikka chiqib oladi-da. Men opoq buvingga hayron qolaman: shunday katta qishloqqa ham sig'maydiganga o'xshaydi. Agar shaharga olib borib, senlarnikiga o'xshagan katalakka qamab qo'ysa nima qilardiykin?

-Bizniki katalak emas, opoqdada, katta hovli-ku? - deb e'tiroz bildirdi Salohiddin.

-Sen mana bunaqa keng yerlarda katta bo'lmadingda. Ko'zingga o'sha katalaging ham bir olam bo'lib ko'rinadi. Xo'sh, endi menga bir hisob ber-chi: o'qishni tugatdingmi, milisa bo'ldingmi? Endi shu yoqqa ishga kelasanmi?

Salohiddin qariyaning ketma-ket yogdirgan savollarini kulimsiraganicha eshitib, hazil tarzida javobqildi:

-Bitta oqim kelaveraymi yo to'rt-besh o'rtog'imni olvolaymi? Bu yerlarda o'g'ri ko'payib ketdimi?

-Nega ko'payarkan? - dedi Ibrohim yigitning hazilini jiddiy qabul qilib:-Bizning qishloqdan bittagina Dumbul o'g'ri chiqqan. Shuning o'zi yetti qishloqqa tatiydi. Bilib qo'y: qaysi qishloqdan nomdorroq o'g'ri chiqsa, o'sha yerga begona o'g'ri oralamaydi. Dumbul o'g'ri shu atrof qishloqlardan bitta cho'p ham olmagan.

-Hozirqayerda u, qamoqdami?

-Nega qamoqda bo'larkan? Uni sendaqalar biror marta ham ushlasholmagan. Shunaqa chapdast o'g'ri edi. Qirq yil bo'ldimikin, qishloqqa behos sel kelganida bitta qizchani qutqaraman, deb o'lib ketdi bechora.

Bu gapni eshitib Salohiddin ajablandi:

-Qirq yil? U kishi o'lib ketganidan keyin ham qishloqda o'g'irlik bo'lmadimi?

-Bo'lmadi.

-Rost aytyapsizmi?

Salohiddinning ishonqiramay bergan bu savolidan Ibrohim og'rindi:

-Endi rosmana milisa bo'libsan, bolam, - dedi u.

-Nega?

-Negaki, milisa deganlari birovning gapiga ishona qolmaydi. "Shu yeru osmonni charaqlatib turgan quyosh bo'ladi", desang ham ishonmay, savolni qalashtirib tashlayveradi. Menga qaragin-chi, shu oppoq soqolim bilan sen mishiqiga yolg'on gapiramanmi?

-Opoqdada, kechiring, bilmasdan aytvoribman.

-Shunaqasanlarda. Hali eplab burinlaringni artolmaysanlaru, kattalarga akl o'rgatasanlar. Anavi tomonga qara-chi? Ko'ryapsanmi, toklar ola bo'lib yotibdi. Bitta ham g'o'rasi yo'q. Shu bog'ning egasi senga o'xshagan bir mahmadana. Qarasam, erta bahorda toklarini ochyapti. Ochmay tur, bola, hov cho'qqidagi qorlar erib bitsin, keyin ochgin, desam, "siz tushunmaysiz ota, bahor allaqachon kelib bo'ldi", deydi-ya! Mening bobom ham, bobomlarning bobolari ham shu cho'qqiga qarab toklarini ochishgan. Men tushunmagan chol bo'lsam ham, bilganimdan qaytmay, toklarni ochmadim. U mahmadana toklarini ochgan kuni ertasiga qor tashlab, sovuq urib ketdi. U-ku, daromaddan qoldi, endi bir kunini ko'rar. Tok bechoralarga achinaman. Qara, hali ham kasal, o'nglanolmay yotibdi. Agar men milisa bo'lganimda shunaqa

noshudlarning ham adabini berib qoʻyardim.

-Iye, opoqdada, nima deyapsiz? Bunaqa ish milisaning vazifasiga kirmaydi.

-Shunaqasarlarda. Senlarga oʻgʻri kerak. Qachon birovning shoʻrini quritarkin, deb poylab oʻtirasanlar. Keyin yugur-yugurni boshlaysanlar. Xoʻp, endi aqlingni ishlatib ayt-chi: mana shu mahmadana noshudning oʻgʻridan nimasi kam? Qanchadan qancha odamning rizqini qiydi-ku? Bu milisaning vazifasi emas, deding, mayli, bu gappingga koʻnayin. Lekin shaharliklarning chiqaverib lolazorlarni payhon qilib tashlashganiga nima deysan? Hozir bu atrofda bir dona ham lola yoʻq. Shaharlik ovchilarning chiqib hali kaklik, hali uchragan boshqa jonivorlarni otib ketishyapti. Ilgari shu togʻlarda ayiqlar boʻlardi. Qishlogʻimizning nomi nima uchun “Sherbuloq”, oʻylab koʻrganmisan? Ilgarilari sherlar shu buloqlardan suv ichishgan. Endi qani ular? Sen bola, milisalikka oʻqibsan-ku, lekin hayotni uqmabsan. Aslingga tortibsan.

-Opoqdada, nima gunoh qilibman? - dedi Salohiddin qariyaning taʼnalariga tushunmay.

-Hali gunoh qilganingcha yoʻq. Shu tomonlarga ishga kelib, men aytgan falokatlarga befarq qarasang, gunohkor boʻlasan. Aslingga tortibsan, deganim, bobong ham bu togʻlarning qadriga yetmasdi. Unga kimyo boʻlsa bas edi. Bir kuni “Yaqinda bugʻdoy ekish ham shart boʻlmay qoladi. Nonni kimyoviy usulda olamiz”, deydi. Chin aytuvdimi yo hazillashuvdimi, bilmayman, lekin gapi rosmanasiga ahmaqona edi. Bobongga qoyil emasman, shunday joylarni tashlab shaharga ketvordi. Shu yerda mazza qilib yashasa boʻlmasmidi?

-Boʻlardi-ku... lekin ilm...

-Ha, bobongning bahonasi ham shu edi, - dedi Ibrohim armon bilan. - Bu yerlarda olimligini qila olmasdi. Lekin baribir oʻladigan paytida qishloqni qoʻmsadi. “Qishloqqa borsamu, yuztuban yotib soyning suvini simirib-simirib ichsam”, deb armon bilan ketdi. Bilib qoʻy: odam tuproqdan paydo boʻlgan, baribir yerga talpinib yashaydi. Qolgan hamma gaplar bekor. Qani, endi maqsadga koʻch-chi, meni koʻrgani keldingmi yo biror darding bormi?

-Sizni sogʻindim, koʻrgani keldim.

-Yolgʻon gapirma. Koʻzing aytib turibdi. Har holda amaking bilan adang orasidan ola mushuk oʻtgandir.

-Qayerdan bildingiz?

Ibrohim behalovat tushlari haqida gapirishni istamadi. Yigitga tikilib turdi-da vaziyatni oʻzicha tahlil qilib berdi:

-Katalakdek uyda ikki oila tursa, albatta bitta gap chiqadi. Amakingning feʼli tor, bilaman. Xotami Toy degan odamni eshitganmisan? Bu odam Toy qabilasining podshosi boʻlgan. Shuning egizak ukasi ham sahiylik qilib dong taratmoqchi boʻlibdi. Ular yashaydigan qoʻrgʻonning qirqta darchasi bor ekan. Tilanchi kampir kelib birinchi darchadan tilanibdi. Hotami Toyning ukasi sadaqa beribdi. Ikkinchi, uchinchi darchadan

ham beribdi. Toʻrtinchisiga kelganda yana oʻsha kampirni koʻrib achchiqlanibdi: “Qanaqa sullah kampirsan, uchta darchadan sadaqani olding-ku, ketavermaysanmi!” deb urishib, haydabdi. Shunda kampir boshidagi roʻmolini yechib, kulibdi. Podshoning obroʻtalab ukasi qarasaki, tilanchi libosidagi kampir oʻzining onasi ekan. Shunda ona oʻgʻliga qarab: “Akang qirqta darchadan ham sadaqa berib ogʻrinmagan edi. Shuning uchun xalq uni yaxshi koʻradi. Sen bolaligingda ham nokas eding. Akang bitta koʻkragimni emib, ikkinchisini emmas edi, senga ilinardi. Sen esa bitta koʻkragimni emib turib, qizgʻanib, ikkinchisini qoʻlchang bilan changallab turarding”, degan ekan. Amaking shunaqa toifadan. Xoʻp, janjal nimadan chiqdi?

-Hozircha janjal chiqmadi. Lekin... yetilib turibdi. Vulqon otilmasidan turib bir borib kelsangiz boʻlardi.

-Uyni talashishyaptimi?

-Ochiqemas-ku... lekin...

-Qachondir shunaqa boʻlishini bilardim. Shuning uchun adangga: “Qoʻy shaharni, shu yoqlarda ham milisalik qilsang ham boʻlaveradi”, devdim. Senlarni oʻqitaman, deb bahona qilib koʻnmadi. E...e, - Ibrohim shunday deb xoʻrsindi, - Odamlarning yuragi tor boʻlib ketdi. Qaragin, atrofga ming-ming odam sigʻadi-ya! Lekin bir katalakni talashib yotaverishadi. Nimaga shunaqa, bilasanmi? Bilmaysan. Et bilan suyak orasiga shayton joylashib olgan. Iymoni sust odamni har kuyga solaveradi. Endi eshit: senga rivoyat aytib beray, biron ishga qasd qilsang shunga qarab fikr yuritarsan: “Odam alayhissalom bilan Momo Havvo shayton gapiga kirganlaridan keyin jannatdan quvilganlarini eshitgandirsan. Odam alayhissalom ming yil yigʻilab tavba qildilar, keyin tavbalari qabul boʻlib, Momo Havvo bilan qovushdilar. Bir kuni Odam alayhissalom yoʻq paytlarida Iblis alayhila’na Havvoning qoshlariga keldi. Yonida boshlab kelgan oʻgʻilchasini Havvoning huzurlarida qoldirib: “Oldingda tura tursin, keyin kelib, olaman”, dedi-yu, ketdi. Hazrati Odam keldilar, bu bolachani koʻrib: “U nega bu yerda turibdi?” deb soʻradilar. “Bir kishi qoʻyib ketdi”, dedilar Havvo. Odam alayhissalom bolaga qarab turib, bu iblisning ishi ekanini va uning sharridan qochmoq shartligini angladilar. Havvoni koyidilar. Soʻng bolani oʻldirdilar-da, parcha-parcha qildilar. Har bir parchasini daraxtlarga osib, keyin yana oʻz yumushlariga ketdilar. Shu zamoniy oq iblis qaytib keldi-da: “Oʻgʻilchamni nima qilding?” deb soʻradi. Havvo boʻlgan gapni yashirmay, aytdilar. Shunda iblis “Xonnas!” deb chaqirdi-yu, bolaning parcha-parcha boʻlaklari yana birlashdi. Iblis uni olib ketmay yana Havvoga “Shu bolakayga qarab turgin, men tezda kelaman”, dedi. Havvo “Odamdan qoʻrqaman, qabul qilmayman”, desalar ham iblis yalinaverib qoʻymadi. Havvo yana rozi boʻldilar. Iblis ketdi. Odam alayhissalom kelib koʻrsalar-ki, bolacha yana Havvoning yonlarida turibdi. Bundan gʻazablanib Havvoni injitdilar. Bu gal oʻt yoqdilar-da, bolakayni oʻtga otdilar. Keyin kulini ikkiga boʻlib, yarmini dengizga, yarmini yobonga sovurdilar-da, ishlariga ketdilar. Iblis kelib, oʻgʻli oʻtda yoqilganini, kuli esa sovurilganini eshitdi-yu, “Xonnas!” deb chaqirdi. Bolaning kuli yana qayta tirilib, otasi yoniga keldi. Shundan keyin iblis Havvoga yana ham qattiqroq yobordi. “Shu safar ham qarab turgin, kelib bolani olganimdan keyin sira boshqa kelmayman”, deb qasam ham ichdi. Uning bu hiylasi ham ish berib, bolani tashlab ketdi. Odam alayhissalom yana kelib qarasar, bola Havvoning yonida turibdi. Bu gal Odam alayhissalom gʻazablanib: “Shaytonning soʻziga kirasanu mening soʻzimga kirmaysanmi!” deb Havvoni urdilar. Erkak

kishining xotinni urishi shu voqeadan boshlangan. Bu gal Odam alayhissalom Xonnasni olib borib qoyaga urdilar. Soʻydilar. Goʻshtini pishirdilar. Yarmini oʻzlari yedilar, yarmini Havvoga yedirdilar-da yana ishlariga ketdilar. Iblis kelib “oʻgʻlim qani?” deb soʻradi, Havvo boʻlgan voqeani aytdilar. Iblis shunda quvonib: “Mening maqsadim shu edi! Hosil boʻldi! Endi men ichingizga kirdim, koʻksingizga mahkam oʻrnashdim!” dedi”.

Ibrohim rivoyatni aytib boʻlgach, boshini quyi egib bir oz sukut saqladi. Keyin xazin ovozda davom etdi:

-Odamzotning fojiasi ham shu. Ichida shayton bor. Kimning iymoni sust boʻlsa, ichidagi shaytoni gʻolib. Kim iymonda sobit boʻlsa shaytoni zanjirband. Bolam, sen toʻgʻri gapimga ranjimagu, agar uyinglar notinch boʻlsa bir-birlaringdan ayb qidirmanglar. “Iymonda qanday ekanmiz?” deb oʻylab koʻringlar. Aslida men bu gapni adang bilan amakingga aytishim kerak. Borsam aytaman ham. Senlar ham uch aka-ukasanlar, iymondan uzoqlashsalar bu savdo senlarning boshlaringga ham tushadi. Shuning uchun bu haqiqatni hozirdan bilib, oldini olish chorasini koʻrishlaring kerak. Men uylaringga borishni niyat qilib turuvdim. Boraman. Lekin borishimdan biron natija chiqishi qiyin. Egilib qurib qolgan iymon daraxtini toʻgʻirlab qoʻyish qiyin. Yana Alloh biladi. Alloh istasa toʻgʻrilashi hech gap emas.

Shu gaplarni aytib, Ibrohim oʻrnidan turdi. Shiyponni yigʻishtirgach, jiyanini ergashtirib qishloq sari yoʻl oldi. Kampiri uyda edi. Ikkovining koʻzlari bir zumgina toʻqnashdi.

“Qarindoshingni ovutdingmi?” - deb soʻradi Ibrohimning koʻzlari.

“Shuncha gapdan keyin ovutish oson ekanmi, qahringiz biram qattiqki...” - dedi Munisaning koʻzlari.

Agar Salohiddin boʻlmaganda bu gaplar koʻz qarashi bilan ifoda etilmay iblis yordamida tilga koʻchar va almisoqdan qolgan boshqa gaplarni ham kavlab yuzaga chiqarardi.

Munisa Salohiddinni quchoqlab peshonasidan oʻpdi, hol-ahvol soʻradi. Ibrohim esa unga qaramay palovning tadorigini koʻra boshladi.

Toʻlqin uydan chiqib, yana ishxonasiga qaytib borishga bordi-yu, ammo oʻtirgisi kelmadi. Shom qorongʻusi tushganida ketmoqchi edi, boshliq chaqirtirib, prokuraturada boʻlgan gapni surishtirdi. Toʻlqin suhbatni bayon qilgach, taʼtilga chiqib, dam olishga ruxsat soʻradi.

-Isomovaning “Ish”i hali ham oxiriga yetgani yoʻq. Yigitlarga yordam bering, shu ish bir yoqlik boʻlsin, keyin ikkalamiz baravar dam olishga chiqib kelamiz, - dedi boshliq.

Toʻlqin Koʻrqmas yuritayotgan ishga aralashgisi yoʻq edi. Agar hozir bu haqda fikr bildirsa, albatta boshliq uni maydakashlikda ayblardi. “Kengroq boʻling, yoshlarning kamchiligiga osilmang, aksincha, yordam bering”, deganga oʻxshash nasihatlarni qalashtirib tashlardi. Shu bois topshiriqni qabul qilib, xonasiga qaytdi. Biroq,

Qoʻrqmasni chaqirishga, “Ish” bilan tanishishga xushi boʻlmay, tashqariga chiqdi. Koʻchada maqsadsiz ravishda bir oz yurgach, uyiga ketdi. Robiya erini xursandchilik bilan qarshiladi. Toʻlqin uning quvonchini haydab, tashvish toʻzoniga burkashni istamadi. Hatto “oʻgʻling kelmadimi?” deb ham soʻramadi.

Bahriddindan kelgan quvonchli xabardan mast Robiya tongni yaxshi kayfiyat bilan qarshiladi.

Toʻngʻich oʻgʻli tashvishida boʻlgan Toʻlqin esa tunni azoblar chigʻirigʻi ostida oʻtkazdi. Nazarida bu tun unga yaldo kechasidan ham uzunroq boʻlib tuyuldi.

Nonushta qilgisi kelmasa ham, xotining koʻngli uchun ikki piyola choy ichdi. Roʻparadagi ayvonda jonlanish sezilmay turib, ishiga shoshildi. Ishga shoshish bahona edi, toʻgʻri Akademiyaga bordi. Navbatchiga uchrashmay, biron tanish uchrab qolar, degan umidda chetda qarab turganida bir yigit kelib salom berdi. Toʻlqin uni tanisa-da:

-Salohiddin bilan birga oʻqiysizmi? - deb soʻradi.

-Ha, - dedi yigit. - Oʻgʻlingizni chaqirib beraymi?

-Shu yerdamikin, uni bugun koʻrdingizmi?

-Bugun koʻrmadim. Xolam qaytish qilib, qishloqqa ketuvdim. Endi kelyapman.

Yigit shunday deb ichkari kirib ketdi. Sal oʻtmay chiqib, Salohiddinning viloyat militsiyasida amaliyotda ekanini, kecha shoshqich ravishda Begovotga yuborilganini maʼlum qildi. Toʻlqin bu gapga darrov ishongisi keldi. Lekin kasbida odat boʻlib qolgan qarashi bilan yigitning koʻzlariga tikildi. Bu yerdagilar beruhsat chiqib ketgan doʻstlarining aybini yashirish uchun shunga oʻxshash yolgʻonlarni toʻqishardi. Toʻlqinning qarashiga dosh berolmay koʻzlarini olib qochgan yigit yolgʻonini fosh etib qoʻydi. Lekin Toʻlqin uni aybsitmay “Begovotga ketgan boʻlsa bugun kelib qolar, kelishi bilan menga qoʻngʻiroq qilsin”, deb iziga qaytdi.

Ishxonasiga borib, tushlikka ham chiqmadi. Telefon har jiringlaganda goʻshakni umid bilan koʻtardi. Kun asrga yaqinlashganda nihoyat, intiq kutgani - oʻgʻlining ovozini eshitdi. “Qayerda eding?” deb soʻramadi, salomga alik oldi-yu, “Komandiringdan soʻrab, bugun uyga kel”, deb gapni kaltaqildi.

Goʻshakni joyiga qoʻygan onda vujudi birdan boʻshashib ketdi. Kechadan beri uni siquvga olayotgan tashvish uni tark etgach, nazarida tanasida hech narsa qolmaganday edi. Tashvish hukmron paytida iblis uning xayollarini oʻgʻirlab qaysi koʻchalarga olib kirmadi! Shunday koʻchalarki, har birining boshi berk, har biri zulumatga oʻralgan, har biri yurakni ezadi. Vujuddagi boʻshliq uzoq davom etmadi. Iblis yana tashabbusni qoʻlga oldi. “Qayerda boʻldi ekan?” degan savolni iblisning oʻzi koʻndalang qoʻyib, oʻzi javob istay boshladi. “Bironta suyuq xotinning ketida yuribdimikin?” degan gumon kecha ham xayolini bir yoritib oʻtgan, joniga qasd qilinishi ehtimoli bosh koʻtarganda bu gumon unga hatto tasalliday boʻlib koʻringan edi. Endi esa sharmandalikning muzdek suvi ustidan quyilganday tuyulib etlari jimirlashib ketdi. “Xudo saqlasin!” deb beihtiyor pichirladi. “Oʻgʻlim toʻgʻri yuryaptimikin?” degan oʻy avvallari ham bot-

bot xayoliga kelib turardi. Nomusiga tegib, zoʻrlanganlar militsiyaga arz-dod qilib kelishganda yuragi bir zirqirab olardi. Qizlarning ayrimlari koʻchada tasodifan tutib zoʻrlansa, aksari shu yigitlar toʻdasi bilan ziyofatdan keyin nomussizlik balchigʻiga belangan boʻlib chiqardi. “Gʻunajin koʻzini suzmasa buqacha arqonni uzmaydi”, degan maqolni qonun tan olmasdi. Hali moʻylabi sabza urmagan koʻpgina yigitchalar badnom boʻlib ketishardi. Toʻlqin oʻgʻillarining bu yoʻlga yurmasliklariga ishonsa ham baribir, baʼzan havotirga tushardi. Bironyasi hadeb koʻzini suzaversa, ishva qilaversa har qanday aqli, odobli yigitni ham iblis bu yoʻlga tortib olishi mumkin.

Salohiddinni uylantirish masalasini Robiya oʻtgan yiliyoq kun tartibiga koʻygan edi. Lekin Toʻlqin “avval oʻqishini bitirsin, ishlasin, hayotning past-balandini koʻrsin”, deb galga solayotgan edi. Alhol, kecha kutilmaganda gʻoyib boʻlishini xayoli ayollarga bogʻlagach, “shu yili uylantirish kerak, hayotning past-balandini keyin koʻraveradi”, degan toʻxtamga keldi.

Oʻgʻli bilan gaplashib olish niyatida uyga ertaroq qaytdi. Salohiddin hadeganda kelavermadi. Toʻlqin bundan tutoqib, kimgadir zahrini sochgisi keldi. Ishxonada boʻlganida birontasiga baqirib boʻlsa ham xumordan chiqishi mumkin edi. Bunda kimga baqiradi, kimdan alamini oladi? Xotinidanmi? Sal ovozi koʻtarsa oʻsha zahoti Robiyaning koʻzlarida yosh miltillaydi-yu, yuragi battar siqiladi. Ukasiga yoki keliniga sochsini zahrini? Xudo saqlasin! Ularga sochilgan bir misqol zahar oʻziga botmondahsar boʻlib qaytishi aniq-ku?

Toʻlqin kecha xotinidan havotirini yashirgan boʻlsa, bugun gʻazabini ichiga yutishga majbur edi. Televizorda olti odam toʻplanib olib masala soʻqirdi. Toʻlqin ularning tuzsiz gaplariga bir zum quloq tutdi-da, oʻchirib qoʻydi.

-Bugun kayfiyatingiz yoʻqroqmi yo tobingiz qochdimi? - deb soʻradi Robiya unga sinovchan tikilib.

-Televizordagi ahmaqona gaplarni eshitgisi kelmagan odamning tobi qochgan boʻladimi? - dedi Toʻlqin.

-Kechadan beri yuragingiz siqilayotganga oʻxshayapti.

-Yuragim joyida. Faqat oʻgʻlingning aqli joyida emas!

Robiya bu gapdan choʻchib tushdi, eriga najot koʻzlari bilan qaradi:

-Voy, yana nima boʻldi?

-Hech nima boʻlgani yoʻq, boya telefon qiluvdi, vaqtliroq kelgin, maslahatli gapim bor, devdim.

-Qanaqa maslahat?

-Gʻalvani boshlab qoʻyib yana “qanaqa maslahat?”deysan-a? Uylantirish maslahati!

-Voy Xudoyim-e, bir gap boʻptimikin, deb jonim chiqay dedi-ya. Boʻlgʻilmang,

payshanbada kechki payt ma'rifat darsi bo'ladi-ku, darsidan chiqib keladi-da.

Robiya aytganiday bo'ldi. Salohiddin otasining "Nega kech qolding?" degan savoliga xuddi shunday javob qildi. Ovqatlanib bo'lishgach, ota-bola ichkariga kirishdi. Robiya ayvonda qoldi. O'zi istagan mavzuda suhbat bo'lishiga ishongani uchun uning ko'ngli xotirjam edi. Biroq, ichkarida boshqacha suhbat boshlangan edi.

Yuzma-yuz o'tirganlarning biri - uzoq yillar davomida tergov ishida suyagi qotgan odam, ikkinchisi - bu sohaga endigina qadam qo'yayotgan yigit, ota-boladay emas, ayblanuvchi va so'roq qiluvchi kabi o'tirishardi. Suhbat ohangi ham shunday boshlangan edi. To'lqin o'g'liga emas, ayblanuvchiga tikilganday ko'zlarini unga qattiq qadagan edi. U hozir favqulotda bir narsani fosh qilishga ishonish kayfiyatida edi.

-Kechaqayerda eding?

-O'qishda.

Suhbat shunday qisqa va quruq ohangda boshlandi. Agar ayni choqda biron odam kirib so'roq bayonnomasini yozib o'tirganida bu holatni "tergov jarayoni" deb atasak ham bo'lardi. Bu onda iblis To'lqinning yelkasiga joylashib o'tirib olib, uni o'g'ilga qarshi qayrardi.

-Nega yolg'on gapiryapsan? O'qishga bormading-ku?

Salohiddin otasidan shunday savol kutgan bo'lsa ham, unga tik qaray olmadi, aybdor odam kabi ko'zini olib qochdi. Bu holdan quvongan iblis otaga zardaliroq ohangga o'tishni buyurdi.

-Qayerlarda sanqib yuruvding?

-Sanqiganim yo'q, kerakli ishlar bilan yuruvdim.

-Shunaqa ishchan bo'lib ketdingmi? Qanaqa ish, bilishim mumkinmi?

-Amaliyotga doir ish.

-Ko'zimga qarab gapir. Yana aldayapsan. Akademiyangda "otani aldash" darsi ham o'qitiladimi? Bu darsdan imtihonni a'lo bahoga topshirmoqchmisan? Tushingni suvga ayt. Men laqma otalardan emasman. Ko'zimga qara, deyaipman!-Salohiddin otasiga ilojsiz ravishda qaradi. - Ana endi menga ochig'ini ayt: senga nima bo'lyapti? Uyda turging kelmayapti, onang to'ydandan gapirsa o'zingni olib qochasan?

Salohiddin yana pastga qaradi. Otasiga darrov javob qilmadi. Iblis "yana bir-ikki qattiqroq so'k", deb da'vat qilsa-da, To'lqin uning aytganiga yurmay, o'g'ildan javob kutdi.

-To'g'risini aytaveraymi? - deb so'radi Salohiddin past ovozd.

-Ayt.

-Dada, nima uchun amakimlar bilan chiqisha olmaysizlar?

Ayblanuvchi kabi some o'qitirgan o'g'ildan bu savolni kutmagan To'liqin dovdirab qoldi. Million hiyla egasi bo'lgan iblis ham suhbatning bu tarzda boshqa tomonga burilishidan ajablendi.

-Bu gapni qayodan olding? - To'liqin savolga savol bilan javob berishdan o'zga chora topmadi. Aslida chora bor edi, chora - haqiqatni aytish edi. Lekin To'liqinning yelkasida o'qitirgan iblis bunga yo'lqo'ymasdi.

Haqiqat qo'rg'onini zabt etish maqsadida otgan o'qining nishonga tekkaniga ishonch hosil qilgan Salohiddin endi dadilroq gapira boshladi.

-Bizni hali ham yosh bola deb o'ylaysizlar. Hech nimani ko'rmaydi, eshitmaydi, sezmaydi, fahmlamaydi, deysizlar to'g'rimi? Biz faqat siz istagan narsani ko'rishimiz kerak, siz xohlagan gaplarni eshitishimiz shart, sizga ma'qul narsalarni fahmlashimiz zarur. Buning uchun ko'zlarimizni yumib, quloqlarimizni berkitib, siz yetaklagan yo'lda ko'r odamday yurishimiz kerakmi? Biz bu shartga ko'nganimiz bilan hayot yo'l qo'ymaydi-ku? Shu uyda yashab, bu uyda nimalar bo'layotganini sezmasak, bilmasak, dovdir yoki laqma yoki tentak ekanmiz. Oyimning gaplari to'g'ri, hovlimizga bombalar ko'mib tashlanganga o'xshaydi. Portlay-portlay

deb turganini biz ham sezib turibmiz. Lekin sizlar buni tan olgingiz kelmaydi. Uylanishimdan gap ochyapsiz, kelinni bomba ko'milgan shu hovliga tushirasizmi?

Har ikki tomon bu suhbatga o'zicha tayyorgarlik ko'rgan edi. Garchi "tergov" To'liqin istagan tarzda boshlangan bo'lsa-da, davomi telba daryoni burib yuborgan sel oqimi kabi bo'ldi. U o'zi tayyorlab qo'ygan yo'ldan voz kechib, o'g'li taklif etgan yo'lga o'tishga majbur edi. Avvalgi shashti pasaygan bo'lsa-da, zardali ohangini saqlab qoldi:

-Senga boshqa hovli olib berishim kerakmi?

-Boshqa hovli kerakmas, faqat amakimlar bilan...

Shu yerga kelganda iblis ortiq chiday olmadi, To'liqinning qulog'iga shivirladi: "Shuncha chekinganing yetar, qanday otasan, o'g'lingni gapirtirib qo'yib lallayib o'tirasanmi!" Bu tanbeh ta'sir qilib, To'liqin o'g'lining gapini shart bo'ldi:

-Buni eshitdim. Bitta gapni hadeb chaynayverma. Sezgirman, deyapsan, a? Agar sezgir bo'lsang bilishing kerak edi. Sen aytgan bombalarni men ko'mib qo'yganim yo'q. Portlasa ham mening aybim bilan portlamaydi. Sezgir bo'lsang, amakingning ham kennayingning ham fe'li qanaqa yomonligini bilishing kerak edi. Agar aqlli bo'lsang, bunaqa fe'li odamlarni tuzatish mumkinmasligini fahmlashing shart edi. Mening murosadan boshqa choram yo'q.

-Dada, siz kattasiz...

-Menga aql o'qratma.

-Aql o'qratmoqchi emasman. Balki... kennayimning molini olib bersangiz oradagi sovuqlik ko'tarilar?

-Sen kalta o'ylayapsan. Molini olib berganim bilan ular o'zgarishmaydi. O'y-xayoli pul bilan band odamlarda aka-ukalik mehri bo'lmaydi. Ular mehr-oqibatni mendan talab qilaverishadi. O'zlari tomondan ham oqibat bo'lishi shartligini o'ylashmaydi. Chunki o'ylashi zarur bo'lgan aqlarini boylik havasi chandib tashlagan.

To'lqinning bu gapidan keyin oradagi to'qnashuv holati yo'qolib, har ikki tomon ham yaxshilikka olib boruvchi yo'l haqida o'ylay boshladi.

-Dada, nahotki hech chorasi bo'lmasa? - deb so'radi o'g'il boshi berk ko'chada najot ko'rmay.

-Ochig'ini aytsam... - To'lqin yuragidagi og'ir dardni fosh qilib xo'rsindi-yu, iblis orada jiddiy nizo chiqishidan umidini uzdi. - o'zimning ham boshim qotib ketdi. Nima qilishga hayronman.

-Sizlar kelisha olmasangiz, unda bizlar ham...

-Nima demoqchisan?

-Bizlar ham bemehr bo'lib yuramizmi? Nahotki bu hayotda uy talashishdan ham muhimroq masala bo'lmasa?

-Kim uchundir shundaydir... Lekin... hammaning qarichi har hil. Alam qiladigan yeri ham shunda.

-Dada, men kecha Sherbuloqda edim. Opoqdadam erta-indin keladilar. Men hamma gapni aytdim.

To'lqin o'g'liga qaradi-yu, "to'g'ri qilibsan", demadi. Tanbeh ham bermadi. Robiya kutayotgan uylanish haqidagi masala yechilmay qoldi.

To'lqin bilan Salohiddin gaplashayotgan onda qarshidagi uyda kechki ovqatni suzib, jam bo'lib o'tirishgan edi. Ba'zi oilalar taom paytida so'zlashmaslikni odat qilishgan. Bu oilada esa aksi, Obodxon gapirmasa hamma baravariga ishtahadan qoladi. Hozir ham Sattor piyolani to'ldirib shayton siydidigan ichib, ishtahasini ochib olgach, xotining gapi boshlandi:

-Ertaga ertalab tog'amning o'g'linikiga borib kelasiz.

Bu topshiriq yoqmaganidanmi yo aroqning achchiqligidanmi, har holda Sattorning afti burishib so'radi:

-Qaysi tog'angning o'g'linikiga?

-Mening bitta tog'am, bitta tog'avachcham bor. Siznikiga o'xshagan iturug emasman, Xudoga shukur.

-Go'rkovnikigami? - shunday deb Sattorning yana afti burishdi. - Kimga go'r qazib berishi kerak ekan?

-Nafasingiz qursin, sovuq bo'lmay, - dedi Obodxon lunjining yarmini bo'shatib olgach.
- Hali atay uyiga borib keldim. Ancha to'n yig'ilib qolibdi. Bozorning yarim narxiga sotayotgan ekan. Bizga yanayam tushirib beradi. Yigirmata to'n olib kelasiz.

-Shuncha to'nni nimaqilasan?

-Voy, tavba! Ko'zingizni oching: uchta to'y qatorlashib turibdi.

-Kallang bormi, o'likka yopgan to'nni qudalaringga kiydirmoqchimisiz?

-O'likka yopilgan bo'lsa nima bo'пти! Oxori to'kilmagan yap-yangi to'n.
Go'rkovdan olganimizni birov bilib o'tiribdimi?

-Oyi!-dedi Oftobxon norozi ohangda. - Ovqat paytida shunaqa gaplarni gapirmang, iltimos.

-Sen menga akl o'rgatmay, ovqatingni ye!-deb jerkidi ona. - Mening boshimda mingta tashvish. Qaysi ish qaysi paytda esimga kelsa o'sha paytda gapiraman. To'n topib qo'yishni ham men o'ylashim kerak, otang yuraversin lallayib.

Iblis Obodxonning ham ovqat chaynab, ham gap topib berishiga mahliyo bo'lib miriqib o'tirdi. Keyin "Yana olmaysanmi", deb Sattorni turtib qo'ydi. Bu turtki Sattorning nafsiga ma'qul kelib yana quyib ichmoqchi edi, Obodxon shishani olib qo'ydi. Sattor xotiniga e'tiroz bildirolmadi, ammo ming'irlab qo'yishga o'zida kuch topdi:

-Qizing to'g'ri gapiryapti. Ovqat paytida og'rimagan boshni ham og'ritib yuborasan.

-Sizning boshingiz nimaga og'rib qoldi?

-Mening boshimmi... Hozir kelayotsam, devning chala tug'ilgan bolasi ro'paramdan chiqib turibdi.

-Kimni aytyapsiz?

Sattor "bilmaysanmi?" deganday xotiniga qarab oldi. Gavdasi rosmana katta odamnikidek, ammo oyoklari o'smay qolgan kishini mahallada hamma tanirdi.

-Axlat pulini to'playdigan pakanani aytyapman, - dedi Sattor taomga qo'l uzatib. - Hali keluvdimi?

-Keluvdi, pul bermadim.

-Bersang o'larmiding, boshimni tozza qotirdi.

Erining noroziligini javobsiz qoldirmaslik uchun Obodxon ogʻizidagi taomni chaynamayoq yutib yubordi. Bunaqa holatlar tez-tez uchrab turgani uchun boʻgʻiz ham, qizil oʻngachu oshqozon ham qarshilik bildirmadilar.

-Nega biz berarkanmiz? Ana, akangizdan soʻrasin. Nima, milisa axlat puli toʻlamaydi, degan zakun bormi? Oʻtgan oyda suv pulini ham biz toʻlaganmiz. Indamasak, oʻliklarini ham biz koʻmib berishimiz kerak.

-Boʻldi. Javrama.

-Nega javramas ekanman! Yetim boqqanday akangizning oilasini men boqishim kerakmi? Ha, aytmogʻchi, suyunchi bering, kennayijoningiz qiz oviga chiqishni boshlabdilar. Boshi kirsam keti sigʻmaydigan uyining qayeriga kelin tushirarkan, hayronman.

-Bu sening ishing emas, bunga oʻzlarining boshlari ogʻriyversin.

-Ogʻriydi, shunaqayam ogʻriydi-ki... Shu taviya bolasiga qiz tanlaganiga oʻlayinmi! Milisaga qaysi ahmoqqizini berarkin?

Onasining gaplariga arang chidab oʻtirgan Oftobxon bu gapdan keyin qoshiqni taraqqitib etib lagan chetigaqoʻydi.

-Voy jinni, laganni sindirasam-a? - dedi Obodxon qizini yana jerkib.

-Oyi, boʻldi-da, endi! Gap deb gapiraverasizmi?

-Sen jim oʻtir.

Oftobxon jim boʻldi-yu, lekin opasiga nish sanchib olish fursati kelganini anglagan Oynisa gapga aralashdi:

-Oyi buningiz kecha yana Saloh akasi bilan birga ketgan.

Obodxon qiziga dakki berishga ulgurmay, Oftobxon “shpion oʻlgur”, deb singlisining sonidan chimchilib oldi. Chaqimchiligi uchun shu onning oʻzida jazo olishini kutmagan Oynisa sakrab tushib:

-Nega chimchilaysan! Oyi, qarang... - deb yigʻlab yubordi.

Ularning qilgʻini kuzatib oʻtirgan Oʻgʻiloy mazza qilib kulganicha masxara qila ketdi:

-Kelin-kuyov, kelin-kuyov! Endi qorongʻida oʻpishadi!

Bu masxaradan uyalgan Oftobxon singlisining kichikligaga qaramay yuziga tarsaki tortib yubordi-da, yigʻlamsiraganicha oʻrnidan turib, yotogʻiga kirib ketdi. Obodxon astoydil yigʻisini boshlab yuborgan Oʻgʻiloyning bagʻriga bosib, Oftobxonning izidan

“Huv urmay qoʻlginang sinsin”, deb qargʻab qoldi. Bir piyola shaytonning siydigiga nafs orom olmay qiynalayotgan Sattor qizlariga qarab baqirdi:

-Joʻna hammang! Tinchgina ovqatlangani ham qoʻymaysanlar.

Oʻgʻiloy onasiga yopishib oldi, Oynisa yigʻlamsirab opasining izidan yotoqqa kirdi. Sattor qolgan zahrini xotiniga socha qoldi:

-Tuzni tekinga olganmisan, shunaqa shoʻr qilasanmi ovqatni!

Aslida iblisning oʻrgatganiga koʻra “Tuzni ham goʻrkov amakivachchangnikidan olib kelganmisan, peshonasi shoʻrlikdan oʻlganlarning tuzlarini yigʻib qoʻygandir hoynahoy”, deyishi kerak edi. Lekin qarshi hujumdan choʻchib, soddagina qilib “Tuzni tekinga olganmisan?” deb qoʻya qoldi. Lekin bu soddagina da’vosi ham javobsiz qolmadi:

-Voy savil, endi ovqatim ham yoqmay qoldimi? - dedi Obodxon, qizchasini tizzasidan tushirib. - Qorningiz toʻygan boʻlsa, akangizning oldiga chiqing, - shunday deb laganni nari surdi. - Gap soʻrasam meni yeb qoʻyay deyapti. Mijgʻovlanmay dangal soʻrang: molimizni olib bersa olib bersin, boʻlmasa orani ochiq qilib oling. Boʻldi, shuncha chidaganimiz yetar.

-Chidolmayotgan boʻlsang men aytgan besh xonalik uyni sotib olib, koʻchib chiqaylik.

Bu gapdan keyin Obodxon oʻrnidan turib, qoʻllarini beliga tiradi-da, erini bosib ketadigan tank misol yaqinlashdi:

-Ho-o, shuncha uyni tep-tekinga tashlab chiqib ketaveradigan ahmoqmanmi? Shu gapni uchinchi marta aytyapsiz. Boshqa eshitmay. Uy hamma joyda kenjaga qoladi. “Akamda uy oladigan pul yoʻq”, deb dovdirab yuravermang. Milisada ishlaydigan odam kambagʻal boʻladi, desa hozir hamma kuladi. Akangizning bosib qoʻygan millionlari bor, siz bilmaysiz. Siz -merovsiz! Agar akangizni chiqarib yuborishga kuchingiz yetmasa, bunday qilamiz: uyni sotamiz. Mayli, pulning yarmi ularga boʻla qolsin. Agar adangizning vasiyatnomasini berkitishmaganida ularga bir tiyinham bermasdim.

Obodxon avjga chiqqan mahalda ichkari xonada qizlarning shovqini koʻtarildi.

-Bor, qizlaringga qara, qiz emas, bir balolarni tuqqansan, - dedi Sattor.

-Voy savil, koʻchadan orttirganmanda, a ularni? -Obodxon shunday deb qizlarning xonasi tomon yurdi. Eshikni ochib “Boʻldi qillaring!” deb baqirgach, yana eriga qaradi:- Boʻlaqoling. Ammamning buzogʻiday oʻtirmasdan akangizning oldiga chiqing.

Sattor xotinining amrini bajarish uchun oʻrnidan turayotgan mahalda Ibrohim shiyoni yonidagi gulxanga oʻt qalab mudrab oʻtirgan edi.

Olov chetiga qoʻyilgan qumgʻondagi suv qaynab joʻmragidan toʻkiladi, ammo olovni oʻchirishga qurbi yetmaydi. Oʻtin picha tutaganday boʻladi-da, soʻng yana alanga olib, qumgʻon atrofini yalashni davom ettiradi. Ahyon-ahyonda olov bagʻridan

uchqunlar otilib chiqib, atrofga sachraydi. Ana shunday uchqunlar sachragan mahalda Shavkat bilan Farida yana paydo boʻlishdi. Ular mungli koʻzlarini Ibrohimga tikib jim turaverishdi. Sachragan uchqunlar ularning ustiga tushsa ham jim turaverishdi.

-Ha, aka, kennayimni boshlab yana keldingizmi? Bolalarning noittifoqligi - ota-onaning shoʻri. Oʻqib, goʻrda ham tinch yotolmaysan. Men bunaqasini eng razil dushmanimga ham ravo koʻrmayman. Nevarangiz kelib ketdi. Shu bolaning aqli yetgan narsaga oʻgʻillaringizning fahmi kaltalik qilyapti. Nevarangizning aqli hali pokiza, dunyoning balchiqlari bilan bulgʻanmagan. Keyinroq nima boʻladi -Xudo biladi!
Oʻgʻillaringizning bunaqa bemehr, beoqibat boʻlib qolganining sababini men bilmayman. Sizni ham kennayimni ham ayblamayman. Balki notoʻgʻri tarbiya qilgandirsizlar, balki luqmasiga harom aralashgandir? Siz menga bunaqa qaramang. Bilaman, toʻgʻri yashaganman, demoqchisiz. Lekin oʻquvchi shogirdlaringiz “sovgʻa” deb koʻtarib kelgan narsalarni yegansizlar. Agar ular bu sovgʻani xolis emas, majburiyat yuzasidan, ogʻrinib bergan boʻlsalar harom luqma degani shu boʻladi. Siz buni bilmagansiz. Bilsangiz ham hamma yaxshiliklarni dinga bogʻlab, sarqit deb rad etavergansiz. Hatto mehr-oqibatni ham bidʼat, degansiz. Hamma faqat oʻz ishi bilan mashgʻul boʻlishi kerak, deb hisoblagansiz. Ha, nega jim turibsiz? Gapirmaysizmi? Qarashlaringiz boshqacha... Mendan xafamisiz? Oʻlayotganingizda “bolalarimdan xabardor boʻlib tur”, devdingiz. Vaʼdam esimda, unutganim yoʻq. Men oʻgʻillaringiz kap-katta boʻlib qolishgan, qishloqi cholning ziyoratiga muhtoj emsdir, deb oʻylab xato qilibman. Mayli, yara madda olmasidan borib kelaman. Goʻrlaringda tinch yotinglar...

Ibrohim mudroq koʻzlarini ochdi: uchqunlar soʻngan, akasi bilan kennoyisi ham yoʻq. Olov oʻtinlarni yamlab tugatay deyapti. Ibrohim gulxanni kosov bilan kavlab, gʻoʻlacha tashladi.

-Odamlarga nimalar boʻlyapti, oʻzi? - deb oʻyladi u. - Bir qorindan tushgan ogʻa-inilar bir hovliga sigʻmasa? Toʻgʻri, hovli nima ekan, dunyo ham torlik qiladigan yuragi tor bandalar ham bor. Aka-uka shahzodalar taxt talashishib, qancha-qancha begunoh qonlarni toʻkishdi-yu, baribir dunyoga ustun boʻla olmay, lahaddagi bitta guvalaga erishishdan boshqa chora topishmadi. Odamlar nima uchun oʻshalardan ibrat olishmas ekan? Nuh alayhissalomning bittagina chaylari bor ekan. Chayla ixchamligidan oyoqlarining uchi tashqariga chiqib turarkan. Umrlari adogʻiga yetib, Azroil alayhissalom jon olgani tashrif buyurganlarida Nuh alayhissalom Allohga munojot qilib: “Ey yaratgan Tangrim, menga ming yil umr beruvding, bu ming yilning bunchalik tez oʻtishini bilganimda ovora boʻlib shu chaylani qurib yurmasidim”, degan ekanlar. Endi qanday zamon boʻldi? Vaqtida oʻn-oʻn ikki bola chakka oʻtib turgan bitta uyda katta boʻlishadi-yu, ulgʻayishganidan keyin dangʻillama uylarga, hovlilarga sigʻmay qolishadi. Bu nimadan? Manmanlikdanmi? Noshukurlikdanmi yo toʻqlikka shoʻxlikdanmi? Odamlarning yuraklari bunchalik tor boʻlib ketmasa?..

Ibrohim xayolida uygʻongan savollarga javob topolmay anchagacha oʻtirdi.U “yara madda olmay” jiyanlari huzuriga borib kelishni niyat qilgan edi. Ammo yaraning allaqachon yiringlab ketganidan bexabar edi.

Oʻgʻlining Sherbuloqqa borib kelganini eshitgan Toʻlqinning koʻngli sal yorishdi. Aslida amakisini yoʻqlab, maslahatini olishni anchadan beri niyat qilgan edi. Ishlarga berilib, bu ziyoratni hadeb orqaga surayotgan edi. Bu ishni oʻgʻli osongina amalga

oshib qo'ya qolibdi. "Vaqt yo'q" degan bahona ko'p odamning oyoq-qo'llariga kishan bo'lib tushgan. Lekin kishanning kaliti o'z qo'llarida. Qulfni ochib, chiqib ketishlari mumkin, biroq, ularga shu kishan hukmida umr o'tkazish ma'qulroq. Uzoq vaqt ko'rishmagan qarindoshi yoki do'stini uchratganda esa bu kishan azoblaridan zorlanadilar. Allaqancha vaqtlarini behuda sarflab yurganlarini esa tan olgilari kelmaydi. To'lqin o'ylab qarasa, amakisini ko'rmaganiga bir yildan oshibdi. O'tgan yili nevara to'yi qilganida borgan edi. Shundan keyin amakisi ikki marta kelibdi. To'lqin uyda yo'q edi, tog'dan ko'tarib kelgan mevalarni tashlab, salom deb ketibdi. Uzun-olmalarni tatib ko'rayotganida "erta-indin albatta borib kelaman", deb ahd qilganicha yuraverdi. O'g'li esa bir kunlik o'qishidan voz kechib, borib kelibdi. Agar u ertalab "Ada, opokdamni ko'rib kelsam maylimi?"-deb ruxsat so'raganida bir kunlik o'qishni afzal ko'ruvchi ota-onasidan rad javob olishi tayin edi. Hech kimdan so'ramasdan borib keldi. O'qishga bormagani uchun komandiridan dakki eshitgandir, lekin osmon uzilib yerga tushgani yo'q. To'lqin ham ishlarini yarim kunga nari surib borib kelsa bo'lardi. Bu vaqt ichida olamni o'g'riyu kallakesarlar bosib ketmasdi...

Shularni o'ylagan To'lqin o'g'li oldida izza bo'ldi. Ham bu hijolatlik, ham o'g'lining haqiqatni tik aytishi uning tinchini oldi. Ayvon derazalari ochiq bo'lsa-da, havo yetishmaganday tuyuldi. Ona-bolani televizor qarshisida yolg'iz qoldirib, tashqariga chiqdi. Ko'pdan beri foydalanilmay chiriy boshlagan yog'och so'riga o'tirdi. Buni ko'rgan Robiya chaqqonlik bilan turib, eriga ko'rpacha olib chiqdi-da, to'shadi.

To'lqin sigaret tutatib, o'p'ga toldi. O'g'lining Sherbuloqqa borib kelgani uning bolalik xotiralarini qitiqlab uyg'otdi.

Ibrohim amakisi o'g'il to'yi qilganida borishib, aka-uka o'n-o'n besh kun qishloqda qolib ketishgan edi. Handalak pishgan mahal edi o'shanda. Ko'chadagi shum bolalardan biri shaharlik aka-ukaning ham g'ashiga tegish, ham havasini keltirish uchun ularning ro'paralariga kelib ishtaha bilan handalak yeya boshladi. Buni ko'rgan Sattor "olib bering" degan ma'noda akasining pinjiga kirdi. To'lqin esa bu bolaga yalinishni istamadi.

-Yur, handalak yegani olib boraman, - dedi.

-Qayoqqa? - dedi Sattor, handalak yeyayotgan boladan ko'z uzmay.

-Anavi tog'ning orqasida rosalik ko'p handalak pishibdi. "Sariq mashak" ham o'sha yerdan olib kelgan. Yeging kelayotgan bo'lsa yurasan.

Qishloq ko'chalarida yalangoyoq yurishga ko'nika boshlagan aka-ukalar shu hollaricha tog' oshishni mo'ljallab yo'lga tushdilar. Qishloqdan chiqib so'qmoq yo'lga o'tganlarida Sattor "oyog'imga tikon kirdi", deb yig'lab yubordi. To'lqin qarasa-ki, oyoq ostida tikonning izi yo'q. Ukasini yetaklab ketaverdi. Bir oz yurishgach Sattor endi "charchadim", deb xarxasha boshladi. To'lqin ukasining rayiga qarab ortiga qaytgisi ham keldi, lekin handalak yeyish istagi kuchlilik qildi: ukasini opichib yuqorilab yuraverdi. Biroq, tezda charchab, to'xtadi. Shu payt ularga eshak mingan qariya yaqinlashdi. To'lqin unga salom berib, o'zini chetga oldi-da, so'qmoq yo'lni bo'shatdi. Qariya alik olib o'tib ketavermay to'xtadi.

-Ha, toychoklar, qayoqqa? - deb soʻradi mehribonlik bilan.

-Anava togʻning orqasiga borishimiz kerak. Ukamning oyogʻiga tikon kirib ketdi. Eshagingizga mingashib olsa maylimi, oʻzi judayam yengil, - dedi Toʻlqin unga umid koʻzlarini tikib.

-Oldin eshagimdan soʻrab koʻraychi, ukang rostdanam yengil boʻlsa yoʻq demas, - dedi qariya hazil ohangida. Keyin eshakning qulogʻidan ushladi:-Nima deding, eshakvoy, bu doʻngpeshonalarni mingashtirsak senga ogʻirlik qilmaydimi? Ogʻirlik qilsa, uyalmay aytaver, men yoningda piyoda ham ketaveraman, - qariya shunday deb kulgach, Toʻlqinga qaradi, - Ana, eshak koʻndi, hammamizni koʻtara olarkan, senam mingashaver.

Qariya Sattorni oldiga oldi. Toʻlqinning mingashib olishiga yordamlashgach, “xix” deb qoʻydi. Eshakning yoʻrgʻalashi uchun shuning oʻzi kifoya qildi.

-Bu yerlikka oʻxshamaysan-ku, toychoq, seni tanimadim? - dedi qariya orqasiga qarab.

-Toshkanli Shavkat akaning oʻgʻliman.

-Ha... domlaning oʻgʻlimisan? Lekin Toshkanli deganing qiziq boʻldi. Adang shu togʻda tugʻilgan, shu yerda oʻsgan. Adangni ham eshagimga mingashtirganman.

-Shu eshakkami? - deb soʻradi Sattor qiziqish bilan.

-Yoʻq, unda bu hali tugʻilmaganidi. Bu eshakning katta otasiga mingashtirib yurardim. Oʻzlaring bu togʻning orqasida nima qilmoqchisanlar?

-Oʻsha yerda handalak rosalik pishibdi-, - dedi Toʻlqin.

-Rostdanmi? Kimdan bila qolding?

— Shodi sariq degan bola aytdi. Uni taniysizmi?

-Shodi sariqmi? U shumtakani tanimaydigan odam bormikin, bu atrofda? Menam sal-pal taniyman.

— Oʻzi mazza qilib yeganmish, aldamanmikin?

— Shodi sariq aytgan boʻlsa, ishonaver, u aldamaydi. Kecha kelib, polizni ancha payhon qilibdi, egalarining jahli chiqib yuruvdi.

— Egasining jahli yomonmi? - dedi Toʻlqin endi havotir bilan. -Juda yomon. Shodi sariqni ushlab olsa, naq chukini kesib oladi.

— Oʻzi kesilgan-ku? -Unda qolganini ham kesib olaveradi.

— Bizniyam ushlab olsa shunaqa qiladimi?

— Albatta. Agar katta odam oʻgʻirlik qilsa, qoʻli kesiladi. Kichkina bola oʻgʻirlik qilsa chuki kesiladi. Bu yerning qoidasi shunaqa.

Bu gapdan Toʻlqin rosmanasiga qoʻrqib ketdi.

— Amaki, eshagingizni toʻxtatib turing, - deb yalindi.

-Nega, toychoq? - deb ajablendi qariya. U hazil gapining bolaga bunchalik ta'sir etishini o'ylamagandi.

— Handalak yegimiz kelmay qoldi, uyga ketamiz.

— Yo'q, endi bunaqasi ketmaydi. Handalak yeyman, deb yo'lga chiqdingmi, endi qaytma. Ammo sen o'g'irlik qilmay, egasidan so'rasang, u senga uchta handalak beradi. Bittasini o'sha yerda ukang bilan mazza qilib yeysan. Ikkitasini uyingga olib borasan. Amaking Ibrohim mo'ylov ham handalakni ja-a-a yaxshi ko'radi-da. Amaking handalagini bir hafta kech ekuvdi, shuning uchunam unikhali pishganicha yo'q.

— Amakimni taniysizmi? - deb so'radi qo'rquvdan bir oz qutulgan To'lqin.

— Sal-pal taniyman. Mening polvon o'g'lim amakingni kurashda besh marta yiqitgan.

— Yolg'on gapiryapsiz.

— Yo alhazar! Nega yolg'on gapirarkanman? - Qariya shunday deb yana orqasiga qarab oldi.

-Amakim sirayam yiqilmaganlar, eng birinchi polvonlar, menga adam shunaqa deganlar.

-Shunaqa degin... Agar adang aytgan bo'lsa, ehtimol to'g'ridir, men adashgandirman. Yana Xudo biladi.

Shu zaylda suhbatlashib, polizga yetib bordilar. To'lqin atrofga alanglab, poliz egasini qidirdi. Buni sezgan qariya kulimisrab qo'yib:

-Birovni qidirypasanmi, toychoq? - deb so'radi.

— Hech kim yo'q-ku? - dedi ajablanib To'lqin.

— Men ham hayronman, rostdanam hech kim yo'qqa o'xshaydi, - dedi qariya miyig'ida kulganicha unga savolomuzqarab.

-Unda kimdan ruxsat so'raymiz? - dedi To'lqin bo'shashib.

— Ha, bu yog'i chatoq bo'ldi. Balki handalakning o'zidan so'rarmiz? Qani, "xandalakjonlar sizlarni judayam yegimiz kelyapti, olsak maylimi?" deb so'ranglar-chi?

To'lqin bu gapga uncha ishonqiramadi. Qariya taklifini yana takrorlagach, Sattor aytdi, keyin uham bo'shashganicha:

-Indashmayapti-ku? - deb qo'ydi.

-Nega indamayapti? E, ha, senlar handalakning tilini tushunmaysanlar-ku, men esam tushunaman. Ular hozir mening qulog'imga shivirlab: "Toychoqlarga aytib qo'ying, bizlar shunaqa yaxshi bolalar uchun pishib turibmiz. Kim so'rab olsa, quvonamiz", deyishdi. Ana, ruhsat tegdi, endi sen manavi handalakni uz, - qariya shunday deb poliz chetidagi handalakni To'lqinga ko'rsatdi.

Bundan quvonib ketgan Sattor yonidagi handalakni ko'tarmoqchi bo'ldi:

-Bunisiniham, - dedi u.

— Yo'q, bunisi hali xom. Sen mana buni uz. Ha, barakalla!

-Amaki, handalakning gapini o'zingiz to'qidingiz-a? - deb qoldi To'lqin, qariyani ajablantirib.

-Nega unaqa deyapsan, toychoq?
— Odamdan boshqa hech kim gapirmaydi.
— Shunaqami? Buniyam adang aytganmilar? -Ha.

-Adang aytgan boʻlsalar toʻgʻridir. Yana Xudo biladi.

-Unda biz handalakni oʻgʻirleyapmizmi?

-Nega oʻgʻirlarkanmiz? Happai halolidan olyapmiz. Toʻgʻrisini aytsam... men egasidan kecha ruxsat soʻrab qoʻygan edim. Mayli, degan edi.

-Bizning kelishimizni qayerdan biluvdingiz?

-Tushimda koʻruvdim, sen bola juda ezma ekansan, ulgʻayganingda qozi boʻlasan shekilli. Qani, yur-chi, tilimlab beray, - qariya Toʻlqinning adoqsiz savollaridan shu zaylda qutilgan edi. Kun botguncha handalakxoʻrlilik qilgan bolalar yana qariyaning eshagiga mingashib qaytganlarida amakilaridan quloq choʻzma ham yegan edilar. Ularni yoʻqolib qoldi, deb gumon qilgan Ibrohim bilan Munisa to ular kelgunlariga qadar havotir olovida qovurilib adoyi tamom boʻlayozgan edilar. Buni anglamagan bolalar quloq choʻzma uchun Ibrohimdan astoydil ranjidilar. Sattor amakisiga atab koʻtarib kelgan handalakni bergisi ham kelmadi... Toʻlqin “amakim endi bizni uyimizga haydab yuboradilar”, deb choʻchigan edi. Yoʻq, haydamadi. Aksincha, ularni yana uch marta handalakxoʻrlikka olib bordi...

Toʻlqin shu shirin xotiralar bulutida anchagina suzdi. Xotinidan qatʼiy topshiriq olgan Sattor unga deraza orqali bir oz qarab turdi-da, soʻng xovliga chiqib akasining yoniga oʻtirdi. Shirin xotiralardan achchiq haqiqatga oʻtgan Toʻlqin unga sigaret uzatdi. Sattor oldi-yu, ammo tutatmadi. Sattorning izidan umid bilan chiqqan iblis bazm nogʻoralarini shay qilib, ularning ogʻzini poyladi.

-Uyqing kelmayaptimi? - deb soʻradi Toʻlqin.

-Shu... yurakni siqadigan havo boʻlyapti.

-Havodan siqilayotgan boʻlsa oʻtib ketadi. Men... kecha gʻalati tush koʻribman: ikkalamiz yosh bola emishmiz. Qumdan uycha yasab oʻtiribmiz... Esingdami uy qurilayotganda koʻp oʻynardik.

Bu gapdan Sattorning ensasi qotdi.

-Esimda, - deb qoʻydi noxush ohangda.

-Men yasardim, sen erkalik qilib buzib tashlayverarding. Buvimnikidan chiqib, oltinchi qavatda turganimiz ham esingdami? - Sattor javob bermadi. Toʻlqin bunga parvo qilmay gapini davom ettirdi:- Agar baxt haqida oʻylasam, oʻsha uyimizni koʻp eslayman. Bittagina xonada yashardik. Biz uchun hech qanday gʻam-tashvish yoʻq edi. Oʻsha shirin damlardan oʻtadiganini men hali uchratganim yoʻq. Senam shuni hech oʻylaysanmi?

-O'yladim nima-yu, o'ylamadim nima? Baxt bir hil bo'lmaydi. Bir qorindan tushganimiz bilan, bir hovlida yashayotganimiz bilan meniki boshqa, sizniki boshqa.

-Yaxshi gapirding. Baxtimiz ham xuddi qozon-tovog'imizga o'xshagan boshqa-boshqa. Hayotning hukmi shunaqamikin yo bizning nodonligimiz uchun shunday bo'lib qolganmikin?

-Bilmayman, - dedi Sattor jerkish ohangida.

-Menam bilmayman, - dedi To'liqin bosiqlik ohangini o'zgartirmay. - Lekin har qanday baxtsizlikning avval boshida odamning nodonligi turadi.

-Har kimning nodonligi ham o'ziga yarasha har xil bo'ladi.

-Bu gapingham to'g'ri. Mana sen...

-Meni ko'ya turing, aka, undan ko'ra ishimiz nima bo'lyapti, shuni gapiring.

Bu keskin gapdan keyin iblis bazmining boshlanishini oshkor qiluvchi dastlabki ohanglarini chala boshladi.

To'liqin ukasiga norozi qiyofada qarab oldi. U ukasining bekorga chiqib o'tirmaganini bilardi. Shu haqda gap ochilishini ham kutgan edi. Lekin bolalik xotiralardan so'z ochilganda shashti sal pasaygandir deb o'ylagandi. O'ylagani sarob bo'lganidan g'ashlanib, u ham ko'polroq ohangga o'tdi:

-U yerda tanishlarim yo'q, deb aytuvdim-ku?

-Tanishlaringiz yo'qmi yo yordamlashishga xohishingiz yo'qmi?

-Savolingga javob berishim shartmi?

-Shartmas, nima deyishingizni bilaman. Aka, to'g'risini ayting, nega bunaqa bemehrsiz? Biz sizga nima yomonlikqildik?

Aslida bu savolni To'liqin ukasiga berishi kerak edi. Bir mavridi kelsa so'rarman, deb ko'ngliga tugib yurardi. Sattor chaqqonlik qilib, mavridi kelishini kutib o'tirmay, betgachoparlikdan ham qaytmadi. Shu bois To'liqin sal dovdirab qoldi:

-Nima, nima deding?

-Ushlash-qamashdan boshqa narsani bilmaysiz. Odamlarga yordam berishni istamaysiz?

-Odamlar deganda sen o'zingni nazarda tutyapsanmi? - dedi To'liqin qo'rslik bilan.

-Bilaman, sizningcha biz odam emasmiz.

-Sen gapni teskari burma. Men piching bilan so'raganim yo'q. To'g'ri ma'noda

soʻradim. Agar “odamlarga yordam berishni istamaysiz”, deb hozirgi ishingni aytayotgan boʻlsang, toʻgʻri, bu ishingga yordam berishni istamayman. Burinlaringga suv kirsa, toʻgʻri yashashni oʻrganasanlar.

-Odamlar qanday yashashsa, biz ham shunday yashayapmiz, - Sattor shunday deb oʻrnidan turib ketdi. - Tatalagan tatalab topyapti, hovuchlagan hovuchlab topyapti. Men sizning qozoningizga choʻmich solayotganim yoʻq.

-Gaplaring gʻalati-gʻalati, ukajon. Bir soʻz aytishdan oldin hech oʻylaysanmi? Aspiranturada oʻqiyotganingda boshqacha fikrlarding?

-Zamon oʻzgardi. Sizdan boshqa hamma oʻzgardi.

-Shunaqamikin? - Toʻlqin shunday degach, oʻrnidan turib ukasiga tik qaradi:-Balki sendan boshqalar oʻzgarmay qolishgandir. Menda ilmga qobiliyat yoʻq edi. Adam rahmatli sening olim boʻlishingni istagan edilar. Men urinishlarim bekor ketganiga achinaman.

-Oʻqitganingizni minnat qilmang. Ilm bilan tirikchilik qilib boʻlarkanmi hozir.

-Ilm bilan tirikchilik qilib yurganlar-chi? Hamma senga oʻxshab oʻzini tijoratga urgani yoʻq-ku? Jasur oʻrtogʻing “ukangiz ilmga xiyonat qildi”, devdi. Shu gapini oʻylab koʻr. Xudo bergan qobiliyatingga xiyonat qilsang, biring baribir ikki boʻlmaydi.

-Aka, qanday yashashni oʻzimga qoʻyib bering. Siz mening hayotimga aralashmang, men siznikiga aralashmay. Shunda ikkalamizga ham yaxshi boʻladi.

-Men aytdim-qoʻydim. Qoʻlingdan yetaklab yuradigan yoshdan oʻtgansan. Ha, senga bir narsani aytib qoʻyay: qoʻyxonani buzishga unamading, unda adamning xonalarini boʻshatib qoʻy, boʻyab-oqlab qoʻyaman.

Astoydil hujumni davom ettirish qasdidagi Sattorga bu qaror kutilmagan zarba boʻldi:

-Nega?

-Aytuvdim-ku, Bahriddinga ijodxon kerak.

-Yaxshi, oʻsha xona sizga boʻla qolsin. Lekin avval ishimizni toʻgʻirlab berasiz.

-Aka-ukaning oqibati ham savdo-sotiq bilan bitadigan boʻlibdi-da?

-Bu savdo-sotiq emas. Sanjar degan bola tuhmat bilan ushlab turilgan ekan. Agar shuning ishini toʻgʻirlab bersangiz, otasi bizning ishimizni toʻgʻirlarkan.

-Ishlar zoʻr-ku!-dedi Toʻlqin barmoqlari orasidagi sigaret qoldigʻini jahl bilan yerga tashlab. - Senga ham yoʻl topishibdi-da! Hozirgina oʻzing bir-birimizning hayotimizga aralashmaylik, devding. Shartni birinchi boʻlib oʻzing buzyapsan. Oʻsha vallomatingga aytib qoʻy, uka, oʻlgan otasini tiriltirib olishi mumkin, lekin oʻgʻlini qamoqdan qutqarib qololmaydi.

-Shunaqami? Boqpti! Endi mening yelkamda gunoh yoq. Endi ora ochiq!

Sattor shunday dedi-da, uyi tomon yurdi. Zinaga yetganida oqgirilib qaradi:

-Tinchgina yuzkoqmas boqolib ketaqolaylik. Hovlini sotaylikda ikkalamiz ikki tomonga ketaylik!

Bu gap gurziga aylandi-yu, Toqlinning koqlaridan olov uchqunlari sachraganday boqldi.

Bu gap iblisga moydek yoqib, nogorasini avj pardaga koqtardi.

Qiya ochiq derazadan aka-uka mashmasini jon qulogqi bilan tinglayotgan Obodxon chehrasiga bu gap mamnunlik shabadasini ufurdi.

Toqlin bir zungina qotib turdi-da, soqng ukasiga yaqinlashib, yoqasidan oldi.

-Nima deyayotganingni bilyapsanmi!-dedi xirqiroq ovozd. - Uyni sotasanni?! Bilib qoqy bola: men bu uyni sotguncha koqchalarda xor boqolib yashashni afzal bilaman. Bu uyda sening ham mening ham haqqim yoq. Buni adam bilan oyim qurishgan. Biz bu uyda vaqtincha yashovchilarmiz. Ertami-indin senam menam tashlab, ota-onamizning yonlariga boramiz. Ana oqshanda ularga nima deyishingni oqylabqoqy.

Toqlin shunday deb ukasini bir siltadi-yu, qoqyib yubordi. Sattor chekinib zinaga oyoq bosdi. Akasi yoqasidan olganida yuragida uygqongan sarosima bosildi. Yana avvalgi holiga qaytdi:

-Sotmasak, hovlini ikkiga boqlamiz. Boshqa yoql yoq.

-Esingni yigq, jinnilik qilma! Adam bilan oyim goqlarida tik turishadi.

-Bunisiga siz aybdorsiz. Aslida siz uyni boqshatib chiqib ketishingiz kerak. Adamning xatlarini atay yoqotgansiz.

-Adam sening uyingda jon berganlar. Xatni oqsha xonangda olganman-u, koqyanman. Ishonmasang qasam ichaymi?

-Endi foydasi yoq.

Sattor shunday dedi-yu, "akam yana sapchib qolmasin", degan havotirda zinadan tezgina koqtarilib uyiga kirib ketdi. Ayvonda uni Obodxon ochiq chehra bilan qarshiladi.

Iblisning bazmi tun boqyi davom etdi.

Toqlinning oilasi tunni motam azobi bilan oqtkazdi...

Erining jasorati tufayli quvonch ummonida yayray boshlagan Obodxon bir necha daqiqaga boqlsa-da, mol achchigqini unutdi.

Xonadoniga asqotishi lozim boʻlgan bu “quvonch” qizlar xonasiga kira olmadi.

Aka-ukaning, ayniqsa opa-singilning biron nimani talashib arazlashib qolishi har bir oila uchun odatiy hol. Lekin Oynisa bilan Oftobxon orasidagi munosabat har bir oilada ham boʻlavermaydi. Oynisaning opasi xususidagi chaqimchiligi shunchaki gap emas. U chindan ham Oftobxon va Salohiddin orasidagi munosabatni sinchiklab kuzatadi. Maktabdagi mish-mishlarni ham jon qulogʻi bilan tinglaydi. Bitta gap eshitsa, yoniga oʻzi yana ikkitasini qoʻshib onasiga yetkazib turadi. Onasining Oftobxon bilan Salohiddin orasidagi yaqinlikka bildirgan salbiy munosabati unga yoqadi. “Qiz oʻlgur”ni maktabni bitirishi bilanoq begonaga uzatib yuborish qarori esa Oynisaning ayni muddaosi. Sabab: Salohiddin Oynisaga yoqadi. Oftobxon amakivachchasini aka oʻrnida koʻrsa, uni singil muhabbati bilan yaxshi koʻrsa, Oynisaning sevgisi boʻlakcha edi. Boʻyi yetgan qizlar olamiga endigina qadam qoʻygan, sevgi-muhabbat haqida mubham tushunchaga ega boʻlgan Oynisa amakivachchasini opasidan qizgʻana boshlagan edi. Uyda yolgʻiz kezlari Salohiddinning chehrasini koʻz oldiga keltirib muhabbat koʻshiqlarini bir-bir kuylardi. Baʼzan shu qoʻshiqlar orqali sevgisini yigitga izhor etishni ham xohlardi. Ammo uyat degan fazilat uni bu harakatdan toʻxtatib turardi. Salohiddin uyiga kelgan kunlari Oynisa uchun goʻyo bayram edi. Uning hovliga koʻproq chiqib turishini istardi. Baʼzan deraza pardasi ortidan kuzatardi. Yuragi oʻynardi. Shirin orzular qanotida uchardi. Nodon qiz buni chin muhabbat deb hisoblardi. Iblis yuragiga havas solayotganini u bechora qaydan bilsin? Oynisa va unga oʻxshash qizlar ana shu toʻrga oʻralib qolib azoblar chekadilar. Ayrimlari bu holatni havas ekanini anglaydilar, baʼzilari esa “mening aqlu hushimni muhabbat otashi olyapti”, deb gangib yuraveradilar. Aqlari muhabbatga emas, iblisga bandi boʻlib qolganini tushunib yetgunlaricha hayotning achchiq mevalarini terib yuraveradilar. Yaxshiki hayo degan his-tuygʻu bor, ularni koʻp balolardan saqlab qoladi. Bunday fazilatdan mahrum qizlar esa umrlarini barbod qiladilar. “Bilmayin bosdim tikonni, tortadurman jabrini, bilsam erdim, tortmas erdim, ul tikonni jabrini” deyilmish maqol shu kabi qizlar hayotiga taaluqli. Chunki sevgi deb atalmish yolgʻon olamga yalangoyoq kirgan Oynisa yoshidagi qizlar oyogʻiga dastlabki tikonlar aynan shu davrda sanchiladi.

Oynisaga hali bu azoblar begona. Uning uchun eng muhim muammo - yoʻliga toʻgʻanoq boʻlayotgan opasini olib tashlash. Opasining toʻyi kuni, kuyov navkarlar karnay-surnay, nogʻoralar bilan kirib kelishganda, opasining koʻzlari yoshlanganida uning qalbi baxtiyorlik bilan tepa boshlaydi. Bu kunni orziqib kutayotgan Oynisaning yoʻlida yanada murakkabroq muammo paydo boʻldi. Onasining “kennayijoningiz qiz oviga chiqishni boshlabdilar”, degan gapi u bechoraning qoʻl-oyoqlarini bogʻlab, tubsiz jar sari ulotirib yuborganday boʻldi. Opasini olib ketgani kelgan kuyov unga baxtiyorlik jomini tutqazsa, kuyov sarposidagi shodon

Salohiddinning kelinni olib kelish uchun duo olib chiqib ketish manzarasi unga oʻlim zahri bilan limmo-lim toʻla jomni tutqazardi. Bu har ikki manzara amalga oshgunicha hali ancha fursat bor. Ammo hozirdan ikki muqobil toʻlqin kabi olishadi.

Opasini yoʻldan olish qiyin emasday tuyulgandi. Endi bunisi-chi? Kimga arz qiladi? Kimga yuragidagi sirni ochadi? Kimga dod deydi? Unga faqatgina onasi yoki opasi sirdosh boʻlishi mumkin. Qalbini tatalayotgan ishq mojarosidan onasini ogoh qila olmaydi. Oynisa yevropalik qiz boʻlganida yigit bilan ishini pishirib olib “oyi, tanishing,

bu yigit bilan turmush qurmoqchiman”, deyishdan qaytmasdi. Shukrki, Yevropa qizi emas. Agar Saloh akasini opasidan qizg□anmaganida sirini unga aytib maslahat so□rashi mumkin bo□lardi. Bu jihatdan ham sirdoshlik darvozasi taqa-taq yopiq.

Hamma qizlar muhabbat saroyiga kirishni dildan istasalar-da, intilsalar-da, ostona hatlashda havotir buluti ichida qoladilar. Sirlarining oshkor bo□lishidan qo□rqadilar. Oynisa ham shulardan biri. Salohiddinga bo□lgan munosabatining oshkor bo□lishidan cho□chigan qiz bu borada qo□zg□alishi mumkin bo□lgan dahshatli quyun yo□nalishini opasiga burib, o□zi omon qolishni o□ylardi.

“...Kennayijoningiz qiz oviga chiqishni boshlabdilar...”

Bu xunuk xabar opasining chimchilashidan ming karra azobliroq edi unga. Xabarni eshitib yig□lab yuborgisi keldi. Oftobxonning chimchilashi qalbida to□planayotgan faryod vulqoniga yo□l ochib bera qoldi. Keyin uyga kirgach, opasidan yana chimchilashmi yoki shapaloqmi kutib, turti. Muddaosiga yetdi: yuziga shapaloq tushib, yanada avjga chiqdi.

Bu hunarlarni sabr bilan o□rgatgan iblis minnatdor ustozning jilmayishi bilan unga qarab Qo□ydi.

Singlisidan farqli o□laroq, Oftobxon ham yig□lagisi, dardlarini yurakdan chiqarib tashlagisi kelardi, biroq o□zini tutishga majbur edi. Agar yig□lasa, yig□isining sabibini onasiga yoki otasiga tushuntirib berishi kerak bo□ladi. Ularga qizning dardi begona, aytgani bilan fahm etishmaydi. Chunki ularning olami o□zga, dardi boshqa. Dardsizning oldida boshimni og□ritma, deganlaridek, qiz ularga yuragini ocholmaydi. Yig□lasa-yu, sababini aytmasa, shubhasizki, Salohiddin bilan oralaridagi munosabatdan gap ochiladi. Dardini Salohiddin tushunadiganday edi. Kecha u ham gapni hazilga burib, onasini mashara qildi. “Hazillashdim, kechir”, dedi, ammo bu uzrxohligi bilan dilpora qizning yaralangan qalbiga malham qo□ya olmadi. Onasining noto□g□ri ishlarini Oftobxonning o□zi ham biladi. Lekin unga qarshi gapirolmaydi. Onasining qusurlarini birovning og□zidan eshitish esa unga og□ir, juda og□ir. Ikki oila orasidagi munosabatning kundan kunga yomonlashib borayotgani, oxir-oqibat esa rishtalar uzilib ketishi unga oddiy voqea bo□lib tuyulmasdi. Aka-ukalar yuz ko□rmas bo□lib ketgan kuni uning nazarida qiyomat boshlanishi shart edi. Qiyomat boshlanib, hammani yer yuta qolsa-ku, yaxshi bo□lardiya, qalb azoblaridan qutulardi-ya! Boshlanmasa-chi, yer yutmasa-chi? Ana unda onasi va otasi tomonidan joriy etilgan yangi tartib bo□yicha yashay boshlaydi: bobosi kabi suyumli bo□lib qolgan amakisini ko□rganda yuzini teskari buradi, salom bermaydi. Salomiga mehribonlik bilan alik olib, “iloyim baxtli bo□lgin, qizim”, deb duo qilib qo□yuvchi kennoyisiga qaramaydi. Aka va ukalari hisoblangan Salohiddin, Bahriddin, Nuriddindan yuzini teskari buradi. Salohiddin bilan Bahriddin-ku, vaziyatni tushunishar, “opajon” deb quchoqlab oladigan Nuriddin nima deb o□ylaydi?

Ota-onalari-ku, uy talashishyapti. Ular-chi?

Farzandharqanday vaziyatda ota-onaga tobe, deyishadi. Nahot bu qabih vaziyatda ham

ularga quloq solish shart bo□lsa? “Amakingga salom berma, bolalari bilan gaplashma”, degan buyruqni bajarish ham farzandlik burchiga kiradimi? Shu insofdanmi?

Oftobxonni shu savollar qiynaydi. Onasining uzatib yuborish haqidagi gaplarini eshitganda ba'zan ko'ngli taskin topganday ham bo'ladi. Shu uydan tezroq chiqib ketsa, bu mashmashalardan tezroq nari ketsa olam gulistonga aylanadiganday tuyuladi. Biroq, to'la hotirjam bo'la olmaydi. Borgan yeriga "kelinning otasi bilan amakisi yuzkor mas bo'lib ketgan ekan", degan gap yetmaydimi?

Bu hol kimgadir arziyasday tuyular, ammo Oftobxon uchun bu isnod. Bu isnod uni yertuban qilishi kerak edi. Agar qiz bola nomusini yo'qotsa uni la'natlaydilar. Lekin aka-uka yoki opa-singil yuzkor mas bo'lib ketsa birov indamaydi. Axir bu ham nomussizlikka, vijdotsizlikka kirmaydimi? Mana shu savollar girdobidagi qiz oila nomussizligidan qutilish yo'llarini izlardi, izlardi-yu, topa olmasdi. Ba'zan onasi bilan yolg'iz o'tirganda "Oyi, amakimlar ko'chib ketishsa, bizlarni ham turmushga uzatsangiz adamlar bilan sho'ppayib o'tirasizmi?" degisi kelardi. Bu savoliga onasining "Kuyovlardan bittasini ichkuyov qilaman", deb javob qaytarishini ham biladi. Ammo "sizning bu fe'lingizga qaysi ichkuyov chidarkin?" deya olmaydi.

Oftobxon xayolida chora izlab-izlab "bu dunyoning nimasi yaxshi? Undan keta qolgan afzal emasi?" degan to'xtamga ham keladi. Shunda qo'rqib, yuragi orqasiga tortib ketadi.

Bu kech Oynisa bilan yovlashib, onasidan qarg'ish olgach, joyiga yotib oldi. Unsiz yig'ladi. Oynisa tinchigach, hovlida amakisi bilan otasining g'og'ing'ir-g'og'ing'ir ovozlari eshitib, sergaklandi. Qancha diqqat qilmasin, gaplarini yaxshi eshita olmadi. Faqat zina yaqinida ovozlari balandlagach, eshitdi. Hammasini eshitdi. Eshitdi-yu, badani muzlab ketdi. "Bu dunyoda yashashning hech bir qizig'i yo'q..." Ahyon-ahyonda uyg'onayotgan bu fikr xayolini yana yoritdi. Bu safar nima uchundir qo'rqmadi...

Tunni ruh azobi bilan o'tkazgan Oftobxon "boshim og'riyapti" degan bahona bilan maktabga bormadi. Qizlarining turli bahonalar bilan maktabdan qolishiga Obodxon monelik qilmasdi. "Ha, maktabing o'la qolsin, tuzukroq o'qitmaydियam, damingni ol", deb qo'ya qoladi. Bugun "o'qishlarning oxiri ko'rinib qoldi, endi bormasang ham bo'laveradi", deb qiziga uzoq muddatli ta'til berdi. Oftobxon bir piyola choyni chala yarim ichib, xonasiga kirib yotganicha tashqariga chiqmadi.

Oynisa ham yaxshi uxlolmagan edi. U ham maktabga bormaslikni niyat qilib edi. Biroq, opasining niyatini bilib, fikridan qaytdi. Singlisini ergashtirib maktabiga jo'nadi.

Erining ko'chaga o'tlanayotganini ko'rgan Obodxon go'rkov amakivachchasinikiga borib to'nlarni olib kelishni yana tayinladi.

-Bugun vaqtim yo'q, - dedi Sattor, - hozir qurilish bozoriga boraman. Arzonroq g'isht uchrasa olib kelaman. Amakivachchangga telpon qil, to'nlarni saqlab tursin.

Erining shu bugunoq devor olish harakatiga tushishini kutmagan Obodxon quvonib ketdi:

-Voy aklginangizdan aylanay, - shunday deb Sattorni yelkasidan quchdi. - To'n achib qoladigan narsa emas, tura turadi. Bu ishni tezlati.

Ko'chani supurayotgan Robiya qaynisini ko'rib, salomlashish uchun qaddini rosladi. Biroq, Sattor qaynilik burchini bajarmadi - salom bermadi. Indamay o'tib ketdi. Robiya avval ajabladi, keyin xo'rligi keldi. O'zi aytgan birinchi bomba o'z oyog'i ostida portlab, ruhini majruh qildi. Ko'zlari yoshlandi. Supurgini chetga otib, uyga kirib xo'ngrab-xo'ngrab yig'lagisi keldi. Robiya bu xonadonga kelin bo'lib qadam bosib kelganida ularning munosabati kennoyi-qayni emas, opa-uka martabasida edi. Sattorning o'zi bir necha marta "Mening opam yo'q edi, siz menga opasiz, uylansam kelingizga ovsin emas, unga ham opa bo'lasiz", der edi. Robiya bu gapdan quvonardi. Singil-kelin kelishini orziqib kutardi. Qaynisining kiyim-boshlariga gard yuqtirmasdi. Biron sabab bilan akasi tergasa hamisha Sattorning yonini olib turardi. Qaynisi kech qolguday bo'lsa uxlamay kutardi. Avval qaynonasi bilan birga o'tirib kutardi. Farida qaytish qilgach, yolg'iz kutadigan bo'ldi. Chunki endi u faqat opa emas, mehribon ona mas'uliyatini ham zimmasiga olgan edi.

Robiyani opa, o'zini uka degan inson salom bermay o'tib ketdi...

Kechqurungi aka-uka mashmashasining so'ngida aytilgan ahd Robiya yuragini qalqitib yubordi. Jahldan bo'zarib uyga kirgan eriga indamadi. Ovutish uchun aytilgan har bir so'z g'azab otashiga moy kabi quyilishi mumkinligini bildi. Robiya tuni bilan o'z yog'iga o'zi qovrilsa-da, "Sattorjon bu gapni jahl ustida aytib yubordilar, bunchalikka bormaslar", deb umid qilgan edi. Qaynisining salom bermay o'tishi umidini puchga chiqardi, ahdning qat'iy ekanidan dalolat berdi.

Kechqurungi gapni onasi bilan birga ayvonda o'tirgan Salohiddin ham eshitgan, otasining qaytayotganini ko'rib o'z xonasiga kirib ketgan edi. Ertalab nonushta tayyor bo'lishiga qaramay, bir piyola choy ham ichmadi. Saf tekshiruviga kech qolishi mumkinligini bahona qilib shoshilib chiqib ketdi. Robiya o'g'lining bahona qilayotganini sezdi. Salohiddinning ko'nglidan nimalar kechayotganini his qilgani uchun ham "bugun kelasanmi?" deb so'ramadi. To'liqin bugun ishga kechroq bormoqchi edi, shu sababli shoshilmadi.

Robiya ko'z yoshlari bilan kirsas, erining ko'nglini yanada vayron qilib yuborishi mumkinligini bilib, supurishda davom etdi. O'g'li o'qishga ketdi, o'rtoklari bilan ko'rishib ko'ngil chigillari bir oz bo'lsa-da, yechiladi. Eri ish bilan ovunadi. Bu g'urbatxonada bir o'zi qoladi...

G'urbatxona?!

Qaynonasi, qaynotasi o'tgan uyni g'urbatxona deyish? Xayoliga kelgan bu fikrdan o'zi ham g'ashlandi. Bunday bema'ni xayollarni quvmoqchi bo'lganday tezroq supura boshladi. O'zi yashaydigan uy qarshisini supurib bo'lib qaddini rosladi-da, ovsini tomonini supurish yoki supurmaslikni o'ylab qoldi. Qizlari ishga yaraydigan yoshga yetganidan beri Obodxon qo'liga supurgi ushlamaydi. Ba'zan qizlar "hadeb men supuraveramanmi" deb arazlashib qolishsa, xonadonning bosh kelini Robiya vazifasini beminnatgina ado etib qo'yardi. Ko'chaga supurgi bilan chiqqan kezlari hech qachon ajratmagan. Hozir ham ajratish niyati yo'q, faqat bu tomonni supurayotganimda ovsinim chiqib bir zaharli gap aytvormasmikin, degan havotirda edi.

To'liqin chiqib, xotiniga qarab "nega sen supurasan, o'zlari supurmaydimi?" degisi

keldi-yu, o'zini tutdi. Sovuqqina qilib “ketyapman”, dedi. Robiya siniq ovozda “yaxshi borib keling”, dedi...

To'liqin ketishi bilan “hormang kennoyi, ovsiningiz uydamlar?” degan ovozni eshitib, orqasiga qaradi. Obodxonning mijozini ko'rib, istamaygina so'lashdi. Robiya bu xotinni yaxshi tanimaydi, ismini ham bilmaydi. Ovsiniga mijoz ekanini biladi xalos. Lekin ostona hatlashi bilan atrofga olazarak qarayverгани uchun yoqtirmaydi. Hozir hushlamaygina so'lashganining boisi ham shunda.

-Uydalar shekilli, kiravering, - deb ishini davom ettirdi.

Mijozga uning bu qiligi malol kelib, labini burib qo'ydi. Ostona hatlab ikki marta “Obodxon opa!” deb chaqirdi-da, javob bo'lishini kutmay ayvon sari yurdi. Obodxon soxta jilmayish bilan uni kutib oldi. Mijoz o'tirib, duo qilgach, hol-ahvol so'ragan edi, yig'lamsiraganicha boshiga tushgan kulfatni bayon qilib berdi. Mijoz azaga kelgan xotin ta'ziya bildirganiday unga tasalli berdi-da:

-Attang, hozir shu narsalarning bozori chaqqonidi-ya!-deb afsuslandi. Keyin:-
Mullakangiz milisa-ku, eplay olmadimi? - deb so'rab, Obodxonning yarasiga tuz sepdi.

-Voy, nima deyapsiz! Bularga ishi tushgan odamning ikki dunyoda kosasi oqarmaydi-ya!-dedi Obodxon labini burib. - Turgan-bitgani - ammamning buzog'i. Shuning uchun ham ko'karmaydi-da.. Tug'ilganidan beri mayormi, serjantmi, bir balo.

-Voy, shunaqami, ovsiningizning dimoklari ja-a baland-ku? - Mijoz shunday deb “hech kim yo'qmikin?” degan havotirda darvozaxonaga qarab oldi. Ko'ngli tichigach, davom etdi:-Men erining qo'li ancha uzunmikin, depman.

-Dimoqqinalariga qurt tushsin. O'zlarining nazarlarida erlarining qo'llari naq quyoshgacha yetadi. Shular bilan murosa qilib yashayotganimga menga ming marta rahmat deyish kerak.

-Obodxon opa!

Tanish ovozni eshitib darvozaxonaga qaradi. Ostona hatlab o'tib, ayvon tomon qarab turgan Maxsumani ko'rdi-yu, aftini burishtirdi

-Obbo... endi og'rimagan boshimga shu yetishmay turuvdi, - dedi

-Nima dedingiz? - dedi mijoz uning bu gapiga tushunmay.

-Nozik mehmon kelib qoldi, singiljonim. Molni olishim bilan sizga telpon qilaman. Bozordan kech qolmang, ertalabki bozorning tushumi yaxshi bo'ladi, - shunday deb Obodxon o'rnidan turdi.

-Molni boshqalardan olmay turaymi?

-Ozgina sabrqiling.

-Sabr deysiz-u, bu yoqda tirikchilik nima boqladi?

-Xudo bersa, tirikchilikka balo ham urmaydi. Xudo deb turing.

Mijoz e'tiroz bildirmoqchi boqlganida Maxsuma yana chaqirdi.

-Hozir, - dedi Obodxon gqashlanib, - voy-voyey, odamlar buncha besabr-a!

Darvozaxonada mijozni kuzatib, Maxsumani huddi qadrdoniday kutib oldi. Ichkari boshlay turib hovlidagi xoqrozga koqzi tushdi-da, mehmonni ham unutganday:

-Kisht-e, shunchayam surbet boqlasanmi, a!-deb haydagach, narigi ayvon tomon qarab ovozini balandlatdi:-Hoy Nuriddin! Xoqroz oqlguringni qama, hamma yoqni titib tashladi, - keyin mehmonga qaradi:-Maxsumaxon singiljonim, tortinmay kiravering. Shu katalakka boshi sigqsa keti sigqmaydi-yu, xoqroz boqishlariga oqlaymi.

Ichkari kirishgach, Obodxon dasturxon solmoqchi boqlidi. Maxsuma unamadi.

-Opa, hadeb telponda bezor qilavermay, yoql-yoqlakay kirib, xabar olay dedim. Ishlarimiz nima boqlyapti?

-Nima boqlardi, harakat qilyapmiz, - dedi Obodxon, bu savoldan ensasi qotganini yashirmay.

-Tezroq boqlgani yaxshiydi. "Mullakam milisa, bir soatda toqgqirlab tashlaydi", devdingiz.

-Voy, Maxsumaxon, bu dunyoning odamiga yarashmaydigan gapni aytasiz-a? Bir soatda yo bir kunda bitadigan ishmi shu?

-Buni men toqiqanim yoq, oqzingizning ogqzingizdan chiqqan gapni aytyapman.

-Ozgina kuting, besabr boqlmang, singiljon.

-Men-ku, qancha boqlsayam sabr qilaveraman-a, lekin ketishimda ancha qarz olgandim, qistab kelishyapti.

-Qistab kelishsa tushuntiringda.

-Tushuntiryapman... - Maxsuma shunday deb afsus bilan xoqrsindi, - ammo tepasida prasenti bor, kun oqtgan sayin tugqyapti.

-Endi bunisiga men aybdor emasman. Men sizga "qarz oling, tepasiga prasan qoqydiring", demaganman. Oqzingiz pishirgan osh...

-Oqshanda gapingizga kirmaganimda shu gqalvalar yoq edi.

-Menga osonmi? - dedi jerkib Obodxon. - Otamning oqlishini bilganimda bir qop kepakka sotib yuborardim, deyishgan. Men bilibmanmi oqlgurlarning hiylasini. Endi gap

bunday: ish shu bir-ikki kun ichida pishadi. Bojxonadan o'zim bitta odam topdim. Lekin ozgina chiqimi bo'ladi. Chiqim o'rtada, yana "bilmabman" deb yurmang.

Bu gapni eshitib, Maxsuma norozi qiyofada bosh chayqadi:

-Yo'q. opajon, chiqimini men bilmayman. Hamma g'alvani o'zingiz boshladingizmi, har qanaqa chiqimini ham o'zingiz to'laysiz, - dedi qat'iy ohangda.

-Voy savil, men bo'yingizdan sudrab majbur qilibmanmi? Yosh bola emassiz-ku, burningizni oqizib, orqamdan ergashadigan. Aqlingiz endi kirib qoldimi?

-Ha, aqlim kirib qoldi. Mayli, yana ikki kun kutaman. Uchinchi kuni molimning haqini to'laysiz.

Juvondan bunday qat'iylikni kutmagan Obodxon uni birinchi marta ko'rayotganday tikilib qarab qoldi. Iblis "shu gapi uchun sochlarini bittalab yulib tashlamaysanmi!" deb vasvasa qildi. Iblisning amriga jon deb itoat etgisi kelsa-da, o'zini tutdi.

-Nima dedingiz, singiljon! Voy, ko'nglimning ko'chasi! Siz menga shart qo'ymang, opovsi!

-Boshqa ilojim yo'q, uch kundan keyin kelaman, pullarimni tayyorlab qo'ying.

-Shunaqami, keling, keling, poyandoz solib kutib olaman. Bilib qo'ying: agar siz shunaqa yomonlikka yursangiz, mendan yaxshilik kutmang. Mendan bir tiyin ham ololmaysiz. Men sizga pulni emas, eringizga moydek yoqadigan ikki og'iz shirin xabarni tayyorlab qo'yaman.

-Qanaqa xabar yana?

-U yoklarda kimlarning qo'yniga kirib chiqqaningizni aytaman. Pul kerakmi, oila kerakmi, o'zingiz tanlab oling.

-Shunchalik pastmisiz? Yolg'on gapirgani Xudodan qo'rqmaysizmi?

-Xudoni ishimizga aralastirmang-u, shashtingizdan tushing. Opa-singilligimizcha qolaylik. Hali chetga billa-billa ko'p chiqamiz, rosa boyib ketasiz.

-Siz bilan billa bir yoqqa borishdan Xudo asrasin. Agar siz do'zaxga tushadigan bo'lsangiz, do'zaxdagilar ham sizdan xazar qilishsa kerak kerak.

-A?! Tilingiz chiqib qolibdimi, opovsi?

-Nima, meni merov deb o'yloddingizmi? Sizda bor til menda ham bor. Sizni odam deb izzatingizni qilib yuruvdim. Men hozir...

Maxsuma Obodxonning bobillab berishini kutmay chaqqon o'rnidan turdi. Uning harakatiga tushunmagan Obodxon:

-Ha, qayoqqa, bir piyola choy ichib keting, singiljon, - deb piching qildi.

-Choyingiz o'zingizga siylov, - dedi Maxsuma jahl olovini pasaytirmay, - men erimni chaqiray, ig'vo gapingiz ichingizda irib ketmasin, hoziroq ayta qoling.

Ishning bu tomonga og'ib ketishini kutmagan Obodxon shoshib qolib, "voy, toxtang, singiljon, uydagi gap ko'chaga chiqmasin", deganicha uning yo'lini to'smoqchi bo'ldi. Maxsuma uning hay-haylashiga parvo qilmay ko'chaga chiqdi-da, erini boshlab qaytdi. Ularning orqasidan kirgan Robiya noxush voqeadan chetda turish uchun tezgina uyiga kirib ketdi.

-Opaginam, mana erim, ayting, aytadiganingizni, - dedi Maxsuma.

Erning vajohati, ayniqsa uning chap iyagidagi chandiqlik Obodxonni sal cho'chitdi. Chandiqlik bezorilik alomati, deb o'yladi. O'tgan yili bu yigitning avtohalokatga uchraganini bilganida bunchalik qo'rqmasdi.

-Voy, opovsi, shunga shunchami, hazilni chinga aylantirmang, girgitton, - deb bir oz past tushishni ma'qul ko'rди.

Maxsuma javob bermadi, uning o'rniga eri gap boshladi:

-Nima dedi bu opachang? Ayt!

Maxsuma Obodxonning gaplarini takrorlagisi kelmadi.

-Qo'ying, turgan bitgani tuhmat, - dedi pastroq ovozdа.

-O', menga qara, alvasti!-dedi er Obodxon sari bir qadam bosib. -Avval o'zingni epla. Sendaqalarning ig'vosini men yaxshi bilaman. Bilib qo'y, mol ertaga shu yerda bo'lsin. Yo prasani bilan to'laysan. Men bilan hazillashmalaring.

Obodxon bir qadam orqaga chekinmoqchi ham edi, lekin cho'chiganini fosh qilishni istamadi. Uning joyidan jilmay tik qarab turishini ko'rgan yigitning shashti pasaydi, yana bir qadam qo'yishga jur'at qilmadi. Obodxon buni sezdi, shu bois ovozini bir parda ko'tardi:

-Hoy, o'g'il bola, indamasa ja-a sapchimang, o'zingizni tutib oling.

-Sapchiganda nima kelardi qo'lingdan. Sen milisa qarindoshingga ishonma. Milisapilisang bilan iningga kirg'izvoraman. Ering qani o'zi? Chiqsin, erkak bilan erkakcha gaplashib ketay!

-Erkakcha gaplashasanmi? Voy savil, hali sen erkak bo'ldingmi? Erkak odam xotinini bozorga solmaydi.

-Nima deding, qaniqaytar-chi?

Erning haligi gaplari yolg'on po'pisa deb hisoblansa, bunisi astoydil g'azab edi. U

vajohat bilan Obodxonga tashlanmoqchi bo'ldi. Erining fe'lini bilgan Maxsuma uni yengidan ushlab, tortdi. Obodxon avvaliga orqasiga tisarildi, keyin dod solib uyiga qochib kirdi. Ahvol jiddiyligini ko'rgan Robiya uyidan shoshib chiqib, erning yoqlini to'sdi. "Ukajon, o'zingizni bosing", deb ovutishga harakat qildi. Er bisotidagi barcha haqoratlarni aytib bo'lgach, sal hovuri bosildi shekilli, xotining so'ziga kirib iziga qaytdi. Robiya ularni ko'chaga qadar kuzatdi. Darvozaxonaga qaytganida ayvonning derazasini lang ochib olgan Obodxon ularning izidan qarg'ashni boshlab yuborgan edi:

-E, go'laymaygina ko'zlaring teshilsin! E, mollaring bilan qo'shmozor bo'llaring! Qarzlaringdan qutulolmay lahadda chirilaring!

Maxsuma javob bermadi, uning o'rniga eri gap boshladi:

-Nima dedi bu opachang? Ayt!

Maxsuma Obodxonning gaplarini takrorlagisi kelmadi.

-Qo'ying, turgan bitgani tuhmat, - dedi pastroq ovozda.

-O', menga qara, alvasti!-dedi er Obodxon sari bir qadam bosib. -Avval o'zingni epla. Sendaqalarning ig'vosini men yaxshi bilaman. Bilib qo'y, mol ertaga shu yerda bo'lsin. Yo prasani bilan to'laysan. Men bilan hazillashmalaring.

Obodxon bir qadam orqaga chekinmoqchi ham edi, lekin cho'chiganini fosh qilishni istamadi. Uning joyidan jilmay tik qarab turishini ko'rgan yigitning shashti pasaydi, yana bir qadam qo'yishga jur'at qilmadi. Obodxon buni sezdi, shu bois ovozini bir parda ko'tardi:

-Hoy, o'g'il bola, indamasa ja-a sapchimang, o'zingizni tutib oling.

-Sapchiganda nima kelardi qo'lingdan. Sen milisa qarindoshingga ishonma. Milisapilisang bilan iningga kirg'izvoraman. Ering qani o'zi? Chiqsin, erkak bilan erkakcha gaplashib ketay!

-Erkakcha gaplashasanmi? Voy savil, hali sen erkak bo'ldingmi? Erkak odam xotini bozorga solmaydi.

-Nima deding, qaniqaytar-chi?

Erning haligi gaplari yolg'on po'pisa deb hisoblansa, bunisi astoydil g'azab edi. U vajohat bilan Obodxonga tashlanmoqchi bo'ldi. Erining fe'lini bilgan Maxsuma uni yengidan ushlab, tortdi. Obodxon avvaliga orqasiga tisarildi, keyin dod solib uyiga qochib kirdi. Ahvol jiddiyligini ko'rgan Robiya uyidan shoshib chiqib, erning yoqlini to'sdi. "Ukajon, o'zingizni bosing", deb ovutishga harakat qildi. Er bisotidagi barcha haqoratlarni aytib bo'lgach, sal hovuri bosildi shekilli, xotining so'ziga kirib iziga qaytdi. Robiya ularni ko'chaga qadar kuzatdi. Darvozaxonaga qaytganida ayvonning derazasini lang ochib olgan Obodxon ularning izidan qarg'ashni boshlab yuborgan edi:

-E, go'laymaygina ko'zlaring teshilsin! E, mollaring bilan qo'shmozor bo'llaring!

Qarzlarindan qutulolmay lahadda chirilaring!

Robiya bu qargishlar yomgiri ostidan indamay oqib keta olmadi:

-Obodxon, bo'ldi endi. Qo'ying, - dedi-yu, balo yomgirini o'z boshiga o'zi chaqirdi.

-Nimaga qo'yarkanman!-Obodxon endi unga g'azab bilan tikilganicha baqira ketdi. - Ko'rib quvonyapsizmi! Chapak chalib o'tiravering. Shularning hammasi sizlarni deb bo'ldi. Sizlar bizlarni ko'rolmaysizlar, ha! Ichlaring qozonning kuyasidan ham qora! Bilib qo'ylaring: o'sha mollarimni o'zim qaytarib olaman. Erimga "Mercedes" olib beraman. Qizlarimni boyvachchalarga uzataman! Uchchala charlarida uchchala kuyovimning qo'liga bittadan "Mercedes"ning kalitini tutqazaman. Ha! Ko'rib, kuyib-kuyib ado bo'llaring!

Robiya bu gaplarga chidolmay kaftlari bilan quloqlarini berkitganicha uyiga kirib ketdi. Shunda ham Obodxonning jag'i tinmadi:

-Xoy, xo'rozlaringni yo'qotlaring! Hammayoqni axlatxona qilib tashladi. Axlat pulini ham to'lab qo'ylaring. Senlar uchun to'laydigan ahmoq yo'q!

Obodxonning diydioshi darvozaxona yaqinida katta yuk mashinasi to'xtaguncha davom etdi. Darvoza eshigi ochilib, eri ko'ringach, uni qarshilashga shoshildi.

-Pul olib chiq, - dedi Sattor uni ayvon eshigi og'zida to'xtatib. - Bozor narxidan arzon tushdi. Kurilishga olib ketayotgan ekan, bu ham omaddanda.

Mashina g'ishtni ag'darib, haydovchi haqqini olib ketgach, Sattor:

-Bozorga tushib ikkita mardikor olib chiqay, - dedi.

-Mardikorni nima qilasiz? G'isht tashishgami? Oynisa kelsin, qizlarning o'z tashib qo'yadi. Shunga ham pul sarf qilish kerakmi? Siz ustaning harakatini qiling. Qizig'ida bitirib olish kerak. Keyin gap-so'z ko'payadi.

-Bu g'isht yetmaydi, yana kamida ikki mashina kerak. Ustani o'shanda topamiz.

-Shuncha g'isht yetmaydimi? Menga qarang: nima, g'ishtga ham, ustaga ham biz to'laymizmi? Devor o'rtada bo'lgandan keyin chiqimi ham o'rtada! Akangizga ayting.

Qani edi shunday bo'la qolsa! Sattorning yashirin muddaosi ham shu. Lekin devor olish tashabbusi ulardan chikdi, akasi bir tiyin ham bermaydi. Chiqimni zimmasiga olishdan o'zga chora yo'q.

Sattor buni aytib tushuntirmoqchi edi, Obodxon katta ko'cha tomon imladi:

-Qarang, amakingizmi? Shu yetmay turuvdi.

-Nimaga unaqa deysan? Qoʻrqma, sening osh-noningni yeb ketmaydilar.

-Men uni aytayotganim yoʻq. Faqat... devorni aytmay turing, gap chaynalmasin.

-Sen aytmasang ham aqlim yetadi, - Sattor shunday deb jilmayganicha amakisiga peshvoz chiqib, quchoqlab koʻrishdi.

Baʼzan kishining aqli bovar qilmaydigan voqealar yuz beradi. Kayfiyating siniq, hatto yaxshi odamlar suhbatini ham yoqmaydi. Ana shunday paytda albatta senga yomonlar duch kelishadi-yu, shundogʻam siniq kayfiyatingni parcha-parcha qilib tashlashadi.

Toʻlqin ukasi bilan boʻlgan kechki toʻqnashuvdan keyin boʻlari boʻlgan edi. Agar ukasining gapi kutilmaganda yangraganda bunchalik azob chekmasdi. Toʻlqin shunday gap qachondir aytilishini kutib yashayotgan edi. Kutsa-da, “ehtimol adashayotgandirman, bu oqibatga bormas”, degan umid bilan oʻzini ovutib kelayotgandi. “Ukam “uyni sotamiz yo hovlini oʻrtadan boʻlamiz” deb qolsa, yer yorilib hammani yer yutib ketarmikin?” deb ham oʻylardi.

Oʻsha gap aytildi.

Yer yorilmadi, birovni yer ham yutmadi.

Shunday osongina uchar ekan bu gap tildan.

Lablar hatto titramas ham ekan...

Biroq...

Quloqlardan osongina oʻtgan bu gap oʻqqa aylanib yurakka qadalishi oʻrniga yer yutgani yaxshiroq emasmidi.

Akasiga qarata gʻazab bilan aytilgan bu soʻzlar hovliga singib ketmay, oʻqqa aylanishi, uchib borib qabristondagi ikki goʻrga sanchilishi-chi?

Toʻpponchadan uchib badanga sanchilgan oʻqning davosi bor. Qalbga sanchilgan soʻz oʻqlari davosiz.

Agar bu soʻz oʻqlari jigaring tomonidan uzilgan boʻlsa sen uchun qiyomat boshlanibdi...

Yaralangan Toʻlqinning tuni tun emas, goʻyo lahad zimistoni boʻldi. Hayotdan toʻyib ketdi. Milliardlab odamlarga yetib ortayotgan havo unga yetmayotganday tuyuldi. Bir vaqtlar tasodifan yoʻliqqan folbin unga “sen uzoq yashaysan, shunday uzoq yashaysanki, hayot joningga ham tegib ketadi. Oʻlging keladi. Ammo oʻlolmaysan”, degan edi. Tunda folbinning shu bashorati behos yodiga tushdi. “Hayotdan toʻyishim boshlandimi? Yana qancha davom etadi bu? Hovlini boʻlish mashmashasi boshimga bitgan balolarning hammasimi yo bundan battarlari ham bormi?” -uyqusiz tun uning bu savollariga javob bera olmadi.

Shunday kayfiyatda ishga borganida birinchi uchrashgani Koqmas bo'ldi. Kecha u olib borayotgan "Ish" bilan tanishib, fikrlarini boshliqqa bayon qilgan, uning bu sohaga yaroqsizligini bayon etuvchi bildirgi ham yozib bergan edi.

Koqmas til uchida salom berdi, To'liqin bosh irg'ab, xohlamaygina alik oldi. Koqmas, gapni aylantirmay muddaoga ko'chib qo'ya qoldi:

-Keldiyorovning ishidan chetlatganingiz yetmay, endi butunlay xaydatmoqchimisiz?

-Bu sohadan ketsangiz o'zingiz uchun ham yaxshi bo'ladi, - dedi To'liqin maslahat ohangida.

-Men sizga nima yomonlik qildim?

-Shaxsan menga yomonligingiz yo'q. Men ham sizga yomonlik qilmoqchi emasman. Agar vaqtida boshqa kasb qilsangiz o'zingizga yaxshi.

-Ishimning nimasi sizga yoqmayapti?

-Qizni kim zo'rlagan deb gumon qilyapsiz? Gayrat Sanaqulovmi? Kimni qamoqqa oldingiz? Shuhrat Sanaqulovnimi? Nega?

-Bular aka-uka.

-Bilaman. Lekin voqea sodir bo'lgan kuni Shuhrat Sanaqulov Koreyada bo'lgan.

-Buni menam bilaman. Men aybni unga ag'darmoqchi emasman. Akasini uch-to'rt kun qamab qo'ysam, ukasini topib berishadi. Bu sinovdan o'tgan uslub-ku, nega menga yopishib oldingiz?

-Bu sinalgan, lekin sinovdan o'tmagan ahmaqona uslub. Jinoyatlar bir-biriga o'xshamaydi, uni ochish uslubi ham o'zgacha bo'ladi. Agar shunga aqlingiz yetmayotgan bo'lsa...

-Bu gapingizni ko'p eshitdim, - dedi Koqmas endi dag'alroq ohangda. - Xo'p, meni ishdan chetlatishlarini talab qilibsiz. Men shu sohadan ketsam sizning baxtingiz ochiladimi? Yo'lingizni men to'sib turuvdimmi?

-Mening baxtimni o'zimga qo'yib bering. O'zingizni o'ylang.

-Unda siz ham o'zingizni o'ylayvering. Meni siz ishga olmagansiz, bo'shatish ham qo'lingizdan kelmaydi. Bilib ko'ying, bu adolatingiz bilan uzoqqa borolmaysiz.

-Qayergacha borishimni o'zim yaxshi bilaman.

-Yaxshisi bildirgingizni qaytarib oling.

-Katta ketishingizga qaraganda yelka tirab turgan tog'ingiz baquvvatga o'xshaydi. Mayli, suyanavering.

Telefon jiringlab ularning suhbatini uzildi. Toʻlqin goʻshakni olib turib qatʼi tarzda:

-Qaytarib oladigan bildirgini yozmay qoʻya qolaman, - dedi. Keyin goʻshakni qulogʻiga tutdi: -Mayor Ilyosov.

-Adasi, bu menman...

-Hozir... - Robiyaning ovozi eshitib Qoʻrqmasga qaradi: -Boshqa gapingiz boʻlmasa meni holi qoldiring. Bu xonaga boshqa kirmasangiz yana ham yaxshi.

Qoʻrqmas unga gʻazab bilan tikilganicha: "hali koʻramiz, oldimga oʻzing emaklab borasan!" deb chiqib ketdi.

-Tinchlikmi, nima gap? - deb soʻradi Toʻlqin noxush ohangda.

-Adasi... Sattorjon bir moshina gʻisht olib keldilar, - dedi Robiya aybdor odam ohangida.

-Olib kelsa nima boʻpti? - dedi Toʻlqin qoʻrslik bilan.

-Bilmadim... rostdanam hovlini boʻladilar shekilli...

-Boʻlsa men nima qilay! -Toʻlqin shunday deb baqirib stolni mushtladi. - Menga qara, gʻisht olib keladimi, balo olib keladimi, hozir menga telpon qilishing shartmidi! Men ishdaman. Tushunasanmi yo yoʻqmi?!

-Adasi...

-Nima, adasi!

-Amakimham keluvdilar...

-Qaysi amaking?

-Ibrohim amakim...

Bu xabardan keyin Toʻlqin shashtidan bir oz tushdi. Oʻgʻlining Sherbuloqqa borib kelganini eslab, amakisining qanday maqsadda kelganini angladi-yu, koʻngliga yorugʻlik oralaganday boʻldi.

-Kelgan boʻlsalar darrov ovqatga unnamaysanmi? - dedi Toʻlqin yumshoqroq ohangda.

-Peshinga kelib-ketarmikinsiz, devdim... juda gʻalati boʻlyapti-da?

-Nimasi gʻalati?

-Oldinlari toʻgʻri biznikiga kirib kelardilar. Bu safar... u yoqqa kirib ketdilar. Kirishni ham kirmaslikni ham bilmay turibman.

-Bu nima deganing?

-Obodxonning fe'lini bilasiz-ku?

-Fe'liga o'q tushsin uning. Aftiga qarama, kirib so'q rashib chiq. -Shunday deb gapni kalta qildi-da, go'shakni o'qrniga qo'ydi.

Endi nima qilishini bilmay garangsib o'q tirdi. Amakisining maqsadini biladi. Hovlini bo'q lish uchun g'isht tushirilgani ham unga ma'lum. Amakisi murosaga keltirish yo'q lini qidiradi. Ukasi ayb axlatini u tomon ag'darishi shubhasiz. Amakisi bu ayblovlarga ishonadimi? O'qrtada To'qlin moxovdek bo'q lib qolaveradimi? Amakisi murosaga keltirish yo'q lini qidirib topa oladimi?

Ibrohim darvoza oldida uyulib turgan g'ishtlarni ko'q rdi-yu, ruhlarning havotiri bejiz emasligini angladi. O'q zicha "kech qolibman shekilli", deb o'q ylab ko'q ngli g'ashlandi. Salohiddin bilan bo'q lgan suhbatdan so'q ng aka-ukaga aytish uchun o'q ylab qo'ygan gaplari endi foydasiz ekanini fahmladi. Endi bu xonadon ostonasini bosib o'q tguniga qadar yangicha yo'q l o'q ylab topishi kerak edi. Qisqa muddatda o'q ylab topgani - bu safar odatni kanda qilib, ukaning uyiga qadam ranjida qilish bo'q ldi. Bu holatdan bexabar Robiya ham ajablanib, ham xavotiranib, eriga ko'q ng'iroq qilgan edi.

Sattor ham Obodxon ham Ibrohim amakilarini suyuqli mehmon kabi qarshiladilar. O'q zi chaqqon Obodxonning qo'q l-oyog' i ham chaqqon bo'q lib qoldi. Ichkari uyda yotgan Oftobxonni turg' izdi, ona-bola dasturxon tuzashga kirishdi.

Ibrohim salom-alikdan so'q ng "ozgina gina qilib qo'yish foydadan holi bo'q lmas", degan qarorga keldi:

-Bormisan, jiyan, akang-u yilda bir bo'q lsa ham xabar olib turadi, sen anqoning urug' iday bo'q lib ketding-ku, a?

Sattor "ha, endi..." deb gapirishga arzigulik bahona izlayatuvdi, mushkulini xotini oson qilib qo'q ya qoldi:

-Amaki, tirikchilikdan ortmay qoldik. O'q zingiz ko'q rib turibsiz-ku, ro'q zg' or deganlari yutvoray deyapti.

-Ro'q zg' orning o'q zi karnayday ochib tashlansa - yutaman, deydi. Nafsga qarab emas, qoringa qarab ochilsa - yutmaydi, - dedi Ibrohim keliniga qarab.

-Voy. qiziqsiz-a, amaki, hozir shaharda qorin to'q yg' azish ham oson emas.

-Noshukur bo'q lmang, qizim. Sizga bir rivoyat aytib beraymi?

-Rivoyat bilan qorin to'q yadimi, amaki?

-Ehtimol to'q yib qolar, siz eshiting, qizingiz ham eshitsin, o'q tir qizim, - Oftobxon itoat bilan o'q tirtgach, Ibrohim Obodxonga qaraganicha rivoyatni boshladi:-Bir odam xufton

namozini o'qish uchun jala quyayotganiga qaramay masjidga ketayotgan ekan. Bir mahal toyib, ko'lmakka yiqilibdi-da: "Ey Allohim, o'zingga shukur, yiqitding-u, qo'limni sindirmading", debdi. Bir oz yurgach, bu safar ariqqa yiqilibdi-da: "Ey Allohim, o'zingga shukur, yiqitding-u, oyog'imni sindirmading", debdi. Shunda bir yigit qo'lida chiroq bilan paydo bo'lib: "Otaxon, men sizni masjidga kuzatib qo'yaman", debdi. Manzilga yetgach, u odam yigitdan: "Sen kimsan, kimning haqqiga duo qilay?" deb so'rabdi. "Men shaytonman, yigit qiyofasiga kirganman". Bu gapdan otaxon ajablanib: "Bu qanaqasi, shayton birovga yaxshilik qilmas edi-ku?"- debdi. "Ha, yaxshilik qilmayman, - debdi shayton, - Sen birinchi marta yiqilib Allohga shukur qilganingda Alloh "Bandam azoblansa ham menga shukur qildi, guvoh bo'linglar, shu shukrona hurmati men uning gunohlaridan kechdim", dedi. Ikkinchi marta yiqilib, shukur qilganingda Alloh shu shukronang hurmati qarindoshlaringning ham gunohlarini kechirib yubordi. Agar uchinchi marta yiqilib shukur qilganingda Alloh barcha musulmonlarning gunohlarini kechirib yubormoqchi edi. Men bunga yo'l qo'ymaslik uchun seni bu yerga omon-eson yetaklab keldim", degan ekan. Ana shunaqa, kelin, shukr qilishning savobi juda katta.

-Bu rivoyatingiz gunohkorlar uchun ekan. Bizda gunoh yo'q, o'zimiz yig'ib-terib qornimizni to'yg'azib yuribmiz.

Kelinining gapidan Ibrohimning ensasi qotdi. Bu suhbatga yosh qizning guvoh bo'lishini ma'qul ko'rmay "Kizim, sen darslaringni qilaver", deb unga ijozat berdi.

-Kelin, siz unday fikr qilmang. Hammalarimizda ozmi-ko'pmi gunoh bor. Hammalarimiz bu gunohlar uchun javob beramiz, - Ibrohim shu gapni aytgach, Obodxon bilan suhbatlashish istagi yo'qligini ham bildirgisi kelib, Sattorga yuzlandi: -Men sendan xafa emasman, jiyan, o'zi ilm odamlari shunaqaroq bo'lishadi. Sen dadangga o'xshading. Dadangni ham o'zim kelib ko'rib turmasam, boray demasdi. Ilmni gullatib yuribsanim, ba'zi nodonlarga o'xshab tashlab yubormadingmi, ishqilib? - shunday deb sinov nazari bilan tikildi. Aslida uning ilmni tashlaganini Salohiddindan eshitgan bo'lsa-da, to'g'ridan-to'g'ri nasihat qilmay, o'zini bexabarday tutmoqda edi.

Sattor amakisining o'tkir nigohiga dosh berolmay, pastga qaradi-da:

-Ha, endi g'imirlab turibmiz, - deb mijg'ovlandi.

Erining bu holda fosh bo'lishini istamagan Obodxon gapni ilib ketdi:

-Voy amaki-ey, ilm-ilm deysiz, hozir birov ilmga qaramayapti, cho'ntakka qarayapti.

-Kelin, sizga o'xshaganlar balki cho'ntakka qarayotgandir. Lekin odamlar ilmga qaraydi. Olim odamning martabasi Allohning oldida ham baland turadi, bilmasangiz bilib qo'ying. Menam qishloqda "Jiyanim olim", deb kerilib yuraman. "Jiyanim milisa", deb maqtanmayman. Chunki milisa qishlog'imizda ham bor, olim esa yo'q. Ilgarilari "Ibrohim Toshkandagi olim Shavkatning ukasi", deyishsa bir qop semirardim. Ana endi otasining nomini bu ulug'lab yuribdi. Bo'sh kelma, jiyan.

-Ha... endiko'ldan kelganicha...

Obodxon eriga “muncha mijg□ovlanasiz!” degan ma’noda norozi qaradi. Sattor esa gapini yo□qotib, amakisidan hol-ahvol so□rashni ham unutdi.

Oraga sukut cho□kdi. Ibrohim topgan usuli yaxshi samara berishiga ishonch hosil qilib, yana gap boshladi:

-G□ishtni akang tushirtirdimi? Pastga qurilish qilmoqchidirda, a? To□g□ri o□ylabdi. O□g□lini uylantiradigan bo□lsa, yana bitta uy kerak. Asli pastdagi uylarning ancha nurab qolgan. Poydevorining mazasi yo□g□idi. Paxsasini o□zim urib beruvdim. Eslaysanmi? Chillakdek oyog□ing bilan loy tepaman, deb xarxasha qilarding. Adang rahmatli “shamollab qolasan”, deb unamasdi. Aka-uka judayam ahil edilaring. Men bollaringga senlarni misol qilib aytib, tergab turardim. Akang senga vaqtida otalik ham qildi, endi qanotiga kirib, to□ylarini o□tkazishib bersang, baraka topaverasan. Akaning duosi otaning duosi kabi bo□ladi. Eski kitoblarda yozilgan: uka qo□y so□yib xudoyi qilmoqchi ekan, shunda g□oyibdan bir sado kelibdi: “ey yigit, esingdami, bitta arziyas gap bilan akangning ko□nglini og□ritgan eding. Sen avval akangdan uzr so□rab, uning roziligini olgin, keyin qo□yni so□y. Akangning rizoligi bo□lmasa, xudoyiga so□yadiganko□yingqabul emas”.

-Ha... endi akalar ham har hil bo□lishadi, - dedi Sattor.

-Gaping to□g□ri. Men hayotda har hilini ko□rdim. Ota-onasidan keyin hovlini bo□lib olganlarini ham, ukalarini qiyratib haydaganlarini ham uchratdim. Bular Alloh oldida nima deb javob berishlarini bilmaydilar hali. Hovlini bo□lib tashlaydigan g□isht devorni odam qo□li bilan tiklaydi. Uni vaqti kelib buzib tashlansa bo□ladi. G□ishtlarni boshqa xayrli joyga ishlatish mumkin. Lekin aka-ukalarning qalbidagi devor ham bor. Uni iblis tiklaydi. Iblis tiklagan devorni buzib bo□lmaydi. Hovlida g□isht devor terish boshlanmay turib iblis qalblarga devor urishni jadallashtiradi. Qalbdagi devor puxta ravishda tiklanganidan keyin hovlidagi g□isht devorga navbat keladi. Usta g□isht teradi, mardikor unga qarashadi. Iblis qalblarga devor urayotganida unga aka-ukalar bilan ovsinlar mardikorlik qilib turishadi. Shu mardikorliklari uchun qiyomatda jazo olishadi. Biroviga kam, biroviga ko□p jazo berilmaydi, jazo bab-baravar bo□ladi. Xudoga shukur, senlar bu toifadan emassanlar.

-Amaki, zo□r-zo□r gaplarni topib gapirasizu lekin, dunyoda shunaqa akalar, shunaqa ovsinlar borki...

-Choyinggaqara!

Erining zarda ohangidagi buyrug□i Obodxonni gapdan to□xtatdi. Ibrohim xotinning maqsadini anglab, tomog□ini qirib qo□ydi. Obodxon qovoq uyib o□tirgan eriga bir qarab olib: “Shunaqa, to□g□ri gap tuqqaningga ham yoqmaydi”, deb ming□irlaganicha oshxona tomon yurdi. Choy damlayotganida to□rtta non ko□targan Robiya kirib keldi. Obodxon ovsiniga “ko□zim uchib turuvdi!” degan ma’noda chimirilib qaradi.

Robiya chimirilishga javoban bu yerga chiqishi sababini aytishi lozimligini angladi:

-Amakim kelibdilar... - deb nonni uzatdi.

-Ha, amakingiz kelib qoldilar, - Obodxon ovsini uzatgan nonni olmadi:- kiring, o'zingiz olib kiravering.

Robiya kirib salomlashdi. Sattor u uzatgan nonlarni olib, bittasini sindirdi. Ibrohim Robiyadan hol-ahvol so'rayotganida Obodxon choynak ko'tarib kirdi. Suhbat qovushmay qoldi. Ibrohim u yoq-bu yoqdan gapiraverib toliqdi. Ro'parama-ro'para o'tirgan ikki ovsin bir-biriga tashlanishga shay g'animday ko'rindi ko'ziga. Ahvol Salohiddin aytganidan ham batarroq ekanini fahmladi. Robiya uzoq o'tirmadi, hovlidagi oshxonaga chiqib ovqatga unnay ketdi. Ibrohim xonasiga kirib ketgan Oftobxonni chaqirdi:

-Qizim, so'rini bir supurib yuborib, to'shak solib ber, tashqarida o'tiray, qishloqda ham uyda o'tirolmaydigan bo'lib qolganman, - dedi.

So'rida joy tayyor bo'lganda dasturxon yozdirmadi. Bu orada Nuriddin maktabdan kelib, unga ovunchoq topildi. Nuriddin Ibrohim opoqdadasini juda yaxshi ko'rardi. Otasi yoki onasi bilan qishloqqa borganida yayrardi. Xo'rozni ham shu opoqdadasini bergan edi. Ibrohim bolaning o'qishlarini so'rab-surishtirgach, o'zining peshonasiga yengil shapati urib qo'ydi.

-Esim qursin, senga yana ikkita xo'roz va'da qiluvdim-a? Mayli keyingi safar olib kelaman.

-Olib kelmang, opoqdada, - dedi Nuriddin.

-Nega?

Nuriddin Obodxon tomon qarab qo'yib, ovozini pastlatdi:

-Kennayim urishyaptilar.Buni ham so'yvorib, gumdon qilarmishlar.

-Yo'g'e, kennaying hazillashgan. So'yamaydi. Maktabdagi o'qishing tamom bo'lsa, seni qishloqqa olib ketaman. Uch oy biznikida turasan. Xo'rozvoyingni ham olib ketamiz. Dalada bi-ir yayrasin. Bu katalakda yuraklari siqilib ketgandir. U yerda kuchga kirib qaytib, shahardagi eng zo'r xo'rozga aylanadi. Uni urishtirib ko'rdingmi?

-Bir marta urishtiruvdim, oyim qulog'imdand cho'zdilar. Bemehr odamlar xo'roz urishtirarkan. Men mehribon bo'lishim kerak ekan.

Bu gap Ibrohimga ma'qul tushib, bolani quchoqlab oldi.

-Oying to'g'ri aytibdi. Odam degani mehribon bo'lmasa hayvondan farqi qolmaydi.

Bu dunyoni hademay tashlab ketadigan qariya bilan dunyo mashmashalaridan ajablana boshlagan bolakay shu tarzda huddi qalin birodarlar kabi suhbatlashib o'tirishdi. Amakisining yonidan joy olgan Sattor bu suhbatga qo'shilmadi. Ikki kelin ikki oshxonada ovqat tadorigi bilan band bo'ldilar. Robiyaning ovqati avvalroq pishib, uyga taklif qildi. Lekin Ibrohim unamadi. Taomni shu so'rida yeydigan bo'ldilar. Hammalari

o'rtada turgan so'ridan joy oldilar.

-Bir kelganimda adang rahmatli orzu qilgan edi, - dedi Ibrohim Sattorga qarab. - Chol-kampir o'rtada o'tiramiz. Bir tomondan katta kelinim, bir tomondan kichigi choy uzatib xizmatimizni qilishadi, devdi. Ozgina bo'lsa ham orzusiga yetdi. Mana endi kelinlarimning xizmatidan men bahramand bo'lib o'tiribman, Allohimga beaded shukur.

Bu gapdan keyin ovsinlar bir-birlariga ma'noli qarab qo'yishdi.

To'lqin va'dasiga vafo qilmadi: kunduzi kelolmadi. Boshqarmaga borib, kechgacha qolib ketdi. Uyga kelganida kechki taomni ham yeb bo'lishgan edi. So'ridagi dasturxon yig'ib oligan, Ibrohim qo'sh yostiqaqqa yonboshlab olgan edi. Qovusholmayotgan Sattorga: "olim odamning o'qishi ko'p bo'ladi, o'qishingni qilaver, men oyoqni uzatib, ozgina dam olaman", deb ijozat bergandi.

To'lqin kelgach, Robiya qaytadan dasturxon yozdi. Televizor ko'rayotgan Nuriddin chiqib, adasining yoniga o'tirib oldi. To'lqin hadeb qistayvergach, Ibrohim noiloj oshga qo'l uzatdi.

-Shaharning bitta yaxshi tomoni - pashsha kam, - dedi u, - qishloqda kunduzi pashsha, kechqurun chivin haydab osh yegandek bo'lmaysan.

Amakisining pashsha haqidagi gapi behos bir voqeani yodiga tushirdi.

Shu imorat qurilishi avjga chiqqan paytlar edi. Bu so'rining o'rnida omonat stol va taxta o'rindiqturardi. Hovli etagidagi chayla oshxona vazifasini o'tardi. Ovqat pishgan mahalda adasini ikki hamkasbi yo'qlab keldi. Onasi dasturxonni yig'ishtirib chetga qoqdi-da, yana qaytarib soldi. O'sha kuni ovqat kechroq qolib, aka-ukaning qorni ochib ketgan edi. Mehmonlar taxta o'rindiqtan joy olishgach, aka-uka kechagina somon suvoqdan chiqqan uyga kirib o'tirishdi.

Mehmonlar ovqalanishni boshlashganda Sattor piqillab yig'lay boshladi.

-Nega yig'layapsan? - deb so'radi To'lqin uni pinjiga olib.

-Qornim ochib ketdi. Qarang, ular ovqatning hammasini yeb qo'yishyapti.

-Jim tur. Yeb qo'yishmaydi. Oyimga "ovqat suzmang, qornimiz to'q", deyishdi-ku, eshitmadingmi? - deb ukasini ovutmoqchi bo'ldi To'lqin.

-Aldashdi, ana qarang, yana qoshiqni olishdi.

-Baribir hammasini yeyisholmaydi, kosada ovqat judayam ko'p. Jim tursang, hozir ketishadi.

Sattor akasining gapiga uncha ishonmay, battar piqillay boshladi. To'lqin uni quchoqlab yana ovutdi. Bolalarining ahvolidan bexabar Shavkat mehmonlar bilan boshlagan bahsini davom ettirardi:

-Yoq, men bunga baribir yoql qoya olmayman. Bu moddaning tarkibida zahar juda ko'p-, - dedi u, bosh chayqab.

-Ha, ko'p, buni hech kim inkor etmaydi, - dedi tepakal mehmon, - Lekin zahar miqdori ozgina kamaytirilsa ham, hasharotga ta'sir qilmaydi.

— Demak, ta'sir qilishning boshqa yoqlini topish kerak, - dedi Shavkat o'jarlik bilan

-Aytishga oson-, - deb gapga qo'shildi baqaloq mehmon. - Umuman, sizning bu o'jarligingiz hozirgi paytda mutlaqo o'rinsiz. Siz qarshi bo'lganingiz bilan bu dorilar baribir ishlab chiqarishga qo'yiladi. Chunki bu ishga Moskva qarshi emas.

-Ular albatta qarshilik bildirishmaydi. Qani, shu zaharni Moskva atrofiga ekilgan kartoshkalarga sepamiz, deb ko'ring-chi, nima deyisharkin?

-Bunga kartoshkaning nima aloqasi bor? - deb ajablandi tepakal mehmon.

-Ha, barakalla. Kartoshkaning ham aloqasi yoq, paxtaning ham. Gap shu ekinlarga sepiladigan doridan odamlarning zaharlanishida. Bu zahar hatto bir oylik homilaga ham ta'sir etishi mumkin, shuni hech o'ylamadilaringmi?

-Nega o'ylamas ekanmiz, odamlarga faqatgina siz qayg'urmaysiz. Dori sepilganda havfsizlik choralari ko'riladi.

-Havfsizlik chorasi?.. Hm... Bu choraga biron zavodda amal qilish mumkindir. Dalada sigirlarni bitta-bitta tutib qulog'iga "o'rtoq sigirjon, havfsizlik chorasiga amal qiling, bu o'qlarga zahar sochilgan, uni yemang, sutingizni zaharlamang", deb chiqasizmi? Yo dori sepilganidan keyin odamlar uch-to'rt kun qanoat qilib uylaridan chiqmay o'tiradilar, deb o'ylaysizmi? Kimyo odamzotni ezuvchi dushman emas, og'irini yengil qiluvchi do'sti bo'lishi kerak.

-Shavkatjon, siz bu balandparvoz gaplaringizni qo'ying. O'jarligingizni ham yig'ishtiring. Buning o'rniga uyingizni bitirib oling, doktorlik dissertatsiyangizning taqdirini o'ylasangizchi!

-Uy tiklanyapti, dissertatsiya himoyaga tayyor. Gapingizga tushunmadim: siz nasihat qilyapsizmi yo rahbarlarning po'pisalarini menga yetkazyapsizmi?

-Be, Shavkatjon, qo'ying, shu gaplarni, biz siz bilan masala talashgani kelmadik. Oshnachiligimiz hurmati "horma, bor bo'!"ga kelganmiz. Ishxonadagi majlislar jonga tekkan, oling, ovqat sovimasin.

Baqaloq mehmonning "ovqat sovimasin", degan gapidan keyin Sattor "ana, yana yeyishyapti-ku!" dedi-yu, ovoz chiqarmasdan astoydil yig'lay boshladi.

— Jim o'tirgin, hozir ketishadi, - deb ukasiga yalindi To'liqin. -Qornim ochib ketdi...

-Hozir non yeding-ku?

-Barbirgayam ochyapti, moshxo'rda ichgim kelyapti...

Shavkatning oqjarligimi sabab bo'ldimi yo bollarning baxtigami, har holda mehmonlar uzoq oqirishmadi. Shavkat ularni tuproq ko'chaga qadar kuzatdi. Bolalar esa uydan yugurib chiqishdi. Sattor kosalariga qaradi-yu, "Ana, siz meni aldadingiz, ovqat qolmabdi!" deb, endi ovoz chiqarib yiglay boshladi.

-Yiglayama bolam, qozonda ovqat bor, - dedi Farida uni bagriga olib, erkalab. So'ng qaytayotgan eriga qaradi:- Aksiga olib ovqat kam qilinganda mehmon keladi-ya. Tinchlikmi, adasi?

— Tinchlik. Oshga pashsha tushdi, boshqa gap yo'q. -Qani, pashsha? - dedi Sattor bu gapdan ajablanib.

— Hozir oying senga pashshasi yo'g'idan olib keladi, - dedi Shavkat bolaning soddaligidan kulib.

Farida qozonda qolgan moshxo'rdani ikki kosaga suzib olib keldi.

-Bu ozgina-ku? - dedi Sattor nolib.

Farida nima deyishini bilmay turganida To'liqin kosasidagi ovqatdan uch to'rt-qoshiqni ukasining kosasiga soldi...

Ovqatga qanday pashsha tushganini To'liqin keyinroq ulg'ayganida bildi. Adasining ilmiy ishiga qanday qarshiliklar bo'lganini onasidan eshitgan edi. Adasi ilmiy ishlari haqida unga gapirmasdi. Keyinroq "ilmiy izlanishlarimning merosxo'ri", deb Sattorga gapiradigan bo'lgandi.

To'liqin bu voqeani esladi-yu tomog'iga bir nima tiqildi. Bu dunyoning sho'rishlaridan amakisiga xasrat qilgisi keldi. Ba'zan yuragi siqilgan damlarda onasini, otasini qo'msardi. Ularga dardini aytgisi, maslahat so'ragisi kelardi. Dunyo ajoyibda! Ota-ona tiriklik paytida ularning nasihatleri, maslahatleri kishiga yoqmaydi. Keyin esa qo'msayveradi, qo'msayveradi...

Ba'zilar shunday hollarda najot tilab qabristonga ham boradilar. Ajab! Najotga zor murdalardan qanday najot bo'lishi mumkin?

To'liqin qoshiqni qo'yib, beixtiyor ravishda cho'ntagidan sigaret chiqarib labiga qistirdi. Shundagina amakisining ziyrak nigohiga ko'zi tushib, sigaretni qo'lga olib g'ijimladi:

-Uzr, amaki, - dedi hijolatlik bilan.

-Avval ko'rishganimizda "chekishni tashlayman", deb va'da beruvding?

-Va'da berish oson-ku... - To'liqin shunday deb hazin jilmaydi, - bajarish qiyin ekan.

-Adangning irodasi ham bo'sh edi. Erkak odam bir gapli bo'lishi kerak. To'ng'iching oqishni bitiray deyaptimi?

-Xudo xohlasa bir-ikki oydan keyin tugatadi.

-Shu bolangni qishloqqa ishga yuborsang boqarlardi. Oqsha yoqda uylantirardik. Adangga atalgan uy shundayligicha turibdi.

-Nevara kelinni oqsha uyga tushiring, deganman-ku?

-Yoq-oq, u uy adangga atalgan edi. Demak, endi senlarniki. Akamning qaysi nevarasi boqlsa ham bir kunmas bir kun borib, yashaydi. Agar milisa oqgolingni yubormasang, manavi qoqzivoyim albatta boradi. Bu bolangda dalaga mehr bor. Buning boshqacha, menga oqxshayapti. Xoq desang, ertagayoq olib ketardi. Oqzim tarbiyalab, katta qilib olardim.

-Mayli, faqat maktbini shu yerda bitirib olsin.

-U yoqdagi maktabni nazarga ilmaysan, a? Adang oqsha yoqda oqqisa ham olim boqilib ketdi-ku? Sen shaharda oqqib nima karomat koqrsatding?

Toqlin gap mavzuini burish maqsadida Robiyani chaqirib, laganni uzatdi-da, amakisiga qarab:

-Bu yerda yotishingiz gqalati boqlyapti. Uyga kiraylik, - dedi.

-Yoq, bunaqa soz havoni qoqyib, uyda yotish men uchun zindonga tushish bilan barobar, qoqy jiyan, meni zoqlama.

-Unda menam chiqib yotay.

-Yoq, senlar nozik odamsanlar. Pashshaning qanotidan chiqqan shabadagi ham shamollaysanlar. Uyingda yotaver. Qoqzivoy, koqzing yumilib ketyapti, senam kira qol.

Nuriddin oqrnidan turib opoqdadasini quchoqladi-da, soqridan tushib, uyiga kirib ketdi. Toqlin joyidan jilmadi. Amakisini boqlayotgan voqealardan xabardor qilishni ixtiyor etdi-yu, biroq gapni nimadan boshlashni bilmay qiynaldi. Jiyanining ahvolini sezgan Ibrohim uning mushkulini oqzi oson qilib qoqya qoldi:

-Juda shashting past, ukang hovlini boqlmoqchimi?

Bunday savolni kutmagan Toqlin bir seskandi, yalt etib amakisiga qaradi:

-Sezdingizmi?

-Bu sezilmasdan qoladigan ish emas, jiyan. Ammo yaxshi boqlmabdi.

-Ukamga nasihat qilib qoqyasizmi?

-Senam, ukang ham nasihat qilish yoshidan oqtgansanlar. Aqlni ishlatish kerak. Har qanaqa holatda ham murosaga kelsa boqladi. Ilgarigi zamonlarda odamlar mol-hol kirib ekinni payhon qilmasin, deb devorni oqylab topganlar. Keyin-keyin devor odamlarni odamlardan ajratadigan boqlidi. Endi akani ukadan ajratyapti... Bu gqisht devorga

chidasa boqlar, vaqti kelib yo ozi yemirilar, yo boshqa bir sabab bilan olib tashlanar. Lekin aka bilan ukaning yuraklari orasiga devor tushsa yomon... juda yomon... Hovlini gisht devor ajratsa, yurakni bemehrlik devori parchalab tashlaydi. Bilib qoqlaring: bu devor ko'ngillaringga picha orom berganday boqlar-u, ammo qiyomatdagi javob og'ir kechadi. Shuni ikkovlaring bir aqllashib ko'ringlar. Xudodan qo'rqmasalaring, qiyomatdan qo'rqmasalaring, hech bo'lmasa bolalaringdan uyalinglar.

-Men tushunib turibman. Bu tashabbus mendan chiqmadi. Hozirgi gaplaringizni ukamga ham ayting.

-Aytdim, bundan battarroq qilib aytdim, aqli bo'lsa tushunib olar. Shariatda bir masala bor, anglab olishinglar kerak. Ota-onadan keyin mulk vorislar orasida bo'linadi. Aslida ota-ona o'limidan oldin vasiyat qilishi kerak. Merosxo'rlar esa bu vasiyatga bo'ysunishlari shart. Kimki vasiyatni o'zgartirsa gunohkor bo'ladi. Adang rahmatli shariat yo'lini tan olmay yashadi. Vasiyat ham qilmadi. Senlar ham shariat yo'lini bilmaysanlar. Shuning uchun boshlaringga bunaqa g'am-tashvishlar tushyapti. Adang rahmatli vasiyat qilmasa ham bu ikki uyni ikkoving uchun atab qurgan. Shu niyatni balki vasiyat o'rnida qabul qilarmiz. Sen yashayotgan uyda ukangning haqqi yo'q, ukang yashayotgan uyda sening haqqing yo'q. Adangdan boshqa boyluk qolmagan, bo'linadigan narsaning o'zi yo'q. Hovlini bunaqa qilib bo'lib olinishi, aka-ukaning yuzko'rmas bo'lib yashashi esa shariatga zid. Sen - akasan. Zimmangdagi burch ulug'roq, javobing ham shunga yarasha bo'ladi. Uka to'g'ri yo'ldan chiqsa, aka ham aybdor, gunohdan o'zimni chetga olaman, deb ovora bo'lma.

Boshini egib o'tirgan To'liqin bu gaplarni eshitdi-yu, indamadi. Xayolidagi gaplar ayqash-uyqash bo'lib ketdi. Chuqur "uf" tortdi. Boshini ko'tarib, beixtiyor ukasining uyi tomon qaradi. Deraza pardasi ortida Obodxonning turganini ko'rib:

-Ukamga gapirganning foydasi kam, hamma balo ana unda, - dedi.

Ibrohim uning kimni nazarda tutayotganini bilib:

-Gap faqat o'shanda bo'lsa muammolaring bunchalar og'ir bo'lmas edi, - dedi tagdor ohangda. - Endi kirib yot, menam hordiq chiqaray.

To'liqin noiloj ravishda o'rnidan turdi. U ukasining ayvoniga qaraganda Obodxon chindan ham deraza yaqinida turgan edi. Hovlidagilarning gaplarini eshitishga harakat qilsa ham, qulog'iga g'o'ng'ir-g'o'ng'irdan boshqa narsa kirmay, g'ashini keltirayotgan edi.

-Nima qilib turibsan u yerda, qochsang-chi? - dedi ichkari uydan chiqib kelgan Sattor. - Amakimning gaplariga tushundingmi? Devor urmoqchi bo'lганиmizni sezganlar.

-Uyda o'tirib-o'tirib shu gapni o'ylab topdingizmi? - dedi Obodxon unga yaqinlashib. - Sezsalar nima bo'libdi? Ana, jijanlariga nasihat qilib qo'ysinlar. Bu yerda turmay, chiqing tashqariga.

-Nega?

-Chiqing degandan keyin chiqing. Amaki-jiyan boyatdan beri nimalarni visirlashyapti. Bir nimaning igʻvosini qilishayotgandir balki? Lalaymasdan dadil-dadil gapiring. Odamlar bizni ayblab yurishmasin. Turing, ana, akangiz uyga kirib ketyapti.

-Qoʻy. Kech kirganda gapiradigan gapmas. Amakim dam olmoqchilar.

-Voyey! Bunaqada ogʻzingizdagi noningizni ham oldirib qoʻyasiz!

Kunduzi gʻisht ortilgan mashina darvoza yonida toʻxtaganida iblis oʻzini dunyodagi eng baxtli maxluqlardan hisoblagan edi. Ammo dam oʻtmay katta koʻchada Ibrohim koʻringach, “barcha harakatlarim endi meva beray deganda bu kelib sovurib ketadimi?”deb talvasaga tushdi. Kim boʻlsa boʻlsin, yuzidan iymon nuri porlab tursa iblis talvasaga tushaveradi. Usta Umar qorining tarbiyasini olgan Ibrohim iblisning umidlarini sindirib tashlashi mumkin edi. U bir Obodxonning yelkasiga qoʻnib, bir Sattorga vasvasa qilib ularning chekinishiga yoʻl koʻymadi. U Ibrohimning aka-ukani yuzma-yuz qilib gapirishini kutgan edi. Nazarida bu hol u uchun kechirib boʻlmas magʻlubiyat edi. Lekin Ibrohim boshqa usulni maʼqul koʻrib, unga shodlik baxsh etdi. Ibrohim aytilgan ibratli gaplar kifoyadir, deb yanglishdi. Ibratli rivoyatlar mavjud iymonga quvvat beradi. Iblis botqogʻini haqiqat deb anglovchi aka-ukalarning hali bu martabadan ancha yiroq ekaniliklarini u anglamadi.

Iblis havotiridan butunlay qutulmagan boʻlsa-da, tuni bilan bazm qilib chiqdi. Tong saxar Ibrohim bu xonadonni tark etganida uning bazmi sadolari koʻklarga yetdi.

Toʻlqin uyiga kirib ketgach, Ibrohim aka-ukani murosaga keltirish yoʻllarini oʻylab yotdi. Qancha oʻylamasin xayrli oqibatga olib boruvchi yoʻlni koʻrmadi. Bunaqa paytda hamma nasihat qiladi. Aka-ukalar yoki opa-singillar bu nasihatlarini eshitgilari ham kelmaydi, aksincha oʻzlarini oqlab qarshi tomonni balchiqqa bulashga intilaveradilar. Hech birlari “shu odam menga yaxshilik istab gapiryapti, darrov rad etmay oʻylab koʻrayin, bugunim uchun ham, oxiratim uchun ham foydasi tegib qolar”, deyishmaydi. Yaxshilik umididagi muzokaraning avvalida aka-ukalar yoki opa-singillar kibr, igʻvo, riyo, tuhmat botqogʻiga tizzaga qadar botgan boʻlsalar, oxirida boʻgʻizlariga qadar botib ketadilar. Hovli-joyni sotib, pulini boʻlishadilar yoki oʻrtadan devor oladilar. Bu devor iymonsizlikka qoʻyilgan haykal boʻlib tiklanadi. Hovlini boʻlmaslikka daʼvat qiluvchi soʻzlar shu paytgacha yaxshi natija bergan emas. Shu bois ham Ibrohim jiyanlarini yuzma-yuz qilmadi.

Allamahalda koʻzi ilindi. Tushida qishloq qabristonida yurganmish. Onasi bilan akasi goʻr qazdirib uni kutishayotganmish.

-Aka, siz bu yerda nima qilib yuribsiz? - deb soʻrarmish Ibrohim.

-Oyimni koʻrgani keldim, qara, senga chiroyli goʻr qazdirib qoʻydim-dermish Shavkat.

-Men hali oʻlganim yoʻq-ku, jonim chiqqungacha bu goʻr ogʻzini ochib yotadimi, koʻmdirib tashlang, - dermish Ibrohim.

-Turaversin, - dermish akasi, - joyni boshqalar egallab olishadi. Bu adamniki, bu

oyimniki... Bunisi seniki.

-Adamniki bu yerda emas-ku?

-Olib keldik...

-Buni ko'ndirib boshqa qazitamiz. Men adam bilan oyimga orqa qilib yotolmayman...

Ochiq go'rdan bir tutun ko'tarilib, Ibrohimning ko'zlarini achishtirib yuborganmish. Ko'zlarini uqalab ochsa, akasining hovlisida, so'rida yotganmish. Tepasida onasi turganmish.

-Oyi, bu yerga qanday kelib qoldingiz? Tirikligingizda bu uy yo'q edi-ku? Qanday topdingiz?

-Men har kuni shu yerdaman. Akang jon talvasasida yotganida ham tepasida edim. Og'riqni qoldiradigan dorilardan emlab turishardi. Men Xudoga sig'inardim: "bolamga berayotgan azobingni menga ber", derdim. Akang jon bergunicha men ming martalab jon berdim, bolam.

Ibrohim unga qo'lini uzatdi. Lekin onasi chekindi. Chekina-chekina zulmat qa'riga singib ketdi.

-Oyijon, to'xtang, birga ketamiz!-deb baqirmoqchi bo'ldi Ibrohim. Lekin ovozi chiqmadi.

Hozirgina onasi turgan yerda akasi paydo bo'ldi.

-Ha-a, o'zingiz keldingizmi? - dedi Ibrohim. - Gapimni qarang, "keldingizmi?" debman. Hamisha shu yerdadirsiz? Ahvolni ko'rdingizmi? Men ketganimdan keyin bu yerga devor uriladi. Indamaysizmi? Endi chidaysiz. O'zingiz pishirgan osh...

-Ketma, ukajon, ularni murosaga keltir.

-Bu mening ko'limdan kelmaydi. Men hozir turamanu ketaman. Ular shundan xulosa chiqarib olishadi...

Shunday deb uyg'onib ketdi. Tun yarimlagan edi. Tahorat olib tahajjud namozini o'qidi. "Jiyanlarimni shayton makridan, vasvasasidan O'zing qutqar, ularga hidoyat ber", deb Allohga munajat qildi. So'ng yelkasiga og'ir bir dardni ortgan holda bu xonadonni tark etdi.

Yana bir mashina arzon g'isht uchragach, arzon-garovga terib beruvchi ustalar ham topildi-yu, hovlida ish boshlandi.

Bu hovliga tashvish bilan shodlik bir kunda kirib keldi. Robiya Bahriddinning kelishiga chiroyli dasturxon bezash niyatida yarim kechagacha tinmadi. Turli shirinliklar pishirdi. Saxar turib chala ishini davom ettirdi. Salohiddin kutib olishga chiqolmasligini aytib uzr so'ragan edi. Nuriddin "akamni kutgani chiqaman", deb xarxasha qilib maktabiga

bormadi. Toʻlqin kiyinayotganda Sattor usta bilan ikki mardikorni boshlab kirib keldi. Oshxonadan shoshib chiqayotgan Robiya ularni koʻrib “kim ekan?” deb ajablanib qaradi.

-Xoʻjayiningiz ketganlari yoʻqmi? - deb soʻradi Sattor zina oldida toʻxtab.

“Xoʻjayiningiz?”

“Akam” demay “xoʻjayiningiz” deyishi Robiyaga malol keldi. “Endi “akam” deyishga ham orlanadigan boʻlib qoldilarmi?” deb ogʻrindi. Boshqa payt boʻlganida ehtimol qaynisiga tanbeh berardi. Hozir begonalar oldida, yana xursandchilik kunida mashmasha boshlanishini istamadi.

-Akaniz uydalar, kiyinyaptilar. Bugun jiyaningiz keladigan, kutgani ketyapmiz, - dedi.

Sattor “hayriyat, eson-omon kelyapti ekan”, deyishni xayoliga ham keltirmadi. Uning oʻrniga darvozaxona oʻrtasiga qoqilgan qoziqni koʻrsatib:

-Xoʻjayiningizga ayting, chiqib koʻrsinlar, devor shu yerdan olinadi, keyin gap-soʻz boʻlib yurmasin, - dedi.

Qoziqni hozir chiqib koʻrish shart emasdi. Kecha oqshomga yaqin qaynisi bilan ovsini hovlini oʻlchab, qoziqni qoqishayotganda Robiyaning koʻzlariga yosh kelgan edi. Goʻyo qoziqni yerga emas, uning qalbiga qoqishgan edi. Bundan erini xabardor qilish maqsadida telefon goʻshagini koʻtargan, lekin buning foydasizligini bilib, fikridan qaytgandi. Toʻlqin darvoza ostonasini hatlab kirganidayoq qoziqqa koʻzi tushib toʻxtab qolgan edi. Erining bu holatidan Robiya havotirlanib, shoshilganicha uni qarshilagandi.

Toʻlqin Robiya aytmasa ham ukasining gaplarini eshitdi. Chiqib soʻkib bergisi, hatto urgisi keldi. Agar shunday qilsa mahalla erta-indin faqat uni ayblagan boʻlardi. Shu bois oʻzini tutdi. Baxtiga Robiyaning oʻzi javob qilib qoʻya qoldi:

-Devorni qayerdan olsangiz olavering. Bu ishni siz boshlayapsiz, hamma ixtiyor oʻzingizda, - dedi. Yigʻlab yubormaslik uchun boshqa gapirmadi.

Bu orada telefon jiringladi keyin Obodxonning ham quvnoq, ham dadil ovozi yangradi:

-Ha, aylanay opovsi, sizmisiz? Voy, mehribonimga girgitton boʻlay. Mullajiring bor joyda pishmaydigan ish boʻlarkanmi? Molni kecha olib chiqqanman. Lekin oldingi narx sal oʻzgardi-da. Qiziqsiz-a, narxini oshirmasam, shuncha harajatimni kim qoplaydi. Oʻzingiz bilasiz, olsangiz oling, opovsi, xohlamasangiz boshqa xaridorlarim bor.

Robiya uydan hammadan keyin chiqdi. Eshikni yopib zinadan tushmoqchi edi, Toʻlqin “Eshikni qulflamaysanmi?”, deb uni toʻxtatdi. Ularning eshigi shu paytgacha qulflanmagan edi. Erining jiddiy boqib turishi Robiyani gangitib qoʻydi. Hovlida begonalar borligi uchun qulflatmoqchimi yo bundan keyin hamisha shunday boʻladimi? Robiya ichkariga kirib kalitni topib chiqqunicha ozgina vaqt oʻtdi. Toʻlqin uni kutmay, oʻgʻlini boshlab koʻchaga chiqib ketdi. Kalitning buralishi oson boʻlmadi. Robiya

ham bundan, ham ruh azobidan qiynalib, ko'zlariga yosh oldi.

Bahriddinni kutib olishgach, To'liqin ishga borishini shartligini bahona qildi. Yo'lovchi mashina to'xtatib, ularni kuzatib qo'ydi. Quvonchi osmonga sig'may qaytayotgan Bahriddin ota-onasining chehrasidagi ma'yuslik soyasini ilg'adi. Garchi To'liqinning ham, Robiyaning ham lablarida kulgu bo'lsa-da, qalblari g'am iskanjasida ekanini yashirishga qodir emasdilar.

Bahriddin uyga kelguncha ukasining savollariga javob berish bilan band bo'ldi. Robiya ularning shirin suhbatlarini hazin jilmaygani holda tinglardi.

Bahriddin ostona hatlab o'tdi-yu, reja tortib g'isht terishni boshlagan ustalarga ko'zi tushib, savol nazari bilan onasiga qaradi. Robiya "uyga kiraver, keyin tushuntirib beraman", degan ma'noda uni yelkasidan asta ushladi. Indamay o'tib ketgisi kelmay ustalarga "Hormanglar", deb ko'ydi. Obodxon ayvon derazasidan ularni ko'rdi-yu, o'zini darrov ichkari oldi. Bahriddin unga salom berishga ham ulgurmadi.

Hovlida ish boshlangani uchun Robiya joyni ichkari uyga qilgan edi. Kirib, fotiha o'qishgach, o'g'lini yana bir borquchib o'pdi.

-Yo'lda qiynalmadingmi? - deb yana so'radi.

Bu savolga yo'l-yo'lakay ikki marta javob bergani uchun Bahriddin o'z savolini so'radi:

-Oyi, devor urilyaptimi?

-Ha o'g'lim, sen borib kelguningcha shunaqa ishlar bo'lib ketdi, - dedi Robiya afsus bilan.

-Bizqilyapmizmi?

-Nega unaqa deysan? Bizga shu zarilmi?

-Unda... amakimmi? Nega indamadinglar?

-Bizning indaganimizdan foyda bormi? Balki shunday bo'lgani ham durustdir. Sen...

-Aralashma, demoqchimisiz?

-Yo'q, unaqa demoqchimasman. Sen bu narsalarga e'tibor bermay qo'ya qol. Kattalar ba'zan shunaqa o'ylamasdan ish qilib qo'yishadi. Senam, akang, ukang ham buni ko'ringlaru lekin... o'rganmanglar.

-Oyi, amakim bilan kennoyimga sovg'a olib keluvdim. Nima qilay?

-Nima qilarding? Hozir chiqib kennaying bilan so'rashgin, sovg'angni bergin.

-Qanday chiqaman? Gaplashmayotgan bo'lsalaringiz...

-Nega gaplashmaymiz? Gaplashamiz, - dedi Robiya uning boshini mehr bilan silab. - Urishganimiz yoʻq. Urishib yuzkor mas boʻlib ketmaslik uchun ham shu devor boʻlgani durustmikin, deya pmanda...

Shunday deyishga dedi-yu, oʻzining gapiga oʻzi ham ishonmasdan xoʻrsindi. Ichida toʻplanib yotgan dardning yigʻi boʻlib tashqariga otilib chiqmasligi uchun oʻzini tutdi. Yigʻilashi shart ham emasdi. Onasining shu xoʻrsinishiy oq ziyrak oʻgʻil uchun kifoya qildi. Amakisini ham kennoyisini ham koʻrgisi kelmadi. Biroq, onasining zoʻri bilan chiqib, salomlashib keldi.

Kechki payt oila dasturxon atrofida jamul jam boʻldi. Robiya qaynisi bilan ovsinini ham taklif qildi. Biroq taklifga u tomondan lutf boʻlmadi. Salohiddin ovqatdan keyin yana uzr soʻrab ketdi. Bahriddin safar taassurotlarini gapirayotganda Toʻlqin ham, Robiya ham dardlarini bir oz unutdilar. Bahriddin olib kelgan videotasmani ikki marta tomosha qildilar.

Tun hukmiga hamma itoat etsa-da, Bahriddin boʻysunmadi. Tashqariga chiqdi. Ikki qarich balandlikka koʻtarilgan devor ustiga oʻtirdi. Qalbiga maʼyus bir kuy oqib kira boshladi.

Bir tom ostidagi ikki xonadon orasidan ola mushuk oʻtganini u ham sezib yurardi. Ammo bunaqa oqibatga olib kelishini oʻylamagandi. U hovlini boʻlib olgan aka-ukalar haqida eshitardi. Lekin bu balo chaqinining shu hovliga kirib kelishini hazm qila olmasdi. Uning nazarida hovlini boʻlib oluvchi aka-ukalar oʻqimagan, ongsiz, johil kimsalar edi. Adasi va amakisi oʻqigan, tushungan odamlar boʻla turib nahot bunchalik pastkashlikka borishdi? Bahriddin shunisiga hayron edi.

Bu yerda qancha oʻtirganini bilmaydi. Maʼyus kuyga monand bir necha satrlar xayoliga quyila boshlagach, oʻrnidan turib xonasiga kirdi-da, qoʻliga qogʻoz qalam oldi.

Uning shoshilib yozgan satrlarini ertalab Robiya oʻqidi:

Bu satrlarning oxirini oʻqiyotganda Robiyaning kipriklari quyilib kelayotgan yoshlarni toʻsib qolomadi. Ikki tomchi yosh qogʻoz ustiga yumaladi. Robiya oʻgʻilini uygʻotib yubormaslik uchun qogʻozni joyiga qoʻydi-da, asta-asta yurib xonadan chiqdi.

Milliy konservatoriyada Bahriddinni qutlash marosimiga borgan Toʻlqin ham, Robiya ham quvonchning yettinchi osmonida suzardilar. Marosimdan chiqishgach, hammalari ham homush tortganday boʻldilar. Hatto Nuriddinning ham uyga borgisi yoʻq edi. Toʻlqin buni sezib, biron holiroq joyda ovqatlanishni taklif qildi. Anhor sohilidagi soʻlim oshxonada oila shiringina davra qurdi. Boshlari ustida suzib yurgan tashvish buluti ham qayerdadir qolib ketganday boʻldi. Bu davra oilaning oʻziga hos bayrami edi. Bu bayramga, Toʻlqinning taʼbiri bilan aytganda, faqatgina Nuriddinning xoʻrozi yetishmayotgan edi.

Ular quvna boʻtirishgan damda Obodxon tashvish tikonzori uzra yalangoyoq kezardi. Roʻparadagi uyda hech kimning yoʻqligi, hammalarining birvarakayiga koʻrinmay qolishlari uni havotirga solayotgan edi. Odatda odam “yaqinlarim biron falokatga

uchramadimikin?” deb havotirlanadi. Obodxonning havotiri boshqacharoq: uning nazarida bularning barchasi devorni yoq qilish chorasi bilan band, hammalari qayerdadir nimanidir kavlashtirib yurishibdi. Egalari boqmagani uchun xoqroz ham jim. Obodxon hatto shundan ham shubhalandi. Toqinqin boshchiligidagi oilaning xursandchilik bilan kirib kelishi uning havotirini yanada oshirdi: “bular bekorga quvonishmaydi, bir baloni boshlab kelishgan!” Shu xulosaga kelgan Obodxon erini qiyinqistoga olib, qovura boshladi.

Bir oz televizor koqishgach, uch oqgil oqz xonalariga kirib ketishdi. Nuriddin tezgina uxlab qoldi. Salohiddin bilan Bahriddinning hovli muammolaridan gaplashgisi kelmadi. Uyqulari kelmasa ham yotdilar. Bir necha soatlik oila bayramining nihoyasiga yetganidan siqilgan Toqinqin tashqariga chiqib, zinaga oqtirdi. Sigaret tutatdi. Xayollari uni dam bolalik, dam yoshlik koqchalariga yetakladi. Sogqinch ba’zan kishi ruhiga quvvat beradi, ba’zan esa temir tirnoqlari bilan yumdalab tashlay deydi. Toqinqin hozir shunday holatda edi. U hozir bir moq’jiza yuz berishini, ota-onasining shu yerda paydo boqilib qolishlarini jon-joni bilan istardi. Adasi avval uning, keyin ukasining yuzlariga shapaloq bilan ursada: “Bu nima qilganlaring esi yoqlar!” deb koyib bersa! Keyin gqishtlarni har tomonga otib tashlasa...

Moq’jiza yuz bergandi...

Lekin Toqinqin uni koqra olmas edi.

Bu damda otasi va onasining ruhlari kirish uchun izn soqrashga iymangan musofirday darvoza ostonasida turishardi.

Ular dam farzandlariga, dam tiklanayotgan devorning ikki tomonidagi ikki uyga ma’yus tikilardilar.

Toqinqin uyga kirib ketgach, ular asta yura boshlashdi.

-Adasi, devor mashmashasi bilan ovora boqilib, farzandlarimiz bayramimizni unutishdi, - dedi Faridaning ruhi.

Bunga javoban Shavkatning ruhi afsus va nadomat bilan chuqur xoqrsindi.

Ha, bu kun ularning xonadonida alohida bayram boqlardi. Bu bayramni Shavkatning oqzi joriy qilgandi. Toqylari kuni, chimildiqda yolgqiz qolishgach, Shavkat Faridani bagqriga bosib, xuddi muhim bir sirni aytmochiday qulogqiga shivirlagandi:

-Hech qachon yodingdan chiqarma: oqn ikkinchi may - biz uchun bayram kuni deb e’lon qilinadi. Biz oqtib ketsak ham farzandlarimiz, nevaralarimiz tantana qilaverishadi. Toqy shunchaki oqyin-kulgi bilan oqtadigan voqea emas, bugun - oilaning tugqilgan kuni, buni unutib boqlmaydi...

Shavkat aytganday boqilib kelayotgan edi. Devor qurilishi bu bayramni ham barbod qildimi?

Oqshanda shivirlab aytilgan Shavkatning soqlari endi jaranglab, uy devorlariga urilib,

aks-sado berganday tuyuldi. Aslida bu soʻzlar tantavor yangrashi kerak, hozir esa alamli faryod ohangida olamni titratganday boʻldi.

-Adasi, endi bunga qanday chidaymiz? Qiyomatga qadar shu azobda yuramizmi? - dedi Faridaning ruhi.

-Bilmadim... Tushunolmayapman... - dedi Shavkatning ruhi “uf” tortib. - Murakkab masalalarni yechishga yetgan aklim shunga qolganda kaltalik qilyapti. Muammoning yechimini topish uchun avval uni yuzaga keltirgan omilni aniqlashim kerak.

-Siz yechimni topguningizcha devor bitadi. Biz ikkala farzandimizdan baravariga ajraymiz. Omilni qidirmang. Omil aniq: biz bolalarimizni oʻqitib odam qilamiz, dedik. Yaxshi oʻqishlarini talab qildik, yaxshi kiyintirdik, yaxshi boqdik. Bir-biriga mehr-muruvvat qilish kerakligini singdirmagan ekanmiz.

-Sen meni ayblayapsanmi?

-Yoʻq, bu ishda ikkalamiz baravar ayblimiz. Devor urishlariga yoʻl qoʻymasligimiz kerak.

-Qanday qilib? Umidim Ibrohimdan edi. Ajrim qila olmadi. Mening qoʻlimdan nima kelardi?! Imkonim boʻlsa bu la'nati gʻishtlarni mana bunday-mana bunday qilib otib tashlardim.

Bu onda ikkinchi moʻjiza yuz berdi: Shavkat ushlagan gʻisht oʻrnidan koʻchdi. Bundan Shavkat ham Farida ham choʻchib tushishdi. Keyin Shavkat yana bir gʻishtga koʻl uzatdi.

Bu hovliga devor qurilishini iblis istagan, ammo Alloh iroda etmagan edi. Hozir gʻishtlar Shavkat ruhining kuchi bilan emas, yagona Kudrat egasining istagi bilan koʻchib, otilayotgan edi...

Bu tong xoʻroz qichqirmadi. Katagida hurpayganicha turaverdi. Bulut farishtasiz bu xonadonga quyosh nurining tushishini istamaganday mashriq yuzini toʻsdi. Yashin chaqnab osmonni ikkiga boʻldi. Boʻlinish sharmandaligiga chiday olmagan osmon guldirak ovozi bilan oʻkirib yeru koʻkni larzaga soldi. Keyin tunuka tomlarni qarsillatib doʻl yogʻa boshladi. Bu xonadon ahli uygʻonganida osmonning faryodi bosilgan, ammo quyosh yuzini toʻsgan qaysar bulut oʻrnidan jilay demasdi.

Odatdagiday birinchi boʻlib Robiya uygʻondi. Yuvinib oshxonaga kirayotganida sochilib yotgan gʻishtlarga ahamiyat bermagan edi. Uyga qaytayotganida koʻrib, taqqa toʻxtab qoldi. Yuragi bir qalqib tushdi. Keyin uyga shoshib kirib erini uygʻotdi-da, ayvonga boshlab chiqdi.

-Bolalar qilishmadimikin? Uygʻotaymi, oʻzingiz gaplashing.

Toʻlqin hovlidagi manzaraga ajablanib qarab turib, gardanini qashigan boʻldi. Tayinli bir xulosaga kelolmay:

-Jim turaver-chi, - debqoqydi.

* * *

Koq p oqtmay Obodxon ham uygqondi. Ayyonda turib bir kerishib olgach, rohatlanib esnadi. Tashqariga chiqdi-yu, hali uyqu toqla tark etmagan koqlari katta-katta ochilib ketdi. Shoshilib iziga qaytdi-da, erini turtib uygqotdi. Hovlidagi manzarani koqrib Sattor ham bir zum taxtaday qotib qoldi. Keyin “Bu kimning qiligqi?” degan ma’noda xotiniga qaradi. Obodxon javobga shay edi:

-Bu jiyanelaringizning ishi. Kechqurun anavi naychingiz ivirsib yuruvdi. Koqnglida shumligi borligini biluvdim. Akangizga ayting, ustalarning kechagi haqini toqlab qoqysin. Chidolmayotgan boqlsa, mahallaga chiqsin.

-Mahallani aralashirma. Gap koqpaymasin, - dedi Sattor.

* * *

Robiya nonushta tayyorlagach, oila yana jam boqli. Bolalar ham hovlidagi manzarani koqrishib ajablanishgan, lekin bu haqda gap ochishni lozim koqrmay indamaygina choy ichishardi. Bunaqa jimlikdan Robiyaning yuragi tars yorilib ketay dedi. Eriga bir-ikki qaragan edi, Toqlqin “gapirma” degan ma’noda ishora qildi. Gapirmaslikning esa iloji yoq edi.

-Bahridin, buguncha dam olasanmi?

Kecha oqshomda ham “ertaga uyda boqlasanmi?” deb soqragan edi. Shu sababli Bahridin onasiga ajablanib qaradi, lekin “kecha aytduvdim-ku!” deb koqrslik qilmay, javobini takrorladi:

-Vazirlikka borishim kerak, chaqirtirishgan.

Yana jimlik choqkdi. Robiya endi kenjatoyiga qaradi:

-Nuriddin, gqishtlarni koqrdingmi, kim bunaqa qildiykin?

Nuriddin bu savol ostida “sen qildingmi?” degan ma’no yotganini anglab, najot koqzi bilan adasiga qaradi. Toqlqin norozi qiyofada bosh chayqab qoqydi. Robiya buni sezmaganday oqglidan javob kutdi.

-Oyi, Nuriddin bilmaydi, - dedi Salohiddin gapga aralashib. - Kechasi qotib uxlagan. Bizdan ham gumonsiramang, biz ham tegmadik bu gqishtlarga. Agar “oqgqillarim shunaqa ahmoq boqlib qolishgan”, deb oqylasangiz, yana oqzingiz bilasiz.

Oqgqlining keyingi gapi Robiyani mulzam qildi:

-Voy tavba, gapingni qara! Senlarga bir nima deganim yoqku?

-Demasang ham koqlzaring aytib turibdi, - dedi Toqlqin.

-Men bilaman, - deb yubordi birdan Nuriddin. - Oftob opam qilganlar. Oqtgan kuni kennayimga baqirdilar. “Agar devor qursanglar oqtim buzib tashlayman yo oqtimni osaman”, dedilar.

-Tavba, tavba-ya! Gapirma bunaqa gaplarni!-dedi Robiya.

-Bunaqa ish Oftobning oqlidan kelmaydi, - dedi Salohiddin.

-Nima boqliganda ham amakim bizlardan koqladilar. Lekin biz qilmaganmiz, - dedi Bahridin.

-Shunaqa-yu... lekin ularni bunga ishontirib boqlarmikin?

-Sen ishontirishga harakat ham qilma, - dedi Toqlin. - Indamay oqtiraver.

-Sizga shunday deyish oson. Hozir hammangiz ketasizlar. Baloga men qolaman.

-Gapirsa ham sen “bilmayman” deginu boshqa indama...

“indama... indama... endi bu dunyodan indamaygina oqtib ketaman shekilli...”

Robiya xayoliga kelgan bu gapni tiliga chiqarmadi, eriga e'tiroz bildirmadi.

Ayni damda narigi ayvonda ham nonushta qilishayotgan edi. Salohiddin bilan Bahridinni kuzatib chiqqan Robiyaga koqli tushgan Obodxon beixtiyor qizlariga qaradi: ikkovining aka-ukaga tikilib turganini koqlib gqlashlandi-da, zardali ohangda:

-Oftob, bugun maktabga bormaysan, - dedi. - Men bozorga chiqishim kerak. Ustalarga sen ovqat qilib berasan.

-Bormasam ustozdan gap eshitaman.

-Ustozing gapiraveradi. Koshki shu maktabda oqliganlardan biron tuzukroq odam chiqsa.

-Oqlishiga boraversin, ustalarga oqtim qarayman, - dedi Sattor.

-Siz mijozlarga mol olib borib berasiz. Xitoyga qatnaydiganlar bilan qachon gaplashasiz? Bugun-erta deb yurguningizcha ular ming marta borib-kelishadi.

-Ayb mendami? Pulga qarab turuvdik-ku?

-Bahona topib oqtiravering... -Shunday deb choy hoqlplaomqchi boqlgan Obodxon birdan qalqib ketdi:-Hay, turing, turing, deyapman!

-Nima boqli, nega vahima qilasan? - dedi Sattor.

-Tura qoling, akangiz ketmoqchi. Shartta-shartta gapiring. Yo xotin boshim bilan men

aralashaymi?

-Sen jim tur, - Sattor shunday deb ayvon derzasini ochdi:-Aka, bu yog□i qiziq bo□ldi-ku?

Bu gapdan keyin Oftobxon jahl bilan shart o□rnidan turdi-da, xonasiga kirib ketdi.

Darvozaga yetib qolgan To□lqin ukasining ovozini eshitib, to□xtadi. Salom-aliksiz shunday savol berilishi uning jahlini qo□zg□adi. Lekin tushunmaganday ukasiga qarab turaverdi.

-G□ishtlarni aytyapman, - deb izoh berdi Sattor.

-G□ishtlarga nima bo□libdi? - dedi To□lqin hanuz hech nimaga tushunmayotganday.

-Har bitta g□ishtni usta pulga teradi. O□g□illaringizga shuni aytib qo□ying.

-Shunaqami? Mening o□g□illarim, ukam, sen o□ylaganchalik ahmoq emas. Ular bunaqa ish qilishmaydi.

-Unda kim? Siz bunaqa jinoyatlarni ochishga ja-a ustasiz-ku?

-Ha, ustaman. Ariza ber, tekshirib, aniqlaymiz.

-Maynavozchiligingizni yig□ishtiring. Mayli, ustaning pulini bermang, lekin nomardligingizni tan oling, ha!

To□lqin ukasiga g□azab bilan tikildi-yu, ammo bitta gapdan qolishga o□zida kuch topdi.

* * *

Kun o□tdi. Kech kirdi. Tun yana o□z hukmini o□tkazishga kirishdi.

Hamma uyquga ketgan onda bezovta ruhlar yana paydo bo□ldilar.

Keyin kunduzi ustalar qayta terib ketgan g□ishtlar turli tomonlarga uloqtirildi...

Tongda esa...

Kechagiday ajablanish bo□lmadi. Gumon ham yo□q edi. Ajablanish va gumon o□rnini g□azab egalladi. Obodxon Sattorni qayrab o□tirmay g□alvani o□zi boshlab qo□ya qoldi. Robiya unga bas kela olmadi. Obodxon To□lqinga ham gap bermadi. G□azab otashida yonayotganlar so□nggi choraga rizo bo□layotgan Oftobxonning deraza ortidan ma'yus qarab turgannini sezishmadi.

Ustalar kelib, ajablanib qarab turishdi-da, yana ish boshlashdi.

Kun o□tib yana kech kirdi. Yana tun hammayoqni g□aflat chodiriga o□radi.

Yana bezovta ruhlar paydo boʻldilar. Bu onda uydan gʻam iskanjasidagi Oftobxon chiqib, ular toʻxtab qoldilar. Oftobxon asta-asta bosib kelib devorga yaqinlashdi. Beixtiyor ravishda ikki gʻishtni koʻchirib tashladi. Bir oz harakatsiz turgach, qoʻyxona tomon yurdi. Uning muddaosini sezgan ruhlar yoʻqini toʻsmoqchi boʻlishdi. Oftobxon devordagi mixqoziqda iligʻliq turgan arqonniqoʻliga oldi.

Bu onda Sattor vahimali tush taʼsirida toʻlgʻonayotgan edi. Bir qarasa, devor bitganmish. Biroq... devor ostida adasi bilan oyisi yotishganmish.

-Sen devorni koʻkragimiz ustidan qurdiring. Ezilib ketyapmiz, - deb ingrarmish oyisi.

-Bunaqada oyingni oʻldirib qoʻyasan, - dermish adasi.

Sattor jonholatda devorni buzayotganmish.

-Bu devoringning narxi qancha, qanchaga tushdi? - dermish onasi.

-Gʻishtga ketgan pul bilan ustaga... - Sattor hisoblab bermoqchi boʻlganida adasi eshitgisi ham kelmasmish.

-Devoringning narxi juda baland. Sen uni akangdan tiriklayin ajralish hisobiga qurdiryapsan. Endi buning yoniga qizingning joni ham qoʻshilyapti. Gʻaflat bosmay, tur, oʻrningdan!

Shunday deb adasi bilan oyisi koʻzdan yoʻqoldi. Ammo bir qora sharpa kelib uni boʻgʻa boshladi...

Bosinqirab baqirayotgan Sattorni Obodxon turtib uygʻotdi.

-Esxonamni chiqarib yubordingiz-a, shunaqayam baqiradimi odam degan. Yonboshlab yoting.

Sattor yonboshiga agʻdarilmay qaddini koʻtarib, oʻtirdi. Hozir koʻrgan tushi taʼsirida boshi garang boʻldi. Teskari oʻgirilib yotib olgan Obodxonni turtib:

-Qizingqani? - deb soʻradi.

-Qaysi biri? - dedi Obodxon uyqusiragan holda.

-Kattasi...

-Uyda uxlayapti, goʻrda boʻlarmidi?

-Nafasing oʻchsin, tur, qara, - Sattor shunday deb uni qattiq turtdi. Obodxon “voyey” deb qoʻydi-yu, turgisi kelmadi. Bundan achchiklangan Sattor endi tizzasi bilan turtgach, erinibgina oʻrnidan turib, qunishganicha ayvonga chiqdi-da, qizlar yotadigan xonaning eshigini ochdi. Sattor beixtiyor unga ergashdi.

Oftobxonning o'qini ochilmagan, bu uning o'qiriga yotmaganidan dalolat edi. Hammadan oldin xonasiga kirib ketgan qiz qayerda bo'lishi mumkin? Er-xotin shunday savol nazari bilan bir-birlariga qarab qolishdi. Shu payt osmon qarsillab mayda-mayda bo'lakchalarga ajralib ketganday tuyuldi. Oftobxonning "agar shu devorni qursangiz o'qimni osaman!" degan alamli gapi osmonu yerni larzaga solib jaranglaganday bo'ldi. Sattor o'qini ham bilmagan holda "Oftob, qizim!" deb baqirib yubordi-da, hovliga otildi. Gap nimada ekanini anglab yetmagan Obodxon havotir bilan unga ergashdi.

Katakdagi xo'roz bezovtalanib ququlab qo'ydi. Atrofga olazarak boqib qizini izlayotgan Sattorga bu bir ishoraday tuyulib qo'yxona tomon qaradi. Bu onda bo'yniga sirtmoq ilgan Oftobxon harakatini tezlatdi - oyog'ini ostidagi kursini tepib yubordi. Ko'yxonada nimaningdir taraklaganini eshitgan Sattor shu tomon yugurdi. Osilib turgan qizini ko'rdi-yu, unquchoklab baland ko'tardi.

-Pichoq olib kel, tez bo'l!-deb baqirdi.

-Voydod, qizimdan ayrilib qoldim!-deb faryod qildi Obodxon.

-Pichoq olib kel, deyaqman!-deb baqirdi Sattor g'azab bilan.

Bu shovqinni eshitgan To'liqin, uning izidan Robiya hovliga yugurib chiqdilar. Sarosimada qolgan Obodxon pichoqning qayerda turishini ham unutib, paypaslanib yurardi. Robiya oshxonadan pichoq olib eriga uzatdi. To'liqin shoshilganicha arqonni kesdi. Oftobxon otasining ko'lida behush yotardi. Obodxon tinmay dod solardi. To'liqin qizning bo'yin tomiriga barmog'ini qo'ydi-da, ungaqarab baqirdi:

-Qizingiz tirik, dodlamang!-Shunday deb Oftobxonning yuziga asta-asta urib qo'ydi:-
Oftobxon, ona qizim, ko'zingni och.

Robiya kosada suv olib chiqib qizning yuziga sepd. Oftobxon seskandi, keyin ko'zini ochdi. Otasiga qarab turdi-da, xo'ng'rab yuborib, xuddi kichkina qizaloq kabi uni quchoqlab oldi. Qo'rquvdan bir oz holi bo'lgan Sattorning ko'zlari ham yoshlandi. Qizini yerga ko'yamay, ko'targanicha uyiga qarab yurdi.

To'liqin bilan Robiya ularning izidan borishni ham, bormaslikni ham bilmay bir oz turdilar. Keyin noiloj holda ergashdilar.

Sattor qizini xonasiga emas, o'zining yotog'iga olib kirib yotqizib ayvonga chiqdi. Robiya darrov choy qo'ydi. Obodxon qizi yonida yig'lab o'tiraverdi. Erining "bo'ldi qil!" deb tergashi ham ta'sir qilmadi. Oftobxon ko'zlarini bir nuqtaga qadab yotaverdi. "Xudo mening o'lishimni istamadi. Dunyoda qiynalib, ezilib yashashimni xohladi..." degan fikr uni tark etmadi.

Sattor ham, To'liqin ham ayvonda jimgina o'tirardilar. Ikkovi ham qizning bu ishiga nima sabab bo'lganini bilolmay hayron edilar. To'g'rirog'ini, aynan o'rtadagi devor sabab ekanini tan olgilar kelmasdi.

Robiya choy damlab, ichkari kirdi. Shirinchoy qilib Oftobxonga ichirmoqchi bo'ldi. Oftobxon avvaliga labini qimtib ichishni istamadi. Robiya "Jon ona qizim, icha qol,

yengillashasan”, deyavergach noiloj ikki qultum ichdi.

Aka-ukaning sukut holatida oqtirishi ancha chozilidi. Toqlin bu yerda oqtirishga hojat yoqligini bilib, ornidan turdi.

-Sattor, bu gap koqchaga chiqmasin, qiz bolaning nomiga isnod boqladi, - dedi ukasining yelkasiga qolini qoyib. Keyin qizlarning xonasi tomon imladi:- ular ham bilishmasin.

Sattor tobelik bilan bosh irqab “ma’qul” ishorasini qildi.

Ularning bu holatini kuzatayotgan biron begona kimsaga “kechagina yovlashgan aka-ukalar shular”, deyilsa ishonmasligi mumkin edi.

Toqlin hali ayvondan chiqmay turib yana bir mo’jiza yuz berdi. Buni avval hovliga qarab oqtirgan Sattor sezdi: hovlida yer silkinganday devor qimirladi. Keyin gishtlar sochila boshladi. Sattor beihtiyor ravishda “Astagfirulloh!” deb yubordi. Toqlin toxtab, hovlidagi manzaradan lol qoldi. Ichkaridagi ovsinlar ham shoshilib chiqishdi. Obodxon buni zilzila deb gumon qilib pichirlaganicha oqtirib oldi. Bir necha soniya davom etgan bu xodisa barchalarini dahshatga solibqoydi.

Tunni shu dahshat chodiri ostida otkazishdi.

Sirtan qaragan kishi har ikki oila kunni odatdagiday boshlayapti, deb oylashi mumkin. Odatdagiday nonushta, odatdagiday ishga, oqishga otlanish... Kattalar tundagi voqea ta’siridan qutilishmagan. Bolalar shovqinni eshitishganu buni devor mashmashasi deb oylashgan. Oftobxonning ozini osmoqchi boqganidan bexabar.

Onasining qiyin-qistovi bilan Oftobxon ornidan turib, birga nonushta qilgan boqldi. Maktabga borishni oylamadi ham. Oynisa sinfdoshlari bilan shahar aylanamiz, deb kelishib koqygan. Uydan “maktabga” deb chiqadiyu markaz tomon yoql oladi.

Oynisa ketgach, Obodxon ham otlana boshladi.

-Adasi, bugun hech yerga bormay qoqya qoling, - deb eriga ozodlik berdi.

-Qayerga borardim, yurishga holim yoq. Senam uyda oqtirsang boqlardi.

-Birrov borib mijozlarimga uchrashmasam boqlmaydi. Boramanu qaytaman. Qizingiz, Xudoga shukur yaxshi. Shirin-shirin gaplardan gaplashib oqtiring.

-Hozir usta keladi, - dedi Sattor keyin devor tomon imladi. - Nima qilamiz?

-Ustangizga uch-toqrt kun dam bera qoling. Boqpti, ketdim.

-Menga qara, toxtasang-chi, muncha shoshasan? - dedi achchiqlanib Sattor.

-Voy, mijozlarim sochlarimni bittalab yulishadi. Gapingiz boqlsa, tezroq ayting.

-Gapimmi? .. Kechasi bilan o'ylab chiqdim... Shu ishingni yig'ishtirib tursangmikin...

-O'ylagan gapingizni qarang! Yig'ishtir, yig'ishtir, deysiz, nima men o'zim uchun yelib yuguryapmanmi? Menga zarilmi shu? Nima qilsam bollaringga deb qilyapman! Erta-indin qizingizga sovchi keladi. Qup-quruq uzatasizmi? Men Italiyaning mebelini tayinlab qo'yanman. Shunga pul kerakmi?

-Italiyaning mebeli bo'lmasa qizing ersiz qoladimi?

-Bilmasangiz, siz jim o'tiravering. Agar qudalarning oldida tilimiz bir qarich uzun bo'lmasa ular qiz bechoraga kun berishmaydi.

-Senam mebersiz keluvding, tiling baribir ikki qarich-ku?

-Adajonisi endi bo'ldi qila qoling, tilimni bekorga qichitmag. Hozir adi-badi aytadigan paytmas. Vaqti kelsa sizam xasratingizni bir etakka to'karsiz, menam.

Obodxon shunday deb chiqib ketayotganida darvoza ostonasida usta bilan mardikorlarga duch keldi. "Akangizning gapi bor, kiraveringlar", dedi-da, shoshilganicha jo'nab qoldi. Usta sochilib yotgan g'ishtlarni ko'rib, to'xtab qoldi. "Yana shu ahvolmi?" degan ma'noda mardikorlar bilan ko'z urishtirib oldi. Sattor chiqib so'rashayotganda:

-Xo'jayin, bu yog'i g'alati bo'lyapti-ku? - deb so'radi.

-Hech g'alati joyi yo'q, - dedi Sattor chaynalib. - Uch-to'rt kun dam olib turasizmi yo boshqa ish olasizmi... ish haqingizni yarmini beraymi?

-Yarmini emas, hammasini beravering. Ranjimang-u, bu yerga boshqa kelmaymiz.

-Nega?

-Bu yerning xosiyati yo'qqa o'xshaydi.

-Bu nima deganingiz? Nega xosiyati bo'lmaydi?

-Bilmadim... ishimning sustligidan ko'nglim g'ashlanayatuvgi. Yana bu ahvol... Tushunmayapman. Imorat g'ishtini terish boshqa-yu, hovlini ikkiga bo'lib, o'rtadan devor olish boshqa ekan.

Usta bilan hisob-kitob qilib, jo'natgach, Sattor hovli o'rtasida karaxt holda turib qoldi. Keyin engashib qo'liga bir g'isht oldi. Huddi uning tarkibini o'rganmoqchi bo'lganday tikildi. Keyin bir chetga qo'ydi. So'ng yana birini oldi. Shu zaylda g'ishtlarni chetga taxlay boshladi. Bir ayvonda Oftobxon adasining harakatini kuzatib turardi. Boshqa ayvonda esa Robiya bilan Nuriddin. Nuriddin onasiga yaqin kelib: "amakimga yordamlashaymi?" deb so'radi. Qaynisining harakatlariga tushunolmayotgan Robiya o'g'lining boshini silab: "hozirmas, keyin", deb qo'ydi. O'n beshtacha g'ishtni taxlagach, Sattorning nafasi qaytib, qaddini rosladi. Keyin uyiga kirib ketdi. Uni ayvonda qarshilagan Oftobxon "Adajon, choy damlaymi?" deb so'radi. Sattor uning ayvondan bir qadam nariga chiqishini istamayotgandi, shu uchun

“yo□q”, deb bosh chayqadi. Oftobxon xonasiga kirib ketdi. Sattor xotini tayinlab ketganiday qizi bilan “shirin-shirin gaplarni” gaplashib o□tira olmadi.

Divandagi yostiqa yonboshladi. Uyqusiz tundan meros charchoq uni o□z hukmiga oldi: mudray boshladi.

Tush ko□rdi: adasi rahmatli ro□parasida ma’yus turganmish:

-O□zing ham qiynalib ketding, bolam, shu zarurmidi senga? - dermish.

-Ayb menda emas, akamning qaysarliklaridan bo□ldi hammasi...

-Uy talashib hech kim baraka topgan emas.

-Talashganim yo□q. Uyni siz menga vasiyat qilgan edingiz?

-Vasiyat qilgan edingiz, deysanmi? Qachon?

-Esingizda yo□qmi? Haligi... oxirgi kuni... xatni akamning qo□llariga bergansiz. Akam u vasiyatnomani atay yo□q qilib yuborganlar. Tag□in ham men indamay kelyapman.

-Adashibsan, o□g□lim. To□g□ri, u vasiyatnoma edi. Ammo sen aytgan ma’noda emas.

-Qanaqa ma’noda?

-O□qisang bilasan.

-Qanaqasiga o□qiyman? Akam yo□qotib tashlaganlar.

-Akanгни ayblama, yo□qotmagan... Akang xatni ko□limdan olgan paytda menga g□arg□ara kelib, shoshib qoldi. Esla: sen suvga chiqqan eding. Akang xatni yostig□im yoniga qo□yganida sen kirding. Bu xatni keyin g□assol javon ustiga olib qo□ygan edi. Men ikkovningning qo□llaringda jon berdim. Shuning o□zi ahil yashashlariga berilgan ishora edi. Senlar buni fahmlamadilaring. Akang xatni unutdi. Sen unutmading. Gumon bilan yuraverding. Xat hali ham o□z uyingda, javonning orqasiga tushib ketgan...

Shunday degach adasi oppoq bulutga aylanib uchib ketganmish...

Biqiniga nimadir botib, Sattor ko□zini ochdi. Qaddini ko□tarib qaradi. Qizchasining o□yinchog□i qolib ketgan ekan. Hozirgi ko□rgan tushidan ajablanib o□tirdi. Keyin turib qizining xonasiga qaradi. Oftobxon karavotida harakatsiz o□tirardi. Eshik ochilganini sezmedi ham. Sattor sharpa chiqarmay iziga qaytdi. Hovliga ko□zi tushdi. Hali boshlagan ishini Nuriddin davom ettirayotganini ko□rib g□ashlandi “Qo□y, hoy bola!” deb baqirmoqchi bo□ldi. Lekin ovoz berishga ham holi yo□qday tuyuldi. Yotog□iga kirdi-da, javonni endi ko□rayotganday sinchiklab qaradi.

Ayrim ayollar uydagi anjomlar joyini yilda bir o□zgartirib turmasa siqilib ketveradi. Obodxonda bunaqa fazilat yo□q. Kelin bo□lib tushganida javon shu yerga qo□yilganicha joyidan jildirilgan emas.

Shavkat oqirib qolganida To'liqin "yolg'iz yotmasinlar" deb uni o'zining uyiga ko'chirgan edi. Oradan bir oy o'tib Obodxon "adangizni akangizning uyidan olib chiqaylik, mahalla gap-so'z qilyapti. Ertaga o'tsalar, "kichik o'g'li qaramagan, degan malomatga qolasiz", deb xarxasha qila boshladi. Sattorga xotining bu mehribonligi ma'qul kelib, akasi bilan maslahatlashdi. To'liqin otasini jildirib, bezovta qilgisi kelmasa-da, rozi bo'ldi. Rozi bo'ldi-yu, Robiyadan: "Endi mahalla nima deydi? Otasiga qaray olmasdan ukasinikiga chiqarib tashlabdi, degan isnodda yuramizmi?"- degan gapni eshitib, pushaymon bo'ldi. Bu xarxashani boshlagan Obodxon ham pushaymon edi. Aslida uning mehribonchiligi pardasi ortida yagona merosxo'rlik da'vosi yashiringan edi. Uy mojarosi chiqqanda "ota-onaga kenjasi qaragan" degan gapdan umidvor edi. Bir hushdan ketib, bir o'ziga kelib yotgan qaynotasi uning mo'ljalicha bir haftaga qolmay uzilishi kerak edi. Pushaymoni shundaki, bemor shu ahvolidagi yana to'rt oy yashadi.

Sattor bu gaplardan bexabar edi.

Adasi tamshangan paytda labini ho'llash uchun piyolada suv yo'q ekan, tashqariga chiqqan edi.

Akasining qo'lida xat ko'rgani esida.

Adasi tildan qolgan edi. Labini ho'lladilar. Keyin...

Xatni qayerga qo'ygani yodida yo'q.

Nahot hozir tushida ko'rgani rost bo'lsa?

Sattor javonning orqasiga qarashga urindi. Hech nima ko'rolmadi. Keyin javonni siljitmoqchi bo'ldi. Kuchi yetmadi. Bir oz nafas rostladi-da, jahd bilan ishga kirishdi. Ancha urinishdan keyin javon salgina siljidi. Shunda javon bilan devor oralig'ida oq narsaga ko'zi tushib yanada jahd bilan urindi. Nihoyat qo'l sig'adigan darajada siljitgach, chang bosib, rangini yo'qotayozgan oq xaltildni oldi. Yelimi qurib ketgani uchun darrov ochildi. Ichidan olgan qog'ozdagi adasining dastxatini tanib ko'z oldi qorong'ilashdi. Devorga suyanib qoldi. Bir oz o'ziga kelgach, o'qiy boshladi:

"Ota vafot etib, ikki o'g'liga bir qopgina bug'doy meros qolibdi. Aka-uka bu merosni teng ikkiga bo'lishibdi. Kechqurun kenja o'g'ilning uyqusi qochib, o'ylanibdi:"teppa-teng bo'lishganimiz insofdan emas. Akamning oilasi bor. Ro'zg'or tebratishiga yarim qop bug'doy yetmaydi-ku? Men yolg'izman, qornimni bir amallab to'yg'azib olarman". Shunday deb u o'rnidan

turibdi-yu, tashqariga chiqib, o'zining ulushidan akasining qopiga solib qo'yibdi. O'sha kecha akaning ham uyqusi qochibdi. U ham o'ylabdi: "Men noinsoflik qildim. Ukam hali uylanishi kerak, o'zini tutib olishi lozim. Mening bollarimga Xudoning o'zi rizq berar", degan qarorda chiqib o'zining bug'doyidan ukasining qopiga solib qo'yibdi. Bu hol har kecha takrorlanaveribdi. Kun o'taverarmishu bug'doy sira kamaymashdi. Bu mo'jizadan ajablangan aka-ukalar donishmandga borib, undan buning sababini so'ragan ekanlar, donishmand "to'g'risini aytinglar, nima

qilardinglar?” debdi. Ular qilgan ishlarini yashirmay aytishibdi. Shunda donishmand: “xonadoningizdagi barakaning sababi - bir-birlaringizga boʻlgan mehr-muruvvatda”, degan ekan.

Bolalarim, men sizlarga katta boylik qoldirmayapman. Aqlim yetganicha toʻplaganim - ilm qoldiryapman. Unga xiyonat qilmang. Yana oʻqiganingiz shu rivoyatni ham ikkovingiz meros oʻrnida qabul qiling. Qissadan hissa chiqarish har biringizning zehningizga bogʻliq...”

Sattorning oyoqlari titray boshladi. Devorga suyanganicha holsizlanib oʻtirdi. Xatni yana bir marta oʻqidi...

Yotoqda havo yetishmay ayvonga chiqdi. Shu payt tashqarida Robiyaning ovozi keldi:

-Nuriddin, qayerdasan, bolam, nima qilyapsan?

-Gʻisht taxlayapman, oyi...

-Sen tegmagin, bolam, ular juda ogʻir, oyogʻingga tushib ketadi.

-Ogʻirmas, oyi...

Ona-bolaning gaplarini eshitib Sattorning yuragi hapriqib ketdi. Nazarida gapirayotgan Robiya emas, oʻzining onasi edi. Javob berayotgan jiyani Nuriddin emas, balki oʻzi edi. Necha yillar avval uy qurilayotganida onasi shunday chaqirgan edi:

-Sattorjon, bolam. Nima qilyapsan?

-Gʻisht tashiyapman oyijon.

-Sen tashimagin bolam, ogʻir-ku?

-Ogʻirmas, men katta bolaman-ku, ana, akam ham tashiyaptilar...

Sattorning koʻzlari yoshlanib deraza yoniga keldi. Nuriddin oʻgirilib, amakisini koʻrdi-yu, “urishib bermasmikinlar” degan havotirda unga qarab qoldi. Sattor unga qarab maʼyusgina jilmaydi. Nuriddin unga javoban quvonch bilan kulib qoʻydi-da, ishini davom ettirdi.

Mijozlariga tezgina uchrashib keladigan Obodxondan peshinda ham darak boʻlmadi. Oftobxon ovqat isitdi. Ota-bola tamaddi qildilar. Bu orada avval Bahriddin keyin Oynisa ham kelishdi. Oftobxon bilan Oynisa imtixonga tayyorlanish bahonasida xonasiga kirib ketgach, Sattor ham bir pas dam olish istagiga yotogʻiga kirdi.

Imtixonga tayyorlashi lozim boʻlgan kitoblar ochilmadi ham. Bir-biriga sirdosh boʻla olmagan opa-singilning gaplari bir-biriga qovushmadi. Oftobxon siqilib, ayvonga chiqdi. Shu payt Bahriddinning xonasidan ajib bir kuy taraldi. Oftobxon berilib tingladi. Kuy uni sehladi. Oʻrnidan turib hovliga chiqdi. Bir oz ikkilanib turdi-da, amakisining uyi tomon yurdi. Qizning harakatlarini kuzatib turgan Robiya uni ayvonda quchoq ochib kutib oldi.

Oqtirishga taklif qilgan edi, Oftobxon unamadi.

-Yangi kuymi? - deb soqradi.

-Yangi, - dedi Robiya.

Bu onda kuy tinib, ichkaridan Bahriddinning hirgoyisi eshitildi:

Hirgoyi tugab, yana nayning nolasi eshitildi. Robiya bilan Oftobxon bir-birlariga qaradilar. Ikkovlarining koqlaridan yosh oqayotgan edi.

Badiiy adabiyotdagi an'anaga xilof ish tutib bayonimizni shunday toxtatamiz, qahramonlarimizning keyingi takdiridan sizlarni ogoh qilmaymiz. Bu yumushni, ya'nikim, asarning xulosasini ozingizga havola etamiz. Aka-uka yuzkoqmas boqilib ketadimi yo Oftobxonning harakati tufayli koqlari ochiladimi, ozingiz hal qiling. Ehtimol devorning qurib bitkazilgani durustdir. Ehtimol Bahriddin tez kunlarda shuhratli san'atkorlar qatoriga kirib, badavlat boqilib, alohida uy qurib chiqib ketar? Ehtimol insofga kirmay, iblis yetagida yuruvchi Obodxonning umri xorlik bilan tugar? Har holda biz bunday yakunni istamas edik. Alloh barcha bandalariga hidoyat bersin va umrning xorlik bilan tugashidan asrasin.

Aziz va muhtaram kitobxon, bu bayon sizga biron yangilik bermagan boqishi ham mumkin. Chunki bu kabi voqealarni, hatto bundan battar voqealarni hayotda uchratib turamiz.

Oqylaymiz:

Bu dunyoda yonma-yon yashashni xohlamagan aka-ukalar, opa-singillar doqzaxda qovushmoqlikni istaydilarimi? Qarindoshlik rishtalarini uzganliklari uchun doqzax otashlari kutayotganini sezmaydilarimi? Bir-birlarining issiq yuzlarini koqmoqdan hazar qilganlar bir-birlarining doqzax olovida kuyib faryod chekayotganlarini tomosha qilgilari keladimi?

Alloh! Alloh!

Ularga hidoyat ber.

Vassalom!

Allohning marhamati ila siz bilan gqoyibona suhbat qurdik, Oqziga shukr. Xatolarimiz uchun tavbalar qilamiz, siz azizlar ham kechiring. Tangri taoloning yana xayrli fikrlar berishidan umidvormiz. Yangi asar bahonasida uchrasharmiz, insha Alloh. Assalomu alaykum va rohmatulillahi va barakatuh.